**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM VAZIRLIGI**

**A. QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI**

“Tasdiqlayman”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_______________ N. Alimov
“______” __________ 2015 yil

# «FALSAFA»

***fani bo‘yicha***

## O‘QUV-USLUBIY MAJMUA



**2015-2016 O’QUV YILI**

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 21 oktyabrdagi “396” – sonli va 2011yil 17 sentyabrdagi “392” buyrug‘larii bilan tasdiqlangan falsafa fanidan namunaviy dasturlar asosida tuzilgan bo’lib, majmuada falsafaning bahs mavzulari, jamiyatdagi o‘rni va asosiy vazifalari, falsafa tarixi, dunyoni falsafiy tushunish, falsafiy metodlar, qonunlar va kategoriyalar, bilish falsafasi, ijtimoiy falsafa bo‘limlari bo‘yicha ma’ruza, seminar mavzulari, «Falsafa» fanini o’qitish jarayonini tartibga soladigan o’quv me’yoriy hujjatlar, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi grifini olgan o‘quv adabiyotlari ro’yhati, ma’ruza matnlari, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarining ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o‘tkazish va qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyanomalar, testlar, yozma ish va og‘zaki so‘rov variantlari, umumiy savollar, mustaqil ish (referat) mavzulari va ularni bajarish bo‘yicha tavsiyalar, baholash me’zonlari va reyting tizimi, shuningdek, falsfiy atamalar izohli lo’g’ati keltirilgan bo’lib Falsafa fani professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

**Falsafa fanlari doktori, B.M.Ochilovaning umumiy tahriri ostida**

Tuzuvchilar: f.f.n., dots. A.Hotamov
k. o‘qt., B. Toshboyev

Taqrizchilar: f.f.d., prof. J. Yaxshilikov
f.f.n., dots. M. Saidov

## MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| **1- QISM. OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI TASDIQLAGAN O‘QUV–METODIK HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR** | |
| **Kirish……………………………………………………………………….** | **4** |
| **1.1. O‘quv–me’yoriy hujjatlar** | |
| **1.1.1. Davlat ta’lim standarti ……………………………………………**<br>**1.1.2. O‘quv rejasi …………………………………………………………..**<br>**1.1.3. Namunaviy dastur……………………………………………………**<br>**1.1.4. Moddiy–texnik va o‘quv–metodik ta’minotga qo‘yiladigan talablar……………………………………………………………………** | **5**<br>**9**<br>**12**<br><br>**28** |
| **1.2. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi grifini olgan o‘quv adabiyotlar** | |
| **1.2.1. Rahbariy adabiyotlar…………………………………………………**<br>**1.2.2. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar……………………………………….**<br>**1.2.3. Qo’shimcha adabiyotlar……………………………………………..**<br>**1.2.4. Internet saytlari………………………………………………………..** | **31**<br>**31**<br>**32**<br>**33** |
| **2- QISM. JORIY O‘QUV-METODIK TA’MINOT** | |
| **2.1. Joriy o‘quv-me’yoriy hujjatlar** | |
| **2.1.1. Ishchi dastur…...…………………………………………………….**<br>**2.1.2. Ishchi o‘quv reja…. ………………………………………………**<br>**2.1.3. Kalendar tematik reja ……………………………………………** | **35**<br>**57**<br>**58** |
| **2.2. Joriy o‘quv–metodik ta’minot** | |
| **2.2.1. Ma’ruzalar matni ……………………………………………………**<br>**2.2.2. Laboratoriya mashg‘ulotlarining ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o‘tkazish va qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar…**<br>**2.2.3. J.N., O.N., YA.N. savolnomalari (intellektual tizim, testlar, yozma ish va og‘zaki so‘rov variantlari, umumiy savollar)……………..**<br>**2.2.4. Mustaqil ish (referat mavzu)larni bajarish bo‘yicha tavsiyalar …**<br>**2.2.5. Fan bo’yicha testlar…………..…………………………………**<br>**2.2.6. Baholash me’zonlari ………………………………………………**<br>**2.2.7. Falsafiy atamalar izohli lug‘ati………………………………………** | **61**<br><br>**174**<br><br>**300**<br>**308**<br>**315**<br>**328**<br>**330** |
| | |

## KIRISH

Borliqdagi narsa va hodisalarning eng umumiy qonuniyatlari va hususiyatlarini o‘rganuvchi falsafa fani asoslarini bilish barcha mutahasisliklar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun zarur va ahamiyatlidir. Chunki falsafa avvalo, talabalarning dunyoqarashini shakllantirib, ularning fikrlash, muloqotga kirisha olish madaniyatlarini yuksaltiradi. Ikkinchidan, falsafiy bilimlarni egallash, ayrimlik va umumiylik birligi qonuniga muofiq talabalarga o‘z mutaxasisliklarini chuqurroq va kengroq egallashlariga yordam beradi. Ya’ni, o‘zi shug‘ullanayotgan masalalar bo‘yicha nazariy hulosalar chiqarishga ko‘maklashadi, tajriba yoki boshqa bilish jarayonida to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtira olish malakasini shakllantiradi. Uchunchidan, falsafa talabalarda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalashda, ular ongida milliylik va umuminsoniylik birligi tamoyilini qaror toptirish omili va vositasi bo‘lib hizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, - “falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam- medidsina yoki ta’lim, san’at yoki madaniyat sohasi vakili bo‘ladimi bundan qat’iy nazar- hayotning, o‘z kasbining ma’no-mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur hulosalar chiqara olishi kerak. Shu bois tarixchi bo‘lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo‘lish darkor”.[1]

Ushbu o’quv-uslubiy majmuaning tarkibi ikki bo’limdan iborat: “O’quv faniga kirish” hamda “reja-topshiriq va o’quv-uslubiy materiallar”.

Birinchi bo’limda siz o’quv fani haqidagi dastlabki tasavvo’rni beruvchi materiallar bilan tanishasiz: dolzarbligi, o’quv fanining maqsad va vazifalari, mashg’ulotning mavzusi va shakllari bo’yicha o’quv soatlarning taqsimoti, foydalaniladigan adabiyotlar va mustaqil ishlash uchun mavzular ro’yxati hamda yakuniy nazorat savollari.

Ikkinchi bo’limda reja-topshiriq va har bir dars uchun o’quv-uslubiy materiallar, qisman o’quv-vizual materiallar, o’z-o’zini nazorat savollari. uslubiy tavsiyalar, o’quv topshiriqlar, ta’limiy o’yinlar takdim etilgan.

Talabalar tomonidan topshiriqlarni o’z vaqtida bajarilishi o’quv fanini o’rganishda tizimli mustaqil ishni ta’minlaydi, olgan bilimlari va ma’lum reyting ballarini olishi muntazam o’z-o’zini nazoratini yuzaga keltiradi, o’quv-uslubiy va ma’lumot-axborot materiallari ularni to’g’ri bajarishga yo'rdam beradi.

O’quv fanining mavzulari bir-biriga bog’liq bo’lganligi uchun mavzularni o’rganishda mantiqiy ketma-ketlik mavjud. Shuning uchun yangi mavzuga dastlabki mavzu materiallarini o’zlashtirish asosida o’tiladl.

---

[1] Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro’yobga chiqarish bugungi kunning ustivor vazifasidir.// Inson, uning huquq va erkinliklari –oliy qadriyat. T.:”O’zbekiston”,2006. 117-bet.

# 1.1. **O‘QUV–ME’YORIY HUJJATLAR**

1.1.1. Davlat ta’lim standarti

**O‘ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI**

**O‘zbekiston uzluksiz ta’limining
Davlat ta’lim standartlari**

**Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti**

***5111600-Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi*** **ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan**

**TALABLAR**

**Rasmiy nashr**

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

**Toshkent**

## SO‘Z BOSHI

1 ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi;
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

2 TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2011 yil «16» sentyabrdagi 387- sonli buyrug‘i asosida.

*O‘zbekiston Respublikasi hududida mazkur standartni amalga kiritilishi (amal qilishining to‘xtatilishi) va unga o‘zgartirishlar kiritilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar «O‘zstandart» agentligi tomonidan nashr etiluvchi ko‘rsatkichlarda chop etiladi.*

**Mazkur standart O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir** **O‘ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI**

---

**O‘zbekiston uzluksiz ta’limining**
**Davlat ta’lim standartlari**
**Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti**
***5111600-Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan**
**TALABLAR**

**Gosudarstvennые obrazovatelnые standartы**
**neprerыvnogo obrazovaniya Uzbekistana**
**Gosudarstvennыy obrazovatelnыy standart**
**vыsshego obrazovaniya**
**TREBOVANIYA**
**k neobxodimomu soderjaniyu i urovnyu**
**podgotovlennosti bakalavra po napravleniyu**
***5111600– Natsionalnaya ideya, osnovы duxovnosti i pravovoe obrazovanie***
**State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan**
**State Educational Standards of Higher Education**
**REQUIREMENTS**
**necessary content and level of Bachelors in *5111600 – National Idea, the principles of spirituality and science of law***

---

**Amal qilish muddati 200_y. «____» ________dan**
**200_y. «____» ________gacha**

## I Qo‘llanish sohasi

1.1 Oliy ta’limning mazkur davlat ta’lim standarti (OT DTS) *5111600– Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlashda asosiy ta’lim dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun majburiy talablar majmuini ifodalaydi.

1.2 Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda Oliy ta’lim muassasasi uning asosiy ta’lim dasturini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.3 OT DTSning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi va tayyorgarlik darajasi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda asosiy ta’lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilashga mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchi jamoalari;

- ta’lim yo‘nalishining asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlar va talabalar;

- oliy ta’lim muassasalarining o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi va dekanat);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasining baholashnishini amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

-oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- ta’lim yo‘nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan abiturientlar va boshqa manfaatdorlar.

*5111600-Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi quyidagi umumiy malakaviy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

a) umumiy malakaviy kompetensiyalar:

-dunyoqarash xarakteridagi sistemali bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

-Vatan tarixini bilishi, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi hamda ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faolitida ularni hisobga ola bilishi;

- sog‘lom hayot tarzini yuritish zaruriyati bo‘yicha ilmiy tasavvur va e’tiqodga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini chiniqtirish *ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim*;

-axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undash foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

# 1.1.2. O‘QUV REJASI

A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti

TASDIQLAYMAN
Institut rektori
________prof. A.Xolbekov

2015 - yil «__»________

m.o‘.

Ta’lim yo‘nalishi:

*5111600 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi*

Akademik daraja - BAKALAVR
O‘qish muddati - 4 yil
Ta’lim shakli - kunduzgi

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **Nazariy va amaliy ta’lim** | **A** | **Attestasiyalar** | **M** | **Malakaviy Amaliyot** | **D** | **Davlat attestasiyasi** | **B** | **Bitiruv malakaviy ishi** | **T** | **Ta’til** |

**II. O‘QUV REJASI**

| **T/r** | **O‘quv fanlari, integrallashgan kurslar va bloklarining nomlari** | **Talabaning o‘quv yuklamasi (soatlarda)** | | | | | | | | | **Soatlarning kurs, semestr va haftalar bo‘yicha taqsimoti** | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Umumiy yuklamaning hajmi** | | **Auditoriya mashg’ulotlari (soatlarda)** | | | | | | **Mustaqil Ta’lim** | **1-kurs** | | **2-kurs** | | **3-kurs** | | **4-kurs** | |
| | | | | **Jami** | **Ma’ruza** | **Amaliy** | **Laboratoriya** | **Seminar** | **Kurs loyihasi (ishi)** | | **Kurslardagi haftalar soni** | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | **38** | | **38** | | **38** | | **22** | |
| | | | | | | | | | | | **Semestrlar** | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | **7** | **8** |
| | | | | | | | | | | | **Semestrdagi auditoriya mashg’ulotlari haftalarining soni** | | | | | | | |
| | | **Soat** | **%** | | | | | | | | **19** | **19** | **19** | **19** | **19** | **19** | **19** | **3** |
| **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | **7** | **8** | **9** | **10** | **11** | **12** | **13** | **14** | **15** | **16** | **17** | **18** | **19** |
| **1.00.** | **Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar** | **14** | **23,20** | **1038** | **272** | **482** | | **284** | | **666** | **10** | **10** | **9** | **9** | **6** | **7** | **4** | **6** |
| 1.01 | O‘zbekiston tarixi | 116 | | 58 | 28 | | | 30 | | 58 | 3 | | | | | | | |
| 1.02 | Huquqshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi | 116 | | 58 | 28 | | | 30 | | 58 | | 3 | | | | | | |
| 1.03 | Falsafa (etika.estetika, mantiq) | 148 | | 96 | 48 | | | 48 | | 52 | | | 2 | 3 | | | | |
| 1.04 | Ma’naviyat asoslari. Dinshunoslik | 92 | | 58 | 28 | | | 30 | | 34 | | | 3 | | | | | |
| 1.05 | Madaniyatshunoslik | 56 | | 38 | 18 | | | 20 | | 18 | | | | 2 | | | | |
| 1.06 | Iqtisodiyot nazariyasi | 116 | | 64 | 32 | | | 32 | | 52 | | | | | 2 | 2 | | |
| 1.07 | Sosiologiya | 56 | | 38 | 18 | | | 20 | | 18 | | | | | 2 | | | |
| 1.08 | Pedagogika. Psixologiya | 120 | | 52 | 26 | | | 26 | | 68 | | | | | | 2 | | |
| 1.09 | Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar | 60 | | 38 | 18 | | | 20 | | 22 | | | | | | | 2 | |
| 1.10 | Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti | 112 | | 56 | 28 | | | 28 | | 56 | | | | | | | 2 | 6 |
| 1.11 | Rus (o‘zbek) tili | 116 | | 76 | | 76 | | | | 40 | 2 | 2 | | | | | | |
| 1.12 | CHet tili | 360 | | 254 | | 254 | | | | 106 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | | |
| 1.13 | Jismoniy madaniyat va sport* | 236 | | 152 | | 152 | | | | 84 | 2 | 2 | 2 | 2 | | | | |
| **2.00.** | **Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar** | **786** | **10,** | **436** | **176** | **140** | **100** | **20** | | **350** | **12** | **8** | | | | | | **19** |
| 2.01 | Oliy matematika asoslari | 68 | | 38 | 18 | 20 | | | | 30 | 2 | | | | | | | |
| 2.02 | **Informatika va axborot texnologiyalari** | 206 | | 114 | 30 | 24 | 60 | | | 92 | 6 | | | | | | | |
| 2.03 | **YOsh fiziologiyasi va gigiena** | | | 38 | 18 | 10 | 10 | | | 32 | 2 | | | | | | | |
| 2.04 | Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish | 136 | | 76 | 36 | 20 | 20 | | | 60 | | 4 | | | | | | |
| 2.05 | **Geografiya** | 68 | | 38 | 18 | | | 20 | | 30 | 2 | | | | | | | |
| 2.06 | Xozirgi zamon tabiiy fanlar konsepsiyasi | 68 | | 38 | 18 | 20 | | | | 30 | | 2 | | | | | | |
| 2.07 | T.f.Multimediya texnologiyalari (4 sem) Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi (8 sem) | 1 | | 94 | 38 | 46 | 10 | | | 76 | | 2 | | | | | | 19 |
| **3.00** | **Umumkasbiy fanlar** | **3672** | **50,0** | **2012** | **9** | **44** | **50** | **948** | | **1660** | | **8** | **21** | **21** | **24** | **23** | **8** | |
| | ***Psixologiya va pedagogika kursi*** | 788 | | 436 | 194 | 24 | 50 | 168 | | 352 | | 4 | 4 | **4** | **3** | **8** | | |
| 3.01 | Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti | 240 | | 132 | 60 | | | 72 | | 108 | | 4 | | | 3 | | | |
| 3.02 | Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti | 276 | | 152 | | | 40 | 42 | | 124 | | | 4 | 4 | | | | |
| 3.03 | **Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi fanlarini o‘qitish metodikasi** | 272 | | 152 | 64 | 24 | 10 | 54 | 6 | 120 | | | | | | 8 | | |
| | Milliy g’oya kursi | **748** | | **418** | **208** | | | **210** | | **330** | | | **4** | **2** | **8** | **8** | | |
| 3.04 | **Falsafaning umumnazariy masalalari** | 204 | | 114 | 56 | | | 58 | | 90 | | | 4 | 2 | | | | |
| 3.05 | **Ijtimoiy falsafa** | 136 | | 76 | 38 | | | 38 | | 60 | | | | | 4 | | | |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3.06 | **G'oyalar falsafasi.** | 272 | | 152 | 76 | | | 76 | | 120 | | | | | 4 | 4 | | |
| 3.07 | **Qadriyatlar falsafasi** | 136 | | 76 | 38 | | | 38 | | 60 | | | | | | 4 | | |
| | Ma'naviyat asoslari kursi | **782** | | **436** | **218** | | | **218** | | **346** | | **4** | **6** | **8** | **7** | | | |
| 3.08 | **Ma'naviyatshunoslik** | 2 | | 152 | 76 | | | 76 | | 118 | | | 6 | 4 | | | | |
| 3.09 | **O'zbek adabiyoti** | 136 | | 76 | 38 | | | 38 | | 60 | | 4 | | | | | | |
| 3.10 | **Dunyo dinlar tarixi** | 136 | | 76 | 38 | | | 38 | | 60 | | | | 4 | | | | |
| 3.11 | **Etnomadaniyat** | 136 | | 76 | 38 | | | 38 | | 60 | | | | | 4 | | | |
| 3.12 | **Globallashuv asoslari** | 104 | | 56 | 28 | | | 28 | | 48 | | | | | 3 | | | |
| | Huquq ta'limi kursi | **1354** | | **722** | **350** | **20** | | **352** | | **632** | | | **7** | **7** | **6** | **7** | **8** | |
| 3.13 | **Davlat va huquq nazariyasi va tarixi** | 218 | | 114 | 56 | | | 58 | | 104 | | | 5 | | | | | |
| 3.14 | **Xalkaro xukuk.Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy xukuki** | 140 | | 76 | 38 | | | 38 | | 64 | | | | | 4 | | | |
| 3.15 | **Ekologiya huquqi** | 72 | | 38 | 18 | | | 20 | | 34 | | | | 2 | | | | |
| 3.16 | **Ma'muriy huquq** | 72 | | 38 | 18 | | | 20 | | 34 | | | | 2 | | | | |
| 3.17 | **Mehnat huquqi** | 72 | | 38 | 18 | | | 20 | | 34 | | | | | 2 | | | |
| 3.18 | **Jinoyat huquqi** | 72 | | 38 | 18 | | | 20 | | 34 | | | | | | 2 | | |
| 3.19 | **Fuqarolik huquqi. Oila huquqi** | 280 | | 152 | 76 | | | 76 | 7 | 128 | | | | | | 3 | 4 | |
| 3.20 | **T.F. Moliya huquqi. Soliq huquqi** | 214 | | 114 | 54 | 10 | | 50 | | 100 | | | 2 | 3 | | | | |
| 3.21 | **T.f. Jaxon siyosiy mafkuroviy ta'limotlar tarixi** | 214 | | 114 | 56 | 10 | | 48 | | 100 | | | | | | 2 | **4** | |
| 4.00 | Ixtisoslik fanlari | 732 | 10,0 | 366 | 174 | | | 192 | 7 | 366 | | | | | | | 18 | 5 |
| **4.01** | **Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari** | **152** | | **76** | **38** | | | **38** | | **76** | | | | | | | **4** | |
| **4.02** | **Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi** | **152** | | **76** | **38** | | | **38** | | **76** | | | | | | | **4** | |
| **4.03** | **Geosiyosat asoslari** | **152** | | **76** | **38** | | | **38** | | **76** | | | | | | | **4** | |
| **4.04** | **Inson huquqlari** | **152** | | **76** | **38** | | | **38** | | **76** | | | | | | | **4** | |
| 4.05 | **Notiqlik san'ati va nutq madaniyati** | **76** | | **38** | **10** | | | **28** | | **38** | | | | | | | **2** | |
| **4.06** | **T.F. Huquqiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti** | **48** | | **24** | **12** | | | **12** | | **24** | | | | | | | | **5** |
| 5.00 | Qo'shimcha fanlar | 450 | 6,13 | 228 | 80 | 74 | | 74 | | 222 | 8 | 4 | | | | | | |
| **5.01** | **Xozirgi davrda ijtimoiy-falsafiy g'oyalar rivoji** | **450** | | **228** | **80** | **74** | | **74** | | **222** | **8** | **4** | | | | | | |
| | JAMI | 7344 | 100 | 4080 | 1672 | 740 | 150 | 1518 | 3 | 3264 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 | 30 |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Malakaviy amaliyot | 810 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Bitiruv malakaviy ishi | 216 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Joriy va davlat attestasiyasi | 918 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | JAMI | 1944 | | | | | | | | | | | | | | | | |
| | HAMMASI: | 9288 | | | | | | | | | | | | | | | | |

Davlat attestatsiyasi:

1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan biri;
2. CHet tili;
3. Bitiruv malakaviy ishi;

O‘quv ishlari prorektori: prof. N.O. Alimov
O‘quv bo‘limi boshlig‘i: dots. F.Xaitov.
Fakultet dekani: v/b. U.To’pchiyev

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

Рўйхатга олинди

№ БД-1.03

2011 йил "8" 11

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2011 йил 17 сентябрдаги 392-сон буйруғи билан тасдиқланган

TAJRIBA-SINOV

# Ф А Л С А Ф А
## фанидан намунавий ДАСТУР

(бакалавр йўналиши учун)

**ТОШКЕНТ – 2011**

Мазкур намунавий дастур Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашнинг 2011 йил 9 сентябрдаги 3-сон мажлис баёни билан тажрибавий дастур сифатида маъқулланган.

Ушбу дастур "Фалсафа" фанидан бакалаврнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлари мазмунига қўйиладиган талаблар асосида тайёрланган.

Тажрибавий дастурни келгусида тўлдирилган ва бойитилган ҳолда чоп этиш заруратини ҳисобга олиб, фикр-мулоҳазаларингизни қуйидаги манзилга юборишингизни сўраймиз:

**Тошкент шаҳар, 2-Чимбой кўчаси 96-уй, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги "Маънавий-ахлоқий тарбия" бошқармаси, тел: 246-10-58, 246-10-54.**

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилган.

**Тузувчи:**

Шермухамедова Н.А. – фалсафа фанлари доктори, профессор (ЎзМУ)

**Тақризчилар:**

– фалсафа фанлари доктори, профессор. (ТошИУ)

Раматов Ж – фалсафа фанлари доктори, профессор (ТТЙМИ)
~~Тўхтаев Х.П – фал~~сафа фанлари номзоди, доцент (ЎзМУ)

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Илмий-услубий кенгаши томонидан тавсия этилган (2011 йил 19 августдаги 1-сон баённома).

# КИРИШ

Мустақилликнинг тараққиёт йўли мамлакатимизда фан ривожи учун кенг имкониятлар яратди. Фаннинг барча соҳаларидаги каби фалсафада туб ўзгаришлар содир бўлди. Зеро, энг қадимий ривожланиш тарихига эга бўлган фалсафа ўзида турли даврларнинг ижтимоий-сиёсий қарашларини мужассамлаштириб, воқеа ва ҳодисаларнинг моҳиятини англашни, нафақат англаш, балки уларга муносабат билдиришни шакллантиради. Модомики шундай экан, бугунги кунда фалсафани янада ривожлантириш, ёш авлодни фалсафий дунёқараш, замонавий фан ютуқларига асосланган фалсафий билимлар билан қуроллантириш муҳим аҳамият касб этади. Чунки Президент Ислом Каримов таъкидлаганидек: "Бугунги замонда мафкура полигонлари ядро полигонларидан ҳам кўпроқ кучга эга"[1].

Фалсафий тафаккурнинг ижтимоий-сиёсий асослари ҳар қандай жамият халқининг ижтимоий онгини ўзгартиришга, унинг пировард мақсадларига хизмат қилишга қаратилган.

Бугунги кунда фалсафий тафаккурнинг янгиланиши нафақат умумий маънавий муҳитнинг, балки ҳар бир жамият аъзосининг ижтимоий қиёфаси, руҳий дунёси, мақсад ва эҳтиёжларининг ўзгариши ҳамдир. Президент Ислом Каримов таъкидлаганларидек: "Фалсафа барча фанларнинг отаси. Фалсафани билмайдиган одам - медицина ёки таълим, санъат ёки маданият соҳаси вакили бўладими, бундан қатъий назар – ҳаётнинг, ўз касбининг маъно мазмунини яхши тушунмайди. Мисол учун, тарихни таҳлил қилиш учун ҳар бир воқеа ва жараёнга фалсафий қараш,уларни умумлаштирган ҳолда зарур хулосалар чиқара олиш керак. Шу боис тарихчи бўлиш учун фалсафий тафаккур қобилиятига эга бўлиш даркор"[2].

Шундагина инсон буюк алломалар орзу қилган фозил одамларнинг комил фазилатларини шакллантириш ва такомиллаштиришга муносиб ҳисса қўша олади.

"Фалсафа" фани барча замонларда ва мамлакатларда ҳамма университетлар ва бошқа олий ўқув юртларида ўрганиш учун мажбурий саналган фундаментал фанлардан бири бўлган ва шундай бўлиб қолмоқда.

Мазкур фанни моҳиятини ўрганишимиз жараёнида, унинг ўзига хос хусусиятларини аниқлашимиз ва фалсафа инсон ўз-ўзини ва ўзини қуршаган дунёни англаб етишида қандай рол ўйнашини тушуна бошлаймиз. Зеро, Президент Ислом Каримов таъкидлаганидек: "Ўзликни англаш, миллий онг ва тафаккурнинг ифодаси, авлодлар ўртасидаги руҳий-маънавий боғлиқлик тил орқали намоён бўлади"[3]. "Бир сўз билан айтганда, ёшларимизни фалсафий тафаккур билан қуроллантириш" - давр талаби. Нега деганда, бугунги замонда ҳар қандай рақиб ва мухолиф билан баҳсга киришиш учун унинг қарашлари ва ғояси, фалсафасини кўпроқ билишимиз, керак бўлса, унинг ўзидан ҳам пухтароқ эгаллашимиз лозим"[4].

1 Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. –Б.113.

2 Каримов И.А.Ёшларга ишонч билдириш, уларнинг ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш-бугунги куннниг устувор вазифасидир.//Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари- олий қадрият -Т.: Ўзбекистон, 2006.-Б. 117

Шу боис фалсафага яхлит муносабатни унда кўтарилган масалаларнинг теранроқ ва тўлиқроқ талқини мазкур дастур мазмунида

ифодалашга ҳаракат қилинган.

Мазкур дастурнинг биринчи бўлимида фалсафанинг моҳияти, ривожланишининг асосий босқичлари ва йўналиши ҳақидаги масалаларга эътибор қаратилган. Иккинчи бўлимдан онтология – борлиқ фалсафаси, фалсафада субстанция ва материя муаммоси, ҳаракат ва ривожланиш, макон ва вақт, табиат фалсафаси ва инсон борлиғи муаммолари ўрин олган.

Дастурнинг учинчи бўлими ривожланиш фалсафасига бағишланган бўлиб, унда ўзаро алоқадорлик ва тараққиёт масалалари, фалсафа қонун ва категорияларининг энг умумий жиҳатлари кўрсатилган. Тўртинчи бўлим билиш фалсафаси, ҳиссий, эмпирик, назарий, мантиқий ва интуитив билиш даражалари, фалсафада ҳақиқат муаммоси, назария ва амалиётнинг бирлиги, метод ва методология, ахборотлашувнинг фалсафий асослари, тушуниш ва тушунтириш каби масалаларни ўз ичига олган. Бешинчи бўлимда жамият фалсафасининг муҳим муаммолари – тарих фалсафаси, фалсафий антропология, фаолият фалсафаси, ижтимоий прогнозлаштириш ва глобаллашувнинг фалсафий масалалари ёритилади.

Дастурда фалсафий муаммоларга янгича фалсафий тафаккур нуқтаи назаридан ёндашилган, назария ва амалиёт уйғунлигига эътибор қаратилган.

**Фанни ўқитишдан мақсад –** талабаларни замонавий фан ютуқларига асосланган фалсафий билимлар билан қуроллантириш ҳамда уларда ўз—ўзини англаш ва тўғри фикрлаш кўникма ва малакаларини шакллантиришдан иборат.

**Фаннинг вазифалари:**

- фалсафий билимлар, қонунлар ва категорияларни ўрганиш орқали ҳаётда ўз ўрнини топиш;
- ўзининг энг олий мақсадини топиш ва унга эришиш йулида мақсадли фаолият олиб бориш;
- жамият ҳаётидаги ижтимоий жараёнларга фалсафий тафаккур нуқтаи назаридан ёндашиш, воқеаларга шахсий, ижодий танқидий баҳо бериш;
- ўз-ўзини маънавий ахлоқий тарбиялаш;
- жамиятни демократлаштириш ва модернизациялаш жараёнида фаол иштирок этиш ҳиссини тарбиялаш.

## Фан бўйича билим, малака ва кўникмага қўйиладиган талаблар

“Фалсафа” ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:

 дунёқараш тавсифидаги билимлар тизимини эгаллаган бўлиши, гуманитар ва ижтимоий-иктисодий фанлар асосини, давлат сиёсатининг долзарб масалаларини билиши; ижтимоий муаммолар ва жараёнларни мустақил таҳлил қилиш қобилиятига эга бўлиши;

 фалсафа тарихини билиши; миллий ва умуминсоний қадриятлар бўйича ўз нуқтаи назарини баён этиши ҳамда илмий асослай олиши, миллий фалсафани англаган ҳолда Ватан туйғуси шаклланган бўлиши;

 табиат ва жамиятда юз бераётган жараён ва ҳодисалар ҳақида яхлит тасаввурга эга бўлиши, инсоннинг маънавий қиёфаси ҳақида билимларга эга

бўлиши, улардан ҳаётда ва касбий фаолиятда замонавий илмий тадқиқотларда фойдалана олиши;

 инсоннинг инсон, жамият, атроф муҳитга бўлган муносабатини тартибга солувчи ҳуқуқий ва аҳлоқий меъёрларни касбий фаолиятда жорий қилиши;

 ахборотни тўплаш, сақлаш, уларга ишлов бериш ва улардан фойдаланиш усулларини эгаллаши; ўзининг касбий фаолиятида асосли мустақил қарорлар қабул қила билиши;

 бакалавриатнинг мос йўналиши бўйича рақобатбардош умумкасбий тайёргарликка эга бўлиши;

 янги билимларни мустақил ўзлаштира олиши, такомиллаштириши ва ўз меҳнатини илмий асосда ташкил қила билиши;

 дунёнинг глобал муаммоларидан хабардор бўлиши, фундаментал глобаллашувни глобаллашувнинг бошқа жиҳатларидан фарқлай олиши, хусусий, миллий, минтақавий муаммоларни ўрганиши, ижтимоий жараёнларни прогнозлаштира олиши,

 соғлом турмуш тарзи ҳақида илмий тасаввурга ва эътиқодга эга бўлиши, ўзини жисмонан такомиллаштириш малакаси ва кўникмаларига эга бўлиши керак.

## Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан кетма – кетлиги

“Фалсафа” фани ўқув режадаги инсон ва жамият ҳаёти ҳамда фаолиятини ўрганувчи - тарих, психология социология, педагогика каби ижтимоий-гуманитар фанлар, шунингдек, табиий жараёнлар диалектикасини ўрганувчи физика, математика, биология, астраномия, кимё каби табиий илмий фанлар билан алоқадор. Умуман фалсафа табиий ва ижтимоий фан билимларини ўзида мужассамлаштирувчи олам ва одам ҳақидаги энг умумий билимлар мажмуи.

## Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни

Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни ёш мутахассиснинг дунёни билиш орқали ўз-ўзини англаши, касбий фаолиятига ижодий ёндашиши, меҳнати самараси билан жамият тараққиётига ҳисса қўшаётганлигини англашида намоён бўлади.

## Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

Фалсафа фанини ўқитиш жараёнида илмийлик, тарихийлик, мантиқийлик, объективлик тамойилларига амал қилингани ҳолда анъанавий усуллар, давра суҳбати, кластер, баҳс-мунозара, ақлий ҳужум, презентация каби замонавий педогогик технология воситаларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

## АСОСИЙ ҚИСМ

# 1-БЎЛИМ. ФАЛСАФАНИНГ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ

## Фалсафа: унинг предмети, мазмуни ва жамиятдаги роли

Фалсафа тушунчасининг келиб чиқиши. Фалсафа шаклланишининг асосий босқичлари. Дунёқарашнинг моҳияти. Дунёқарашнинг интеллектуал, эмоционал ва руҳий асослари. Дунёқарашнинг тузилиши: дунёни сезиш, дунёни идрок этиш, дунёни тушуниш. Дунёқарашнинг шаклланишида ижтимоий муҳитнинг роли.

Дунёқарашнинг тарихий шакллари. Миф дастлабки дунёқараш шакли. Диний дунёқараш. Диннинг асосий функциялари. Диннинг психологик, гносеологик, ижтимоий ва сиёсий илдизлари. Динга нисбатан социологик ёндашув. Диний эътиқоднинг тарихий шакллари (фетешизм, анимизм, тотемизм, магия).

Фалсафа дунёқараш шакли. Дунёни фалсафий идрок этишнинг ўзига хос хусусияти. Фалсафанинг предмети ва унинг ўзгарувчан характери. Фалсафий билимнинг тузилиши. Фалсафанинг янги соҳалари. Фалсафанинг асосий масалалари. Фалсафани сиёсийлаштиришнинг оқибатлари. Фалсафада шубҳанинг роли. Фалсафанинг функциялари. Фалсафанинг жамиятдаги роли ёки амалий фалсафа. Фалсафанинг ижодий характери.

Фан дунёқараш шакли. Фалсафа ва фаннинг мутаносиблиги, фарқи. Сциентизм ва антисциентизм. Фан тараққиёти ривожланишининг асосий босқичлари. Ҳозирги даврда фалсафага муносабат.

## Қадимги ва ўрта аср фалсафаси

Қадимги Шарқ ва Ғарб фалсафасининг вужудга келиши ва ривожланишининг умумий қонуниятлари. Қадимги Шарқ ва Ғарб фалсафасининг ўзига хослиги, бетакрорлиги, умумий жиҳатлари ва фарқи. Ҳиндистон фалсафасининг вужудга келиши. Хитой фалсафасининг ўзига хослиги. Қадимги Юнонистон фалсафаси. Қадимги Марказий Осиёда фалсафий қарашлар. Шарқ ва Ғарб фалсафасидаги идеализм. Платоннинг ғоялар дунёси. Аристотель таълимоти. Зардўшт таълимотидаги зиддиятлар ғояси. Қадимги Ғарб ва Шарқ фалсафасининг муаммоларидаги фарқлар.

Ўрта аср Ғарб ва Шарқ фалсафа ривожланишининг умумий белгилари. Ғарб ва Шарқ фалсафасида диннинг ҳукмронлиги. Теоцентризм ғоясининг устуворлиги. Ўрта асрлар Европасида фалсафий тафаккурнинг ривожланиш хусусиятлари. Илк ўрта асрларда фалсафий тафаккур ривожи: аппологетика ва патристика. Авлиё Августин ғоялари. Схоластика. Номинализм ва реализм. Фома Аквинский таълимоти.

Ўрта аср Шарқ фалсафаси. Марказий Осиёда фалсафий фикрлар ривожланишидаги ижтимоий-сиёсий шароит.

Марказий Осиё фалсафасининг ўзига хос хусусиятлари. Форобий

ижоди. Берунийнинг фалсафий қарашлари. Ибн Сино – қомусий аллома. Сўфизм фалсафаси. Ибн Арабий философемаси. Баховуддин ақшбандийнинг фалсафий қарашлари. Ғарб ва Шарқ тафаккур услубининг ўзига хос хусусиятлари.

### Янги ва энг янги давр фалсафаси

Янги давр фалсафасининг ривожланишидаги ижтимоий-сиёсий шароит. Ижтимоий фанларда табиий, ижтимоий, ҳуқуқ назариясининг ишлаб чиқилиши. Янги давр Ғарб ва Шарқ фалсафасидаги асосий муаммолар. Ф.Бэкон ва Т.Гобсснинг фалсафий қарашлари. Р.Декарт ва . Б.Спиноза таълимоти. Г.Лейбниц монадалар ҳақида. Ж.Локк бирламчи ва иккиламчи сифатлар ҳақида. XVIII аср Европа фалсафасининг маърифий хусусиятлари. И.Кант. Ф.Шеллинг ва Г.Гегель фалсафаси. XX-XXI аср Ғарб фалсафаси. XX аср ўзбек фалсафаси**.** Ўзбек фалсафаси ривожланишининг асосий йўналишлари.

## 2-Бўлим. ОНТОЛОГИЯ – БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИ

### Борлиқ – фалсафа категорияси

Борлиқ фалсафанинг предмети. Онтология тушунчаси. Борлиқ категорияси. Фалсафа тарихида борлиқ муаммоси. Борлиқ масаласида фалсафа ва фан синтези. Борлиқ тушунчасининг этимологияси. Борлиқ ва йуқлик диалектикаси. Борлиқ шакллари: табиат борлиғи, инсон борлиғи, маънавий борлиқ, ижтимоий борлиқ, виртуал борлиқ. Оламнинг пайдо бўлиши ва эволюцияси. Ер тарихи. Инсоннинг пайдо бўлиши ва эволюцияси. Бирламчи ва иккиламчи табиатнинг ўзаро муштараклиги. Тирик табиат ёки ҳаётнинг пайдо бўлиши. Ҳаётнинг пайдо бўлиши ҳақидаги фалсафий оптимизм. Жонли нарсаларнинг жонсиз нарсаларга боғлиқлиги. Жонли нарсаларнинг ўзига хос хусусиятлари.

### Фалсафада субстанция ва материя муаммоси

Субстанция муаммоси. Субстанция ва субстрат тушунчаси. Фалсафа тарихида субстанцияга монистик, дуалистик, плюралистик ёндашувлар. Материалистик ва идеалистик монизм. Субстанциянинг хусусиятлари: ўз-ўзини белгилаш (ўз-ўзининг сабабчиси ҳисобланади, уни яратиб ва йўқ қилиб бўлмайди); универсаллик (ҳеч нарсага боғлиқ бўлмаган, барқарор, ўзгармас ва мутлақ биринчи негизни ифодалайди); каузаллик (барча ҳодисаларнинг умумий сабабий боғлиқлигини ўз ичига олади); ягоналик (биринчи негизнинг ягоналигини назарда тутади); яхлитлик (моҳият ва мавжудликнинг бирлигини кўрсатади).

Материя шаклларининг турли-туманлиги. Материянинг ташкил

топиш даражалари. Геоцентрик ва ногеоцентрик моддий тизимлар. Атрибутларнинг умумий мазмуни. Органик, ноорганик ва ижтимоий тизимлар. Дунёнинг яхлитлиги ва ранг-баранглиги. Дунё бирлигининг фундаментал асослари. Дунёнинг бирлиги ҳақидаги фан далиллари. Релятивистик космология. Оламнинг биринчи релятивистик модели. Кенгаювчи олам гипотезаси. Ҳаракатдаги олам гипотезаси. Дунёнинг чеклилиги ва чексизлиги. Экстенсив ва интенсив чексизлик. Потенциал ва актуал чексизлик. Чеклилик ва чексизликнинг зиддияти.

## Макон ва вақт

Макон ва вақт борлиқнинг фундаментал шакллари. Фалсафа тарихида макон ва вақт талқини. Макон ва вақтга субстанционал ва реляцион ёндашувлар. Макон ва вақтнинг динамик ва статик концепциялари.

Нисбийлик назарияси. Маконнинг кўп ўлчовлиги. Ижтимоий макон. Ижтимоий вақт. Макон ва вақтнинг ҳаракатдаги материяга боғлиқлиги. Макон ва вақтнинг умумий хоссалари: объективлик, абадийлик, чексизлик ва ички зиддиятлилик. Макон – вақт континуумининг тўрт ўлчовлилиги. Макон ва вақтнинг метрик ва типологик хоссалари. Макон ва вақтнинг изотроплиги ва бир хиллилиги.

## Ҳаракат ва ривожланиш

Ҳаракат тушунчаси. Фалсафа тарихида ҳаракатнинг талқини. Ўзгаришларнинг умумий хусусияти. Ҳаракат ва ҳаракатсизликнинг ўзаро нисбати. Ҳаракат типлари. Ҳаракат шакллари. Материя ҳаракатининг геологик шакли. Ҳаракатнинг комплекс шакли. Ҳаракатнинг техник, кибернетик, информацион шакллари. Ҳаракатнинг абадийлиги. Ҳаракат мутлақлиги ва сокинликнинг нисбийлиги. Объектларнинг барқарорлиги ва беқарорлиги диалектикаси. Нарсанинг сифатини сақлаш билан боғлик ҳаракат, нарса сифатини ўзгартирувчи ҳаракат.

## Табиат фалсафаси

Табиат тушунчаси. Табиат тушунчасининг кенг ва тор маъноси. Фалсафа тарихида табиатга муносабат. Табиат ва жамиятнинг ўзаро алоқадорлиги. XX аср воқелиги: Экологик танглик. Географик муҳит тушунчаси. Географик муҳит параметрлари. Ижтимоий ривожланиш ва географик муҳитнинг ўзаро алоқадорлиги. Географик мактаблар. Табиий қонунлар концепцияси. Географик детерминизм. Ижтимоий детерминизм. Геосиёсат. Ижтимоий экология. Экологик фалокатлар тарихи. Экологиянинг келиб чиқиши. Ижтимоий экология муаммолари. Экологик муаммонинг фалсафий маъноси. Биосфера ва ноосфера уйғунлиги. Янги борлиқнинг шаклланиши. Инсон ва ноосфера. Коэволюция.

## Инсон борлиғи

Инсон борлиғининг ўзига хос хусусиятлари**.** Фалсафа тарихида инсон борлиғига муносабат. Жон ҳақидаги таълимот. Индивидуаллик борлиғи. Онгнинг табиати. Онг ва жоннинг тенглаштирилиши. Онг ҳақидаги тасаввурларнинг ривожланиши. Онгнинг структураси ва функциялари. Ижтимоий жараёнларда онглилик ва онгсизликнинг намоён бўлиши. Онгсизлик табиати. Индивидуал онг борлиғи. Ижтимоий онг борлиғи. Иррационализм онг ҳақида. Онг бош мия функцияси сифатида. Онг фалсафий муаммо сифатида. Онгнинг материалистик концепцияси. Тил ва онг. Ўзликни англаш**.**

## 3-БЎЛИМ. РИВОЖЛАНИШ ФАЛСАФАСИ

### Ўзаро алоқадорлик ва ривожланиш қонунлари

Фалсафа тарихида ривожланиш ҳақидаги қарашлар эволюцияси. Ривожланиш, ўзгариш ва тараққиёт тушунчалари. Тараққиётнинг турлари. Қонун тушунчаси. Қонунларнинг турлари: воқелик қонунлари, фан қонунлари, базис ва локал қонунлар, фалсафа қонунлари. Фалсафа қонунларининг асосий шакллари. Қарама-қаршилик ва зиддият. Қарама-қаршиликларнинг таснифи. Зиддиятларнинг таснифи. Айният ва тафовут. Зиддиятларнинг турлари. Миқдор ўзгаришлари ва сифат ўзгаришлари диалектикаси. Сифат, миқдор, меъёр, хосса, сакраш категориялари. Сакрашнинг турлари. Инкорни-инкор. Инкорни инкорда ворисийлик.

### Фалсафа категориялари

Категория тушунчаси ва уларнинг турлари: фан категориялари. хусусий илмий категориялар, фалсафа категориялари. Фалсафа тарихида категорияларга турли муносабатлар. Априор тушунчаси. Диалектиканинг асосий тушунчалари – нарса, алоқа. Алоқаларнинг таснифи. Алоқалар учун асос. Фалсафа категорияларининг таснифи.

Система, элемент, структура. Системаларнинг ўзига хос хусусиятлари. Айримлик, яккалик, хусусийлик, умумийлик. Бутун ва қисм. Яхлитлик антиномиялари. Яхлитлик типлари.

Мазмун ва шакл. Шакл нарсанинг ғояси. Формализм. Моҳият ва ҳодиса. Моҳият ва мавжудлик. Моҳият ва ҳодиса диалектикаси.

Сабаб ва оқибат. Сабаб тушунчаси. Сабаб ва оқибат диалектикаси. Баҳона ва шарт. Синергетика сабабият ҳақида. Зарурият ва тасодиф. Зарурият ва тасодиф диалектикаси. Имконият ва воқелик. Имкониятларнинг турлари.

## 4-БЎЛИМ. ГНОСЕОЛОГИЯ – БИЛИШ НАЗАРИЯСИ

## Билишнинг мазмун ва моҳияти

Билиш назариясининг предмети ва унинг ўзига хос хусусиятлари. Рационализм. Эмпиризм. Перцепция ва аперцепция. Гносеологиянинг мазмуни ва моҳияти. Оптимизм, скептицизм, агностицизм. Гносеологик релятивизм. Билимнинг асосий турлари. Билимнинг асосий шакллари: кундалик амалий билим, ўйин воситасидаги билим, мифологик билим, бадиий билим, диний билим, фалсафий билим, илмий билим, шахсий билим ижтимоий билим. Билишда субъект ва объектнинг ўзаро алоқаси. Билиш фаолият тури. Билишдаги қарама-қаршиликлар.

## Ҳиссий, эмпирик, назарий, мантиқий ва интуитив билиш даражалари

Ҳиссий даражадаги билим ва унинг шакллари: сезги ва идрок, хотира, хаёл ва тасаввур. Эмпирик билим ва унинг шакллари: кузатиш, эксперимент, илмий далиллар. Фикрнинг ҳиссийликдан рационалликка ҳаракати.

Назарий билим ва унинг шакллари: илмий муаммо, муаммо ва масала. Муаммоли вазиятнинг билиш жараёнидаги роли, гипотеза, тамойиллар, категориялар, парадигмалар.

Тафаккур ва унинг моҳияти. Тафаккур ва борлиқнинг бирлиги. Тафаккурнинг асосий шакллари: тушунча, мулоҳоза, хулоса.

Ҳиссий эмпирик ва рационал билиш бирлиги. Билишнинг эмпирик ва назарий даражаларини фарқлаш мезонлари.

Интуиция ва ижод. Фалсафа тарихида интуицияга муносабат. Интуициянинг билишдаги роли.

## Фалсафада ҳақиқат муаммоси

Ҳақиқат тушунчаси. Фалсафа тарихида ҳақиқатга муносабат. Ҳақиқатнинг фалсафий асослари. Ҳақиқатнинг асосий шакллари. Объектив, мутлақ ва нисбий ҳақиқат. Ҳақиқатнинг корреспондент, когерент ва назарий концепцияси. Исботлаш ва рад этиш. Ҳақиқатни англашда эмоция, идеал, ирода, ишонч ва шубҳанинг роли. Верификация тамойили. Ҳақиқат ва янглишиш, ёлғон ва дезинформация (ёлғон ахборот). Ҳақиқатни амалий текширишнинг йўллари. Амалиёт ҳақиқат мезони. Ҳақиқатнинг зиддиятли характери. Ҳақиқатни баҳолаш мезонлари.

## Назария ва амалиёт бирлиги

Амалиёт тушунчаси. Амалиёт фалсафаси. Фалсафа тарихида амалиётга турли муносабатлар. Билиш ва амалиётнинг ўзаро нисбати. Амалиётнинг таркибий қисмлари: мақсад, мақсадга мувофиқ фаолият, амалиёт воситалари, амалий ҳаракат объектлари, ҳаракат натижаси. Амалиётнинг ижтимоий характери. Ижтимоий жараёнларда амалиётнинг ўзгарувчан характери. Амалиёт ва фаолиятнинг мутаносиблиги.

## Билиш методологияси: асосий тушунчалар

Метод ва методология тушунчаси. Метод ва методика. Методларнинг таснифи: Фан методлари: формал, эмпирик, назарий тадқиқот, изоҳлаш. Фалсафа методлари: диалектика, метафизика, софистика, эклектика, синергетика. Объектив ва субъектив диалектика. Янги метефизика ва эски метафизика. Синергетиканинг асосий тамойиллари: бифуркация, флуктуация, диссипатив тизим, аттрактор. Умумилмий методлар, хусусий илмий методлар, фанлараро тадқиқот методлари. Ижтимоий гуманитар фанлар методларининг ўзига хос хусусиятлари. Ҳозирги замон методологияси: куматоид, кейс стадис, абдукция. Эвристика янги методологик тамойил.

### Ахборотлашувнинг фалсафий асослари

Ахборот, ахборотлашган жамият, ахборот технологиялари тушунчаси. Ахборот ва информацион вазият. Информацион вазият элементлари. Ахборот субъекти ва объекти. Информациянинг бошқарув жараён билан алоқаси.

Ижтимоий ахборот. Ижтимоий –коммуникатив жараённинг асосий омили. Илмий ахборот. Илмий ахборот янги билим қабул қилиш шакли. Информатика. Информатизация.

Ахборот техникаси. Ахборот технологиялари. Жамиятнинг ахборотлашуви концепцияси. Ижтимоий жараёнлар ахборотлашувиниг ўзига хос жиҳатлари. Нанотехнологиялар. Ахборот инқилоби.

### Тушуниш ва тушунтириш

Тушуниш ва унинг билиш билан ўзаро нисбати. Фалсафа тарихида тушуниш масаласи. Герменевтик доиранинг моҳияти. Тушунишда маънони англашнинг аҳамияти. Тушунишда символнинг ўрни. Диалог ва семиотика тушуниш воситаси. Мазмунни тушуниш ва интерпретация. Тушуниш тушунмасликни бартараф қилувчи жараён. Онгли тушуниш ва онгсиз тушуниш. Тушуниш имконияти ва имкониятни тушуниш. Билиш ва тушунишда феномен муаммоси. Тушуниш феноменининг кўпқирралиги. Тушуниш рационалликнинг символик элементи.

Тушуниш ва тушунтиришнинг мутаносиблиги. Тушунтириш илмий билимни тушуниш шакли. Тушунтиришда субъект билимининг аҳамияти.

## 5-БЎЛИМ. ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФА

### Жамиятнинг фалсафий таҳлили

Жамият ҳақидаги асосий парадигмалар. Жамият ҳақидаги фалсафий таълимотлар тарихи. Жамият пайдо бўлишининг илмий асослари.

Жамиятнинг иқтисодий асослари. Ижтимоий ишлаб чиқариш тушунчаси. Моддий ишлаб чиқариш. Ишлаб чиқариш кучлари ва ижтимоий иқтисодий муносабатлар. Мулк ва мулкчилик масаласи.

Жамиятнинг маънавий асослари. Информация ва коммуникация. Индивидуал ижтимоий онг. Ижтимоий онгнинг структураси. Ижтимоий психология. Мафкура – ижтимоий онг элементи.

Жамиятнинг ижтимоий асослари. Ижтимоий жамоа ва гуруҳлар. Этник гуруҳлар. Табақалар ва синфлар. Ижтимоий ва сиёсий институтлар. Ҳудудий гуруҳлар. Ижтимоий макон.

Жамиятнинг сиёсий асослари. Жамиятнинг сиёсий тизими. Парламент республикаси. Президент республикаси. Федерация. Сиёсий тизимдаги партиялар, ташкилотлар, жамоа ташкилотлари. Сиёсат ва сиёсий онг.

Фуқаролик жамияти, сиёсий эркинлик, демократия, фуқаролик уюшмалари, ижтимоий тартиб, фуқаролик жамиятида барқарорлик.

Жамият ҳаётига цивилизация таъсири. Цивилизация тушунчаси. Цивилизацияга турли ёндашувлар. Цивилизация типлари: европа ва шарқ цивилизацияси, либерал ва анъанавий цивилизация.

Маданият, унинг тузилиши ва функциялари. Маданиятлардаги умумийлик. Маданиятнинг субъекти. Маданий фаолият. Маданий коммуникация.

## Тарих фалсафаси

Тарих фалсафасининг предмети. Тарих фалсафасига оид қарашлар эволюцияси. Тарих фалсафасининг тузилиши: тарих фалсафаси онтологияси, гносеологияси, тарих фалсафаси тарихи. Тарих фалсафаси функциялари: дунёқарашга доир функцияси, назарий функцияси, прогностик функцияси. Тарих фалсафасининг ҳозирги концепциялари. Тарих фалсафасининг гносеологик йўналиши. Онтологик ва аксиологик концепциялар. Тарихий жараён мазмуни ва унинг йўналиши. Тарихга формацион ва цивилизацион ёндашувлар. Тарих фалсафасида тарихий тараққиёт ғояси. Тарихий тараққиёт мезонлари. Тарихий жараёнда зарурият ва эркинлик. Тарихий зарурият. Зарурият ва эркинлик диалектикаси. Тарихда шахснинг роли.

## Фалсафий антропология (Инсон ҳақидаги таълимот)

Инсон фалсафий муаммо сифатида. Фалсафа тарихида инсоннинг келиб чиқиши ҳақидаги таълимотлар. Инсонни фалсафий тушунишнинг ўзига хос хусусияти. Инсоннинг кўп ўлчовлиги. Шарқ фалсафасида инсон муаммоси. Инсон масаласида Ғарб анъанаси. Фалсафий антропологиянинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, предмети ва вазифалари. Инсоннинг биоижтимоий моҳияти. Инсонни тушунишда дуализм ва монизм. Инсонга интровертив ва экстровертив ёндашувлар. Инсонга оид социоцентрик концепциялар. Инсон масаласига теоцентрик ёндашувлар. Инсонга нисбатан биологизаторлик ва социологизаторлик концепциялари. Ҳаётнинг мазмуни ва унда инсоннинг вазифаси. Ҳаётда инсоннинг вазифаси ва унинг моҳияти. Ҳаётни тарк этиш босқичлари: ижтимоий, руҳий, биологик ўлим, миянинг ўлими. Инсонни фалсафий нуқтаи назардан ўрганишнинг зарурати.

## Аксиология-қадриятлар фалсафаси

Қадрият тушунчаси ва унинг умумий тавсифи. Қадриятларнинг табиати ва моҳиятини тушунишга нисбатан ёндашувлар: натуралистик психологизм, персоналистик оптимизм, аксиологик трансцендентализм, маданий тарихий релятивизм, қадриятларнинг социологик концепцияси. Қадрият категориясининг мазмуни: қадриятнинг ижтимоий моҳияти. Қадриятнинг функционал аҳамияти. Қадриятнинг шахсга доир мазмуни. Қадриятлар ва баҳолар. Баҳолашнинг моҳияти. Баҳолаш структураси. Баҳолаш предмети. Баҳолаш субъекти. Баҳолаш асоси. Эҳтиёжлар ва қадриятлар. Қадриятларнинг турлари: моддий қадриятлар, маънавий қадриятлар, ижтимоий сиёсий қадриятлар, индивидуал ёки шахсга доир қадриятлар. Жамият ва инсон ҳаётида қадриятларнинг роли. Олий қадриятлар. Соғлик ва эркинлик қадрият сифатида. Билим қадрият сифатида. Шахснинг қадриятларга муносабати. Қадриятлар иерархияси.

## Фаолият фалсафаси (праксеология)

Фаолият тушунчаси. Фаолиятнинг социологик жиҳатлари. Психологияда фаолиятга муносабат. Фаолиятнинг тузилиши: эҳтиёжлар, мотивлар, мақсадлар, воситалар. Фаолият атрибутлари: моддийлик ва субъектлилик. Фаолиятни моддийлаштириш ва моддийлаштиришдан чиқариш. Фаолиятда онглилик ва мақсадга мувофиқлик. Фаолиятнинг унумлилиги. Моддий ва маънавий фаолият. Инсон фаолиятининг рамзий жиҳати. Мулоқот фаолият сифатида. Инсоннинг шаклланиши ва ривожланишида фаолиятнинг роли. Интериоризация тушунчаси. Интериоризация механизми. Интериоризация назариясининг танқиди. Бегоналашув. Меҳнат ва ўйин фаолият бирлиги сифатида. Ўйин моделининг шартлилиги ва реаллиги. Ўйиннинг маъноси. Ижод ва ижод натижаларининг янгилиги. Ижодий ва ноижодий фаолият. Ижодкор шахс. Ижод меҳнат ва ўйин сифатида. Инсон фаолиятини тартибга солишнинг аҳамияти. Фаолиятни тартибга солиш механизмлари.

## Ижтимоий прогнозлаштириш муаммоси

Ижтимоий башорат тушунчаси: унинг типлари, методлари. Башоратнинг турлари: кундалик башорат, илмий башорат, ижтимоий башорат қилиш, интуитив башорат. Ижтимоий башоратнинг субъектив ва объектив асоси. Прогнозлаштиришнинг методлари: экстрополяция методи, тарихий аналогия, моделлаштириш методи, экспертиза усулида баҳолаш, келажакни прогнозлаштириш. Норматив прогноз, аналитик прогноз, прогноз огоҳлантириш. Прогнозлаштиришнинг ижтимоий жараёнларга таъсири. Келажакни прогнозлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари.

## Глобаллашувнинг фалсафий муаммолари

Глобаллашув – янги фалсафий мавзу. Глобаллашув ҳодисаси. Глобалистика. Глобал жараёнларнинг куртаклари. Фундаментал глобаллашув. Глобал муаммоларнинг кўпжиҳатлилиги. Глобал муаммолар – глобаллашувнинг оқибати сифатида. Ижтимоий ривожланишнинг жадаллашувида глобал тенденцияларни англашнинг аҳамияти. Технооптимизм. Технопессимизм. Экопессимизм. Глобал муаммоларни ҳал қилишда фалсафанинг роли. Глобал муаммоларнинг моҳияти. Муаммоларнинг турли даражалари: хусусий, миллий, маҳаллий, минтақавий муаммолар. Глобаллик мезонлари. Ҳозирги даврнинг асосий глобал муаммолари: демографик тизим, таълим муаммоси, соғлиқни сақлаш муаммоси, озиқ овқат муаммоси, иқтисодий ривожланишнинг нотекислиги, энергетика ва хом ашё ресурслари, уруш ва тинчлик муаммоси. Глобал онгни шакллантириш зарурати. Глобал муаммоларни ҳал қилишда халқаро кучлар бирлашувининг аҳамияти. Глобал муаммоларни ҳал қилишда хусусий ва умумий манфаатлар.

## Семинар машғулотларни ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича профессор-ўқитувчилар томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъруза мавзулари бўйича билим ва кўникмаларини амалий машғулот жараёнида янада бойитадилар. Шунингдек, дарслик ва ўқув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустаҳкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, мавзулар бўйича кўргазмали қуроллар тайёрлаш ва бошқалар тавсия этилади.

Семинар машғулотларида талабалар фалсафа фанининг назарий асосларини ўрганиб, унинг амалий ҳаёт билан боғлиқлигини таҳлил қиладилар.

**Семинар машғулотларнинг тавсия этиладиган тахминий мавзулари**:

| 9 | **Jamiyatning falsafiy tahlili. Hozirgi zamon falsafasida ijtimoiy jarayonlar tahlili**<br>**Reja:**<br>1. Jamiatning falsafiy taxlili<br>2. Fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat jamiyati<br>3. Tarix falsafasining predmeti<br>4. Inson to'g'risidagi ta'limotlar. Inson hayotining ma'nosi<br>5. Qadriyatlar falsafasi | **2** |
| 10 | **Faoliyat, ijtimoiy prognozlash hamda globallashuvning falsafiy masalalari**<br>**Reja:**<br>1. Faoliyat tushunchasi. Faoliyatning turlari<br>2. Ijtimoiy bashorat tushunchasi: uning turlari va metodlari<br>3. Globallashuv tushunchasi. Global muammolar globallashuvning oqibati sifatida<br>4. Global muammolarni hal qilish yo'llari | **2** |

## SEMINAR MAShG'ULOTLARI MAZMUNI

### 1-MAVZU: Falsafaning predmeti, muamolari va vazifalari

Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoqarashning mohiyati. Dunyoqarashning intellektual, emosional va ruhiy asoslari. Dunyoqarashning tuzilishi: dunyoni sezish,dunyoni idrok etish, dunyoni tushunish. Dunyoqarashning shakllanishida ijtimoiy muhitning roli.Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Mif dastlabki dunyoqarash shakli.Diniy dunyoqarash. Dinning asosiy funksiyalari. Dinning psixologik,gnoseologik, ijtimoiy va siyosiy ildizlari. Dinga nisbatan sosiologik yondashuv. Diniy e'tiqodning tarixiy shakllari (feteshizm, animizm,
totemizm, magiya). Falsafa dunyoqarash shakli. Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati. Falsafaning predmeti va uning o'zgaruvchan xarakteri. Falsafiy bilimning tuzilishi. Falsafaning yangi sohalari. Falsafaning asosiy masalalari. Falsafani siyosiylashtirishning oqibatlari. Falsafada shubhaning roli. Falsafaning funksiyalari. Falsafaning jamiyatdagi roli yoki amaliy falsafa. Falsafaning ijodiy xarakteri.
Fan dunyoqarash shakli. Falsafa va fanning mutanosibligi, farqi. Ssiyentizm va antissiyentizm. Fan taraqqiyoti rivojlanishining asosiy bosqichlari. Hozirgi davrda falsafaga munosabat.

**2-MAVZU: Qadimgi va O'rta asrlar falsafasi**

Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining o'ziga xosligi, betakrorligi, umumiy jihatlari va farqi.Hindiston falsafasining vujudga kelishi. Xitoy falsafasining o'ziga
xosligi. Qadimgi Yunoniston falsafasi. Qadimgi Markaziy Osiyoda falsafiy qarashlar. Sharq va G'arb falsafasidagi idealizm. Platonning g'oyalar dunyosi. Aristotel ta'limoti. Zardo'sht ta'limotidagi ziddiyatlar g'oyasi. Qadimgi G'arb va Sharq falsafasining muammolaridagi farqlar. O'rta asr G'arb va Sharq falsafa rivojlanishining umumiy belgilari.G'arb va Sharq falsafasida dinning hukmronligi. Teosentrizm g'oyasining ustuvorligi. O'rta asrlar Yevropasida falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari. Ilk o'rta asrlarda falsafiy tafakkur rivoji: apologetika va patristika. Avliyo Avgustin g'oyalari. Sxolastika. Nominalizm va realizm. Foma Akvinskiy ta'limoti. O'rta asr Sharq falsafasi. Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlar rivojlanishidagi ijtimoiy-siyosiy sharoit.
Markaziy Osiyo falsafasining o'ziga xos xususiyatlari. Forobiy ijodi. Beruniyning falsafiy qarashlari. Ibn Sino – qomusiy alloma.So'fizm falsafasi. Ibn Arabiy filosofemasi. Baxovuddin Naqshbandiyning falsafiy qarashlari. G'arb va Sharq tafakkur uslubining o'ziga xos xususiyatlari.

**3-MAVZU: Yangi va eng yangi davr falsafasi**

Yangi davr falsafasining rivojlanishidagi ijtimoiy-siyosiy sharoit. Ijtimoiy fanlarda tabiiy, ijtimoiy, huquq nazariyasining ishlab chiqilishi. Yangi davr G'arb va Sharq falsafasidagi asosiy muammolar.F.Bekon va T.Gobssning falsafiy qarashlari. R.Dekart va . B.Spinoza ta'limoti. G.Leybnis monadalar haqida. J.Lokk birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqida. XVIII asr Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari. I.Kant. F.Shelling va G.Gegel falsafasi. XX-XXI asr G'arb falsafasi. XX asr o'zbek falsafasi. O'zbek falsafasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

**4-MAVZU: Borliq va uning asosiy atributlari. Tabiat va inson borlig'i**

**Borliq – falsafa kategoriyasi**

Borliq falsafaning predmeti. Ontologiya tushunchasi. Borliq kategoriyasi. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq masalasida falsafa va fan sintezi. Borliq tushunchasining etimologiyasi. Borliq va yuqlik dialektikasi. Borliq shakllari: tabiat borlig'i, inson borlig'i, ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq, virtual borliq. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Yer tarixi. Insonning paydo bo'lishi va evolyusiyasi.Birlamchi va ikkilamchi tabiatning o'zaro mushtarakligi. Tirik tabiat yoki hayotning paydo bo'lishi. Hayotning paydo bo'lishi haqidagi falsafiy optimizm. Jonli narsalarning jonsiz narsalarga bog'liqligi. Jonli narsalarning o'ziga xos xususiyatlari.

## Falsafada substansiya va materiya muammosi

Substansiya muammosi. Substansiya va substrat tushunchasi. Falsafa tarixida substansiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar.Materialistik va idealistik monizm. Cubstansiyaning xususiyatlari: o'zo'zini belgilash (o'z-o'zining sababchisi hisoblanadi, uni yaratib va yo'q qilib bo'lmaydi); universallik (hyech narsaga bog'liq bo'lmagan, barqaror, o'zgarmas va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi); kauzallik (barcha hodisalarning umumiy sababiy bog'liqligini o'z ichiga oladi); yagonalik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi); yaxlitlik (mohiyat va mavjudlikning birligini ko'rsatadi).

Materiya shakllarining turli-tumanligi. Materiyaning tashkil topish darajalari. Geosentrik va nogeosentrik moddiy tizimlar.Atributlarning umumiy mazmuni. Organik, noorganik va ijtimoiy tizimlar. Dunyoning yaxlitligi va rang-barangligi. Dunyo birligining fundamental asoslari. Dunyoning birligi haqidagi fan dalillari.Relyativistik kosmologiya. Olamning birinchi relyativistik modeli.Kengayuvchi olam gipotezasi. Harakatdagi olam gipotezasi. Dunyoning chekliligi va cheksizligi. Ekstensiv va intensiv cheksizlik. Potensial va aktual cheksizlik. Cheklilik va cheksizlikning ziddiyati.

## Makon va vaqt

Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari. Falsafa tarixida makon va vaqt talqini. Makon va vaqtga substansional va relyasion yondashuvlar. Makon va vaqtning dinamik va statik konsepsiyalari.Nisbiylik nazariyasi. Makonning ko'p o'lchovligi. Ijtimoiy makon.

Ijtimoiy vaqt. Makon va vaqtning harakatdagi materiyaga bog'liqligi.Makon va vaqtning umumiy xossalari: obyektivlik, abadiylik, cheksizlik va ichki ziddiyatlilik. Makon – vaqt kontinuumining to'rt o'lchovliligi. Makon va vaqtning metrik va tipologik xossalari. Makon va vaqtning izotropligi va bir xilliligi.

## Harakat va rivojlanish

Harakat tushunchasi. Falsafa tarixida harakatning talqini.O'zgarishlarning umumiy xususiyati. Harakat va harakatsizlikning o'zaro nisbati. Harakat tiplari. Harakat shakllari**.** Materiya harakatining geologik shakli. Harakatning kompleks shakli. Harakatning texnik, kibernetik, informasion shakllari. Harakatning abadiyligi. Harakat mutlaqligi va sokinlikning nisbiyligi. Obyektlarning barqarorligi va beqarorligi dialektikasi. Narsaning sifatini saqlash bilan bog'lik harakat, narsa sifatini o'zgartiruvchi harakat.

## Tabiat falsafasi

Tabiat tushunchasi. Tabiat tushunchasining keng va tor ma'nosi.Falsafa tarixida tabiatga munosabat. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi. XX asr voqyeligi: Ekologik tanglik. Geografik muhit tushunchasi. Geografik muhit parametrlari. Ijtimoiy rivojlanish va geografik muhitning o'zaro aloqadorligi. Geografik maktablar. Tabiiy qonunlar konsepsiyasi. Geografik determinizm. Ijtimoiy determinizm. Geosiyosat. Ijtimoiy ekologiya. Ekologik falokatlar tarixi. Ekologiyaning kelib chiqishi. Ijtimoiy ekologiya muammolari. Ekologik muammoning falsafiy ma'nosi. Biosfera va noosfera uyg'unligi. Yangi borliqning shakllanishi. Inson va noosfera. Koevolyusiya.

## Inson borlig'i

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari**.** Falsafa tarixida inson borlig'iga munosabat. Jon haqidagi ta'limot. Individuallik borlig'i. Ongning tabiati. Ong va jonning tenglashtirilishi. Ong

haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Ongning strukturasi va funksiyalari. Ijtimoiy jarayonlarda onglilik va ongsizlikning namoyon bo'lishi.
Ongsizlik tabiati. Individual ong borlig'i. Ijtimoiy ong borlig'i. Irrasionalizm ong haqida. Ong bosh miya funksiyasi sifatida. Ong falsafiy muammo sifatida. Ongning materialistik konsepsiyasi. Til va ong. O'zlikni anglash.

## 5-MAVZU: O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi.Rivojlanish, o'zgarish va taraqqiyot tushunchalari. Taraqqiyotning turlari.Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari: voqyelik qonunlari, fan qonunlari, bazis va lokal qonunlar, falsafa qonunlari. Falsafa
qonunlarining asosiy shakllari. Qarama-qarshilik va ziddiyat. Qarama-qarshiliklarning tasnifi. Ziddiyatlarning tasnifi. Ayniyat va tafovut.Ziddiyatlarning turlari. Miqdor o'zgarishlari va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Sifat, miqdor, me'yor, xossa, sakrash kategoriyalari.Sakrashning turlari. Inkorni-inkor. Inkorni inkorda vorisiylik.

## 6-MAVZU: Falsafa kategoriyalari

Falsafa kategoriyalari. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari: fan kategoriyalari.
xususiy ilmiy kategoriyalar, falsafa kategoriyalari. Falsafa tarixida kategoriyalarga turli munosabatlar. Aprior tushunchasi. Dialektikaning asosiy tushunchalari – narsa, aloqa. Aloqalarning tasnifi. Aloqalar uchun asos. Falsafa kategoriyalarining tasnifi.
Sistema, element, struktura. Sistemalarning o'ziga xos xususiyatlari. Ayrimlik, yakkalik, xususiylik, umumiylik. Butun va qism.Yaxlitlik antinomiyalari. Yaxlitlik tiplari.
Mazmun va shakl. Shakl narsaning g'oyasi. Formalizm. Mohiyat va hodisa. Mohiyat va mavjudlik. Mohiyat va hodisa dialektikasi. Sabab va oqibat. Sabab tushunchasi. Sabab va oqibat dialektikasi. Bahona va shart. Sinergetika sababiyat haqida. Zaruriyat va tasodif. Zaruriyat va tasodif dialektikasi. Imkoniyat va voqyelik. Imkoniyatlarning turlari.

## 7-MAVZU: Falsafada bilish muamosi. Bilishning boskichlari va darajalari

Bilishning mazmun va mohiyati Bilish nazariyasining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlari. Rasionalizm. Empirizm. Persepsiya va apersepsiya. Gnoseologiyaning mazmuni va mohiyati. Optimizm, skeptisizm, agnostisizm. Gnoseologik relyativizm. Bilimning asosiy turlari. Bilimning asosiy shakllari: kundalik amaliy bilim, o'yin vositasidagi bilim, mifologik bilim,badiiy bilim, diniy bilim, falsafiy bilim, ilmiy bilim, shaxsiy bilim ijtimoiy bilim. Bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi. Bilish faoliyat turi. Bilishdagi qarama-qarshiliklar.

Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari Hissiy darajadagi bilim va uning shakllari: sezgi va idrok, xotira,xayol va tasavvur. Empirik bilim va uning shakllari: kuzatish, eksperiment,ilmiy dalillar. Fikrning hissiylikdan rasionallikka harakati. Nazariy bilim va uning shakllari: ilmiy muammo, muammo va masala.

Muammoli vaziyatning bilish jarayonidagi roli, gipoteza, tamoyillar,
kategoriyalar, paradigmalar.Tafakkur va uning mohiyati. Tafakkur va borliqning birligi.
Tafakkurning asosiy shakllari: tushuncha, mulohoza, xulosa.Hissiy empirik va rasional bilish birligi. Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari.

Intuisiya va ijod. Falsafa tarixida intuisiyaga munosabat.Intuisiyaning bilishdagi roli. Falsafada haqiqat muammosi. Haqiqat tushunchasi. Falsafa tarixida haqiqatga munosabat. Haqiqatning falsafiy asoslari. Haqiqatning asosiy shakllari. Obyektiv,mutlaq va nisbiy haqiqat. Haqiqatning korrespondent, kogerent va nazariy konsepsiyasi. Isbotlash va rad etish. Haqiqatni anglashda emosiya, ideal, iroda, ishonch va shubhaning roli. Verifikasiya tamoyili. Haqiqat va yanglishish, yolg'on va dezinformasiya (yolg'on axborot). Haqiqatni amaliy tekshirishning yo'llari.

Amaliyot haqiqat mezoni. Haqiqatning ziddiyatli xarakteri. Haqiqatni baholash mezonlari.Nazariya va amaliyot birligi Amaliyot tushunchasi. Amaliyot falsafasi. Falsafa tarixida amaliyotga turli munosabatlar. Bilish va amaliyotning o'zaro nisbati.Amaliyotning tarkibiy qismlari: maqsad, maqsadga muvofiq faoliyat, amaliyot vositalari, amaliy harakat obyektlari, harakat natijasi.Amaliyotning ijtimoiy xarakteri. Ijtimoiy jarayonlarda amaliyotning o'zgaruvchan xarakteri. Amaliyot va faoliyatning mutanosibligi.

## 8-MAVZU: Bilishning metodlari, axborotlashuv, tushunish va tushuntirishning ilmiy – falsafiy tahlili

Bilish metodologiyasi: asosiy tushunchalar Metod va metodologiya tushunchasi. Metod va metodika. Metodlarning tasnifi: Fan metodlari: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash. Falsafa metodlari: dialektika, metafizika, sofistika, eklektika,sinergetika. Obyektiv va subyektiv dialektika. Yangi metefizika va eski metafizika. Sinergetikaning asosiy tamoyillari: bifurkasiya, fluktuasiya, dissipativ tizim, attraktor. Umumilmiy metodlar, xususiy ilmiy metodlar, fanlararo tadqiqot metodlari. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari. Hozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadis, abduksiya. Evristika yangi metodologik tamoyil.Axborotlashuvning falsafiy asoslari Axborot, axborotlashgan jamiyat, axborot texnologiyalaritushunchasi. Axborot va informasion vaziyat. Informasion vaziyat elementlari. Axborot subyekti va obyekti. Informasiyaning boshqaruv jarayon bilan aloqasi. Ijtimoiy axborot. Ijtimoiy –kommunikativ jarayonning asosiy omili. Ilmiy axborot. Ilmiy axborot yangi bilim qabul qilish shakli. Informatika. Informatizasiya. Axborot texnikasi. Axborot texnologiyalari. Jamiyatning axborotlashuvi konsepsiyasi. Ijtimoiy jarayonlar axborotlashuvinig o'ziga
xos jihatlari. Nanotexnologiyalar. Axborot inqilobi. Tushunish va tushuntirish. Tushunish va uning bilish bilan o'zaro nisbati. Falsafa tarixida tushunish masalasi. Germenevtik doiraning mohiyati. Tushunishda ma'noni anglashning ahamiyati. Tushunishda simvolning o'rni. Dialog va semiotika tushunish vositasi. Mazmunni tushunish va interpretasiya. Tushunish tushunmaslikni bartaraf qiluvchi jarayon. Ongli tushunish va ongsiz tushunish. Tushunish imkoniyati va imkoniyatni tushunish. Bilish va tushunishda fenomen muammosi. Tushunish fenomenining ko'pqirraligi.Tushunish rasionallikning simvolik elementi.Tushunish va tushuntirishning mutanosibligi. Tushuntirish ilmiy bilimni tushunish shakli. Tushuntirishda subyekt bilimining ahamiyati.

## 9-MAVZU: Jamiyatning falsafiy tahlili. Hozirgi zamon falsafasida ijtimoiy jarayonlar tahlili

Jamiyatning falsafiy tahlili Jamiyat haqidagi asosiy paradigmalar. Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi. Jamiyat paydo bo'lishining ilmiy asoslari.Jamiyatning iqtisodiy asoslari. Ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasi. Moddiy ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar. Mulk va mulkchilik masalasi.

Jamiyatning ma'naviy asoslari. Informasiya va kommunikasiya.Individual ijtimoiy ong. Ijtimoiy ongning strukturasi. Ijtimoiy psixologiya. Mafkura – ijtimoiy ong elementi. Jamiyatning ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy jamoa va guruhlar. Etnikguruhlar. Tabaqalar va sinflar. Ijtimoiy va siyosiy institutlar. Hududiy guruhlar. Ijtimoiy makon.Jamiyatning siyosiy asoslari. Jamiyatning siyosiy tizimi. Parlament respublikasi. Prezident respublikasi. Federasiya. Siyosiy tizimdagi partiyalar, tashkilotlar, jamoa tashkilotlari. Siyosat va siyosiy ong. Fuqarolik jamiyati, siyosiy erkinlik, demokratiya, fuqarolik uyushmalari, ijtimoiy tartib, fuqarolik jamiyatida barqarorlik.Jamiyat hayotiga sivilizasiya ta'siri. Sivilizasiya tushunchasi.Sivilizasiyaga turli yondashuvlar. Sivilizasiya tiplari: yevropa va sharq sivilizasiyasi, liberal va an'anaviy sivilizasiya.
Madaniyat, uning tuzilishi va funksiyalari. Madaniyatlardagi umumiylik. Madaniyatning subyekti. Madaniy faoliyat. Madaniy kommunikasiya.

Tarix falsafasi Tarix falsafasining predmeti. Tarix falsafasiga oid qarashlar

evolyusiyasi. Tarix falsafasining tuzilishi: tarix falsafasi ontologiyasi, gnoseologiyasi, tarix falsafasi tarixi. Tarix falsafasi funksiyalari: dunyoqarashga doir funksiyasi, nazariy funksiyasi, prognostik funksiyasi. Tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari. Tarix falsafasining gnoseologik yo'nalishi. Ontologik va aksiologik konsepsiyalar. Tarixiyjarayon mazmuni va uning yo'nalishi. Tarixga formasion va sivilizasion yondashuvlar. Tarix falsafasida tarixiy taraqqiyot g'oyasi. Tarixiy taraqqiyot mezonlari. Tarixiy jarayonda zaruriyat va erkinlik. Tarixiy zaruriyat. Zaruriyat va erkinlik dialektikasi. Tarixda shaxsning roli.Falsafiy antropologiya (Inson haqidagi ta'limot)
Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonning kelib chiqishi haqidagi ta'limotlar. Insonni falsafiy tushunishning o'ziga xos xususiyati. Insonning ko'p o'lchovligi. Sharq falsafasida inson muammosi.Inson masalasida G'arb an'anasi. Falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari. Insonning bioijtimoiy mohiyati. Insonni tushunishda dualizm va monizm. Insonga introvertiv va
ekstrovertiv yondashuvlar. Insonga oid sosiosentrik konsepsiyalar. Inson masalasiga teosentrik yondashuvlar. Insonga nisbatan biologizatorlik va sosiologizatorlik konsepsiyalari. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi. Hayotda insonning vazifasi va uning mohiyati. Hayotni tark etish bosqichlari: ijtimoiy, ruhiy, biologik o'lim, miyaning o'limi. Insonni falsafiy nuqtai nazardan o'rganishning zarurati.

Aksiologiya-qadriyatlar falsafasi. Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Qadriyatlarning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan yondashuvlar: naturalistik
psixologizm, personalistik optimizm, aksiologik transsendentalizm, madaniy tarixiy relyativizm, qadriyatlarning sosiologik konsepsiyasi.Qadriyat kategoriyasining mazmuni: qadriyatning ijtimoiy mohiyati.Qadriyatning funksional ahamiyati. Qadriyatning shaxsga doir mazmuni.Qadriyatlar va baholar. Baholashning mohiyati. Baholash strukturasi.

Baholash predmeti. Baholash subyekti. Baholash asosi. Ehtiyojlar va qadriyatlar. Qadriyatlarning turlari: moddiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy siyosiy qadriyatlar, individual yoki shaxsga doir qadriyatlar. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Oliy qadriyatlar. Sog'lik va erkinlik qadriyat sifatida. Bilim qadriyat sifatida. Shaxsning qadriyatlarga munosabati. Qadriyatlar iyerarxiyasi

## 10-MAVZU: Faoliyat, ijtimoiy prognozlash hamda globallashuvning falsafiy masalalari

### Faoliyat falsafasi (prakseologiya)

Faoliyat tushunchasi. Faoliyatning sosiologik jihatlari.Psixologiyada faoliyatga munosabat. Faoliyatning tuzilishi: ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, vositalar. Faoliyat atributlari: moddiylik va subyektlilik. Faoliyatni moddiylashtirish va moddiylashtirishdan chiqarish. Faoliyatda onglilik va maqsadga muvofiqlik. Faoliyatning
unumliligi. Moddiy va ma'naviy faoliyat. Inson faoliyatining ramziy jihati. Muloqot faoliyat sifatida. Insonning shakllanishi va rivojlanishida faoliyatning roli. Interiorizasiya tushunchasi.Interiorizasiya mexanizmi. Interiorizasiya nazariyasining tanqidi.Begonalashuv. Mehnat va o'yin faoliyat birligi sifatida. O'yin modelining shartliligi va realligi. O'yinning ma'nosi. Ijod va ijod natijalarining yangiligi. Ijodiy va noijodiy faoliyat. Ijodkor shaxs. Ijod mehnat va o'yin sifatida.

Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati.Faoliyatni tartibga solish mexanizmlari. Ijtimoiy prognozlashtirish muammosi Ijtimoiy bashorat tushunchasi: uning tiplari, metodlari.Bashoratning turlari: kundalik bashorat, ilmiy bashorat, ijtimoiy bashorat qilish, intuitiv bashorat. Ijtimoiy bashoratning subyektiv va obyektiv asosi. Prognozlashtirishning metodlari: ekstropolyasiya metodi, tarixiy analogiya, modellashtirish metodi, ekspertiza usulida baholash,kelajakni prognozlashtirish. Normativ prognoz, analitik prognoz, prognoz ogohlantirish. Prognozlashtirishning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri. Kelajakni prognozlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

### Globallashuvning falsafiy muammolari

Globallashuv – yangi falsafiy mavzu. Globallashuv hodisasi.Globalistika. Global jarayonlarning kurtaklari. Fundamental globallashuv. Global muammolarning ko'pjihatliligi. Global muammolar –globallashuvning oqibati sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvida global tendensiyalarni anglashning ahamiyati.
Texnooptimizm. Texnopessimizm. Ekopessimizm. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli. Global muammolarning mohiyati.Muammolarning turli darajalari: xususiy, milliy, mahalliy, mintaqaviy muammolar. Globallik mezonlari. Hozirgi davrning asosiy global muammolari: demografik tizim, ta'lim muammosi, sog'liqni saqlash muammosi, oziq ovqat muammosi, iqtisodiy rivojlanishning notekisligi, energetika va xom ashyo resurslari, urush va tinchlik muammosi. Global ongni shakllantirish zarurati. Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar.

## O'QUV ADABIYOTLAR


**10.** Nazarov Q. Aksiologiya - qadriyatlar falsafasi. -T.: O'FMJ, 2004.
**11.** Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. - T.: Universitet, 2005.
**12.** Nazarov Q. G'oyalar falsafasi . - T.: Akademiya, 2011.
**13.** Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. - T.: 2004.
**14.** To'ychiyev B.T. Sosialnaya filosofiya. Albom sxema -T.: 2009.
**15.** Falsafa asoslari. Nazarov Q tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
**16.** Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
**17.** Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
**10.** Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.: Universitet, 2005.
**11.** Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - T.: Axborot texnologiyalari, 2008.
**12.** Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya - bilish falsafasi. -T.:"Noshir", 2011.
**13.** Emirova Ye., Strelsova A. Vvedeniye v filosofiyu. - T.: Universitet, 2008
14. Shermuxamedova N.A. Falsafa. -T.: Unversitet, 2012.
15. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Nazarov Q. tahriri ostida. - T.: Sharq, 2004.
16.G'arb falsafasi. Nazarov Q. tahriri ostida. - T.: Sharq, 2005.
17.Asmus V. Antichnaya filosofiya. -M.: 1999.
18. Gurevich P.S.Osnovы filosofii - M.: 2002.
19. Choriyev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
20. Qurbonova L. Borliq falsafasi. -Andijon: ADU, 2009
21. Qurbonova L. Inson falsafasi. -Andijon: ADU, 2009


## MAXSUS ADABIYOTLAR


**10.** Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-18 jildlar.- T.: O'zbekiston, 1996-2010.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
**12.** Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharotida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.
**13.** Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada

yuksaltirishdir. -T.: O'zbekiston, 2010. -78 b.
14. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011. -370 b.
15. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: O'qituvchi, 2012.
16. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. –T.: O'zbekiston, 2012.
17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013.
18. Каримов И.А. Биз доим тарихдан сабоқ чиқариб, тинчликни қадрлаб, ғурур-ифтихор билан яшайдиган халқмиз. Т. Ўзбекистон. 2014.
19. Каримов И.А. Она юртимиз бахту истиқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т. Ўзбекистон. 2015.

20. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.
11. Falsafa ensiklopedik lug'at. Nazarov Q.tahriri ostida. -T.: Sharq, 2011.
12. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - T.: Ma'naviyat, 2008.
13. Karimov B.R. Dialektika obyektivnogo i subyektivnogo v metode vosxojdeniya ot abstraktnogo k konkretnomu. -T.: 1998.
14. Shpengler O. Zakat Yevropы. Rostov na-Donu. 1998.
15. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizasiya pod redaksiyey Fayzullayeva O. - T.: Sharq, 2000.
16. Noveyshiy filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. -M.: 2001.
17. Xotamiy SM. Islom tafakkuri tarixidan. - T.: "Minxoj", 2003.
18. Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - T.: O'zbekiston, 2004.
19.. Plutarx. Saylanma. Z.A'lam va Urfon Otajon tarjimasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.
20. Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2007.
21. Madayeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. -T.: Falsafa va huquq, 2007.
22. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. - T.: O'zbekiston, 2007.
23. Siseron. Notiqlik san'ati haqida ikki risola. Tarjimon Urfon Otajon. -T.: Yangi asr avlodi, 2007.
24. Haqiqat manzaralari. S.Jo'rayeva tarjimasi.- T.: Yangi asr avlodi, 2007.
25. Qurbonova L. Ijodiy tafakkurning falsafiy metodologik tahlili. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Falsafa va huquq, 2007.
26. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. -T.: Universitet, 2008.
27. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
28. Yunusov A. Huquq ma'naviyati. - T.: Adolat, 2008.

**29.** Mamashokirov S, Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. -T.: Fan, 2009.
**30.** Ochilova B., Ғ.Қодиров. Фуқаролик жамияти асослари -T.: Istiqlol, 2014.
**30.** Qahhorova Sh. Global ma’naviyat - globallashuvning g’oyaviy asosi. - T.:Tafakkur, 2009.
**31.** Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2010.
**32.** Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010.
**33.** Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi o’rni- T.:”Star - Poligraf”, 2010.
**34**. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi – T.:Universitet, 2011.
36. С.Кистуабаев., М.Лапасова. Инсон ва табиат муносабатлари диалектикаси – Т. Наврўз, 2015

## Elektron ta’lim resurslari:

**11.** www.philosophy.ru.
**12.** http//www.intencia.ru.
**13.** http://www.anthropology.ru
**14.** http://www.ido.rudn.ru.
**15.** http://www.filosofia.ru.
**16.** http://www.falsafa.dc.uz.
**17.** http://www.phenomen.ru.
**18.** http://www.lib.ru/FILOSOF.
**19.** http://www.filam.ru/sait.phg.
**20.** www. Ziyo net.uz

## 2.1.2. O‘QUV REJASI

## I. “Falsafa” fanidan ma’ruza, amaliy mashg’ulotlari mavzularining soatlar bo’yicha taqsimoti jadvali (jami 40 soat)

| N | Mavzular | Auditoriya soatlari | Jami |
|---|---|---|---|
| | | shundan: | |

| № | Mavzu | Ma’ruza | Seminar | Mustaqil ta’lim |
|---|---|---|---|---|
| **1-Bo’lim. Falsafaning predmeti, rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo’nalishlari** | | | | |
| **1** | Falsafaning predmeti, muamolari va vazifalari | 2 | 2 | 2 |
| **2** | Kadimgi va o’rta asr falsafasi | 2 | 2 | 2 |
| **3** | Yangi va eng yangi davr falsafasi | 2 | 2 | 4 |
| **2- Bo’lim. Ontologiya- borliq falsafasi** | | | | |
| **4** | Borliq va uning asosiy atributlari. Tabiat va inson borlig’i | 2 | 2 | 2 |
| **3-Bo’lim. Rivojlanish falsafasi** | | | | |
| **5** | O’zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari | 2 | 2 | 2 |
| **6** | Falsafa kategoriyalari | 2 | 2 | 2 |
| **4-Bo’lim. Gnoseologiya- bilish falsafasi** | | | | |
| **7** | Falsafada bilish muamosi, bilishning bosqichlari va darajalari | 2 | 2 | 2 |
| **8** | Bilishning metodlari, axborotlashuv, tushunish va tushuntirishning ilmiy falsafiy tahlili | 2 | 2 | 4 |
| **5-Bo’lim. Ijtimoiy falsafa** | | | | |
| **9** | Jamiyatning falsafiy tahlili. Xozirgi zamon falsafasida ijtimoiy jarayonlar tahlili | 2 | 2 | 4 |
| **10** | Faoliyat, ijtimoiy prognozlash xamda globalashuvning falsafiy masalalari | 2 | 2 | 2 |
| **Jami:** | | **20** | **20** | **26** |

## 2.1.3. Kalendar tematik reja

**A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**
**IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**TASDIKLAYMAN**
**Kafedra mudiri _________B.Ochilova**
**« » ___________ 2015y.**

**Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi**
**ning 2015_-2016_ o‘quv yiliga mo‘ljallangan**

# DASTUR BAJARILISHINING KALENDAR REJASI

(ma’ruza, laboratoriya, amaliyot mashg‘ulotlari, kurs ishlari)

**2015-2016 o‘quv yili**

**DASTUR BAJARILISHINING KALENDAR REJASI**

**Fakultet:** **Yo'nalish:**
**Kurs**: 2 kurs
**Akademik guruh:** ..........................................................................................
**Fanning nomi:** Falsafa
**Amaliy mashg'ulotini olib boradi:** ................................................................
Ma'ruza **mashg'ulotini olib boradi:** .................................................................

| № | Mashg'ulot turi | Mavzu nomi | Ajr. soat | Oy va kun | O'qituvchi imzosi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ma'ruza | Falsafaning predmeti, muamolari va vazifalari | 2 | | |
| 2 | Ma'ruza | Qadimgi va O'rta asrlar falsafasi | 2 | | |
| 3 | Ma'ruza | Yangi va eng yangi davr falsafasi | 2 | | |
| 4 | Ma'ruza | Borliq va uning asosiy atributlari. Tabiat va inson borlig'i | 2 | | |
| 5 | Ma'ruza | O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari | 2 | | |
| 6 | Ma'ruza | Falsafa kategoriyalari | 2 | | |
| 7 | Ma'ruza | Falsafada bilish muammosi, bilishning bosqichlari va darajalari | 2 | | |
| 8 | Ma'ruza | Bilishning metodlari, axborotlashuv, tushunish va tushuntirishning ilmiy – falsafiy tahlili | | | |
| 9 | Ma'ruza | Jamiyatning falsafiy tahlili. Hozirgi zamon falsafasida ijtimoiy jarayonlar tahlili | 2 | | |
| 10 | Ma'ruza | Faoliyat, ijtimoiy prognozlash hamda globallashuvning falsafiy masalalari | 2 | | |

**Fan o'qituvchisi ..................................................**

DASTUR BAJARILISHINING KALENDAR REJASI

**DASTUR BAJARILISHINING KALENDAR REJASI**

**Fakultet:** **Yo'nalish:**

**Kurs**: 2 kurs

**Akademik guruh:** ..........................................................................................

**Fanning nomi:** Falsafa

**Amaliy mashg'ulotini olib boradi:** ................................................................

Ma'ruza **mashg'ulotini olib boradi:** ..................................................................

| № | Mashg'ulot Turi | Mavzu nomi | Ajr. soat | Oy va kun | O'qituvchi imzosi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Seminar | Falsafaning predmeti, muamolari va vazifalari | 2 | | |
| 2 | Seminar | Qadimgi va O'rta asrlar falsafasi | 2 | | |
| 3 | Seminar | Yangi va yeng yangi davr falsafasi | 2 | | |
| 4 | seminar | Borliq va uning asosiy atributlari. Tabiat va inson borlig'i | 2 | | |
| 5 | seminar | O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari | 2 | | |
| 6 | seminar | Falsafa kategoryalari | 2 | | |
| 7 | seminar | Falsafada bilish muamosi. Bilishning boskichlari va darajalari | 2 | | |
| 8 | seminar | Bilishning metodlari, axborotlashuv, tushunish va tushuntirishning ilmiy – falsafiy tahlili | 2 | | |
| 9 | seminar | Jamiyatning falsafiy tahlili. Hozirgi zamon falsafasida ijtimoiy jarayonlar tahlili | 2 | | |
| 10 | seminar | Faoliyat, ijtimoiy prognozlash hamda globallashuvning falsafiy masalalari | 2 | | |

**Fan o'qituvchisi ....................................................**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**
**A. QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Tasdiqladi:
O'quv ishlari prorektori
Prof. N.Alimov

________________
2015 yil 27 avgust

**"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi**

**"Falsafa" fanidan**

# MA'RUZALAR MATNI

**(Kafedra yig'ilishida (2015 yil, 25 avgust**
**1-sonli bayonnoma tasdiqlangan)**

**Jizzax – 2015**

## 1-mavzu: Falsafaning predmeti, muamolari va vazifalari

**Reja:**

1. Falsafalarning mavzui va ilmiy bilimlari tizimida tutgan o'rni
2. Dunyoqarash tushunchasi. Dunyoqarashning tarixiy turlari
3.Falsafaning sohalari, muamolari va vazifalari
4.Hozirgi davrda falsafa ehtiyoji

***Tayanch tushunchalar***

Falsafa, faylasuf, falsafiy muammolar, falsafaning milliyligi, falsafaning umuminsoniyligi, o'zbek falsafasi.

***ADABIYoTLAR***


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak ущi. T., Shaxri, 1998.
2. Karimov I. «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman». «Fidokor» gazetasi, 2000 yil 8 iyun.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011. -370 b.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: O'qituvchi, 2012.
5. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. –T.: O'zbekiston, 2012.
6.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013.
7.Каримов И.А. Она юртимиз бахту истиқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т. Ўзбекистон. 2015. 302б.
8. Falsafa o'quv qo'llanma.T., Sharq.1999.
9. «Osnovы filosofii». – T. «O'zbekiston», 1998.
10. Q. Nazarov (tahriri ostida) Falsafa asoslari. T., 2005.
11. J. Tulenov "Falsaf" darslik. T., 2007.
12. Axmedova "Falsafa" o'quv qo'llanma. T., 2007.
13. Shermuxamedova N.A. Falsafa. -T.: Unversitet, 2012.
14. Умаров С. Маънавият мулкига саёҳат. Т. Ўзбекистон. 2013.
15. С.Отамуродов. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. Т. Ўзбекистон. 2015.


Bashariyat milodiy XX asr bilan xayrlashib, uchinchi ming yillikka qadam qo'ymoqda. Èíñîíèÿò bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Fan va texnika, madaniyat va maorif beqiyos rivojlandi. Odamzod o'zining aql-zakovati va mehnati bilan juda ko'p yangiliklar yaratdi. Dunyoning ko'plab sir-asrori kashf etildi, buyuk ixtirolar qilindi.

Ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to'plangan hikmatlar xazinasi eng muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari bo'ladi. Ular o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta'limotlarida, muayyan darajada, ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalarni o'rtaga tashlaganlar. Õalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bayroq sifatida namoyon bo'ladigan bu g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, **falsafa o'zi nima,** degan masalaga to'xtalib o'taylik. U insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardandir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o'zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir.

Falsafa asoslari bayon qilingan aksariyat darsliklarda ushbu atama qadimgi yunon tilidagi «filosofiya» so'zidan olingani va u «donishmandlikni sevish» («filo» — sevaman, «sofiya» —

donolik) degan ma'noni anglatishi ta'kidlanadi. Bu — ushbu so'zning, atamaning lug'aviy ma'nosi bo'lib hisoblanadi. Asrlar davomida filosofiya so'zining ma'no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o'rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo'lgan, bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o'zgarib borgan.

«Filosofiya» atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui Qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII-III asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. O'sha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi.

Qadimgi Yunonistonda «Filosofiya» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan, buyuk alloma Pifagor ishlatgan. Yevropa madaniyatiga esa, u buyuk yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to'g'rirog'i, «fanlarning otasi», ya'ni asosiy fanga aylangan.

Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat to'g'risidagi ilm hisoblanar edi. Shu ma'noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o'rni haqidagi qarashlar tizimi bo'lib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi. Bundan tashqari, qadimgi Yunonistonda yuz bergan buyuk uyg'onish davri o'ziga xos falsafiy mafkurani ham yaratganligi shubhasiz. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi ekanini, ana shu erkin hayot to'g'risidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos bo'lganini aksariyat olimlar alohida ta'kidlaydi.

Sharqda «Ikkinchi Arastu», «Ikkinchi muallim» deya e'tirof etilgan buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy filosofiya so'zini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan.

Hayot qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o'tkinchi ekani, abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab yetgan, o'zi va o'zgalar qadrini to'g'ri tushunadigan kishi hyech qachon «Men — donishmandman» deya ochiq e'tirof etmaydi. Ayniqsa, Sharq xalqlari hayotida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo, Farobiy ta'kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda hayotning qadriga yetish — boshqa gap. Shu ma'noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko'pdan-ko'p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuhrat qozongan alloma va mutafakkir kishilar tushunilgan.

XIX asr nemis qadriyatshunosi I. Rikkert ham shunga o'xshash fikrni quyidagicha bayon qilgan: «Odamzod olam va odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf, kim bo'lganidan qat'i nazar, hayotni qadrlaydigan kishi bo'lgani shubhasiz».

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqyelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Chunki behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo'lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro'y beradi. Eng muhimi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid'at va cheklanishlarga muxolif bo'lgan hurfikrlikdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo'ldi.

«Falsafa» atamasi «filosofiya»ning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Xususan, keng ma'noda uni antik — qadimiy falsafada «donishmandlikni sevish» deb tushunilganini aytib o'tdik. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi T. Gobbs (1588—1679) uni «to'g'ri fikrlash orqali bilishga erishish», nemis faylasufi Hyegel «umuman predmetlarga fikriy yondashish», Lyudvig Feyerbax «bor narsani bilish», pragmatizm ta'limoti namoyandalari esa, «foydali narsalarni bilish jarayoni» deya talqin etgan.

«Falsafa» tushunchasi tor ma'noda madaniyat, san'at, aqliy yoki hissiy bilish usuli, vositasi tarzida ta'riflanadi. Falsafaga bo'lgan munosabatning xilma-xilligiga asoslangan holda, unga yaxlit, umumlashgan ta'riflar ham berilgan. Falsafaga ijtimoiy ong shakli bo'lgan madaniyat, san'at, qadriyat

nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, uning milliyligini aks ettirish imkoniyati tug'iladi. Ammo ontologiya, gnoseologiya, naturfilosofiya, antropologiya kabi fan sohalari nuqtai nazaridan qaralsa, ushbu ta'rifda umuminsoniylik va universallik falsafaning asosiy xususiyati ekanini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Haqiqiy falsafa tafakkur mahsuli bo'lgan narsalarni oliy darajadagi haqiqat sifatida mutlaqlashtirmaydi. Bu borada Suqrotning «Men hyech narsani bilmasligimni bilaman» degan e'tirofi haqiqat mezonidir. Holbuki, Suqrot qadimgi Yunonistonning eng bilimli faylasufi bo'lgan. U bilimdon, bahs-munozara chog'ida har qanday suhbatdoshni ham mot qilib qo'ya olgani haqida tarixda misollar ko'p. Falsafiy bilimlar rivoji uzluksiz jarayon bo'lib, u insoniyatning tafakkur bobida ilgari erishgan yutuqlarni tanqidiy baholashni taqozo etadi. Biroq bu — ularni tamoman rad etish, ko'r-ko'rona tanqid qilish lozim degani emas, balki ularga xos barcha xato va kamchiliklarni anglab, yaxshi va ijobiy jihatlaridan foydalanish demakdir. Ana shunday tanqidiy yondashuv va vorislik falsafaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Bu fanning oldiga qo'yilgan vazifalarga va uning hayotdagi o'rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo'lgan munosabat ham o'zgarib borgan. Bu munosabatlar dastlabki fanlar paydo bo'lib va ularning ba'zilari falsafadan ajralib, alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllana boshlagan.

Falsafaning ijtimoiy ong tizimida tutgan o'rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masala hamma davrlarda ham dolzarb bo'lgan. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida falsafaning asl mohiyatini bilish, uning usul va g'oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan.

Falsafa, sirasini aytganda, ijtimoiy tafakkur rivoji yutug'i va insoniyat ma'naviy taraqqiyoti mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o'zlashtirish, farovon hayot kechirish va o'z insoniy salohiyatlarini namoyon etish ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir. Falsafiy ta'limotlar hamma davrlarda ham insoniyatning ilg'or tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan va insoniyat madaniyatini yanada yuksakroq bosqichga ko'tarishga xizmat qilgan.

Har bir falsafiy g'oya, mafkura, bilimlar tizimi asosan o'z davri xususiyatlarini aks ettirgan. Ular zamon ruhi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan, davr muammolarini hal etishda qo'l kelgan. Shuning uchun Aflotun, Forobiy va Beruniy, Navoiy va Xegelning asar va ta'limotlarida ular yashab o'tgan davr g'oyalari aks etgan.

Kishilik jamiyati hyech qachon bir tekis va silliq rivojlanmagan. Taraqqiyot ortidan inqirozlar, yutuqlar ketidan mag'lubiyatlar, farovonliklar izidan zavolga yuz tutishlar ta'qib etgan. Muayyan jamiyat iqtisodiy-siyosiy, axloqiy-diniy, badiiy-estetik taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg'or falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezadi.

Shuning uchun ham buyuk falsafiy ta'limotlarni, bir tomondan, madaniy-intellektual rivojlanish samarasi, ikkinchi tomondan, tub ijtimoiy o'zgarishlar taqozosi deyish mumkin. Muayyan tarixiy burilish davrida «Falsafa nima o'zi?» degan masala dolzarb ahamiyat kasb etishi ham shundan. Ana shunday davrlarda kishilar falsafaning mohiyati, uning maqsad va vazifalarini yangicha idrok etganlar.

Qadimgi Yunoniston va Rim davridan buyon o'tgan ikki ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida «Falsafa endi yo'q bo'ldi, uni o'rganishning hyech bir zarurati qolmadi» qabilidagi gaplar ko'p bo'lgan. Lekin zamonlar o'tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va u insonning ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Bu jihatdan quyidagi rivoyat juda ibratlidir. Miloddan oldingi birinchi asrda yashab o'tgan buyuk faylasuf Lukresiyning shogirdlaridan biri unga qarab, «ustoz, fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko'payib ketdi. Endi falsafani o'rganishning hojati bormikan?» debdi. Shunda ulug' faylasuf bamaylixotir gap boshlab, «Falsafani Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Lekin endilikda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o'rganmaslik har qaysi nodonning ham qo'lidan keladigan ish bo'lib qoldi», degan ekan.

Falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi. Masalan, biologiya o'simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo'nalishdagi jarayonlarning ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi.

Binobarin, biolog har qanday rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o'zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qo'yilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. Ya'ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo'nalishdan falsafiy muammo tusini oladi.

Endi **Faylasuf kim,** degan savolga javob beraylik. Filosof so'zini, yuqorida aytganimizdek ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo'llagan. Bu tushunchaning ma'nosini u Olimpiya o'yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya'ni o'zi va o'zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh – savdo-sotiq qilish, boyligini ko'paytirish uchun, uchinchisi esa, o'yindan ma'naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko'ra, faylasuflar edi.

Bu, bir qarashda, oddiy va jo'n misolga o'xshaydi. Ammo uning ma'nosi nihoyatda teran. Chunki, inson umrining o'zi ham shunday. «Dunyo teatrga o'xshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga chiqadi va o'z rolini o'ynab dunyoni tark etadi», degan fikr bejiz aytilmagan. Kimdir bu dunyoga uning sir-asrorlari to'g'risida bosh ham qotirmasdan kelib ketadi, umrini yeyish-ichish, uy-ro'zg'or tashvishlari bilan o'tkazadi. Boshqasi – nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qo'yadi. Uchinchisi esa, olam hikmatlarini o'rganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat bo'larli hayot kechiradi.

Qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, inson ma'naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlargina falsafa bilan shug'ullanganlar. Aslida, o'sha davrlarda falsafani o'rganish deyilganda, ilmning asoslarini egallash ko'zda tutilgan. Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 520-460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Do'stim, sen hali yoshsan, umringni bekor o'tkazmay desang, falsafani o'rgan», deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 470-399 yillarda yashagan) bu haqiqatni quydagicha ifoda etgan: «O'z-o'zingni yerga urish, tubanlashish nodonlikdan boshqa narsa emas, o'zligingdan yuqori turish esa – faylasuflikdir».

Lev Tolstoy donishmand kishilarning uch xislatini alohida ta'kidlab, shunday yozgan: «Ular, avvalo, boshqalarga bergan maslahatlariga o'zlari amal qiladilar; ikkinchidan, hyech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar; uchinchidan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydilar».

Xuddi shuningdek, Sharqda ham Konfusiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o'z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to'plangan bilim va tajribalarni o'zlashtirish orqali faylasuf darajasiga ko'tarilganlar.

Umuman olganda, bilimdon kishilarning barchasini ham donishmand yoki mutafakkir deb bo'lmaydi. Haqiqiy faylasuflar hayotda nihoyatda kam bo'ladi. Ular o'z davri va millatining farzandi sifatida insoniyat tarixiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xudoning o'zi aql-zakovat, iste'dod, kuch-quvvat ato etgan, yorqin tafakkurga ega bo'lgan bunday buyuk shaxslar umumbashariy taraqqiyot miqyosida tanilgan, teran insoniy g'oyalar, ma'naviy boyliklarning qadr-qimmatini chuqur anglaydigan donishmand odamlar bo'lgan[6].

Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi davrda bizda falsafa ixtisosligi bo'yicha ma'lumot olgan mutaxassisni faylasuf deyish odat tusiga kirib qoldi. Aslida, faylasuf so'zi ana shu tarzda ishlatilganida ushbu sohaning zamonaviy mutaxassisi, uning asoslarini egallagan, mazkur yo'nalishda tadqiqot olib boradigan yoki ilmiy darajaga ega bo'lgan kishilar tushuniladi, xolos.

**Falsafa fanining muammolari,** o'z xususiyatlariga ko'ra, azaliy va yoki o'tkinchi bo'lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo'lgan davrdayoq vujudga kelgan bo'lib, toki odamzod

[6] Ислом Каримов. «Миллий истиiлол мафкураси - халi эътиiоди ва буюк келажакка ишончдир»: «Фидокор» газетаси мухбири саволларига жавоблар. - Т.: «¤збекистон», 2000.

mavjud ekan, yashayveradi. Chunki insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo'yilaveradi. Ularni o'rganish jarayonida ilm-fan taraqqiy etib boradi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliqning voqyeligi, undagi o'zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'liq ko'pdan-ko'p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining azaliy muammolari sirasiga kiradi.

Falsafada olamning asosida nima yotadi, uni voqye etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq tarixga ega. Qadimgi Yunoniston va Rimda bu masala **«Substansiya»** tushunchasi va uning mazmunini qanday tushunilishiga qarab o'ziga xos ifodalangan. Substansiya deganda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to'g'risidagi fikr tushunilgan. Yunoniston faylasufi va matematigi Pifagor hamma narsa sonlardan tashkil topgan degan bo'lsa, Aflotun substansiya — g'oyalardir degan, Demokrit esa, olamning asosida atomlar (atom tushunchasi o'sha davrda bo'linmas zarracha ma'nosida ishlatilgan) yotadi deb tushuntirgan.

Bu masalalarni qay tarzda hal qilinishiga qarab farqlanadigan falsafiy oqim va yo'nalishlar ham yo'q emas. Masalan, olamning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masalada monizm, dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

**Monizm** (yunoncha — monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) — olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.

**Dualizm** (lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, ya'ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

**Plyuralizm** (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) — olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

**Materializm** — olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

**Idealizm** — olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqyeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar bilan falsafaning gnoseologiya (gnosis — bilish, logos — ta'limot) degan sohasi shug'ullanadi. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni – **gnostiklar;** olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to'g'ri va aniq haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchilarni esa – **agnostiklar** (yunoncha — bilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatadi) deb yuritiladi.

Olamdagi o'zgarish, rivojlanish, umumiy aloqadorlik va taraqqiyotning qay tarzda amalga oshishi, qanday sodir bo'lishi kabi masalalar ham falsafaning azaliy muammolari qatoriga kiradi. Falsafada ana shu mavzularga munosabat va ular bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qarab farqlanadigan bir necha ta'limot, qarash, usul va metodlar bor. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, dogmatika kabilar shular jumlasidandir. Ularning tarixi nihoyatda uzoq bo'lib, Qadimgi Yunoniston va Rim davridan (miloddan oldingi VII — I asr) boshlanadi. Keyingi yillarda sinergetika ham falsafiy metod va ta'limot sifatida talqin etilmoqda. Falsafiy metodlar olam qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi va bu usullardan faylasuflar o'z tadqiqotlarini amalga oshirish yoki izlanishlarining natijalarini izohlashda foydalanadilar.

**Dialektika** – grek tilida baxs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda deb tushunishdir. Unga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga, yashash vaqti va harakat yo'nalishiga ega bo'lgan barcha narsalar va voqyealar bir-birlari bilan bog'liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon bo'ladi.

Masalan insoniyat tarixiga bu usulga asosan yondoshilganida, u uzluksiz tarzda ro'y beradigan avlodlar o'rin almashuvi, birining o'rniga ikkinchisi kelishi, muayyan qadriyatlarni meros qoldirishi va yangilikning eskilikni inkor qilishidan iborat doimiy va takrorlanib turadigan jarayondir. Bashariyatning muayyan davrida esa, shu zamonning ijtimoiy manzarasini belgilaydigan turli uru²

yoki qabilalar, davlat, millat va xalqlar, oqim va yo’nalishlar, ²oya va mafkuralarning xilma-xil shakllarini ko’rish, ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo’lishini kuzatish mumkin.

Taraqqiyot jarayonida avlodlar, davrlar, siyosiy tuzumlar, umuman ijtimoiy voqyea va hodisalar o’z-o’zidan avtomatik tarzda sodir bo’lib, nom-nishonsiz yo’qolib ketmaydi. Balki ularning barchasi insonlar o’rtasidagi o’zaro aloqa va munosabatlarning hosilasi, ijtimoiy jarayonlarning natijasi, biror sababning oqibati sifatida namoyon bo’ladi. Bir davr ikkinchisining o’rniga, bir avlod oldingisidan keyin, bir voqyea boshqasining ortidan sodir bo’lib turadi. Ana shu abadiy va azaliy uzluksizlik, doimiy aloqadorlik, vaqtning orqaga qaytmasligi va voqyealarning ketma-ketligi tarzidagi bo²lanishlar, rivojlanish va taraqqiyot, olamning rang-barangligi va uy²unligi dialektikaning asosiy tamoyillarini tashkil qiladi.

Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkurni – dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni – dialektik dunyoqarash, yondashuvni – dialektik yondashuv, metodni – dialektik metod deb atash an’anaga aylangan. Shu bilan birga u yoki bu olimning ushbu tamoyillarga asoslanadigan dunyoqarashi, falsafiy ta’limotlari ham bor. Masalan, Demokrit va Geraklit dialektikasi, Kant yoki Hyegel dialektikasi deyilganda ana shunday hol nazarda tutiladi.

**Metafizika** – grekcha so’z bo’lib, lu²aviy ma’noda «fizikadan keyin» degan mazmunni ifodalaydi. Bu tushuncha, falsafa tarixida birinchi marta, Qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotelning «Ilk falsafa» deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan. Ko’p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o’rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o’zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko’proq qaratadigan usuldir. Bu usul qo’llanganida olamning namoyon bo’lish shakllari hamda ular bilan bog’liq bo’lgan jarayonlarning alohida qismi yoki holatiga asosiy e’tibor beriladi. Voqyea, hodisa va jarayonlarni doimiy o’zgarish holatida o’rganish nihoyatda qiyin bo’lganligidan, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o’zgarmay turgan holatini o’rganadilar, tadqiq etadilar.

Aslini olganda olam garchand dialektik o’zgarish va harakatda bo’lsada, bu jarayon doimo ham nihoyatda tez sodir bo’lavermaydi. Biz esa dunyodagi narsa, hodisa va odamlarga shunchalik metafizik tarzda o’rganib qolganmizki, go’yo kechadan bugunning farqi yo’qdek, kecha ko’rgan kishiga bugun duch kelganimizda unda hyech qanday o’zgarishlar bo’lmaganday tuyuladi. Shu ma’noda, hayotda ko’p hollarda metafizik usulda fikr yuritamiz, nimalargadir ana shunday munosabatda bo’lamiz. Aslida esa ular ham azaliy o’zgarishlar jarayoniga tushgan narsa va kishilar ekanligini juda kamdan-kam hollarda o’ylab ko’ramiz. Xuddi shunday, bizning umrimiz ham kechadan ertaga qarab oqib turadigan dialektik jarayondir. Biz ham ana shunday o’zgarib boramiz, ammo ko’p hollarda bunga unchalik ko’p e’tibor berilavermaydi. Shu tariqa maktabni tugatib qo’yganimizni, ul²ayganimizni, bolalikning ortda qolganini go’yoki bilmay qolamiz...

Alohida ta’kidlash lozimki, metafizik usulning ham hayotda, ilmiy izlanishlar va falsafiy tadqiqotlarda o’z o’rni bor. Bizda haligacha metafizikaning tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari va ilmiy mohiyati izohlangan yoxud tadqiq etilgan asarlar va tadqiqotlar yo’q. Qolaversa uni dialektika bilan butunlay qarshi qilib qo’yish va bu farqni mutlaq ziddiyat darajasiga ko’tarish ham maqsadga muvofiq emas. Aynan ana shunday yondashuv sobiq ittifoqda dialektikani mutlaqlashtirishga, metafizikani esa quruq va o’lik ta’limot sifatida qarashga, uning imkoniyatlaridan foydalanilmasligiga sabab bo’ldi.

**Sofistika** — qadimgi Yunoniston falsafasida vujudga kelgan tafakkur usulidir. Ko’pgina darslik va qo’llanmalarda bu ibora yunon tilidagi «sopism» so’zi asosida, ya’ni ataylab xilma-xil ma’noga ega bo’lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to’g’ri kelmaydigan, ko’chma ma’no-mazmunga erishish usuli, deb ta’kidlanadi. Bu usul qo’llanilganda fikrning mazmuni ko’chma ma’noda bayon qilinadi, ya’ni «Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» deganga o’xshash holat nazarda tutiladi. U nafaqat Qadimgi Yunoniston, balki o’rta asrlarda Yevropada ham keng tarqalgan. Agar bu usul yol²on xulosalarga olib kelsa, nega o’z davrining ko’pgina dono kishilari undan foydalanganlar, degan savol tu²ilishi mumkin. Ma’lumki, insoniyat tarixida hurfikrlilik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatni to’²ri ifodalashning iloji qolmagan zamonlar ko’p bo’lgan. Bunday holni inkvizisiya hukmron bo’lgan o’rta asrlar Yevropasiga ham tadbiq etish mumkin. O’sha davrda ham ko’pgina ziyolilarning ana shu usulga suyanmasdan iloji yo’q edi. Umuman olganda, «do’ppi tor kelib qolgan» ana shunday zamonlarda fikrni Gulxaniyning mashhur «Zarbulmasal» asari kabi

ifodalash hollari uchrab turadi. Buni o’rta asrlar Yevropasiga nisbatan olsak, unda Servantesning «Don Kixot» asari nima sababdan shunday yozilganligi, uning bosh qahramoni esa nima uchun shamol tegirmonlariga qarshi jang qilganligi va bu lavhalar zamirida qanday botiniy mazmun yashiringani aniq bo’ladi.

**Sinergetika** — olamning o’z-o’zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqyealarning azaliy ketma-ketligi, o’zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog’lanishlar asosida mavjudligini e’tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. U asosan, XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ta’limot bo’lib, asoschisi Nobel mukofoti sovrindori N. Prigojindir. Bu ta’limotni dialektika asosida shakllangan va uni to’ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o’laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim deb hisoblovchilar ham yo’q emas.

Bizningcha, sinergetikaning XX asrdagi shaxdam odimlari o’rta asrlarda Yevropada aniq fanlar sohasida induksiya va deduksiya usullarining muvafaqqiyatli qo’llangani, katta mavqyega ega bo’lgani va pirovard natijada, falsafiy metodga aylanganini eslatadi. Sinergetikani XX asr tabiiy fanlarining falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo, bu uning dialektikani falsafadan butunlay surib chiqaradi degani emas. Zero, falsafada har bir ta’limot, uslub va metodning o’z o’rni va faoliyat doirasi bor. Dialektikaning falsafadagi ahamiyatiga kelganda esa, uning ijtimoiy bilimlar sohasidagi o’rni, qadr-qimmati nihoyatda katta va u falsafaning asosiy qismlaridan biri bo’lib qolaveradi.

Ana shunday turli-tuman qarashlarga asos bo’lgan masalalar hanuzgacha ozmi-ko’pmi har bir faylasuf va falsafiy oqim yoki ta’limotlarda o’z o’rniga ega bo’lib kelmoqda. Biz ularga keyingi bo’limlarda kengroq to’xtalishga harakat qilamiz.

Falsafaning umumbashariy fan ekani, uning bahs mavzulari va asosiy muammolarini belgilab beradi. Shu ma’noda odam va olam, ularning ibtidosi va intihosi, hayoti va o’zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari falsafa uchun azaliy muammolardir. Shu bilan birga, muayyan davrda tug’iladigan va hal etiladigan o’tkinchi muammolar ham bo’ladi. Ular abadiy muammolar darajasiga ko’tarilmasa-da, o’z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun, muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa yangi g’oyalarning tug’ilishiga imkon beradi. Hayot, ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog’liq holda rivojlanadi. U tarixiy davr bilan mustahkam aloqadorlikda taraqqiy etadi. Har bir tarixiy davr, uning oldiga yangi masala va muammolarni qo’yadi. Falsafiy muammolar bevosita hayot zaruratidan tug’iladi. Aynan ular orqali falsafada davrning taraqqiyot tamoyillari va o’ziga xos xususiyatlari aks etadi. Masalan, hozirgi davrda istiqlol mafkurasi falsafiy asoslarini izohlash zarurati shu bilan belgilanadi.

Falsafiy ta’limotlarda jamiyat hayotining barcha sohalari tarixiy jarayonga xos tamoyillar, ijtimoiy guruhlarning manfaat va kayfiyatlari, tafakkur usullari o’z aksini topadi. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy kuch, sinf, guruh, partiya va oqimlar o’z maqsad-muddaolari va g’oyalarini ilmiy asoslashda falsafadan foydalanadi. Falsafadagi ustuvor qarash va qoidalar davr mahsuli bo’lgani uchun, zamonning taraqqiyot tamoyillari va muammolari unda o’z ifodasini topadi.

**Falsafada milliylik va umuminsoniylik tamoyili.** Albatta, falsafa umuminsoniy fan sifatida bashariyatga doir umumiy muammolarni qamrab oladi. Ma’lumki, olam va odam munosabatlari, jamiyat va tabiatni asrash, umrni mazmunli o’tkazish, yaxshilik va yomonlik kabi qadriyatlar bilan bog’liq masalalarning barchasi insoniyat uchun umumiy. Ammo falsafada muayyan milliy xususiyat, maqsad va intilishlar ham o’z ifodasini topadi. Aslida, yuqorida zikr etilgan umuminsoniy mavzu, masala va muammolarning barchasi avval-boshda xususiy, milliy, mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar tarzida namoyon bo’ladi. O’z yurti, millati, ota-onasi va yor-birodarlarini sevgan vatanparvar inson, avvalo, ana shularning kamoli uchun qayg’uradi, ularni o’ylaydi, ularga xizmat qilishni oliy saodat deb biladi. Bunday shaxs dunyoqarashida ana shu jihat va xususiyatlar albatta aks etadi. Bu esa, o’z navbatida, umuminsoniy fan bo’lgan falsafada milliylikning aks etishiga asos bo’ladi. Umuminsoniylik — vatansizlik (kosmopolitizm) bo’lmagani singari, milliylik ham — milliy qobiqqa o’ralish, milliy mahdudlik degani emas.

Lekin sizning xayolingizda beixtiyor **«Milliy falsafa bo'lishi mumkinmi?** Axir, yuqorida falsafaga o'z mohiyati bilan umuminsoniy fandir, degan ta'rif berildi-ku?» – degan savollar charx urishi mumkin. Bu — o'ziga xos milliy taraqqiyot yo'lidan ketayotgan barcha xalqlar falsafasi uchun daxldor bo'lgan savollardir. Agar biz yuqorida qayd etilgan muammolarga milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda bu yo'nalishni rivojlantirish zarurati yetilganini anglaymiz.

Falsafiy adabiyotlarda milliy falsafa mavzuida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim faylasuflar, aslida milliy falsafa bo'lishi mumkin emas, bunday yondashuvning o'zi etnik mahdudlikka olib keladi, deb hisoblaydi. Boshqalari esa, modomiki, milliy falsafa milliy g'oya va mafkurani shakllantirishnig nazariy asosi ekan, har qanday umumiy qonuniyatlar muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda xususiy holda namoyon bo'ladi, deya milliy falsafani yoqlab chiqadi.

Biz millat bor ekan, milliy madaniyat, til va adabiyot ham mavjud degan fikrga o'rganib qolganmiz. Aslida, ularning barchasi nafaqat bir millatga, balki butun insoniyatga xos-ku! Bizning nazarimizda, milliy falsafa millat mentalitetini belgilaydigan muhim omildir. Umumbashariy sivilizasiyaga uzviy qo'shilish jarayoni milliy falsafani yaratish orqali sodir bo'ladi. Eng muhimi — falsafadagi milliylik umuminsoniylikni rad qilish evaziga emas, balki uni ijodiy boyitish orqali rivojlanib boradi.

Falsafa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayrim milliy falsafalarning umuminsoniy ma'naviyat xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shilganini ko'ramiz. Masalan, Rim imperiyasi zavolga yuz tutganidan keyin o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lgan Yevropa mamlakatlarida, o'rta asrlarga kelib, milliy falsafa yaratish imkoni tug'ildi. (O'rta asr Yevropa madaniyatiga bag'ishlangan mavzuda bu haqda atroflicha fikr yuritamiz). To'g'ri, ular umumevropa hududida, qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati negizida shakllandi. Ularda Yevropa xalqlariga xos umumiy jihat va xususiyatlar, umumetnik mentalitet aks etgan edi. Bu jarayon avvalo, Italiya va Angliyada, so'ngra Fransiyada yuz berdi. Bu falsafiy maktablarning F. Bekon va R. Dekart, B. Spinoza va J.J. Russo kabi atoqli namoyandalari nafaqat o'z mamlakatlari, balki Yevropa va jahon falsafasi tarixida o'chmas nom qoldirdi. Ular, avvalambor, o'z yurti, o'z millati sha'nu sharafini yuksaklikka ko'tarish, taraqqiyotga olib chiqish uchun ilg'or g'oyalarni o'rtaga tashlagan, davr taqozo etgan mafkuraning shakllanishiga hissa qo'shgan.

Xuddi shunday, XV111-X1X asrlarda milliylik va jahon falsafasining taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan hudud Prussiya bo'ldi. Uzoq vaqt Avstriya-Vengriya imperiyasi tarkibida bo'lgan bu o'lka mustaqillikka erishib, milliy davlatchiligini tiklaganidan keyin, milliy ozodlikning falsafiy in'ikosi o'laroq I. Kant, I. Hyegel, Fixte, Shelling, Feyerbax kabi donishmandlar tomonidan asoslangan nemis falsafasi shakllandi. Keyinchalik bu falsafa Nichshe, Freyd kabi ko'plab faylasuflar tomonidan rivojlantirildi. Ushbu falsafa maktabining atoqli namoyandasi hisoblangan Hyegel ta'limoti esa, Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi maqomini oldi. Hamma narsaning o'tkinchi ekanligini nihoyatda yaxshi biladigan, yangi zamonning Arastusi nomini olgan Hyegel Pruss monarxiyasining o'tkinchi ekanligini bilmasmidi? Nima sababdan u dialektik ta'limoti emas, balki monarxiyaga xizmat qilgan falsafiy sistemasining mukammalroq bo'lishi uchun ko'proq kuch sarfladi? degan savollar haligacha faylasuflarni o'ylantirib keladi.

Xo'sh, nima sababdan Hyegel bu yo'ldan bordi? Chunki, Hyegel o'z davrining, o'z xalqining farzandi edi. U mustaqil nemis milliy davlati — Pruss monarxiyasi davrining mahsuli, o'sha davr falsafasining namoyandasi edi. U «Faylasuflar osmondan yomg'ir kabi yog'ilmaydilar yoki yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek yerdan o'sib chiqmaydilar, balki ularni xalq yaratadi» deganida aynan ana shuni nazarda tutgan edi. Hyegel o'z ijodi va faoliyati bilan Pruss monarxiyasi, garchand monarxiya shaklida bo'lsada, nemis davlati ekanligini o'z millatining ongi va dunyoqarashini tarkibiy qismiga aylantirib keta olgan buyuk faylasuf edi. Uning «Aqlga muvofiq narsalarning barchasi voqyedir, voqye bo'lgan narsalarning barchasi esa aqlga muvofiqdir», degan so'zlarini ham ana shu ma'noda tushunish lozim. Hyegelning bu masalada dialektik emas, balki metafizik usulga ko'proq e'tibor berganligining sababi ham ana shunda.

O'sha davrgacha, Rim imperiyasi qulaganidan keyin ko'proq tarqoq hududlarga bo'linib, Avstriya-Vengriya imsperiyasi tarkibida yashab kelgan nemis millati uchun Pruss monarxiyasi — milliy davlat edi. Uning shakli-shamoyili kelajakda o'zgarishi boshqa masala bo'lgani holda, bu

davlatning Yevropada nemis milliy davlati tarzida saqlanib qolishi, uning millat falsafasiga aylanishi bilan bog'liq edi. Millat falsafasiga, uning dunyoqarashiga aylangan milliy davlatchilik g'oyasi hyech qachon so'nmaydi, garchand yurtni yovlar asrlar davomida bosib tursalarda, qachondir baribir qad rostlaydi va millatning davlati tarzida yana qayta namoyon bo'ladi. Hyegel o'z millatining falsafasi va dunyoqashiga o'sha davlatning shakli-shamoyilini va mazmun-mohiyatini singdirib keta olgan faylasuf darajasiga ko'tarilgani uchun ham bu millat tarixida va u orqali, jahon falsafasi tarixida abadiy qoladi. Milliylik va umumevropa madaniyatidan bahra olgan bu falsafa haligacha o'z jozibasini yo'qotmaganligining sabablaridan biri ham ana shunda.

Shunga o'xshash vazifani, o'z davrida, millatimizning asl farzandi Alisher Navoiy ham bajargan. U ozodlikka erishgan millat falsafasini adabiyot falsafasiga, mustaqil davlat tilini adabiyot tiliga aylantira olgan, o'z xalqining bu sohadagi dahosi buyuk ekanligiga, nafaqat zamondoshlari, balki kelajak avlodlarni ham ishontirib keta olgan edi. Navoiy va uning zamoniga, o'sha davrga xos o'zgarishlarning boshida turgan Amir Temur faoliyatiga qayta-qayta murojaat etilishining sabablaridan biri ham ana shunda. Zero, har bir xalq, avvalo, o'zining tarixidan bugungi kun uchun tashbehlar izlaydi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun asos bo'ladigan ma'naviy tamoyil, an'ana va qadriyatlarga murojaat qiladi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin milliy falsafani shakllantirish uchun imkoniyatlar ochildi. Bugun ulug' ajdodlarimiz tamal toshini qo'ygan o'zbek milliy falsafasini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari mavjud. Bu borada, avvalo, Prezident Islom Karimov asarlarida o'zbek falsafasining taraqqiyot qonuniyatlari ochib berilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Prezidentimiz falsafa oldidagi bugungi muammolarning mohiyati, ularni hal qilish yo'llariga alohida e'tibor bermoqda.

Shu bilan birga, bugungi o'zbek falsafasining rivojini ta'minlashda quyidagi jihatlar alohida o'rin tutadi:

- xalqimizning o'z milliy an'analariga sodiqligi;
- mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi;
- muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e'tiqodi;
- mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar.

O'zbek falsafasini yanada taraqqiy ettirish vazifalarini amalga oshirish quyidagi muammolarning yechimini topishga bog'liq:

- birinchidan, mustamlakachilik sharoitida soxtalashtirilgan tariximizni haqqoniy yoritish falsafiy g'oyalar, qarashlar tarixini ham xolis ko'rsatib berishni taqozo qiladi. O'z davrida qimmatli tarixiy manbalarning yo'q qilingani yoki ayovsiz talon-taroj etilgani bu ishni qiyinlashtirmoqda;
- ikkinchidan, mavjud manbalar arab yoki fors tillarida ekanligi, ularni biladigan faylasuf olimlarning, malakali tarjimonlarning kamligi umuminsoniy ma'naviy merosdan bahramand bo'lish va ulardan ijodiy foydalanishga to'siq bo'lmoqda;
- uchinchidan, odamlar ongidan mustabid tuzumning soxta g'oyalarini, ular qoldirgan asoratlarni siqib chiqarish, mafkuraviy bo'shliqni yangi g'oyalar bilan to'ldirish, istiqlol mafkurasini shakllantirish muayyan vaqtni taqozo qiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bugungi falsafa masalalari bilan shug'ullanuvchi olim va tadqiqotchilar zimmasiga nihoyatda katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda, eng avvalo, mazkur sohaga aloqador har bir yurtdoshimiz dunyoqarashining milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan o'zgarishi nihoyatda muhimdir. Mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etilayotgan hozirgi davrda bu jarayonning qanday borishi yangi falsafiy ongning shakllanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

**Dunyoqarash tushunchasi.** *Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqyelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.*

*Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.*

Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o'z-o'zicha rivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo'lgan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar shakllanadi. Bu – dunyoqarashning o'z-o'zicha rivojlanuvchi (stixiyali) shakli hisoblanadi. Uni ko'pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar.

Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bo'lib, ongning sodda namoyon bo'lish shakllarini ham, oqilona va sog'lom fikrlarni ham o'z ichiga oladi. Hayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashning o'ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalaridagi bilim va tajribalar ta'sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. «Har kimning o'z falsafasi bor» deyilganida ana shu hol anglashiladi. Demak, dunyoqarash o'zining kundalik ommaviy shakllarida chuqur va yetarli darajada asoslanmagan stixiyali xarakterga ega. Shuning uchun ham ko'p hollarda kundalik tafakkur muhim masalalarni to'g'ri tushuntirish va baholashga ojizlik qiladi. Buning uchun olamni ilmiy tahlil qilish va bilish zarur.

**Dunyoqarashning tarixiylik tamoyili.** *Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. Shu ma'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.*

*Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma'lum dialektik jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.*

*Ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida dunyoqarash nihoyatda oddiy bo'lgan. Agar shunday bo'lmaganida, har qanday jism o'z hajmiga teng suyuqlik miqdorini siqib chiqarish xossasiga ega ekanini kashf etgan qadimgi zamonning buyuk olimi Arximed hammomdan yalong'och holda chiqib, «Evrika!», ya'ni «Topdim!», deya qichqirmagan bo'lar edi.*

Dunyoqarash jamiyat rivojiga mos ravishda asta-sekin takomillashib borgan. Taraqqiyotning keyingi davrlarida fan sohasida qilingan kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi kengayib ketganini ko'rsatadi. Bunda vorislik an'anasi yaqqol ko'zga tashlanadi: har bir davrning dunyoqarashi, g'oyasi o'tmishda yaratilgan ma'naviy qadriyatlarning eng yaxshilarini, ilg'or va ijobiylarini o'zida saqlab qoladi. Shu asosda yangi tamoyillarga ega bo'lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug' mashinasidan kosmik raketalargacha bo'lgan fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo'la oladi.

**Falsafiy dunyoqarash.** Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqyea va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Fanda ijtimoiy borliqning barcha jihatlari aks etadi. Dunyoqarashning shakllanishida his-tuyg'u, aql-idrok va tafakkur ham muhim o'rin tutishi tabiiy. Uning shakllanishi kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog'liq bo'lib, inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Muayyan davr dunyoqarashida zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o'z ifodasini topadi. Masalan, bugungi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash zarurati istiqlol dunyoqarashini shakllantirishga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda.

**Falsafiy dunyoqarash murakkab tuzilishga ega. U** muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Bularning ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'riligiga, orzu-umidlarining asosli ekaniga, faoliyati va xatti-harakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o'rin tutadi. Hissiyot dunyoqarashning emosional-ruhiy jihati bo'lib, dunyoni tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir. Hissiyot – quvonch, shodlik, zavqlanish, hayot va kasb-kordan mamnunlik yoki norozilik, hayratlanish, xavotirlanish, asabiylashish, yolg'izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik, g'am-g'ussa, nadomat, o'z yaqinlari va vatani taqdirini o'ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ana shular barchasining uyg'unligi dunyoni his etishga olib keladi. Dunyoni his qilish esa, uni aqliy tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi.

Inson aqli unga xos hissiyot va tasavvurlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va takomillashtiradi. Har bir kishiga xos hissiyot va fikr, bilim va e'tiqod, intilish va kayfiyat, orzu-umid va qadriyatlar dunyoqarash tarkibida yaxlitlashadi va olamni bir butun holda aks ettiradi. Bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud. Lekin, bilim va dunyoqarash aynan bir narsa emas. Olamni tushunish bilimlar paydo bo'lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida hissiy va aqliy bilish jarayonida hosil bo'ladi, u dunyoqarashning asosi, uning uzviy qismidir.

Bilim muayyan sharoitda biron bir hodisa yoki narsani baholashda qo'l keladi va aynan ana shu jarayonda dunyoqarashga aylanadi. Bunday baho berish jarayonida mudom muayyan manfaatlar asos qilib olinadi. Shuning uchun ham ijtimoiy dunyoqarash turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etadi, gohida ularni amalga oshirish uchun kurash maydoni bo'lib qoladi.

Biror partiya yoki guruh o'z maqsadlariga yetishish yo'lida butun jamiyat uchun xos bo'lgan umumiy ijtimoiy dunyoqarash tarkibida ko'proq va salmoqliroq joy egallashga yoki uni o'z manfaatlari foydasiga o'zgartirishga harakat qiladi. Umuman, hayotda maqsadga erishishning eng oson va qulay yo'li o'zgalar dunyoqarashini jamiyat foydasiga o'zgartira olishdir.

Falsafa azal-azaldan dunyoqarash bo'lgan. Chunki, uning o'zi hayot nima uchun berilgan, dunyoga kelishdan maqsad nima, umrni mazmunli o'tkazishning qanday yo'llari bor, degan talay savollarga javob topish zarurati tufayli vujudga kelgan. Falsafiy dunyoqarash o'zining nazariy asoslangani va puxta ishlangani bilan ajralib turadi. Shu ma'noda, u boshqa fan yoki faoliyat sohasi uchun umumiy uslub vazifasini ham bajaradi.

Agar nazariya bilish jarayonining natijasi bo'lsa, usul (metod) shu bilimga erishish yoki uni amalga oshirish yo'lini anglatadi. Falsafiy nazariya esa, bir vaqtning o'zida usul vazifasini ham bajara oladi. Tarixning burilish davrlarida o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va maqsadlari nechog'li to'g'ri ekani falsafiy dunyoqarash tamoyillariga solishtirib aniqlanadi. Bunda muayyan falsafiy nazariya umumiy usul (metod) sifatida qabul qilinadi. Shu sababdan ham bunday davrlarda falsafiy nazariyalarga e'tibor kuchayadi, taraqqiyot yo'llaridan borish falsafiy modellarining ahamiyati ortadi.

*Masalan, bizning mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilish, demokratik davlat qurish borasida Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan taraqqiyot yo'li – «O'zbek modeli»ni amalga oshirmoqda. Bu yo'lning asosiy mohiyati islohotlarni inqilobiy tarzda emas, tadrijiy ravishda olib borishni nazarda tutadi. Prezidentimiz, aynan shu yo'lni taklif etar ekan, asosiy e'tiborni uning mohiyat-mazmuni, tarixda qanday natijalar bergani kabi masalalarga qaratgan. Bunda taraqqiyotning mazkur yo'li aniq tarzda tasavvur etilgan. Ya'ni, uning tarixiy va zamonaviy jihatlari, umumbashariy va mintaqaviy xususiyatlari, mamlakatimizning buguni va kelajagi uchun naqadar ahamiyati har tomonlama o'rganilgan. Ana shu asosda kerakli xulosalar chiqarilgan va ularni hayotga tadbiq etishning asosiy yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan.*

*Biz ana shu nazariyani, bir tomondan, taraqqiyotimizning o'zimizga xos va mos modeli deb ataymiz. Ikkinchi tomondan esa, uni mamlakatimiz hayotini tubdan o'zgartiradigan va uning kelajagini belgilab beradigan, milliy dunyoqarash, ong va tafakkur rivojida muhim o'rin tutadigan umumfalsafiy tayanch – metodologiya deb bilamiz. Chunki, uning tamoyillari taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va shu bilan birga, bu jarayonga kuchli ta'sir ko'rsatadigan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.*

Inson ongli ijtimoiy mavjudot bo'lgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, har qanday dunyoqarash muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o'z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g'oyalar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy xolat va e'tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo'lishidir.

Falsafiy dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko'ra, ma'naviy faoliyat bo'lgani bois, u borliqqa bo'lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari – axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy munosabatlari – huquqiy, siyosiy munosabatlari – siyosiy, diniy munosabatlari – diniy, ekologik munosabatlari – ekologik dunyoqarash shakllarida o'z ifodasini topgan. Buni tizim tarzida izohlaydigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

1. Axloqiy.
2. Diniy.
3. Huquqiy.
4. Siyosiy.
5. Ekologik.
6. Estetik.

Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyoqarash shakllari o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

Dunyoqarash tizimining rivojlanish darajasi jamiyat taraqqiyotiga mos keladi va uni ifodalab turadi. Bundan tashqari, har bir tarixiy davrda millatning rivojlanishi, uning mentaliteti va dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyoqarash tizimi va ularning xususiyatlari muayyan inson, ijtimoiy guruh, tabaqa va butun millatning ma'naviy qiyofasini belgilab beradi.

«Dunyoqarash» tushunchasi o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg'u va tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo'lagiga aylanadi.

**Falsafiy dunyoqarashning tarixiy shakllari** insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo'lib, jamiyat rivojlanishining ma'naviy mezoni sifatida namoyon bo'lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o'zlarining ijtimoiy hayotiga bo'lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o'z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan. Yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan dalolat beradi. Xususan, o'zbek xalqi sivilizasiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og'zaki ijod namunalari millatimiz tarixda qanday ma'naviy qiyofaga ega bo'lganini hanuz ko'rsatib turadi. Ular bugungi kunda jahon ahlini hayratga solmoqda. Masalan, qadimiy merosimiz namunasi – «Avesto»da yaxshilik ramzi – Axuramazda va yomonlik timsoli – Axriman o'rtasidagi kurash tarixi misolida oxir-oqibatda ezgulik baribir g'alaba qozonadi, ya'ni yorug'lik zulmat ustidan g'alaba qiladi, degan g'oya asosiy o'rinni egallaydi va hayotbaxsh g'oyalar ilgari suriladi.

**Mifologik dunyoqarash** qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun kurash g'oyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Dunyoqarashning mifologik mohiyati bugungi fan-texnika taraqqiyoti, insonning aqliy salohiyati bag'oyat yuksalib ketgan davrda juda jo'n va ibtidoiy bo'lib ko'rinadi. Ammo afsona va rivoyatlar o'zining kuchli jozibasi, insonparvarlik g'oyalari bilan hozirgi kunda ham kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta'sirchan va samarali omili bo'lib qolmoqda.

**Diniy qarashlar.** Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, vujudga kelishiga ko'ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e'tirof etish bilan bog'liq bo'lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e'tiqod qo'yish bilan bog'liq. Shuning uchun ham bu dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quyidagi holatlar belgilaydi:

- emosional-ruhiy holatlar;
- iymon-e'tiqod;
- iymon-e'tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Bular ayni paytda diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillarini ham tashkil qiladi.

Diniy dunyoqarash har bir davrda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarib kelgan. «Din, shu jumladan islom dini ham, ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan»[7].

Jamiyat hayotida har qanday, shu jumladan, diniy dunyoqarashning o'rni va ahamiyatini ham sun'iy ravishida mutlaqlashtirish, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hol ayniqsa, diniy fundamentalizm va ekstremizm insoniyat uchun jiddiy xavfga aylangan hozirgi davrda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi davrda fan, texnika, dunyoviy ilmlarning kuchayib ketishi bilan «Diniy dunyoqarash, tafakkurning, insonni o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatning yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash zarurdir. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan»[8].

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o'rganadi. **Teologiya** olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tahlil qilish hamda o'ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq regulyativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

**Falsafiy dunyoqarashning asosiy yo'nalishlari.** Dunyoqarash tizimi va unga xos nisbatan mustaqil yo'nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan (konkretlashgan) shakli sifatida qarash mumkin. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo'lsak, insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar tizimidir. Unga inson borlig'ining mohiyati nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, moddiy yoki ma'naviy jihatlari nechog'lik mutlaqlashtirilishiga qarab, uning tarkibida materialistik va idealistik dunyoqarash yo'nalishlari mavjudligini ko'ramiz.

Agar borliq va uning xossalariga mavjudlik, bog'liqlik, o'zgarish va taraqqiyot nuqtai nazaridan bildirilgan munosabatlarni umumlashtiradigan bo'lsak, uning tarkibida metafizik va dialektik, sofistik va sinergetik kabi qator dunyoqarashlar mavjudligini ko'ramiz. Bular sof nazariy-falsafiy masalalar bo'lib, ular to'g'risida «Olam va odam», «Dunyoni falsafiy tushunish» bo'limlarida maxsus to'xtalib o'tamiz.

Falsafiy dunyoqarash borliq haqidagi ilmiy qarashlar tizimining o'z-o'zicha shakllangan (mexanik) yig'indisi emas, balki ularning umumiy qonuniyatlar asosidagi tizimidir. Falsafiy dunyoqarash tarkibida quyidagi tamoyillar nomoyon bo'ladi:

---

[7] Ислом Каримов. Буюк келажак сари. - Т.: «Ўзбекистон», 1998, 441-бет.
[8] Ислом Каримов. Буюк келажак сари. - Т.: «Ўзбекистон», 1998, 442-бет.

- turli dunyoqarash shakllarining o'zaro aloqadorligi kuchaymoqda;

- muayyan dunyoqarash shakllanish va rivojlanish jarayonida insonga munosabatning ahamiyati ortib bormoqda;

- milliy dunyoqarash umuminsoniy dunyoqarash shakli va uning tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelgan.

Falsafiy dunyoqarashning bu umumiy tamoyillari har qanday konkret dunyoqarash shakllari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, uning yana quyidagi tamoyillari ham bor:

- ilmiylik;
- tarixiylik;
- mantiqiylik;
- universallik;
- maqsadlilik;
- g'oyaviylik;
- nazariya va amaliyotning birligi.

1. *Falsafiy dunyoqarash ilmiydir*, chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli obyektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

2. *Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili* jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. *Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili* har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur yetadi.

4. *Falsafiy dunyoqarashning universalligi* boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

5. *Falsafiy dunyoqarash maqsadga mavofiq* bo'lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. *Falsafiy dunyoqarashning g'oyaviylik tamoyili,* uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o'zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqlol g'oyasiga tayanishi bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g'oyani e'tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri *nazariya va amaliyot birligidir*. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

**Falsafiy dunyoqarashning vazifalari (funksiyalari).** Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari, uning vazifalarini belgilab beradi. Ya'ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddaolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko'zga tashlanadi.

Bu — falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasini anglatadi. Ya'ni, inson, o'z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi.

Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya'ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki jamiyat munosabatlari dunyoqarashning o'zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslashtiriladi. Orzu-havaslarga erishishning usullari, vositalari, amaliy yo'nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me'yor, diniy qadriyat, xuquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali *boshqarish* vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o'zicha nisbatan mustaqil bo'lgan har bir yo'nalishi o'ziga xos boshqarish usuliga ega bo'ladi. Masalan, insonni ezgulikka yo'naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din — iymon-e'tiqodiga; huquq — qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat-davlat funksiyalariga tayanadi va o'ziga xos ta'sir yo'nalishlariga ega bo'ladi.

Darhaqiqat, o'zbek mahallalarida bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat, hamdardlik kabi noyob fazilatlar kamol topadi. Shuning uchun ham Islom Karimov uni «O'zini o'zi boshqarish maktabi... demokratiya darsxonasi», deb ta'riflaydi[9].

Falsafiy dunyoqarashning *birlashtirish* (kommunikativ) vazifasi turli dunyoqarash yo'nalishlarini milliy va umuminsoniy g'oyalar atrofida uyg'unlashtirishi bilan xarakterlanadi. Turli manfaatlar bilan bog'liq bo'lgani bois dunyoqarashlar o'rtasida muayyan ziddiyatlar ro'y berishi tabiiy. Bunday sharoitda falsafiy dunyoqarash ularni murosaga keltirishga xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarash, o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirish, jamiyat istiqbolini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun ham xalqni muayyan g'oya atrofida birlashtiradi.

Masalan, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, muayyan davrlarda falsafiy dunyoqarash inson tub manfaatlari bilan bog'liq bo'lganligini, millat kelajagini belgilaydigan ozodlik g'oyasi atrofida kishilarni birlashtirganini ko'ramiz. Bu hol mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash davrida yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu g'oya (ozodlik falsafasi) dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida millatning turli tabaqalarini, e'tiqodi, iqtisodiy ahvoli va siyosiy mavqyeidan qat'i nazar, birlashtirgan va umumiy kurashga safarbar qilgan.

Har qanday dunyoqarash inson ehtiyojlaridan kelib chiqadi, uning manfaatlariga mos keladi. Shu bilan birga, bir tomondan, dunyoqarash o'z-o'zidan, ya'ni stixiyali ravishda shakllanib qolmaydi. Aksincha, u turli ta'lim-tarbiya vositalarining maqsadga muvofiq holdagi faoliyati natijasida vujudga keladi. Ikkinchi tomondan esa, falsafiy dunyoqarash, umuminsoniy tamaddun (sivilizasiya) ta'siri o'laroq shakllangan bo'lsa, muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki millatni tarbiyalashning turli imkoniyatlari va vositalarining mushtaraklashgan shaklidir.

Binobarin, falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasini yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu — kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag'rikenglik, murosa, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo'l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

[9] Ислом Каримов. «Донишманд халiмизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман» - «Фидокор», 2000 йил, 8 июн.

## QADIMGI VA O'RTA ASRLAR FALSAFASI

**Reja:**

1.Falsafaning ijtimoiy ongning mustaqil shakli sifatida paydo bo'lishi jarayoni
2.Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi, ularning o'ziga va xususiyatlari xamda umumiyligi
3.O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiy g'oyalarning rivojlanishi
4. O'rta asrlar G'arb falsafasi. O'rta asrlar Sharq va G'arb falsafasining umumiy belgilari va farqli tomonlari

***Tayanch tushunchalar***

«Tavrot», «Veda» — diniy kitoblar. astika — «Veda»ning muqaddasligini tan oluvchi, nastika — uning muqaddasligini tan olmaydigan maktablar. Dao — tabiat qonuni, Si — borliqning asosida yotgan besh unsur, yan — yorug'lik kuchi, in — zulmat kuchi, metafizika — qadimgi yunonistonliklar fikricha, borliqning asosini o'rganadigan dastlabki falsafa, atomlar — bo'linmas deb tasavvur qilingan zarrachalar.

***ADABIYoTLAR***

1. Karimov I. «Istiqlol va ma'naviyat». T. «O'zbekiston», 1994.
2. Karimov I. «Ma'naviy yuksalish yo'lida». T. «O'zbekiston», 1998.
3.Каримов И.А. Биз доим тарихдан сабоқ чиқариб, тинчликни қадрлаб, ғурур-ифтихор билан яшайдиган халқмиз. Т. Ўзбекистон. 2014.
4.Каримов И.А. Она юртимиз бахту истиқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т. Ўзбекистон. 2015.
5. «Xristomatiya po filosofii». — M., 1997.
6. Yo'ldoshev S. «Antik falsafa». — T., 1999.
7. Q. Nazarov ma'sul muxarirligida "Falsafa asoslari". T., 2005.
8. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye "Falsafa tarixi", 2002.
9. S. Yo'ldoshev, M. Usionov, R. Karimov, G. Qobulnoyozova, G.Ro'zimetova "Yangi va eng Yangi G'arb Yevropa falsafasi". O'quv qo'llanma. T., 2002
10. J. Tulenov. Falsafa darslik. T., 2007.
11. M. Axmedova Falsafa o'quv qo'llanma.T., 2007. Панчатантра ёхуд беш муқаддас китоб. Т. Янги аср авлоди. 2013.

***Sharq qadimiy madaniyat o'chog'i*** *va jahon sivilizasiyasining beshigi deya bejiz ta'riflanmagan. G'arb madaniyati tarixini o'rganish jarayonida Ovruposentrizm nazariyasiga og'ib ketish g'ayriilmiy bo'lgani kabi, masalaning Sharq bilan bog'liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentrizm g'oyalari ta'siriga tushmaslik lozim.*

*Shu bilan birga, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizasiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizasiyasining Sharq sivilizasiyasi quchog'ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish darkor.*

*Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizasiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jarayonida «Eng qadimgi tarix» darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko talabalar o'sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi. Biz bugun o'sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarining asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz. Ko'hna Sharq sivilizasiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos dehqonchilik an'analari boshlangan Nil daryosi bo'ylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi.*

**Qadimgi Misr va Bobil falsafasi.** Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya'ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yo'nalishda borgan. Birinchi yo'nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, riyoziyot fanlari rivoji bilan bog'liq ekanini, ikkinchi yo'nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqyea-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o'rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu – o'sha davr uchun tabiiy hol edi, ya'ni u – davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda ifodalanishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda bo'lsa-da, aksariyat hodisalarning falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda ojiz bo'lgan odamzod, albatta, tevarak atrofdagi voqyea-hodisalarni mifologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko'nikmasi hali shakllanib ulgurmagan o'sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo'q edi. Bu – o'sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo'jayinning o'z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbati», «Arfist qo'shig'i», «O'z hayotidan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbati» kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo'lgan. ularda hayotning, umrning mazmuni, o'sha davrdagi odamlarga xos tuyg'ular bayon qilingan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat ediki, ularda, bir tomondan, xudolarga ishonch, ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, afsona va rivoyatlar tarzida bo'lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha sivilizasiyalarga xos deyish mumkin.

**Yahudiylik dini.** O'sha davrda eng qadimgi Sharq xalqlaridan biri yahudiylarning milliy mafkurasi — iudaviylik shakllana boshlagan. Bu din, asosan, ana shu millatga mansub kishilar o'rtasida yoyilgan bo'lib, eramizdan avvalgi ikki minginchi yillar boshida Falastinda vujudga kelgan. «Zabur» va «Tavrot» kabi muqaddas kitoblar bu dinning asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Yahudiylik yahudiy va Falastin xalqlarining ba'zi e'tiqodlarini o'zida aks ettirgan dindir. Eramizdan avvalgi X-VI asrlarda yahudiylik monoteistik (yakka xudolikka ishonish) dinga aylanib, olamni yaratuvchi Yahve xudosiga e'tiqod qilish uning asosiy tamoyili hisoblangan. Bu dinda Muso alayhissalom — payg'ambar, «Tavrot» xudo tomonidan unga yuborilgan ilohiy kitob ekani, qiyomat kunida barcha birdek tirilishi, jannat va do'zaxning mavjudligi, gunohkorlar jazosiz qolmasligi, savobli ishlarni qilganlar u dunyoda rag'batlantirilishlari haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

Ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yahudiylik Sharq xalqlaridan biri — yahudiylarning milliy dini bo'lgani bois, ana shu qit'ada yashovchi boshqa xalqlarga xos bo'lgan ko'pgina diniy qarashlari bilan ham bir qadar mushtarakliklarga ega. Chunonchi, uning zardo'shtiylik bilan o'xshash jihatlari ham yo'q emas. Masalan, «Tavrot» va «Avesto»dagi aksariyat qonunlar, diniy-falsafiy kategoriyalar o'rtasida yaqinlik ko'zga tashlanadi. Umuman olganda esa, barcha dinlar

orasida ilohiy qadriyatlarni mutloqlashtirish, xudo g'oyasini muqaddaslashtirish, bu dunyo va u dunyo bilan bog'liq qarashlarga ko'proq e'tibor berish kabi o'xshash jihatlar uchraydi.

**Hindiston falsafasi.** Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta'limotlar yozma manba — «Veda»larda o'z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plam (samxitlar) shaklida yetib kelgan. Bular — «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adxarvaveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o'rab turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankxya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi.

Chorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankxya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unsurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo'lmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroflicha fikr yuritgan.

**Qadimgi Xitoy falsafasi.** Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfusiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfusiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlarning xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. u hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfusiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi — taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfusiy nuqtai nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. u, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfusiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfunsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni

nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalariga ham ravo ko'rishi lozim.

Konfusiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Lao-Szidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni — tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiyligining e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Si», ya'ni beshta unsur — olov, suv, havo, yer va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao-Szining ta'kidlashicha, olamda hyech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni in va Yan' orasidagi munosabat — bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqyeligi ham tasdiqlaydi.

*Umuman, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'lish, Ona zamin va Vatanni asrab-avaylash, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshilik tomonida turish — qadimgi xalqlarga xos bo'lgan falsafaning bosh g'oyalaridir. O'sha, hamma narsa oddiy tushunilgan qadim zamonlardayoq buyuk aql egalari odamlarni tabiatni asrashga, insonni qadrlashga chaqirgani bejiz emas. Ular insoniyat hayotiga xavf soladigan darajaga yetmay turib, u boradagi muammolarning oldini olish to'g'risida juda ibratli o'gitlar bergan. Qadimgi dunyo falsafasini chuqurroq o'rgangan odam o'sha davr mutafakkirlari hozirgi zamon sivilizasiyasi qarshisida turgan barcha umumbashariy muammolardan odamlarni ogohlantirganligining guvohi bo'lishi mumkin. Gap bu ogohlantirishni eshitish, ularni o'zlashtirish va hayotning qonuniga aylantirishda edi, xolos. Afsuski, odamzod nasli o'zi yaratgan buyuk daholarning barcha o'gitlariga hamma vaqt ham quloq solavermagan. Ilm va fanda necha-necha kashfiyotlar qilingan, ammo ulardan o'z vaqtida kerakli tarzda foydalanilmaganiga ko'hna tarix guvoh. Bugun ham ajdodlarimizning Vatan, tabiat, jamiyatni asrash, undagi tartib va qoidalarni buzmaslik to'g'risidagi da'vatlari eskirgani yo'q. Yillar, asrlar o'tishi ularning qadrini tushirmaydi. Zero, bu ta'limotlar insoniyatning o'tda yonmas va suvda cho'kmas umuminsoniy qadriyatlari to'g'risidadir.*

**Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi.** Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy — ilmiy, ijtimoiy — ahloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. **Milet maktabi** vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yotib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning

quyuqlashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Yana bir yunon faylasufi **Geraklit** (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov — olamning asosi, deb bilgan. uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir. Abadiy harakat — abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish noto'g'ri. Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

**Pifagor** (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

**Eley falsafiy maktabi** namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi YI — V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskiyning yozishicha, Ksenofant «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. u ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan. uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat - o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi». Biz hammamiz yerdan tug'ilganmiz va yerga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504 yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida **sofistlar falsafasi** katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqlar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

**Suqrot** (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan.

*Uning hayoti fojiali tugagani to'g'risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. O'z davrida Afinadagi hukmron tuzum tartib-qoidalariga qarshi chiqib, yangi fikrlarni ilgari surgani uchun ruhoniylar uni dahriylikda hamda yoshlarni axloqan buzishda ayblaganlar. Unga shunchaki ayb emas, siyosiy ayb qo'yilgan. Garchand qutilish imkoni bo'lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadah zahar ichib o'lgan. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar,*

*so'zsiz itoat etishni targ'ib etganlari g'oyatda ibratlidir. Holbuki, Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni noto'g'ri va adolatsiz deb hisoblagan hamda ularni qattiq tanqid qilgan, ammo, shunday bo'lsa-da, ularga bo'ysungan. Shu ma'noda, Suqrot o'zini aybdor deb topgan sud hukmiga itoat etgan va o'zini uning ixtiyoriga topshirgan. «Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.*

Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'yda, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenofant «Suqrot haqida esdaliklar» asarida o'z ustozi haqida iliq so'zlar aytib, uni olijanob, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta'riflagan. Yoshlarning axloqini buzgan deb unga siyosiy ayb qo'yish — tuhmat ekanini alohida ta'kidlagan. Aflotun esa uni chuqur mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand, deya ta'riflagan, uning falsafiy qarashlarini o'z asarlarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganli bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Suqrotning shogirdi **Aflotun** (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma'lumotlarini birdan-bir to'g'ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Aflotunning eng yaqin do'sti va shogirdi bo'lgan.

*Aflotun **«G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limoti**ning asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. G'oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi.*

Aflotunning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti uning dunyoqarashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi — ontologiya va gnoseologiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo'lgan. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti — g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to'rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotunning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Aflotunning shogirdi va safdoshi **Arastu** (384 — 322 yillar) (asli — Aristotel) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. O'n yetti yoshida o'z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflotun asos solgan akademiyaga o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflotunning o'limiga qadar) shu yerda tahsil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filippning II taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandrga 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Binobarin, keyinchalik dunyoni zabt etib, jahongirlik maqomiga ko'tarilgan iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Filippning o'limidan keyin Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida «Likkey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar vafotidan keyin unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayblashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Evbey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etgan.

Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga

qartilgan. Mantiqqa oid asarlarining barchasini «Organon» («Qurol») nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga — nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan. Amaliy fanlar shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga - falsafa (metafizika), matematika va fizikaga ajratgan.

Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular — moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakliy sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan. Harakat olam singari abadiydir. Ayni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Arastuning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti «Davlat», «Siyosat» kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyatning erkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Baxtli hayot mazmuni faqat moddiy mo'l-ko'lchilik bilan belgilanmaydi, balki seroblik ma'naviy boylik bilan uyg'un bo'lgandagina, jamiyat baxtli hayot kechiradi. Davlatning boyligi, asosan, o'rtacha mulkka ega bo'lgan fuqarolarning mehnati bilan ta'minlanadi. Arastuning bu boradagi qarashlari bugungi kunda Vatanimizda kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar mohiyatiga juda hamohangdir.

Yunon falsafasida **Demokrit**ning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rin tutadi. Uning bu boradagi qarashlari siyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat — buyuk qo'rg'ondir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Me'yor, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishadadir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrlash; yaxshi so'zlash; yaxshi harakat qilish. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi amaliy ma'naviy munosabatlarning umumlashmasidir. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, diyonatga da'vat etadi.

**Epikur** (341-270 yillar) — qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo'linmas, olam — jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g'oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta'limotini rimlik **Lukresiy Kar** (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukresiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) — abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash — uning xossasi. Olamdagi barcha narsalar ikkiga — oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukresiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular — narsaning og'irlikka ega bo'lgani

uchun to'g'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha og'ish harakati, narsaga turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukresiyning nazariyasi mohiyatan sodda bo'lsa-da, tabiatshunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatgan.

*Biz xorijiy Sharq va antik dunyo falsafasi haqida juda qisqa ma'lumot berdik. Ularga mansub ayrim oqim va mashhur faylasuflar ta'limoti to'g'risida nihoyatda muxtasar fikr yuritdik. Aslida bu mavzular o'ta keng qamrovli bo'lib, ularning mohiyatiga yetib borish uchun ko'p va xo'b o'qib-o'rganishga to'g'ri keladi. Ishonchimiz komilki, siz, aziz talabalar ularni mustaqil o'qib-o'rganish jarayonida to'liq o'zlashtirib olasiz.*

*Shuni alohida ta'kidlash lozimki, biz falsafa tarixini faqat mashhur nomlar va ular yaratgan ta'limotlarni bilib olish uchungina o'rganmaymiz, balki insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk faylasuflarning ibratli hayoti, o'lmas g'oyalari mohiyatini chuqur anglash, ularga tayanib, bugungi kun falsafiy muammolarining qulay yechimini topish, shu tariqa Vatanimiz va xalqimizga halol xizmat qilish, qolaversa, buyuk ajdodlarimizga, elu yurtimizga munosib farzandlar bo'lish uchun ham puxta va chuqur o'rganamiz.*

Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgarigi 1 asrdan milodning X1V asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xiristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi; 2. O'rta asrlarga kelib inkvizisiyaning ustivor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

**Gnostiklar.** Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostisizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilarki, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatinnig ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostisizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostisizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va shunday bo'ldi ham. 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi.

**Dualizm** — gnostisizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hyech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (asketizm) o'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Apologetlar xristianlik tarixida 1 va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosi «himoya qilish», — demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'qib qilishi hyech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o'z asarlarida mushriklik (ko'p xudolik) adabiyotlaridan olingan bahslashish (dialog) shaklidan, yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar.

Apologetlar asarlarida ikki an'ana yaqqol sezilib turadi. Ya'ni inkor qilish va tasdiqlash. Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qo'yilgan ayblar — g'ayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning «Birinchi apologeya», «Ikkinchi apologeya» asarlarini, Tulean va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini ta'kidlash lozim.

**«Patristika»**- so'zi «ota» («padre») so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G'arbda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640ta da'vatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qo'llash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

G'arbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354-430) bo'lib hisoblanadi. U faylasuf va islohiyotchi bo'lgan. Avgustin o'z hayotini yepiskoplikka, tadqiqotchilikka, adabiyotga bag'ishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da'vat va 200 ga yaqin nomalar yozadi. Uning o'sha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sig'inish» 401 yilda yozilgan. Bu asarda u o'zining xristianlikkacha bo'lgan hayotini yozadi. Muqaddas kitob «Bibliya» oyatlari ramziy — timsoliy bayon qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hyech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan.

**«Sxolastika»**- so'zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan bo'lib, «o'qish joyi»,»maktab» ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o'qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo'lgan intilish deb ham baholash mumkin. O'sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo'lgan.

**Realizm.** Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberiyskiy (1038-1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093 yilda Ketterberiysk shahrining arxiyepiskopi etib tayinlanadi. Angelm o'zining ikki asari bilan mashhur.

Birinchisi «Monopoliya» — xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bo'lishi kerakki, biz uni xudo deb ataymiz.

Angelmning ikkinchi asari «Prologion» xudo borligining deduktiv isbotidir. Uning ta'kidlashicha, har bir odam uchun oliy va komil mohiyat haqida g'oya mavjuddir. Bu g'oya esa obyektiv mavjudlikka ega bo'lgan reallikka mos keladi. Chunki agar borliq mavjud bo'lmaganda edi, narsa komil bo'lmas edi. Agar xudodan yuqoriroq oliy narsani tasavvur qilish mumkin emas ekan, demak, xudo reallikda mavjuddir.

Arastu ta'limotining ko'p tomonlarini qabul qilgan o'rta asr sxolastlari mo'tadil realistlar deb atalganlar. Ularning yirik vakillari Pyer Abelyar va Foma Akvinskiylar bo'lgan.

Britaniyada tug'ilgan **P. Abelyar** (1079-1142) juda yoshligidanoq o'z bilimi bilan mashhur edi. Abelyar — mo'tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki universaliy dastlab xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e'tiqod qilish uchun bilaman» degan g'oyani ilgari surgan. Ya'ni bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko'ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o'rgangan kishi abzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o'zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta'kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta'kidlashicha, shubha hamma vaqt tadqiqotga yo'llaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o'limi xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni xudoga bo'lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga ahloqiy ta'sir ko'rsatish maqsadida sodir bo'ladi. Bu bilan odamlar o'z hayotini xudoga bo'yso'ndiradilar. Bu qarash ahloqiy ta'sir qilish nazariyasi deb ataladi.

**Foma Akvinskiy** (1224-1292) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili bo'lib hisoblanadi. Foma o'sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo'tadil realizm pozisiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bo'lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta'limoti yordamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Fomaning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani yoritishga bag'ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalar»ning birinchi qismi xudoning mavjudligi va borlig'i masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi «xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi.

Akvinskiy ta'limoticha, dunyo iyerarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida yer va 4 elementdan iborat bo'lgan hamma narsalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dunyo o'rtasidagi joyni egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi. Yerdan uzoqlashgan sari u ilohiylashib boradi. Sayyoramiz dunyosinning tepasida farishtalar dunyosi mavjuddir. Butun koinot tuzilishi uch shaxsni birlashtirgan yagona xudo tomonidan boshqarilib turadi. Akvinskiy ta'limotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida g'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan biri **Vilyam Okkam**dir (1309-1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari rasional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi,

ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, shuningdek, universaliylarning obyektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universaliylar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

**Rodjer Bekon** (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XYII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri — 1150 va 1300 yillarda — Foma Akviniyskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin cherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqyeni egallay boshladi. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (rasionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi.

**Yevropa falsafasining rivojida universitetlar** muhim o'rin tutadi. Ular bilim va ma'rifatning o'chog'i sifatida 1200 yillarda vujudga keldi. 1400 yillarga kelib, Yevropada 23 ta universitet mavjud bo'lgan. Universitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan shug'ullanish tashkil etar edi.

Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Iteriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo'ladi va talabalar uni eshitish uchun Bolonya shahriga oqib kela boshlaydilar. Natijada Bolonya shahri universiteti muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata boshlaydi. Abelyarning o'qituvchi sifatidagi shuhrati ko'p jihatdan Parij universitetining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Universitetlar, shuningdek, talabalarning chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Fransiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford shahriga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida mashhur Oksford universiteti tashkil topdi. Kembridj universiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo'zg'olon ko'tarishi va 1209 yilda ularning Oksforddan Kembridjga ko'chib o'tishlari natijasida vujudga keldi.

Universitetlar Qadimgi Yunoniston va Rimda, shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham mashhur bo'lgan ustoz va shogirdlar to'planib ilm o'rganadigan, o'rgatiladigan va ilmiy bahslar olib boriladigan maktablar tarzida shakllangan bo'lsalar-da, ammo fan sohalarining ko'pligi tufayli alohida ilm o'chog'iga aylanib qoldilar. Ularning tajribasi keyinroq butun dunyoga tarqalib ketdi.

***Takrorlash uchun savollar***

1. Qadimgi Misr falsafasiga xos xususiyatlarni sanab bering.
2. «Veda»lar nima va qachon paydo bo'lgan?
3. Buddaviylik ta'limotining mohiyati nimadan iborat?
5. Konfusiylik nima?
6. Lao Szi falsafasida Dao qonuni nimani anglatadi?
7. Milet falsafiy maktabi to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Geraklitning «Oqar suvga ikki marta tushib bo'lmaydi» degan hikmatli iborasi falsafiy mohiyatini tushuntirib bering.
9. Suqrot qanday faylasuf bo'lgan?
10. Aflotunning g'oyalar dunyosi haqidagi ta'limotining mohiyati nimadan iborat?
11. Arastu haqida nimalarni bilasiz?

## 3-mavzu: YANGI VA ENG YANGI DAVR FALSAFASI

**Reja:**

1. Yangi davr falsafasining shakllanishi. F.Bekan, R. Dekart va boshqalar falsafiy g'oyalari
2. Yangi davr falsafasining rivojlantirilishi I.Kant, F.Gegel va boshqalar falsafiy g'oyalari
3. Hozirgi davr G'arb falsafasining asosiy xususiyatlari va undagi asosiy yo'nalishlar
4. XX asr o'zbek falsafasi. I. Mo'minov, M. Xayrullayev, J. Tulenov va boshqalar falsafiy qarashlar

***Tayanch tushunchalar***

Sxolastika, apologetika, realizm, nominalizm, uyg'onish davri, milliy davlatlar, milliy falsafiy maktablar, mutlaq ruh, metod, sistema, tarix falsafasi, dialektika.

***ADABIYOTLAR***

1. Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. — T. O'zbekiston 1998.
2. Karimov I. Istiqlol va ma'naviyat. — T. O'zbekiston, 1994.
3. Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. — T. O'zbekiston, 1998.
3. Antologiya mirovoy filosofii v 4-x tomax. Tom 3. M. 1971.
4. Mir filosofii v 2-x tomax. T. 2. M.1990.
5. Osnova filosofii. T. O'zbekiston 1998.

**Uyg'onish davri falsafasi.** Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

Uyg'onish davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlardan biri nemis **Nikolay Kuzanskiy**dir (1401-1464). Kuzanskiy ta'limoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma'lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar bo'yicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filosoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi **Nikolay Kopernik**dir (1473-1543). Ma'lumki, fan tarixida Kopernik o'zining fanda tub o'zgarish yasagan geliosentrik ta'limoti bilan mashhur bo'lgan. Uning ta'limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o'z o'qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to'ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o'zgarmas deb tanilgan ta'limotiga zarba berdi. Agar yer olamning markazi emas, balki Quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo'lsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi talimot asossiz bo'lib qolardi.

Kopernikning geliosentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik **Jordano Bruno**dir (1548-1600). U Neapol yaqinida tug'ilgan. O'zining ilg'or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur bo'ladi. Uzoq vaqt Shvesariya, Fransiya, Angliya va Germaniyada quvg'inda yuradi. 1592 yilda Bruno

italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizisiyasi tomonidan ushlanib turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o'zining ta'limotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga hukm qilinadi, 1660 yil 17 fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o'ldiriladi.

Bruno geliosentrik nazariyani himoya qilish va targ'ib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular filosofiyani yana ham boyitdilar. Bruno ta'limoticha, haqiqiy filosofiya ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak. uning ta'lmoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda ko'p dunyolar bizning quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz ko'rib turgan narsalar koinotining eng kichik bir qismidir. Yulduzlar — bu boshqa planeta sistemalarining quyoshi. Yer — cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy — ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik ta'limotini quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

*Uyg'onish davrining natijasi sifatida namoyon bo'lgan G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Niderlandiyada XYI asrning 60-70 yillarida, Angliyada XYII asrning 40-50 – yillarida bo'lib o'tdi. Bu davrga kelib, Yevropada alohida millatlarning shakllanishi yuz berdi, milliy davlatlar paydo bo'ldi. Endi monarxiya tuzumi jamiyatning ilg'or tabaqalari nazarida faqat tarixan o'z umrini o'tab qolmasdan, balki g'ayritabiiy, g'ayriaqliy bo'lib ko'rina boshladi. O'sha davrning ideologlari ilgari tan olinmagan insonning tabiiy huquqlari masalasini o'rtaga qo'ydilar. Ular ijtimoiy tartiblar inson tabiatiga mos kelishini talab qila boshladilar. Bor-yo'g'i 50-60 yil ilgari inkvizitorlar Jordano Brunoni yoqib yuborganlarida lom-mim demagan Yevropa, endi o'zining hayotida markaziy o'rinni inson huquqlari egallashi kerakligini his eta boshladi. Hatto xudoning nomidan bo'lsa-da, inson umriga zomin bo'lishga hyech kimning haqqi yo'qligi, odamzodning yashash, fikr yuritish erkinligining tabiiyligi anglab olina boshladi. Albatta, bungacha ikvizisiya bir necha asrlar bu hududni aqidaparstlik changalida ushlab turgan, ne-ne aqlli kishilarni o'z domiga tortib ulgurgan edi.*

*Ma'naviy uyg'onayotgan millat va hududda hyech qachon aqidaparastlik o'z ta'sirini to'la — to'kis saqlab qola olmaydi. Yevropada ham xuddi shunday bo'ldi. Ma'nan kamolga yetgan, milliy davlatchiligiga ega bo'lgan va endi ana shu mustaqil davlatlarini kamolga yetishi uchun qarzdor ekanligini anglab olgan Yevropa millatlari o'zlarininng komil insonlarini endi inkvizisiyaning, aqidaparastlarning hukmiga topshirishga sira ham haqlari yo'q ekanligini angladilar.*

*Yevropada Rim imperiyasidan keyin bir necha asrlar o'tib, aynan ana shu davrda ilgarigi, butun mintaqa hayoti uchun xristianlik va uning xilma-xil oqimlari umumiy mafkura rolini o'tab kelgan davr tugadi. Endi diniy oqimlararo kurash, xristianlikning sofligini saqlashga urinishning mutlaqlashtirilishi natijasida vujudga kelgan inkvizisiya ham o'z davrini o'tab bo'ldi. Butun Yevropani boshqarib kelgan qon-qardosh va bir-biriga dushman qirollar davri ham o'tmishga aylana boshladi.* ***Yevropa uyg'ondi.*** *Ilm-fan sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Odamlarning dunyoqarashi keskin o'zgara boshladi. Endilikda milliy davlatlarning har biri uchun muhim bo'lgan mafkuraning shakllanishi zaruriyatga aylanib qoldi. Albatta bunda biz sanab o'tgan omillar, ya'ni qirollik an'analari, xristianlik va uning oqimlari ta'siri, umumevropaga xos xususiyatlar, Rim imperiyasi davrida bir oila bo'lib yashagan xalqlar o'rtasidagi hududiy va ma'naviy yaqinlik o'z ta'sirini o'tkazdi. Ammo, asosiysi, bu davrda milliy g'oyalar to'la-to'kis amalga oshishi uchun ijtimoiy sharoit yetildi, italiya, ingliz, fransuz va boshqa xalqlar o'z davlatchilik an'analarini to'la-to'kis tikladilar. Bu davlatlarda shakllangan falsafiy maktablar faqat milliy qobiqqa o'ralib qolmadilar, balki umumevropa va butun jahon taraqqiyotining umumbashariy muammolarini falsafiy jihatdan izohlash, ilmiy o'rganish va asoslashga harakat qila boshladilar. ushbu davr falsafasi ham oldingiga nisbatan katta qadam tashladi. Fanda qo'lga kiritilgan yutuqlarning falsafiy izohlanishi, kashf etilayotgan ilmiy usul va uslublarning falsafaga tadbiq etilishi, falsafiy qonunlarni fanning turli sohalarida sinab ko'rilishi o'sha davr faylasuflari uchun odatiy holga aylandi. Bu tamoyillar esa milliy chegaralarni bilmaydigan, umuminsoniy qadriyatlar xususiyatiga egadir. Uyg'onish davri Yevropa fani va falsafasi ham insoniyat tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib qoldi.*

**Ingliz falsafasi.** O'sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri F. Bekon (1561-1626) yuqoridagi masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunyosini eski chegaralar bilan o'rab qo'yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrlardagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini ko'rish uchun, to'g'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga halaqit beradi. Ular inson aqlini o'rab tashlaydi. Ular asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuq ko'rsatadi. Ikkinchisi, g'or idollari. Bu har bir odamnning o'z spesifik xususiyatlari natijasida yanglishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtai-nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor doirasi bilan o'lchash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari, bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq termonologiyalarga tanqidiy yondoshmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan, u shuni ta'kidlaydiki, real borliqni ifodalamaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'diradiki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metotologik ahamiyatga egadir. Bekon bilish nazariyasining birinchi bosqichi esa tajribadir, ikkinchi bosqichi aqldir. U tajriba ma'lumotlarini rasional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon ta'limoticha, olim chumoliga o'xshab faqat yig'ish va yig'ilganlar bilan kifoyalanmasligi kerak, o'rgimchakka o'xshab hayotdan ajrab, faqat o'zining shaxsiy aqli bilan o'zining makrli falsafasini to'qimasligi kerak. Bekon ta'limoticha, olim asalariga o'xshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim.

Bekon o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi o'ynaydi.

Uning ta'limotini **Tomas Gobbs** (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlashtirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo'lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlarga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida **Jon Lokk** (1632-1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. 1690 yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R. Dekartning «tu$^2$ma $^2$oyalar» to'$^2$risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, $^2$oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi; 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari; 3. Ittifoq federativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uy$^2$un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

**Fransuz falsafasi.** O'rta asrlardagi Yevropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o'rin tutadi. Bu borada R. Dekart, Lametri, Gelvesiy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim.

R. Dekart (1596-1650) falsafasida dualizm asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga bo'ysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bo$^2$liq bo'lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhur bo'lib hisoblanadi.

Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R. Dekart rasionalizm ta'limotining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo'lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o'sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo'lib, o'z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduksiya usulini falsafaga kiritgan olim bo'lib hisoblanadi.

Lametri va Gelvesiy, Didro va Golbax o'z davrida fransuz hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan milliy davlatchilik, inson erkinligi va haq-huquqlari muammolariga alohida e'tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma'naviy jihatdan yuksaklikka ko'tarish va ma'rifatli xalqqa aylantirish uchun o'z asarlarida ana shu qadriyatlarga erishishning yo'llari va usullarini ko'satib berganlar.

Ular tomonidan yaratilgan ko'p tomlik «Ensiklopediya» o'sha zamonning ma'naviy muammolarini ma'rifatli yo'l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlari ko'rsatib berilgan «Yevropa qomusi» darajasiga ko'tarilgan edi. Bu kitobni yaratishda boshqa ko'pgina ma'rifatparvar fransuz olim va mutaxassislari ham qatnashgan bo'lib, o'zining ahamiyati, muammolarining umuminsoniy nuqtai nazaridan yechilishi, xalqchilligi va tilining fransuz millati hayot tarziga yaqinligi bilan ensiklopediya XVIII asr Yevropasining tengi yo'q kitobi edi. Aynan ana shu kitob mualliflari o'zlarining boshqa asarlari va faoliyatlari bilan 1789-1884 yillardagi Fransuz inqilobi qabul qilgan «Inson va grajdanlar huquqlar deklorasiyasi»da ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiiyat taraqqiyotining eng ustivor ma'naviy mezonlariga aylantirdilar.

**Nemis falsafasi.** XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq edi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o'rinni egalladi. Fizika va ximiya fanlari yutuqlarga erishdi, tabiatni o'rganishga katta e'tibor berila boshlandi. Matematika fanida yangi ixtirolar qilindi. Bu ixtiro va yutuqlar hamda insoniyat jamiyatining rivoji haqidagi nazariyalar borliqni o'rganishning uslubi va nazariyasi bo'lib xizmat qiladigan rivojlanish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqishni tarixiy bir zaruriyat qilib qo'ydi. Mana shunday tarixiy sharoitlar taqazosi bilan XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keldi.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri **Immanuil Kant** (1724-1804) faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta'limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta'limotlarga zarba berdi. Kant o'z davri tabiatshunosligi erishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, shu bilan birga Koinot genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqlarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant ta'limoti bo'yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo'lmish — borliq, axloq, degan masalalarini tahlil qilish uchun eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlamoq kerak. Bizning bilimlarimiz narsaning hodisasini, ya'ni bizga qanday holatda namoyon bo'la olishini (fenomen) bila oladi. Ular bizning tajribamiz mazmunini tashkil qiladi. «Narsa o'zida»ning bizning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasida sezgilar xaosi vujudga keladi. Bu xaos bizning aqlimiz quvvati bilan tartibga solinadi va bir butunga aylantiriladi. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan hodisalar dunyosiga kiritilgan aloqadir. Boshqacha qilib aytganda, bizning aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi. Lekin hodisalar dunyosiga inson ongiga bog'liq bo'lmagan narsalarning mohiyati, ya'ni «narsa o'zida» mos keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. «Narsa o'zida» biz uchun faqat aql bilan bilish mumkin bo'lgan, lekin tajribadan kelib chiqmaydigan mohiyatdir. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchsiz qaraydi. Inson bilimining nisbatan cheklanganligiga u ma'lum axloqiy ma'no beradi. Uningcha, agar inson mutlaq bilimga ega bo'lsa, unda axloqiy burchni bajarishi uchun kurash ham, intilish ham bo'lmasdi.

Kant ta'limoti bo'yicha, makon va zamon g'oyalari insonga uning tasavvurlaridan oldin ma'lumdir. Makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, g'oyalardadir.

Bilish nazariyasida Kant dialektikaga katta o'rin beradi. Qarama-qarshilikni bilishning zaruriy omili sifatida qaraydi.

Kant falsafada katta o'rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji **Hyegel** (1770-1831) ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga erishadi. Hyegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O'sha davrlarda hukmron bo'lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Kantning «narsa o'zida» haqidagi ta'limotiga qarama-qarshi qilib, shunday ta'limotni ilgari surdi: «Mohiyat namoyon bo'ladi, hodisa mohiyatdan ajralmasdir». Hyegelning ta'kidlashicha, kategoriyalar borliqning obyektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «dunyoviy aql», «mutlaq g'oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi. O'z-o'zini anglash jarayonida dunyoviy aql uch bosqichni bosib o'tadi:

1. O'z-o'zini anglovchi mutlaq g'oyaning o'z xususiy qobig'ida bo'lish bosqichi; tafakkur jarayonida, ya'ni bu holatda g'oya dialektika kategoriyalari va qonunlari tizimida o'z mazmunini, mohiyatini namoyon qiladi. Bu bosqich Hyegel falsafasining mantiq bosqichidir;
2. G'oyanning o'zidan «begonalashuvi» ya'ni tabiat hodisalari shaklida namoyon bo'lish bosqichi, ya'ni bu bosqichda tabiatning o'zi rivojlanmaydi, faqat kategoriyalar sifatida rivojlanadi. Bu bosqich Hyegelda tabiat falsafa bosqichidir;
3. G'oyaning tafakkurda va insoniyat tarixida rivojlanish bosqichi. Bu bosqich Hyegel falsafasida ruh falsafasi bosqichidir. Mana shu yakuniy bosqichda mutlaq g'oya o'ziga qaytadi va o'zining inson ongi va o'z-o'zini anglash shaklida o'z mohiyatiga qaytadi.

Rivojlanish g'oyasi Hyegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jarayonda miqdor o'zgarishlarining tub sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o'z-o'zidan harakatning sababi bo'lgan qarama-qarshilikdir. Hyegel falsafasida borliq dialektik o'tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan.

Xegel fikricha, tarix dunyoviy ruhning yoki mutlaq g'oyaning rivoji sifatida namoyon bo'ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o'z-o'zidan rivoji tarixidir. Hyegel ta'limoticha, aql tarixda shunday namoyon bo'ladiki, unda har bir xalq ruh o'z-o'zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o'z hissasini qo'shish huquqini oladi. Lekin bu jarayon qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hyegel umumjahon tarixini to'rt bosqichga bo'ladi: 1. Sharq dunyosi; 2. Yunon dunyosi; 3. Rumo dunyosi; 4. German dunyosi:

Insoniyat tarixini mana shunday bosqichlarga bo'lib, ularga baho berishda Hyegel ochiqdan-ochiq irqchilik ruhidagi ta'limotga yuz tutadi. Uningcha, sharq xalqlarida erkinlik bo'lgan, faqat yagona zo'ravon hukmronning erkinligi tan olingan. Shuning uchun bu xalqlardagi erkinlik — bir tomondan hukmronning zulmi, hirslarning keng quloch yoyishi, ikkinchi tomondan ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish xalq ruhiga xos bo'lgan bir xususiyat bo'lgan. U yunon-rumo dunyosida esa, erkinlik bo'lgan, lekin ular juda cheklangan, faqat ayrim kishilar uchun amal qilgan. Shuning uchun yunon-rumo dunyosining davlatchiligi qullikni inkor qilmagan. Lekin yunon va rumo dunyosi xalq ruhi har xil yo'nalishda bo'lgan. Agar yunon dunyosiga xos bo'lgan narsa «go'zal shaxslilik» prinsipi bo'lsa, rumo dunyosiga xos bo'lgan prinsip mavhum umumiylikdir. Hyegelning da'vosicha, faqat german xalqlarida to'liq erkinlik bo'lgan. Bu xalqlar o'z tarixiy rivojlanishlarida islohotchilik (reformasiya), 1789 yil Fransuz inqilobi mevalaridan bahramand bo'lganlar. Faqat ulargina umumiy fuqarolik va siyosiy erkinlikka erishganlar. Hyegelning ta'kidlashicha, aqlga muvofiq davlatchilikni o'rnatgan faqat german xalqigina umumjahon — tarixiy jarayonning haqiqiy timsolidir.

Xegel umumiy falsafiy sistemasi ham, uning yaratgan metodi ham boshqa kamchiliklardan, ichki qarama-qarshiliklardan holi emas edi. Chunki uning falsafiy ta'limotida bilimning obyektiv asosi mutlaq ruhdir, maqsadi esa shu mutlaq ruhning o'z-o'zini anglashidir, oxirgi bosqich o'z-o'zini anglash bilan yakunlanadi. Hyegel falsafasi mana shu masalani amalga oshirishga qaratilgan. Shunday qilib Hyegelning sistemasi va metodi o'rtasidagi qarama-qarshilik cheklanganlik va cheksizlik o'rtasidagi qarama-qarshilikdir.

XIX asrning oxiridan boshlab g'arb mamlakatlarida Hyegel falsafasi atrofida turli falsafiy maktablar va oqimlar vujudga keladi. Bu falsafiy maktablar ichida ma'lum nufuz va ta'sirga ega bo'lgan oqim «yosh hyegelchilar» oqimi edi. Bu oqimning o'sha davrdagi asosiy namoyandalari orasida aka-uka Bruno va Edgar Bauerlar alohida ajralib turar edi.

Dastlab mana shu oqimga mansub bo'lgan K. Marks (1818-1883) va F. Engels (1820-1895) keyinchalik materialistik jihat va ateistik tamoyillar ustuvor bo'lgan, qarama-qarshiliklarning kurashi tamoyili mutlaqlashtirilgan o'z ta'limotini ishlab chiqdilar. Uning asosiy nazariyalarini hayotga tatbiq qilishga da'vat qildilar. Ularning ta'limoti marksizm falsafasi degan nom oldi. Keyinchalik bu falsafa sosialistik lager deb atalgan mamlakatlarda davlatning mafkuraviy doktrinasiga aylandi, «ilmiy kommunizm» g'oyalari asosida insoniyat tarixining tabiiy jarayonini proletariat diktaturasi deb atalgan davlat va hokimiyat yuritish usuli orqali zo'rlik bilan o'zgartirish ta'limotini ko'pchilik ommaga, siyosiy partiyalarga, mafkuraga singdirishga harakat qildi.

XX asrning boshlaridan 80 — yillarning oxirigacha dunyoning juda katta hududida hukmronlik qilgan bu mafkura sobiq Ittifoq tarqalishi bilan uning hududida o'z ustuvorligini yo'qotdi. Uning katta salbiy oqibati ayniqsa o'tmish madaniy va falsafiy merosiga bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ldi. Bu falsafaning metodologik prinsiplari — sinfiylik va partiyaviylik xolis xulosalar chiqarishga imkon qoldirmas edi. ularga mos kelmaydigan har qanday ta'limot qoralanar, hatto butunlay inkor qilinardi. O'tmish merosining qay darajada umumbashariy, umumjahon ahamiyatiga ega ekanligi e'tibordan chetda qolardi. Bu nafaqat umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini mensimaslikka olib kelardi, shu bilan birga, ma'lum darajada xalqlarda milliylik ruhini, milliy merosdan g'ururlanish ruhini tugatishga qarshi harakat edi. O'tmish merosiga bunday yondoshishning zararli tomonlaridan yana biri shunda ediki, oxir-oqibatda o'tmish merosi bir yoqlama talqin qilinardi, ko'pincha esa ochiqdan-ochiq soxtalashtirilardi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ma'naviy, mafkuraviy sharoitlarni hisobga olmagan holda, o'tmish merosini yuqorida eslatib o'tgan prinsiplar qolipiga solib talqin qilinardi.

So'nggi yillarda sosialistik lagerning parokandalikka uchrashi, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan ko'pgina jumhuriyatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda mustaqil milliy davlatlarning vujudga kelishi, ularning o'z xalqi milliy ruhiga xos va mos mafkura metodologiyasi asosida muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib borayotganligi marksistik falsafaning hayot talablariga javob beraolmaydigan, xalqlarning ruhiga yot bo'lgan g'ayrimilliy ta'limot ekanligidan dalolat beradi.

Bu ta'limotning ba'zi tarafdorlari G'arbda «neomarksizm» oqimiga birlashganlar. Ularning bir qismi marksizmni isloh qilish, zamonga moslashtirishga harakat qilsalar, boshqalari esa yana Marksga qaytish lozim, deb hisoblaydilar. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, marksizmga vaqt o'z bahosini berdi. Ana shu bahoni xolis qayd etish bu ta'limotning mustabid tuzum mafkurasiga aylantirilishi qanday oqibatlarga olib kelganini yaqqol ko'rsatish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mazkur ta'limot to'g'risida umuman gapirmaslik emas, balki uni tanqidiy tahlil etish orqali, mohiyat va mazmunini ochib berish, oqibatlarini yaqqol ko'rsatishga imkon yaratadi.

*Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma — xil oqim va yo'nalishlar mavjud. O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.*

*Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta'limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang-barangligini ta'minlaydi.*

An'anaviy falsafada, turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko'p xilligi va o'ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

An'anaviy falsafada aql — inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi rasionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistensializm) muammolari, hamda uning norasional

mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni ilgari ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda ko'proq inson huquqlariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa guyoki, mavhumlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi.

An'anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday tahlil doirasidan chetda qolgan muammolar o'rganila boshlandi.

Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga **«neo»**, ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — **ssiyentizm** (lot scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Ssiyentizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi.

Ikkinchisi — **antissiyentizm**, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistensializm, frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antissiyentizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo'ymaslik talabi bilan bog'liqdir.

Antissiyentizmning ayrim o'ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to'xtatib qo'yish g'oyasini ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida bir-biriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar rasionalizm va irrasionalizm, antropologizm va naturalizm, ssiyentizm va antissiyentizm, materializm va idealizm o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi **Artur Shopengauer** (1788 — 1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irrosional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g'ildiragiga bog'liqdir.

Shopengauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi **Fridrix Nisshe** (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir.» Nisshe inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Nisshening sivilizasiya va madaniyatning so'nishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918 yilda G. Shpengler «Yevropaning so'nishi» degan asarini yozadi.

O'tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma'naviy turg'unlikdan chiqishning yo'lini G'arbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko'rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hyegelga» shiori ostida esa neohyegelchilik paydo bo'ldi.

Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo'lgan neotomizm ham yoqlab chiqdi. Neatomizm shu bugunga qadar ham o'z mavqyeini yuqotmagan bo'lib, katolik cherkovi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunda ayniqsa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikanning faoliyati muhim o'rin tutadi.

**Neotomizm** — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti

demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan xaqiqat.

Neotomizm vakillari fikricha, ilm yetmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak. Lekin bu e'tiqod ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch bo'lmay, balki mantiqan teran anglangan e'tiqod bo'lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Shunday qilib, falsafaning vazifasi dinga xizmat qilishdan iboratdir.

Neotomistlar dunyoni, jamiyatni xudo yaratgan, jamiyat taraqqiyoti xudoning rejasi asosida boradi, deydilar. Diniy teologiya oqimi bo'lganligidan neotomizm albatta, ilohiy qadriyatlarni ustuvor qo'yadi. Ammo u din va uning jamiyatdagi o'rniga, o'zining nomi kelib chiqishiga sabab bo'lgan, Foma Akvinskiy zamonidan farqli yondoshadi. Fomadan keyingi davr Yevropada xristianlikning sofligini saqlash g'oyasi, asta-sekin mutlaqlashib, o'rta asr aqidaparastligining ma'lum ko'rinishlaridan biri-inkvizisiyaga olib kelgan edi. Bu esa hurfikrlilik, ilm-fandagi yangilikka qarshi kurashga aylanib ketgan edi. Lekin inson huquqlari, fikr erkinligi demokratiya belgisiga aylangan XX asrda bunday o'taketgan aqidaparstlikka o'rin yo'q. Neotomizm hozirgi sivilizasiyali dunyoda sivilizasiyalashgan ta'limot sifatida maydonga chiqmoqda. O'z navbatida bu demokratiya ustivor bo'lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi.

**Neokantchilik** XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamotchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyondalari misol bo'ladi.

**Neopozitivizm** oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma'noni anglatadi. Nepozitivizm G'arbda X1X asrning 20 — yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa — obyektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

Kont falsafaning o'zi mustaqil ravishda obyektiv dunyo to'g'risida hyech qanday aniq bilimlar berishi mumkin emas, u shu paytgacha yig'ilgan bilimlarni formal logika qonunlari asosida tahlil etishi va qayta baholashi, uni «absolyut g'oya, ruh» to'g'risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kerak va yangi falsafani yaratishi kerak, deb ta'lim bergan.

Neopozitivistlar **verifikasiya prinsipini** ilgari suradilar (lot. Veritas — xaqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu prinsip keyinchalik inkor etildi.

Shundan so'ng **postpozitivizm** (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper **falsifikasiyalash metodini** ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning xaqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning xaqiqiyligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 — 70 yillariga kelib, neopozitivizmning mavqyei kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va germenevtika chiqdi.

**Strukturalizm** (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning

obyektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi-Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday prinsipga, umumiy mantiqqa ega.

**Germenevtika** — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalariga asosiy diqqatini qaratadi.

Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat.

Bu oqim vaqillari Shleyermaxer va Diltey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud.

XX asrning 30 — yillariga kelib **«ekzistensial falsafa»** rivojlandi. Ekzistensiya — tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzestensializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi.

Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistensial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi.

Ekzistensializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir.

Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib yetishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Shu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, chunki bunda inson o'zi, boshqalarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistensializm vakillari Yaspers va Marsel fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida xudoga qarab unga yetishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga tahlikali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. «ahlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'laligicha anglaydi. Hayot va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistensialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi **pragmatizm** AQShda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foyda» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari Ch. Pirs, U. Djems, J. Dyui va boshqalardir. Ularning ta'limotida olamning o'zgaruvchanligi o'z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta'riflaydilar.

Insonning xatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita — intellektdir. J. Dyui fikricha, intellekt insonni o'rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam berishdan iborat. Dyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir.

*Pragmatizm AQSh ijtimoiy-madaniy hayotining qadriyatlarini ifoda etib, u yerdagi ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan.*

*Amerikaliklar bu ta'limotning nazariyotchilarini halqning dunyoqarashi o'zgarishida, hozirgi amerikacha hayot tamoyillarini keng ommaga singdirishda katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J. Dyuini «Amerikaning Arastusi» deya hurmat bilan tilga oladilar.*

*Jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida XVII-XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj. Viko, XVIII asrda yashagan I.G. Gerder va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoyondasi Xegel katta hissa qo'shganlar. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotlar orasida tadrijiy taraqqiyot va inqilobiy sakrashlar yo'lidan borishni ilgari suradigan ta'limotlar talaygina. Ko'pchilik tadrijiy yo'lni ma'qul ko'radi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdori.*

*Afsuski, boshqacha qaraydigan ta'limotlar ham bor. Yangi davr falsafasida tarqalgan ana shunday oqimlardan biri* ***marksizm*** *bo'lib, uning asoschisi nemis iqtisodchisi va faylasufi K. Marksdir (1818 — 1883). Uning ijtimoiy falsafasi kapitalizmda sinfiy kurashning mutlaq antogonizm darajasiga ko'tarilishi, oxir-oqibat proletariat diktaturasining o'rnatilishi va shu yo'l bilan sinfsiz jamiyatga o'tishni targ'ib qiladigan va real hayotni aks ettirmaydigan nazariyadir.*

*Keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu ta'limot dastlab K. Marks va F. Engels yozgan «Kommunistik partiya manifesti»da bayon qilingan. Uning nazariy asoslari K. Marksning «Kapital», F. Engelsning «Anti-Dyuring» va «Tabiat dialektikasi» asarlarida ta'riflab berilgan bo'lib, ijtimoiy hayotda salbiy oqibatlarga olib keldi. U borliq tushunchasini materiya bilan aynanlashtirgan, ruhni butunlay inkor qilgan, materializm va ateizmni mutlaqlashtirgan.*

*Bu ta'limotning K. Kautskiy, V. Plexanov boshliq mo'tadil tarofdorlari keyinchalik sosial-demokratiyaga ko'proq moyil bo'lishdi. Rossiyada V. Lenin boshchiligidagi tarafdorlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini mutlaqlashtirish yo'lidan bordilar. Bu o'z navbatida, inqlobiy sakrash yo'lini tanlashga olib keldi va Rossiyani terror yo'liga boshladi. Oqibatda esa bu tipdagi dunyoqarash jamiyat va xalqlar taqdirida g'oyat salbiy o'rin tutishi ma'lum bo'ldi. G'arbda Marksning hozirgi davrdagi tarofdorlari* ***«neomarksizm»*** *oqimini tashkil etadilar. Ko'pgina neomarksistlar sinfiy kurashni mutlaqlashtirmaslik, inqlobiy emas, tadrijiy sakrash yo'lidan borish ustuvor bo'lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl qarashlarini jamiyat, millat emas, sinf va ular o'rtasidagi kurash taraqqiyoti belgilaydi, degan o'sha ta'limotga bog'liqligicha qolmoqda.*

*Alohida ta'kidlash lozimki, yaqingacha sobiq Ittifoq va uning ittifoqchilari hududida mutlaq hukmron bo'lgan mafkuraning taqdirini o'rganish, uning tarixidan xolisona xulosa chiqarish, bu ta'limotning qanday ayanchli natijalarga olib kelganini bilib qo'yish ham foydadan xoli emas. Bu borada lom-mim demaslik foyda bermaydi. Zero, ta'limotlar tarixi — insonlar, ularning taqdiri, yuksalishi yoki tanazzuli tarixidir. Bu yuksalish yoki tanazzul ko'p hollarda muayyan g'oyalar, mafkuralar ta'sirida ro'y beradi. Gohida minglab, millionlab kishilarni maftun qilgan ba'zi g'oyalar yoki mafkuralar oxir-oqibat ana shu millionlarning zavoliga sabab bo'lishi ham mumkin. Biz qisqa tahlil qilgan marksizm va keyinroq u paydo bo'lgan hududda shakllangan nasional sosializm (fashizm) nazariyalari ana shu tarixiy haqiqatni isbotlaydi. Bu haqiqatning ostida esa biror ta'limot qadriyatlarini mutlaqlashtirish, albatta, muayyan «izm»ga, aqidaparastlikka olib keladi, bu o'z navbatida jaholat va qabohatga eltuvchi yo'ldir, degan umuminsoniy tamoyil yotadi.*

XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, «lokal madaniyatlar» hamda «sivilizasiyalarning xilma-xilligi» konsepsiyalari shakllandi. Ularga ko'ra, jamiyat tarixi — o'ziga xos madaniyatlarning birligi emas, xilma-xilligidan iborat. Shu ma'noda u organik tabiatdagi hayot shakllarining rang-barangligiga qiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo'lsa, jamiyat ham ana shunday rang-baranglikning uyg'unligidir. Jamiyatda ham hamma va har bir narsaning o'z o'rni bor.

Bu g’oyalar nemis faylasufi va sosiologi O. Shpengler (1880-1936) va ingliz tarixchisi A. Toynbi (1889-1975) ta’limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O. Shpengler o’zining «Yevropaning so’nishi» nomli asarida tarixni bir — biridan mustasno bo’lgan madaniyatlar majmuidan iborat, deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko’rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va russ-sibir madaniyatlaridir. Madaniyatlar o’ziga xos diniy asosga ega bo’lib, ularning har biri qat’iy biologik maromga (ritmga) bo’ysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o’tadi: tug’ilish va bolalik, yoshlik va kamolot, qarilik va so’nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko’rsatiladi. Birinchi bosqich — madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi — uning tanazzuli («sivilizasiya»).

O. Shpengler yevroposentrizmga, ya’ni barcha madaniyatlarni yevropalashtirish g’oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o’ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g’oyasini mutlaqlashtirdi. Ular o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e’tibor qaratdi.

Yana bir olim A. Toynbi esa o’zining 12 jildlik «Tarixni o’rganish» asarida madaniyatlarning lokal rivojlanish g’oyasini davom ettirdi. Biroq uning ta’limoti Shpengler konsepsiyasidan o’zining ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, insonda o’z hayotini erkin belgilash imkoniyati mavjudligini, tarixiy taraqqiyot zaruriyat va erkinlikning o’zaro birligidan iborat ekanligini nazarda tutsa, ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom) ning barcha xalqlarni yakinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil g’oyasi bilan boyitilgan.

Toynbi G’arb xristian sivilizasiyasining tanazzulga qarab borayotganligini ko’rsatib, uning oldini olish yo’lini ma’naviy birlikda, jahon xalqlarining yagona dinni qabul qilishlarida, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining sivilizasion konsepsiyasi ko’pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmoqda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g’oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko’ra, jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni — sanoatning rivojlanish darajasidir.

Shunday qilib, XX asrga kelib rang-barang falsafiy ta’limotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda ko’rib chiqish imkoniyati bo’lmasa-da, yuqorida bayon etilgan ma’lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan bog’liq murakkab fan ekanligi to’g’risida muayyan xulosaga kelish mumkin. Bu sohadagi bilimlarimiz, o’z navbatida bizning milliy g’oya va mafkuramizni shakllantirishga, ma’naviyatimizning boyib, mustahkamlanib borishiga, intellektual kamolotimizga xizmat qiladi.

**XX-XXI аср ўзбек фалсафаси.** XX asr o’zbek falsafasi kam o’rganilgan ziddiyatli davrni qamrab oladi. Chunki hozirgi davr tanqidchilarida sovet davrida falsafa bo’lmagan, u davrda intellektual hayot o’lgan va uzoq muddatga qotib qolgan, faqat ayrim hollarda ba’zi mardlargina o’zlarining g’oya va qarashlarini ayta olganlar degan fikr shakllangan. Biroq bu noto’g’ri. Chunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidchilar harakati “jamiyatni ma’rifat orqali yangilash” g’oyasini ilgari surganlar, Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat kabilar bir guruh yoshlarni chet elga o’qishga yuborib, yangi avlod ziyolilarini tarbiyalashga o’zlarining munosib hissasini qo’shganlar.

Shu bois, 1917 yilda bolьsheviklar partiyasi g’alaba qozonib, dunyo xaritasini katta Sovet ittifoqi degan mamlakat egallab, unda partiyaviylik mafkurasi hukmronlik qilsada, O’zbekistonda falsafiy fikr rivoji to’xtab qolgan emas.

Falsafaning fidoyilari yangi qaror topgan siyosiy tizimda yashash, ishlash va juda ko’p sinovlardan o’tishlari lozim bo’ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko’pchilikda esa marksizm g’oyasining haqiqiy insonparvarligiga qat’iy ishonch shakllandi va shu bois, shu yo’nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasi ta’siri bo’lsada, o’tgan asrda o’zbek falsafasi to’rt yo’nalishda Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulьteti, O’zbekiston Fanlar Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o’quv yurtlari falsafa bo’limlari, O’zbekiston falsafa jamiyati va O’zbekiston faylasuflari milliy

jamiyati faoliyatida namoyon bo'ldi va olimlar o'z falsafiy qarashlarida davrning ruhini ifoda eta oldilar. Darhaqiqat, I.A.Karimov aytganlaridek, "Odam qancha chuqur bilimga ega bo'lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglay olsa, shundan keyingina unda g'urur-iftixor bo'ladi. Shundagina, juda murakkab, tahlikali davlarda ham ko'pchilik unga murojaat qilib, maslahatlashadi. Maslahat kimdan so'raladi – avvalombor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy bilim va intellektual bilimga ega bo'lgan kishidan."┐ . Shunday ekan, O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarni tushunishda va ularning mohiyatini tushuntirishda yurtimiz faylasuf-olimlarining xizmati ham katta.

**Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети фалсафа факультети**. 1922 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ijtimoiy gumanitar fanlar fakulьtetida falsafa fanidan o'quv mashg'ulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi.

1935 yilda birinchi «Dialektika va tarixiy materializm» kafedrasi tashkil qilindi. 1944 yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasi tarkibidan «Falsafa» kafedrasi ajralib chiqqan. Aynan "Falsafa" kafedrasi negizida 1962 yilda "Ilmiy kommunizm", 1967 yilda "Tabiiy va gumanitar fakulьtetlar falsafa" kafedralari tashkil qilingan. Kafedralar tarkibi milliy kadrlar bilan boyib borgan.

1960 yillarda "Falsafa" kafedrasida 45 ta professor-o'qituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi bo'yicha universitetning o'zida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo'lgan. Professor A.Ayupov, H.Umarov sa'y harakatlari bilan oliy ta'lim vazirligida bu masalaga ijobiy yondoshilib, universitetning tarix fakulьtetida 1963-1964 o'quv yilidan boshlab "Falsafa" bo'limi tashkil qilingan va unga H.Umarov rahbar etib tayinlangan. O'quv rejasi asosida respublikaning yirik olimlari jalb qilinib, falsafa bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni boshlangan.

Shu yillarda ilmiy ishlar rivoj topib yuqori malakali kadrlar yetishib chiqa boshlagan. 1962-1967 yillarda 18 ta falsafa fanlari nomzodi tayyorlangan. 1962-1992 yillar davomida gumanitar fakulьtetlar "Falsafa" kafedrasini boshqargan professor A.T.Ayupov boshchiligida dotsentlar G'.Shoyusupova, A.I.Abdusamedov, K.S.Sadыkov, K.I.Ivanova, I.Rahimov, V.S.Nikitchenko va boshqalar dastlab falsafa bo'limi, keyin falsafa fakulьtetida milliy kadrlarni tayyorlash ishida katta rol o'ynadilar. O'sha yillarda falsafa bo'limi professor-o'qituvchilari nafaqat o'quv jarayoni, balki ilmiy bilish sohasida faol ishtirok qilganlar. 1974 yilda K.I.Ivanovaning "Ilmiy bilishda sababiylik tamoyili" nomli monografiyasi, professor L.Ye.Garber, A.T.Ayupov, U.Xaydarov, B.To'ychiyev, V.G.Chernыxlarning "Ilmiy bilish mantig'i va metodlari"(1986) mavzusidagi turkum asarlari nashr qilingan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi E.Yu.Yusupov, professorlar M.V.Vohidov, I.R.Rahimovlar 1980-2005 yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotining falsafiy muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, darslik va o'quv qo'llanmalari yozganlar, yosh kadrlarni tayyorlashga o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar. Shu yillar davomida J.Babayevning "Falsafa asoslari" o'quv qo'llanmasi, E.Yusupovning tahririda "Falsafa" (1985) darsligi, I Raximovning "Mantiq fanidan seminar mashg'ulotlari" (1984) o'quv qo'llanmalari nashr qilingan.

Falsafa bo'limida o'qitiladigan fanlarning differensiallashuvi natijasida "Mantiq", "Falsafa tarixi" va "Dinshunoslik" kafedralari tashkil qilingan. O'sha yillarda falsafa bo'limi professor-o'qituvchilari nafaqat o'quv jarayoni, balki ilmiy ishlar sohasida ham faol ishtirok qilganlar.

Mustahkam poydevor yaratilgach, 1979 yilda tarix fakulьteti tarkibidan "Falsafa, iqtisod va psixologiya" bo'limlari ajratilib, uchta mutaxassislikni birlashtiruvchi yangi "Falsafa-iqtisod" fakulьteti tashkil qilingan va falsafa fanlari nomzodi, professor G.Sh.Shoyusupova (1979-1985) dekan lavozimiga tayinlandi.

Bu esa o'sha davrda falsafa fanining yanada chuqur va keng o'rganilishi yo'lidagi dadil qadam bo'ldi. Yangi kafedralar tashkil qilinib, falsafani o'qitishga differensial yondoshuv shakllandi. Shu yillarda fakulьtetda pofessorlar: - M.Xayrullayev, M.Baratov, L.Ye. Garber, V.N. Moroz, M. Nurmatov f.f.n dotsent M.Q. Aripov, f.f.n. dotsent M.Daliyev, dotsent E.N. Abramyan,

Z.Mo'minova, dotsent T.M.Ramazanov, I.R.Ramazanov, R.Nosirov, Sh.B.Qahharova, M. Usmonov, I.L. Turchaninov, shuningdek fakulьtetning bitiruvchi yoshlari M. Sharipov, B.To'ychiyev, E.Mo'minov, A.O'tamurodov, I.Ergashev, o'rindoshlik asosida professorlar M.N. Abdullayeva, H.Aliqulov va boshqalar ilmiy pedagogik faoliyat olib borganlar.

1990 yilda universitetning yangi Nizomi qabul qilinib, uning keyingi taraqqiyot yo'llari, vazifalari, huquqlari, xalq hayotidagi mavqei yangi dunyoqarash nuqtai nazaridan belgilab olindi. Shu bois 1991 yilda fakulьtet tarkibidan "Iqtisod" bo'limi ajraldi hamda Falsafa, sotsiologiya va psixologiya" bo'limlari va 9 kafedradan iborat "Falsafa" fakulьteti yoshlar ongiga mustaqillik mafkurasining mazmun va mohiyatini singdirish, yangi dunyoqarashni shakllantirish yo'lida fidokorona mehnat qildilar.

1989-2007 yillarda "Falsafa tarixi va mantiq" kafedrasining mudiri lavozimida ishlagan professor S.A.Yo'ldoshev kafedra a'zolari bilan hamkorlikda Sharq va G'arb xalqlari tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi va ijtimoiy axloqiy qarashlarini o'rganish bilan bir qatorda, mantiq fanining keng qamrovli o'rganilishiga ham alohida e'tibor qaratib kelgan. Pokiston va Eron falsafasini O'zbekistonda chuqur o'rganilishiga munosib hissa qo'shgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2000 yil 28 yanvardagi farmoniga ko'ra, Toshkent Davlat universitetiga "Milliy" maqomi berilishi, fakulьtet professor o'qituvchilariga mas'uliyat yuklashi bilan bir qatorda yangi faoliyatga chorladi. Ular falsafiy bilimlarni, yangilangan tafakkur nuqtai nazaridan yoritish bo'yicha faol ish olib bordilar.

2002 yilda yangi "Falsafa va fan metodologiyasi" kafedrasining tashkil qilinishi falsafadagi ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda, fundamental masalalarning o'rganilishiga keng imkoniyatlar yaratdi. "Falsafaning munazariy masalalari" ilmiy maktabiga asos solindi. Bugungi kunda ushbu maktab tadqiqotchilari tomonidan "gerontologiya" - "fenomenologiya" insonning individual ijtimoiy ongiga ta'sir qiluvchi omillar muammosi, "germenevtika" - tushunish va tushuntirish muammosi, qariyalik muammosi, "tanatalogiya" - o'lim va barhayotlik muammosi, "epistemologiya", "fan falsafasi", "Ijtimoiy vaqt", "Sinergetika", "Dialog tushunish vositasi" kabi muammolarning falsafiy tahliliga qiziqishning kundan kunga ortib borishi yangi avlod faylasuflarining yuqori intellektual salohiyatga egaligi va ayni paytda ularni ilmga yo'naltiruvchi munosib ustozlar borligidan dalolat beradi.

O'tgan yillar davomida fakulьtet bitiruvchilari nafaqat pedagogik faoliyati, balki ilmiy salohiyati bilan falsafiy fanlar bo'yicha yangi o'quv adabiyotlarini yaratish jarayonida ham faol ishtirok qildilar. I.Saifnazarov muallifligida "Kurs leksiy po filosofii" (2001), "Ilmiy ijod metodologiyasi" (2004), "Fanlarning falsafiy masalalari" (2007), I.Rahimov A.O'tamurodov hamkorligida "Fanlarning falsafiy masalalari" (2005), D.Fayzixo'jayeva va M.Sharipovlar hammuallifligida "Mantiq" (2004) o'quv qo'llanmalari, S.Mamashokirov tahriri ostida Falsafa (2005 lotin tilida), "O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari" (2005), "Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy mafkuraviy masalalari" (2007) o'quv qo'llanmalari, Q.Nazarov tahriri ostida "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" (2001), "Falsafa qomusiy lug'at" (2004), "G'arb falsafasi" (2004), "Jahon falsafasi tarixidan lavhalar" (2005), "Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillari lug'ati" (2005), "Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati" (2008) kitoblari, yakka muallifligida "Bilish falsafasi" (2005), "Qadriyatlar falsafasi" (2004) o'quv qo'llanmalari, N.A.Shermuxamedova muallifligida "Filosofiya i metodologiya nauki" (2003) o'quv qo'llanmasi, "Falsafa va fan metodologiyasi" (2005), "Gnoseologiya" (2007), Gnoseologiya – bilish nazariyasi (2010) darsliklari, A.Ochildiyevning "Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar" (2004), Madaniyat falsafasi (2010), Ye.Emirovaning "Metodika prepodavaniya filosofii" (2004), shuningdek A.Strelьsova bilan hamkorlikdagi "Vvedeniye v spetsialьnostь» (2008) o'quv qo'llanmasi kabi qator yangi adabiyotlarining nashr qilinishi fakulьtetning katta ilmiy salohiyatga egaligidan dalolat beradi.

O'zMUning 90 yillik tarixida Falsafa bo'limining 45 yillik, falsafa fakulьtetining 30 yillik faoliyati o'z o'rniga ega. Zero, bugungi kunda yangilangan tafakkur egalari o'zbek falsafasining nomini dunyoga tanitmoqdalar. Azaliy falsafiy muammolarga yangicha yondoshmoqdalar. "Ustoz va shogird" maktabining yangi avlodi shakllanmoqda, yangi ilmiy maktablarga asos solinmoqda.

Fakulьtetning 1500 mingdan ortiq bitiruvchilaridan shu yillar davomida 40 ta fan doktorlari va 200 dan ortiq fan nomzodlari yetishib chiqdi.

**Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти.** O'zbekistonda falsafa fanining rivojiga nafaqat falsafa fakulьteti professor o'qituvchilari, balki 1957 yilda I.M.Mo'minov tashabbusi bilan tashkil qilingan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining "Falsafa va huquq" institutining ilmiy xodimlari ham munosib hissa qo'shdilar. Ilmiy tadqiqot institutida dastlab "Tabiatshunoslik", "Falsafa tarixi" bo'limlari faoliyat olib bordi. Keyinchalik institut tarkibi yangi yosh milliy kadrlar bilan boyib bordi hamda, "Dialektika va bilish nazariyasi", "Ijtimoiy falsafa", "Etika" kabi bo'limlar tashkil qilindi. Institutning asosiy faoliyati falsafa, fan va madaniyat tarixini ob'yektiv o'rganish, ma'naviyatning yangi milliy qirralarini izlash, xalq ma'naviyatini yangi bilimlar bilan boyitish, millatning ma'rifiy ruhini ko'tarishga yo'nalgan edi. Bu sohada Ibrohim Mo'minov, Muzaffar Xayrullayev, Mo'bin Baratov, Erkin Yusupov, Karim Sodiqov, Mirahmad Abdullayev, Haydar Aliqulov, Rasul Nosirov, Muhammadjon Boltayev, Anvar Sharipov, Gulchehra Navro'zova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari e'tiborga sazovordir.

Ijtimoiy falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik falsafasi sohasida Rustam va Teльman Abdushukurovlar, Haydar Po'latov, Abdulxay Valiyev, Oysara Umrzoqova, Naim G'oyibov, Abduvosid Yo'ldoshev, Maxmud Abdullayev, Mnazura Xolmatova, Said Shermuxamedov, Qo'chqor Xonazarov, Xotima Shayxova, Abdulxafiz Jalolov, Jo'ravoy Yaxshilikov, Zuhra Qodirova, Qiyom Nazarov, Viktor Alimasovlar samarali ishladilar va ishlamoqdalar.

Ontologiya va bilish nazariyasi, tabiatshunoslik falsafasi, fan metodologiyasi bo'yicha Jondor Tulenov, Bahrom Ismoilov, Omonulla Fayzullayev kabilar boshlagan an'analarni, Mahbuba Abdullayeva, Baxtiyor Karimov, Baxtiyor To'rayev, Ra'no Imomaliyeva, E'tibor Hoshimova, Shuhrat Qo'shoqov, Hakima Salomova, Oqil Fayziyev, Ziyodullo Davronov, Nigina Shermuxamedova, Alima Berdimurodova, Nariman Eshmetov, Shavkat Mamadaliyev, Karima Tulenova, Emina Izzetova va boshqalar davom ettirmoqdalar.

2002 yilda Qiyom Nazarovning tashabbusi bilan "Falsafa va huquq" jurnalining tashkil qilinishi institut xodimlarining ilmiy faoliyati samaradorligini yanada oshirishga hamda yosh olimlarning ilmiy izlanishlari haqida keng jamoatchilikning tanishishi va falsafiy muloqotlar olib borilishidagi dadil qadam bo'ldi.

Birgina 2003 yilda institut xodimlari 31 ta turli yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot loyihasiga ega bo'ldilar. Bugungi kunda "Falsafa va huquq" instituti yangi yosh kadrlar bilan boyib bormoqda.

Falsafa tarixi va tarix falsafasini tahlil qilishda I.A.Karimov aytganlaridek, "Sharq falsafasini teran o'rganish, shu asosda ulug' madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o'tmishdan qolgan mafkuradan xalos bo'lish, o'zimizning asrlar sinovidan o'tgan, ulug' ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy – umumbashariy ruh bilan boyitish xalqimizning dolzarb vazifasidir"┐. Shu ma'noda, o'zbek falsafasining yetakchi vakillari Sharq falsafasi tarixini o'rganish va undagi gumanistik g'oyalarni "... halqimiz soddagina qilib, "o'zbekchilik" deb ataydigan, mehr-oqibat, o'zaro chidam va hurmat, o'zgalarning dardiga hamdard bo'lish kabi oliyjanob fazilatlarni"┐ kelgusi avlodga yetkazish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Quyida ko'p sonli o'zbek falsafasining vakillarining ta'limotlari bilan tanishamiz.

**И.Мўминов (1908-1974) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** I.Mo'minov tomonidan 1956 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnaliga asos solinishi ilmiy tadqiqot ishlari tarkibi va mavzulari doirasining nisbatan kengaytirilishi, ijodiy erkinlikka yo'l ochdi. 1957 yilda I.Mo'minov tashabbusi bilan O'zFa huzurida "Falsafa va huquq instituti" tashkil qilingan. (O'zbek ensiklopediyasining birinchi mas'ul muharriri bo'lgan.)

I.M. Mo'minov o'zbek faylasuflaridan birinchi bo'lib, totalitar tuzumning millatni ma'naviy qadriyatlardan mahrum etish, milliy ongni buzish va o'z-o'zini anglashga yo'l qo'ymaslikka intilib, kommunistik mafkurani shakllantirishga jon-jahdi bilan harakat qilayotgan bir paytda, tarixiy va

ma’naviy merosni, o’zbek xalqi va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari yaratgan boy ma’naviy qadriyatlarni har tomonlama o’rgandi.

I.M Mo’minovning Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag’ishlab o’tkazilgan xalqaro konferensiyada “Beruniy – ensiklopedist olim” mavzusidagi ma’ruzasi va “Xorazmlik buyuk ensiklopedist” monografiyasining o’zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida nashr qilinishi olamshumul voqea bo’ldi. Xususan u “Biz buyuk xorazmlik olim Beruniyga vatanparvarligi, insonparvarligi uchun, olimning quvonchi va baxtini umuminsoniylik va milliylik, umumiylik va xususiylik birligida ko’ra olgani uchun buyuk hurmat bilan qaraymiz. Beruniyda vatanparvarlik izchil insonparvarlik bilan uzviy bog’lanib ketadi”┐ , deb e’tirof etadi. O’sha davrda o’tmish mutafakkirlari va olimlarining insonparvarlik salohiyati, qarashlari va ta’limotlaridagi nodir milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida hech narsa deyilmagan yoki ular inkor qilingan bir vaziyatdagi bu sa’y harakat milliy falsafa rivojidagi dastlabki uchqun bo’ldi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Olim turli manba va ilmiy adabiyotlardan foydalangan va ularni sharhlagan holda Amir Temurning shaxsi va faoliyatini ob’yektiv tahlil qilishga va baholashga harakat qildi. I.Mo’minov o’sha davrdagi ilm ahlini Amir Temurning milliy davlatchilikni shakllantirishdagi roliga to’g’ri baho berishga chaqirdi va 1969 yilda YuNESKO homiyligida Samarqand shahrining 2500 yilligi, Temur va Temuriylar davridagi O’rta Osiyo san’atini o’rganishga bag’ishlangan konferensiyada “Amir Temurning O’rta Osiyoda tutgan o’rni va roli”mavzusida ma’ruza qildi, jiddiy muhokamalardan so’ng ma’ruza o’zbek va rus tillarida nashr qilindi. U ”Bunday shaxsning yuzaga kelishi davrning, zamonning taqozosi, Chig’atoy ulusining zulmi, mayda feodal beklarni vahshiyona ezishi, mo’g’ul xonlari, Oltin O’rda beklarining Movaraunnahrdagi to’xtovsiz bosqinchilik yurishlari, azoblangan, xonavayron bo’lgan, 150 yil davomida chet el hukmronligidan tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshilarida ravshan ko’rindi. Temur davlat arbobi sifatida ma’lum darajada bu ehtiyojni, talabni, zaruriyatni o’zida aks ettirdi, ya’ni Movanaunnahrda mustaqil markaziy birlashgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi. Mulkdor sinflar, savdogarlar, karvonsaroy egalari hamda ma’lum ma’noda aholi talablariga peshvoz chiqib, mamlakatning ko’p joylarida qurilishlar qildirdi, kamida yuz yigirma yil davomida nisbatan osoyishtalik o’rnatdi. Bu shubhasiz, mamkalakatda iqtisod, madaniyat, fan, adabiyot va san’atning o’sishida muhim omil bo’ldi. Temurning O’rta Osiyo tarixidagi xizmati, bizningcha ana shulardan iboratdir”┐ deb ta’kidladi.

Shuningdek, I.Mo’minov “Amir Temur O’rta Osiyoni birlashtiribgina qolmasdan, balki Rusga va boshqa Yevropa xalqlariga, shuningdek Shimoliy Afrika xalqlariga, birinchi navbatda Misr xalqiga yordam ko’rsatdi”┐ deb ta’kidladi. Bu asari bilan I.Mo’minov ba’zi tarixchilarning “Amir Temur o’zidan vayrona va kuldan boshqa hech narsa qoldirmadi”, “Temur va Chingizxon bir tarzda ish ko’rdi” degan uydirma da’volarning asossiz ekanligini isbotladi. Bu totalitar mafkura hukmronlik qilgan davrdagi buyuk jasorat namunasi edi. Shu bois, I.Mo’minov ma’muriy – buyruqbozlik tizimi mafkurasining keskin tanqidi va adolatsiz tazyiqiga uchradi. Chunki marksistik mafkura uchun millatning o’z –o’zini angalashga asos bo’ladigan ilmiy tarixiy dalillar emas, balki millatlar va xalqlarni tarixiy ildizlaridan va qadriyatlaridan uzib qo’yadigan kommunistik ongni shakllantirish muhimroq edi. Shunday bo’lsada, 1976-1977 yillarda uning 4 jildlik “Tanlangan asarlari” nashr qilindi. Ushbu kitoblarga I.Mo’minovning nafaqat O’rta Osiyo mutafakkirlari, (Mirzo Bedil, A.Beruniy, Yu.Qoshg’ariy, A.Navoiy, A.Jomiy), balki g’arb falsafasi namoyondalari (Gegel, Kant, Yum, Fixte) ijodiga bag’ishlangan asarlari jamlangan.

Mustaqillikka erishgach Mo’minovning ijodi va jamoatchi arbob sifatidagi faoliyatiga munosabat o’zgardi. U fan, falsafa ravnaqiga qo’shgan hissasi uchun “Buyuk xizmatlari”ordeni bilan taqdirlandi. “Falsafa va huquq instituti” uning nomi bilan ataldi. I.Mo’minov yaratgan ilmiy maktabning dastlabki qaldirg’ochlari o’z maktablarini yaratishga muyassar bo’ldilar va ustoz ishini davom ettirdilar.

O’zbekistonda nafaqat falsafa tarixi, balki dialektika va bilish nazariyasi masalalarini o’rganishga ham e’tibor qaratilgan. I.A.Karimov aytganlaridek, “Falsafani o’zagini tashkil etadigan dialektika fani bo’yicha hozir oliy o’quv yurtlarimizda qanday darsliklar bor? Dunyoni dialektik

nuqtai nazardan baholashda, bugungi o'ta murakkab va shiddatli jarayonlarni anglash, ularga munosabat bildirishda qaysi yo'nalishlar sizga ma'qul?"┐ . Darhaqiqat, sho'rolar davrida ilmiy bilim marksizm g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lsa-da, ba'zi faylasuflar ijodida bilim o'zining haqiqiy ma'nosida ifodasini topa oldi. Shunday olimlardan biri Jondor Tulenovdir.

**Туленов Жондор (1927-2002) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** Asosiy ijodi dialektika va bilish nazariyasi, ilmiy tafakkur uslubi masalalariga bag'ishlangan.

XX asrning 70-80 yillarida falsafani o'rganishda nisbatan erkinlik shakllandi va shu bois dialektik mantiqning rivojiga yo'l ochildi. O'zbekistonda J.Tulenovning dialektika maktabi shakllandi. Qozog'istonlik o'zbek olimi 1971 yildan O'zbekistonda ilmiy faoliyatini davom ettiradi. U 350 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. J.Tulenov o'zining "Qonun falsafiy kategoriya sifatida" (Zakon kak filosofskaya kategoriya 1959) asarida qonunlar tuzilishi jihatidan uch asosiy komponentlardan iborat deb ko'rsatadi: Ular 1) ob'yektiv asosga ega, ya'ni predmet va hodisalarning umumiy nisbatan barqaror zaruriy aloqalarini ifodalaydi; 2) harakatning o'ziga xos usuliga ega, ya'ni voqealar xarakteri va yo'nalishini aniqlaydi; 3) yuqorida ko'rsatilgan ikki komponent o'rtasida bog'lovchi element vazifasini bajaruvchi muayyan sharoitlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Demak qonun- bu predmet va hodisalarning zaruriy, nisbatan barqaror munosabatlari majmui bo'lib, ular voqealarning yo'nalishi va xarakterini aniqlaydi. Qonun namoyon bo'lishining turli shakllari bilan xarakterlanadi. Qonunning namoyon bo'lish shakllariga quyidagilar kiradi: 1) qonunning stixiyali anglanilgan kuch sifatida namoyon bo'lishi; 2) qonunning hukmron tendensiya va aniq shaklda namoyon bo'lishi (dinamika va statika qonunlari); 3) qonunning katta va kichik kuch bilan harakati.

Ob'yektiv qonunlar tizimi ham turli tumanligi bilan xarakterlanadi. 1) Qonun qamrab olgan ob'yektiv jarayonlar nuqtai nazaridan tabiiy va ijtimoiy qonunlar farqlanadi; 2) Jarayonlarga ta'sir darajasi nuqtai nazaridan asosiy va asosiy bo'lmagan qonunlar; 3) harakat sharoitlari nuqtai nazaridan xususiy, umumiy va eng umumiy qonunlar farqlanadi. Ushbu qonunlar ijtimoiy taraqiyotda o'z ifodasni topadi.

J.Tulenovning kategoriyalar haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u a) dialektika kategoriyalari ob'yektiv dunyoning umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va ontologik mazmunga ega; bu inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan voqelik rivojlanishi va harakatining aloqadorligi bilan bog'liq umumiy qonun; 2) dialektika kategoriyalari umumiy tushunchalar sifatida inson fikrining shaklidir va bilishning tayanch nuqtasi hisoblangan mantiqiy mazmunga ega; 3) dialektika kategoriyalarining shakllanishi va rivojlanishining asosi bo'lgan amaliyot insonning moddiy ma'naviy faoliyati majmui sifatida namoyon bo'ladi, shuning uchun dialektika kategoriyalari ijtimoiy amaliyotning mahsuli ham deyiladi; 4) dialektika kategoriyalari amaliyotda paydo bo'lib, amaliyotga xizmat qiladi. 5) dialektika kategoriyalarining muhim xususiyati ularning o'zgaruvchanligi va egiluvchanligidir deb e'tirof qiladi. Muallif "Dialektika kategoriyalarining egiluvchanligi" (Problema gibkosti kategoriy, 1981), Dialektika kategoriyalarning o'zaro aloqadorligi (Vzaimosvyazь kategoriy dialektiki 1986) asarlarida birinchi bo'lib, dialektika kategoriyalarining ziddiyatliligi, ularning rivoji, o'zaro aloqadorligi va o'zaro bir-biriga o'tishini, kategoriyalar egiluvchanligining fan va amaliyot uchun ahamiyatini asoslagan. J. Tulenov dialektika qonun va kategoriyalarining ayniyligi va farqlari masalasi haqida ham to'xtaladi. U o'zining "Dialektika va ilmiy tafakkur uslubi" (Dialektika i stilь nauchnogo мышleniya, 1983) asarida birinchi marta, inson ijodiy faoliyatida tafakkur uslubining o'rni va rolini yoritib beradi. Insonning kundalik tafakkur uslubidan ilmiy tafakkur uslubiga o'tishiga ta'sir qiluvchi omillarni, dialektik, metafizik, sofistik, eklektik tafakkur uslublarining tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritish bilan bir qatorda, ilmiy tafakkur uslubiga ta'rif bergan. Sovet davrining qaqshatqich tazyiqi ostida J.Tulenov 3 marta "Dialektika va bilish nazariyasi" (1984, 1986, 1989) mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazdi va bu bilan o'zbek falsafasining rivojiga o'z hissasini qo'shdi..

Mustaqil O'zbekistonda J.Tulenov ijodining yangi qirralari namoyon bo'ldi. Bu davrda u ijtimoiy dialektika masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Hayot falsafasi (1993) asarida falsafiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari, uning siyosat bilan bog'liqligi, mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy yangilanish jarayonlarini tushunish uchun

falsafiy madaniyat va siyosiy tafakkurni shakllantirish lozimligini ta'kidlaydi. "Mustaqillik va milliy tiklanish" (1996) asarida O'zbekiston mustaqilligining tarixiy ahamiyati, yangi siyosiy tizim, ko'pukladli iqtisod va bozor munosabatlariga o'tishda, mustaqil davlatning ma'naviy, madaniy va axloqiy asoslarini rivojlantirish va mustahkamlash, milliy mustaqillik mafkurasining maqsadi va yo'nalishlarini aniq anglash va ularni hayotga tadbiq etish masalalari yoritilgan. "Qadriyatlar falsafasi" (1998) asarida qadriyatlarning mohiyati, ularning turlari (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, estetik va h.k) ma'muriy buyruqbozlik hukmronlik qilgan tuzumda milliy qadriyatlarning qadrsizlanganligi, mustaqillik davrida qadriyatlarga munosabatning o'zgarganligi, milliy tiklanish, millatning o'z-o'zini anglashi mustaqillikni saqlashning asosiy omili bo'lishini e'tirof etgan.

Tulenovning so'nggi asari "Dialektika nazariyasi"(2001) bo'lib, unda olim dialektikani sinergetika bilan almashtirishga, dialektikani o'ldiga chiqarishga harakat qilgan ba'zi soxta olimchalarga qaqshatqich zarba beradi. Dialektikaning fan va ta'limot sifatidagi tarixiy taraqqiyotini, uning eng qadimgi va hozirgi zamon bilishining metodlaridan biri ekanligini, buyuk mutafakkirlar al-Forobiy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn-Sino, Ulug'bek, Mirzo Bedil asarlari asosida dialektikaning ijtimoiy jarayonlarni bilishdagi ahamiyati, uning global xarakterini yoritgan. J.Tulenov talabalar uchun qator darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratgan, umrining oxirigacha xalqqa xizmat qilgan buyuk olim edi.

I.A.Karimov aytganlaridek, "Shaxs imkoniyatlari bizda juda chuqur irsiy asoslarga egadir. Respublikamizda jahon fani va texnikasi, falsafa va huquq yutuqlarini egallab olgan va shu bilan birga o'z xalqiga yaqinlikni saqlab qolgan kishilar juda ko'pdir"┐ . Ular o'zlarining halol mehnati bilan ajdodlar ishini davom ettirgan hamda hozirgi kunda ham mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiyalashtirish jarayoniga munosib hissasini qo'shmoqdalar. Quyida mamlakatimizda ijtimoiy falsafa va madaniyat falsafasi fani ravnaqiga munosib hissa qo'shgan faylasuf olimlar haqida so'z yuritamiz.

**Валиев Абдулхай (1929-2002) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** Asosiy ilmiy ijodi jamiyat taraqqiyotida milliy ziyolilarning roli masalalariga bag'ishlangan. U bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, O'zbekistonda milliy ziyolilar faoliyatini rivojining zarurligini asoslagan. Sovet tuzumi hukmronligi avj olgan 1966 yilda A.Valiyev "O'rta Osiyoda milliy ziyolilarining shakllanishi" asarida ishchi dehqonlar orasidan iqtidorlilarini tanlab, milliy rahbar kadrlarni tayyorlash lozimligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. U turli toifadagi ziyolilar dunyoqarashi, ongi, psixologiyasi, kayfiyatidagi ziddiyatlarni ochib berishga harakat qilgan. A.Valiyev 30 yillarda qatag'on qilingan mashhur davlat arboblari, milliy ziyolilar F.Xo'jayev va T.Risqulovning mash'um taqdiri haqida ochiq fikr yuritgan. 1969 yilda esa O'rta Osiyodagi milliy ziyolilarning davlat boshqaruvidagi roli masalasiga bag'ishlangan asarida 1917-1960 yillardagi ziyolilarning ijtimoiy evolyutsiyasi, ishlab chiqarish sohasidagi ziyolilarning xalq xo'jaligini tiklashdagi roli, ilmiy texnikaviy taraqqiyotda ilmiy ziyolilar faoliyatining o'rni, milliy ziyolilarning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'siri haqida fikr yuritadi. Ilmiy faoliyat bilan bir qatorda A.Valiyev jamoat ishlarida ham faol ishtirok qilgan. 1961-65 yilllarda u "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnali bosh muharriri o'rinbosari, va "O'zbek ensiklopediyasi"ning bosh muharriri birinchi o'rinbosari lavozimida ishlagan. O'zbek ensiklopediyasining birinchi 8 jildligini nashrga tayyorlashda faol ishtirok qilgan.

Mustaqillik yillarida A.Valiyev mustaqillik buyuk ne'mat ekanligi, va uni asrash, avaylashda o'zbek ziyolilarining roli muhim ekanligini anglagan holda, umrining oxirigacha yangi avlod milliy kadrlarini tarbiyalashga munosib hissa qo'shdi.

**Юсупов Эркин (1928-2003) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** Asosiy ilmiy ijodi ijtimoiy falsafa va madaniyat nazariyasi sohasi bilan bog'liq. U mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq millatlararo munosabatlar sohasida mamlakatda uzoq yillar davomida to'planib qolgan hal etilmay kelgan qator muammolar, ularning paydo bo'lish, rivojlanish va keskinlashish sabablari, ob'yektiv omillari va sub'yektiv zaminlarini tahlil etgan. Shuningdek E.Yusupov milliy manfaatlar va milliy munosabatlarning dialektik aloqadorligi, millatlar rivojlanishining ijtimoiy iqtisodiy muammolariga e'tibor bergan. E.Yusupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslari"(1998) asarida inson ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotining

o'zaro bog'liqligi ma'naviyatning xususan axloq odob, imon, vijdon, e'tiqod madaniyat, ma'rifat kabi omillarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, ularning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo'llaridan biri ekanligini tahlil etgan. Xususan, u "Axloqning mezonlari jamiyat taraqqiyotining umumiy imkoniyatlari va ehtiyojlari alohida etnik guruhlar yashayotgan, mehnat qilayotgan sharoitlar ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Barcha insoniyatga xos bo'lgan ruhiy boylik-axloq turli konkret tarixiy sharoitlarda, turli mamlakatlar va xalqlarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi"┐ deb ta'kidlaydi. "Oila ma'naviyat bulog'i" asarida E.Yusupov mustaqillik yillarida O'zbekistonda oilani mustahkamlash, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash, ma'naviy yetuk, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash borasida ko'rilayotgan tadbirlar haqida fikr yuritadi, shuningdek oilada ota-ona ibrati, farzandlik burchi, farzand tarbiyasiga xos bo'lagan axloqiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarning diniy va milliy jihatlariga e'tibor qaratadi. Uning fikricha "Ahil oilada hal qiluvchi so'zni ota aytadi, bu so'zdan oldin u albatta oila a'zolarining fikr va manfaatini e'tiborga oladi, shu sababli ham milliy an'analarimizda otadan oldin so'zlash yoki ota o'rniga so'zlash, uning so'zini bo'lish ham beodoblikning belgisi hisoblanadi"┐ . E.Yusupovning so'nggi "Falsafa – bahs va munozaralar maydoni"┐ maqolasida "Falsafa shunday fanki uning muammolari tahlilida davrning ildamlab borayotgan ziddiyatli ruhi to'la va to'g'ri aks etishi kerak. Falsafa har qanday kashfiyotni, fan sohasidagi yangilikni mutlaq haqiqat deb tan olmaydi, har bir muammo tahlilidan oldin bu nima uchun shunday?, boshqacha bo'lishi mumkin emasmi? deb savol qo'yadi... Falsafa tarixida jamiyat va fan taraqqiyoti oldiga bunday savollar qo'yilmagan davr bo'lmagan va bo'lmaydi ham, shu sababli falsafiy muammolar tahlili doim keskin bahs va munozaralar maydoni bo'lgan"┐ deb ta'kidlaydi. E.Yusupov milliy kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy yondoshgan. Olim umrining oxirigacha O'zMU falsafa fakulьtetida talabalarga falsafa ilmidan dars bergan.

**М.Х.Хайруллаев (1931-2004) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek falsafasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan yetuk olim, jamoat arbobi. Asosiy faoliyati Abu Nasr al Forobiyning ilmiy ijodini o'rganish va sharhlashga bag'ishlangan. U "Buyuk siymolar"(1996 2 jild) va "Ma'naviyat yulduzlari" (1999) asarlarining mas'ul muharriri. M.Xayrullayev Forobiy ijodini qayta kashf etgan olim. U Forobiy ijodidagi materializm va idealizmni bir-biri bilan aralashtimaslik kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha, Forobiy tomonidan Xudoning tan olinishi idealizm bo'lsa, astronomiya, matematika, mantiq sohasidagi kashfiyotlari materializmdir. Chunki bu sohalarda narsalar yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi. Masalan, Yer, Quyosh, Oy, sayyoralar harakatlari orasidagi munosabatlarning ob'yektivligi doimo bir xildadir┐ . M.Xayrullayev kommunistik mafkura hukmron bo'lgan davrda, Forobiy idealizmini tan ola oldi va uning ijodidagi idealistik va materialistik g'oyalarni sharhladi. M. Xayrullayev yetuk olim bo'lish bilan bir qatorda jamoatchi ham edi. U uzoq yillar davomida O'zFA "Sharqshunoslik" institutida direktr lavozimida va "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnalining mas'ul muharri lavozimida ishlagan.

**Баратов Мўбин (1934-2005) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** Asosiy ilmiy ishlari Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafiy merosini o'rganishga bag'ishlangan. Jumladan, uning "Ibn Sino falsafasi" asarida buyuk mutafakkir ijodining yangi kirralari ochib berilgan. Mo'bin Baratov har qanday jamiyatni harakatlantiruvchi kuch ma'naviy omil deb ta'kidlaydi va o'zbek xalqida tarixan ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik shakllangan, hozirgi kunda ularni davr ruhiga moslashtirish lozim deb hisoblagan.

**Турсунмуҳамедов Саттар Позилхаҳович (1929) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** Asosiy ilmiy ishlari sanoat va qishloq xo'jalik mehnati, ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, mulkdorlar sinfining shakllanishi, ijtimoiy jarayonlar, jamiyatning siyosiy tizimi, mustaqillik yillarida esa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatning ahamiyati masalalariga bag'ishlangan.

**Шермухамедов Саид (1930) академик, фалсафа фанлари доктори, профессор.** O'zbekistonda madaniyat nazariyasi va tarixi ilmiy maktabining asoschi. Shuningdek u "Ijtimoiy falsafa", "Pedagogika tarixi va nazariyasi", "Siyosatshunoslik", "Sotsiologiya", "Etika" ,"Estetika", "Madaniyatshunoslik" kabi yo'nalishlarda jami 570 yaqin ilmiy va ilmiy ommabop ishlarning

muallifi. O'zining "O'zbek xalqi madaniyatining milliy shakli"(1961) monografiyasida o'zbek xalqi madaniyati qadimiy ildizlarga egaligi va har qanday madaniyat zamon ruhiga moslashib, yangilanib borishi va ayni paytda milliy ruhi saqlanib qolishini ta'kidlaydi. S.Shermuxamedov nafaqat o'zbek millati, balki boshqa millat madaniyatini ham o'rganish asosida milliy madaniyatlarda o'zaro uyg'unlik va o'zaro aloqadorlik bor, biroq har bir millatning milliy o'ziga xosligi millatlarni bir-biridan farqini ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Olim madaniyatning gumanistik asoslari, zamonaviy madaniyatning shakllanishida milliy va umuminsoniy madaniyat uyg'unligiga alohida e'tibor qaratadi.

Sovet tuzumi davrida S.Shermuxamedov tashabbusi bilan jami to'rtta (1978, 1980, 1982, 1984,) milliy madaniyat masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. Ularda jahon hamjamiyati vakillari ishtirok etdilar.

Mustaqillik yillarida S.Shermuxamedov milliy istiqlol g'oyasi, yangilanayotgan jamiyatning asl mohiyatini aholi turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishning ahamiyatini chuqur anglagan holda, "Yangilanayotgan jamiyatga - yangilangan falsafa" (1993), "Madaniyat va sivilizatsiya" (1996), "Davrimiz allomasi" (1998), "Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz" (1999), "Istiqlol quyoshi" (2002), "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi va falsafaning ravnaqi" (2005), "Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot" (2005), Inson falsafasi (2009) kabi asarlar yaratdi va ular ilmiy jamoatchilik tomonidan munosib baholandi. Olim, ushbu asarlarida sovet tuzumi davrida falsafa fanining siyosiylashtirish oqibatlari haqida fikr yuritadi va yangilangan falsafaning eng avvalo gumanistik, so'ngra dunyoqarashli, tarbiyaviy, qadriyatli, integrativ, axloqiy funksiyalariga ta'rif beradi. "Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz" asarida u milliy mustaqillikning ahamiyati, jamiyatning demokratiyalashuvi jarayonida yangilangan tafakkurni shakllantirishning zaruriyatini asoslaydi. S.Shermuxamedov S.Mirzayev bilan hamkorlikda yaratgan "Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixi", "Oybek va o'zbek adabiyoti", "Komil Yashin ijodi", "Adabiyotning hamkorligi hayot taqozosi", "Abadiyot va san'atda prinsiplar" kabi kitob va risolalari, uning nafaqat faylasuf olim, balki o'zbek adabiyotining haqiqiy ixlosmandi ekanligidan dalolatdir. Xususan "Hozirgi o'zbek adabiyoti tarixi" (1985) qo'llanmasida olim zamon zaylidan cho'chimasdan, har bir adib, shoir va umuman adabiy muhit haqida xolisona fikr bildirgan. Olim barcha asarlarida inson omilini birinchi o'ringa qo'yadi va shogirdlarini Bedilning "Garchi dushmanni do'st qilolmasang, do'stni dushman qilmagin" degan naqliga amal qilishga chorlaydi.

S.Shermuxamedov ustozga sadoqatli shogird va shogirdparvar ustoz hamdir. U ustozi I. Mo'minovning 80, 85, 90, 95, 100 yillik yubileylarini o'tkazish, tug'ilgan yurtida muzey tashkil qilishda faol ishtirok qildi, ustozining boy ilmiy merosi, ijodi va faoliyati haqida qator risolalar yaratdi.

S.Shermuxamedov "Madaniyat falsafasi va tarixi" ilmiy maktabida 130 dan ortiq shogirdlar tayyorladi, ular bugungi kunda respublikamiz Oliy o'quv yurtlari, davlat tashkilotlarida turli lavozimlarda ishlab yurt tinchligi va farovonligiga ilmiy salohiyatlari bilan hissa qo'shib kelmoqdalar. Ustoz hozirgi kunda ham yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

**Ўзбекистон фалсафа жамияти.** 1973 yilda O'zbekiston falsafa jamiyati tashkil qilingan va uning raisi etib Ibrohim Mo'minov saylangan. I.Mo'minov vafotidan so'ng, 1974-1980 yillarda Muzaffar Xayrullayev, 1980-1986 yillarda Q.Xonazarov, 1988-1990 yillarda Erkin Yusupovlar O'zbekiston falsafa jamiyati raisi lavozimida ishlar ekanlar, asosiy e'tiborni O'zbekistonda yashab ijod qilayotgan faylasuflarning ijodiy hamkorligini ta'minlash, ularning ajdodlarga munosib avlod ekanligini dunyo hamjamiyatiga tanishtirishga qaratdilar. Shu bois o'zbek faylasuflari muntazam xalqaro konferensiyalar va falsafa kongresslarida ishtirok etganlar.

1990 yildan buyon Said Shermuxamedov rahbarligida O'zbekiston falsafa jamiyati huzurida «Falsafa fanining dolzarb muammolari» bo'yicha doimiy respublika ilmiy nazariy seminari tashkil etilgan. Unda respublikamizning taniqli faylasuflari shuningdek, boshqa fan vakillari XXI asr fanining dolzarb muammolari bilan bir qatorda, ma'naviy yuksalish, jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning ustivor yo'nalishlari haqida fikr almashadilar. 2001 yilda YuNESKO qaroriga binoan har yili noyabr oyida nishonlanadigan "Jahon falsafa kuni" arafasida Falsafa

jamiyati rahbariyatining sa'y harakatlari bilan, falsafa fani rivojiga hissa qo'shayotgan yetakchi olimlar va yosh tadqiqotchilar munosib taqdirlanib kelmoqda. Yoshlarda falsafiy mushohada yuritishni takomillashtirish maqsadida "Aql mashqi", "Tafakkur shaydolari" kabi to'garaklar tashkil qilingan. Shu bilan birga respublika falsafa kafedralari faoliyatini o'rganish bo'yicha "Eng yaxshi kafedra","Eng yaxshi darslik", "Eng yaxshi talaba referati" nominatsiyalari bo'yicha tanlovlar e'lon qilinib, munosib topilgan nomzodlar taqdirlanmoqda.

**Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти.** 1998 yilda tashkil qilingan, 2001 yilgacha uning raisi Inomjon Rahimov bo'lgan. 2001 yildan O'FMJ raisi Q.Nazarovdir. Jamiyat qoshida tashkil etilgan nashriyotda uning a'zolari falsafa, milliy g'oya va mafkuraga oid yangi turkum adabiyotlarni yaratish, nashr qilish va ular orqali aholi turli qatlamlari ongida dunyoni falsafiy idrok etish, o'z-o'zini anglash, hayotning maqsadini ko'rish hamda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda faol ishtirok etish bilan shug'lulanmoqdalar.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida falsafa fani yanada ravnaq topdi. Falsafa ilmini rivojlantirish maqsadida viloyatlarda, xususan, Qoraqalpog'iston Davlat universitetida, Buxoro Davlat universitetida, Samarqand Davlat universitetida, Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida "Falsafa" bo'limlari tashkil qilingan va unda yetakchi mutaxassislar faoliyat olib bormoqdalar.

**Хулосалар**. Insoniyat taraqqiyotida har bir davr an'anaviy falsafiy muammolarni ilgari surgan va ularni o'z davri dunyoqarashi ta'sirida hal qilishga harakat qilgan. Falsafa tarixini yangi shoxchalari paydo bo'ladigan daraxtga qiyoslash mumkin, har bir shox o'z shakliga va yaproqlarining rangiga ega bo'lib, ular boshqalarini takrorlamaydi. Biroq daraxt shoxlari kabi falsafiy yo'nalishlar qancha ko'p bo'lmasin, ularni umumiy ildiz - inson va olamning o'zaro aloqadorligi, inson va jamiyat hayotining uzviyligi birlashtiradi. Ushbu umumiy ildiz inson madaniyatining dunyoqarashli asosi sifatida falsafaning ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

XX asr turli davrlardagi falsafiy yo'nalishlarni o'zida birlashtirdi va o'tmish tajribasiga tayangan holda, olam va odam masalasiga juda murakkab ijtimoiy siyosiy vaziyatda ziddiyatli, yangi falsafiy qarashlar shakllandi.

Hozirgi zamon falsafasining o'ziga xos xususiyati uning dunyoqarashli va metodologik jihatdan turli tumanligidir.

***Takrorlash uchun savollar***

1. «Uyg'onish davri» tushunchasini qanday talqin etasiz?
3. Milliy falsafiy maktablar deganda nimani tushunasiz?
4. Milliy falsafiy maktablarning umuminsoniy yutuqlari nimalarda namoyon bo'ladi?
5. «Nemis klassik falsafasi»mi yoki «Nemis milliy falsafasi»mi? Bu masalaga sizning munosabatingiz qanday?
6. Nega marksistik falsafa milliy falsafa bo'la olmas edi?
7. Yevropa uyg'onish davri falsafasini o'rganishimizning ahamiyati nimalarda deb o'ylaysiz?

## 4-MAVZU: ONTOLOGIYA – BORLIQ FALSAFASI

**Reja:**

1. Onotologiya va borliq tushunchalari. Borliqning asosiy shakllari
2. Materiya harakat, fazo va vaqt to'g'risidagi falsafiy g'oyalar
3. Tabiat tushunchasi. Tabiat to'g'risidagi falsafiy qarashlar
4. Inson borlig'i. Inson borlig'ining asosiy jihatlari

***tayanch tushunchalar***

Borliq, yo'qlik, mavjudlik, reallik, materiya, harakat, rivojlanish, fazo, vaqt.

***Takrorlash uchun savollar***

1. Borliq va yo'qlik tushunchalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Mavjudlik va reallik nima?
3. Harakat va uning asosiy shakllari to'g'risida so'zlab bering.
4. Fazo va vaqt, makon va zamon qanday ma'nolarni anglatadi?

***ADABIYoTLAR***

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. — T.: «Sharq», 1998.
2. Karimov I. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblar. – «Fidokor» 2000 yil 8 iyun.
3. Osnovы filosofii. — T: «O'zbekiston», 1999.
4. Kanke V.A. Filosofiya. — M: «Logos», 1999.
5. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. M. 1999.
6. J. Tulenov. Falsafa darslik. T., 2007.
7.M. Ahmedova. Falsafa. T., 2007.

**Borliq tushunchasi.** Faylasuflar qadim zamonlardan buyon «borliq» va «yo'qlik» haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo'q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq – obyektiv reallikni gina qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar obyektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.

Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi — **ontologiya** deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qo'llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

**Yo'qlik** hyech nima demakdir. Hamma narsani hyech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo'qlikdir. Borliq yo'qlikdan yo'qlikkacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hyech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q.

**Borliq haqidagi konsepsiyalar**. Tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g'oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zardo'shtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo'ladi, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunyoning atomist olimi Demokrit borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo'lmagan narsa yo'qlikdir.

**Islom ta'limotida esa borliq** bu ilohiy voqyelikdir. Ya'ni u Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari bo'lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fikricha, ilk borliq azaliy Ollohning o'zidir. Beruniy fikricha, borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. Yevropada o'tgan olimlar David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi deb talqin etishgan.

Hyegel esa borliqni mavhumlik, mutlaq ruhning namoyon bo'lishi, deb ta'riflaydi. Ko'pgina naturfalsafiy qarashlarda borliqni hozirgi zamon bilan, ya'ni shu aktual olamga bog'lab tushuntirdilar.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo'lib o'ziga butun mavjudlikni, uning o'tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo'qlik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni obyektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o'ziga obyektiv va subyektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va kelajakni, o'limni va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

**Borliq va mavjudlik.** Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifiga faqat obyektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan jismoniy mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potensial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat obyektiv reallikni, balki subyektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. **Tabiat borlig'i** odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jarayonlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i («ikkinchi tabiat» borlig'i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- **inson borlig'i** (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);
- **ma'naviy borliq** (individuallashgan va obyektivlashgan ma'naviy borliq);
- **sosial borliq** (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

**Borliqning moddiy shakli materiya** o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, substansiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinchi yo'l esa — moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini»- substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l — hamma narsaning vujudga keltiruvchi

bosh sababchisini, ota moddani, ya’ni pramateriyani axtarish yo’li. Mana shu yo’l haqida maxsus to’xtab o’taylik.

Olamning substansiyasini axtarishning bu usuli go’yoki meva iste’mol qilayotgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so’ngra uning guliga, bargiga, ko’chatiga va urug’iga nazar solganidek, atrofimizdagi moddiy olamning o’zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ya’ni ilk materiyani, azaliy materiyaning «bobokolonini», «pramateriyani» axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo’ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo’lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy obyektlarni, butun obyektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma’nodagi materiya faqat fikrning maxsuli va abstraksiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo’llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy obyektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

Albatta bu ta’riflarni bir yoqlama mutlaqlashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta’riflarda ko’proq sezgi a’zolarimizga bevosita ta’sir etishi mumkin bo’lgan reallik nazarda tutilgan.

XX asrning o’rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning obyektiv olam hakidagi tasavvurlarini tubdan o’zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta’sir etishining imkoni bo’lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshladi.

Olamning klassik mexanika nuqtai nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlanuvchi sistemalar haqidagi ilmiy manzarasi o’rnini yangicha ilmiy manzaralar egallay boshladi. Bu esa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sharoit tug’dirdi. Bu o’zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar bu ta’rifga sezgilarimizga bevosita yoki bilvosita (ya’ni turli asboblar; qurilmalar vositasida) ta’sir etuvchi, degan qo’shimcha kiritishdi. Shunday qilib, bu ta’rif go’yo materiyaning moddaviy va nomoddaviy shakllarini, ya’ni modda va antimodda ko’rinishlarini qamrab oluvchi ta’rifga aylandi.

Materialistlar materiyani obyektiv reallik, deb ta’riflashadi. Obyektiv reallik inson sezgilariga bog’liq bo’lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo’lgan voqyelikdir. Bu butun mavjudlikning subyektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Obyektiv reallikning mavjudligi qanday namoyon bo’ladi? Bu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarini o’rganishga to’g’ri keladi. Har qanday jismning ajralmas xususiyati lotincha «atribut» so’zi bilan ataladi.

**Borliqning atributlari.** Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo’ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir. «lar: harakat, fazo, vaqt, in’ikos, ong va boshqalar. Borliq o’zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo’ladi. Endi borliqning atributlari, ya’ni ajralmas tub xususiyatlari haqida to’xtab o’taylik.

**Harakat.** Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o’zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo’lmaganida edi, yorug’lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo’lar edi, ya’ni biz uni ko’rmagan bo’lar edik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekulalar, atomlar, elementar zarrachalar o’rtasidagi o’zaro ta’sirlar ham bo’lmasdi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur yetgan bo’lar edi. Tevarak-atrofimizdagi predmetlar va hodisalar harakat tufayli o’zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o’sish, ulg’ayish, ravnaq topish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o’rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o’rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan esa, ulardagi o’zgarishlar sifatida sodir bo’ladi. Shu nuqtai nazardan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o’zgarishdir, deyilgan ta’rifi juda o’rinlidir. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o’zgarishlarning asosida yotuvchi o’zaro ta’sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o'zaro ta'sirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta'minlaydi.

**Harakatning turlari** haqidagi mulohaza, asosan, o'zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O'zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o'zgarishlargacha takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o'zgarishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan sifatiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o'zgarishlar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni aslo taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, bu o'zgarishlar uchun umumiy bo'lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Lekin hamma o'zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo'lmaydi. Masalan, Yerning Quyosh atrofidagi, Oyning Yer atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko'rinishi deyishimiz mumkin. Lekin Yer bag'rida ro'y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, Yer sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo'lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham shu qadar murakkab bo'ladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

O'zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. **Rivojlanish** bu — muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

Shu jihatdan harakatning ikki xil turi bir-biridan farq qilinadi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turg'unligini saqlagan holda ro'y beradigan ichki o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni har qanday jismda beto'xtov ichki o'zgarishlar ro'y berib turadi, lekin bu o'zgarishlar shu jismning tashqi sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekulalardan, molekulalar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilish darajasida ham beto'xtov o'zgarishlar ro'y berib turadi. Shuningdek, har bir jism o'zining atrofidagi boshqa jismlarning va ulardan tarqalayotgan nurlanishlarning ta'siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta'sirlarni o'zida in'ikos ettirish jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlar ham bu jismning sifatiy o'zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg'unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Biz yuqorida qayd etgan ichki va tashqi ta'sirlar oqibatida ro'y beruvchi o'zgarishlar asta-sekin to'planib, keyinchalik jismda keskin sifatiy o'zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Mana shunday o'zgarish, ya'ni jismning sifatini o'zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagi harakatga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

**Rivojlanish jarayoni** ham ikki turda bo'ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo'yicha, jismda har qanday sifatiy o'zgarish ro'y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materiyaning sifatiy tuzilish darajasi o'zgarmasdan qolaveradi.

Masalan, notirik tabiatga mansub bo'lgan Quyoshdagi ravojlanishni olib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko'ra, hozir sirtida 6 ming, ichida esa bir necha mln. darajali haroratga ega bo'lgan Quyosh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya'ni Quyoshning markazidagi termoyadro energiyasi so'ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda Quyosh shisha boshlaydi va Yer orbitasini ham o'z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin sovib, qizil karlikka, so'ngra esa «qora karlikka», keyin bo'lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o'zgarishlar natijasida borliqning tashkiliy struktura darajasi o'zgarmaydi, ya'ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saqlanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o'simliklar va hayvonot olamining paydo bo'lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vujudga kelishi singari sifatiy o'zgarishlar esa, rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifatiy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o'rganiladi.

Materalist bo'lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida, quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritadilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo'ladi;

2) materiyaning harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jahatdan ketma-ket bog'langan, ya'ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o'zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir. Shu mulohazalarga tayangan holda, harakatning beshta shaklini ajratib olish mumkin. Ular — mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va ijtimoiy harakatlardir.

Falsafada harakat shakllarini turkumlashning bir qancha boshqa ko'rinishlari ham bor. Ayrim olimlar harakat shakllarini har bir fanning nomi bilan bog'lash kerak, deb hisoblashadi. Bunday qarashning xatoligi shundaki, fanlarning ko'pchiligi harakat shaklini emas, balki miqdoriy munosabatlar va holatlarni aks ettiradi. Masalan geodeziya yoki geometriya, trigonometriya yoki topografiya, chiziqli algebra qanday harakat shaklini o'rganadi? Kibernetika esa ham tabiatda, ham jamiyatda amal qiluvchi boshqarish jarayonlarini o'rganadi, ya'ni bu fan bitta emas, balki bir qancha harakat shakllarini qamrab oladi.

Harakat shakllarini turlash bo'yicha quyidagi tabiiy-ilmiy konsepsiya ham diqqatga sazovordir. Mazkur konsepsiya bo'yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi: fizik harakat (elementar zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), ximiyaviy harakat (atomlar va molekulalarning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo'nalishga ajraladi, 1) harakat rivojlanishining yuqori yo'nalishida biologik harakat shakllanadi; 2) harakat rivojlanishining quyi yo'nalishida esa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiyoti ijtimoiy harakatga olib boradi.

Yana bir boshqa konsepsiyada esa harakat borliqning tashkiliy tuzilish darajalariga mos ravishda turlangan. Bu konsepsiyada harakat shakllari uchta sinfga ajratiladi: notirik tabiatda — elementar zarrachalar va maydon harakati, tirik tabiatda – hayotning namoyon bo'lishi, jamiyatda – odamning faoliyati.

**Ijtimoiy harakat** bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. **Fazo** narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, **vaqt** hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko'lamga, hajmga ega. Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substansial va relyasion yondashishlar mavjud. Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sig'diruvchi substansiya. Hyech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyasion konsepsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o'lchamga ega, deyishadi.

Hyech narsasiz fazoning bo'lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko'z oldingizga keltiring. Ilgarigi, Nyuton fizikasiga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo'sh qoladi, ana shu substansial konsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo'qoladi. Bu relyasion konsepsiyadagi fazodir.

Tabiat va jamiyat haqidagi konkret fanlar borliqning o'z predmetlariga mos keluvchi muayyan xususiyatlarinigina o'rganadi. Borliqning umumiy xossalari haqida esa, falsafa fani tadqiqot olib boradi.

**Tabiat obyektlarining tuzilishi haqida.** Bizning tevarak-atrofimizni xilma-xil ko'rinishdagi, shakldagi turli-tuman moddiy obyektlar o'rab olgan. Ular turli xil xossalarga va xususiyatlarga egadir. Bir paytlar hamma jismlar materiyaning bo'linmas shakli atomlardan tashkil topgandir, degan tasavvur hukmron edi. Atomlarning murakkab tuzilganligi haqidagi farazlar bizning asrimizga kelib uzil-kesil tasdiqlandi.

Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko'ra, atrofimizdagi har qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekulalar esa atomlardan tuzilgan. Atomlar murakkab tuzilgan yadro va elektron qobiqlardan iborat. Atomning elektron qavatlari bir-biridan va atom yadrosidan muayyan uzoqlikda joylashgan bo'ladi. Eng sodda atom hisoblanuvchi vodorod atomining yadrosi bitta protondan, murakkabroq atomlarning yadrosi esa, proton va neytronlardan tashkil topadi, proton va neytronlar kvarklar va ularni tutashtirib turuvchi glyuonlar (glyuon-yopishtiruvchi degan ma'noni beradi) dan tashkil topgandir.

Proton va neytron nuklonlar (lot. nucleus — yadro, o'zak) hisoblanadi, nuklonlar va hiperon (yun. hiper-ustida, yuqoridan tashqari) lar, barionlar (yun. barys-og'ir) deyiladi. Bular og'ir zarrachalar sifatida kuchli o'zaro ta'sirlar maydonida bo'lib, adronlar (yun. adros-kuchli) gruppasiga mansub.

Organik va anorganik moddalar molekula tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Jonli organizmlar organik moddalardan tashkil topgan bo'ladi. Jonli organizmlarning tarkibi asosida hujayralar va hujayra sistemalari yotadi. Yer shari atrofini qurshab turuvchi biosferani bir butun jonli sistema deb olish mumkin. Mikroorganizmlar, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va insonning o'zaro aloqadorliklari bu biosferaning mavjudligini ta'minlab turadi.

Yer shari va o'z atrofida harakatlanuvchi Oy bilan birga yilda bir marta Quyosh atrofini aylanib chiqadi. Bu sistema ham biosferaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yer yuzida mintaqalarning farq qilishi, fasllarning almashinuvi ana shu sistema harakati bilan bog'langandir. Quyosh va uning atrofida harakatlanuvchi sayyoralar, ularning yo'ldoshlari, asteroidlar, meteoritlar, kometalar va kichik planetalar birgalikda Quyosh sistemasini tashkil etadi. Quyoshdan eng uzoqda joylashgan planeta Pluton uning atrofini 247 yarim yilda bir marta to'liq aylanib chiqadi, ya'ni Yer yili — 365,25 kunga teng bo'lsa, — Pluton yili 247ta Yer yiliga tengdir.

Quyosh sistemasi millionlab yulduzlarni o'z ichiga oluvchi Galaktika (Somon yo'li) tarkibiga kiradi. Uning diametri 94,6 mln. yorug'lik yiliga teng. Undan keyingi sistema galaktikalar to'pi bo'lib, uning diametri 1 megaparsekka teng, u 30 tagacha galaktikani o'z ichiga oladi (1 parsek (3,26 yo. y). Keyingi sistema – galaktikalarning mahalliy to'pi, unga 2 ta gipergalektika va 27 ta mitti galaktikalar kiradi. Majmuada 500 tagacha galaktika bo'ladi, uning diametri -5 megaparsek. Galaktikalar majmuasi galaktikalarning o'ta majmuasiga birlashadi, uning diametri 40 megaparsek bo'lib, o'zida 10 mingdan ziyod galaktikani birlashtiradi. O'ta yirik majmualar koinotning boshqa strukturaviy birliklariga kiradi. Koinotning radiusi esa 15 — 20 mlrd. yo.y. tengdir.

Bu sistemalarni falsafiy jihatdan umumlashtirib, borliqning moddiy ko'rinishlarini turli xil struktura darajalariga ajratish mumkin.

Sifatiy jihatdan materiya ikki xil shaklda, ko'rinishda uchraydi: moddasimon va nomodda ko'rinishida. Materiyaning moddasimon ko'rinishdagi shakllari ikkiga, modda va antimoddaga ajraladi. Bular bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular to'qnashganda keskin sifatiy o'zgarish ro'y beradi, ya'ni moddaning moddaviy ko'rinishi nomoddaviy ko'rinishga aylanadi. Materiyaning nomoddaviy ko'rinishi ham ikki xil shaklda uchraydi: maydon va nurlanish. Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda (fizik vakuum fizik jismlardan xoli bo'lgan joy) moddiy zarrachalarning hosil bo'lishiga imkon beradi. Xullas, bular ham bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Materiyaning biz yuqorida qayd etgan ko'rinishlaridan boshqacha ko'rinishdagi turlari ham bo'lishi mumkin. Ularning tabiati hali fanga ma'lum emas. Agar biz borliqning moddiy

ko'rinishlarini tuzilishi jihatidan turkumlashtirsak, borliqning struktura darjalari haqidagi xulosa hosil bo'ladi.

**Tabiat borlig'ining struktura darajalari.** Biz tevarak atrofimizga nazar tashlasak, umuman borliqqa emas, balki, muayyan jismlarga, narsa va hodisalarga ko'zimiz tushadi. Siz bilan biz inson sifatida Yer sharida istiqomat qilamiz, o'zimizga mos keluvchi o'lchovlar bilan ish yuritamiz. Biz odatlangan o'lchovdagi kattaliklarni makroskopik kattaliklar, deb hisoblaymiz va bu **makrodunyo**ni tashkil qiladi.

Shu nuqtai nazardan borliqning struktura darajalarini miqyosiy-struktura va tashkiliy-struktura darjalariga ajratamiz. Borliqdagi obyektlar miqyosi bilan farq qiluvchi uchta miqyosiy struktura darajalariga ajraladi. Ular: mikrodunyo, makrodunyo va megadunyo. **Mikrodunyo** atom miqyosidan kichik bo'lgan dunyodir. Bu dunyoga atom strukturasi va elementar zarrachalar, atom yadrosi, kvarklar, kernlar kiradi. Bu dunyoning yaxlitligini va turg'unligini saqlab turuvchi ikkita fundamental kuch mavjuddir, ular kuchli va kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sirlardir.

Kuchli o'zaro ta'sirlar atom yadrosining strukturaviy yaxlitligini saqlab tursa, kuchsiz o'zaro ta'sirlar atom strukturasining yaxlitligini ta'minlaydi. Molekulalar tuzilishidan tortib, Yer sharining yaxlitligini saqlashgacha xizmat qiluvchi kuch elektromagnit o'zaro ta'sirlaridir.

Elektromagnit o'zaro ta'sirlari tufayli molekulali birikmalar va Yerdagi barcha hayotiy jarayonlar o'zining strukturaviy birliklarini saqlaydi. Agar elektromagnit o'zaro ta'sirlari bo'lmaganda edi — Quyosh nurlari (ya'ni elektromagnit nurlanishlari) Yerga yetib kelmagan bo'lar edi va Yerda hayotiy jarayonlar shakllanmagan bo'lar edi.

Yer, uning tabiiy yo'ldoshi Oy va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida harakatlanadi. Bu sistemaning va umuman butun Koinotning strukturaviy yaxlitligi esa gravitasion o'zaro ta'sirlari tufayli saqlanadi. Gravitasion o'zaro ta'sirlari biriktirib turgan dunyo — **megadunyo** deb ataladi.

Ular bir-biri bilan chambarchas bog'langandir, shuningdek, ular bir-biriga almashinishi ham mumkin. Hozir megadunyo hisoblangan koinotimiz bundan 15-20 mlrd. yil muqaddam o'ta kichik mikroskopik obyekt bo'lgan, degan taxminlar bor. Shuningdek, biz mikroobyekt deb hisoblayotgan elementar zarracha neytron o'zining ichida milliardlab yulduz va galaktikalariga ega bo'lgan butun boshli Koinot bo'lishi va aksincha, diametri bir necha milliard yorug'lik yiliga teng bo'lgan ulkan Koinotimiz ham chetdan kuzatayotgan kishiga o'ta kichik elementar zarracha hisoblanishi ham mumkin. Borliqning strukturaviy tuzilishini uning sifatiy rivojlanishi nuqtai nazaridan olib qarasak, moddiy olam bu holda ham uchta darajaga ajraladi. Uning tashkiliy struktura darajalarini: anorganik dunyo (notirik tabiat), organik dunyo (tirik tabiat) va ijtimoiy dunyo (jamiyat) ga ajratiladi. Ular bir-biridan xilma-xilligi, uyushganligi, nisbiy mustaqilligi va faolligi bilan farq qiladi.

**Anorganik dunyo yoki notirik tabiat**da fizikaviy va ximiyaviy aloqadorliklar hukmronlik qiladi, shu tufayli notirik tabiatdagi qonuniyatlar shu tabiat fanlari doirasida cheklangan bo'lib, tirik dunyoga nisbatan passiv va tashkiliy uyushganligi past darajada bo'ladi.

**Tirik tabiatda ya'ni organik dunyo**da esa biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli uning uyushganlik darajasi yuqoriroq, faolroq va murakkabroq tuzilgan bo'ladi.

**Ijtimoiy dunyo** darajasida esa, yuqorida aytilgan aloqadorliklardan tashqari, jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy aloqadorliklar ham ishtirok etadi. Bunday dunyoning tuzilishi nihoyatda murakkab bo'lib, borliq bu darajada o'zining o'ta uyushganligini, nisbiy mustaqilligini va yuqori darajada faolligini namoyish qiladi. Bu dunyoning strukturaviy elementi bo'lgan har bir inson jamiyatga xos bo'lgan barcha aloqadorliklarni o'zida aks ettiradi va ijtimoiy munosabatlarda, aloqadorliklarda ongli ravishda, maqsadga binoan, muayyan mo'ljallarni oldindan belgilagan holda harakat qiladi.

*Bu borada oddiy bir misol keltiraylik. Masalan, qo'lingizdagi kitobni ham har xil, bir-biriga o'xshamaydigan, ammo bir kasbdagi olim va mutaxassislar yozishgan. Agar siz, masalaga ijtimoiy dunyoning tuzilishi nuqtai nazaridan baho bermoqchi bo'lsangiz, unda mazkur kitobning qaysi qismi qanday yozilgani, kimning qanday fikrlashi, mavzuni sodda va xalqchil tushuntira olishi yoki murakkab tilda bayon qilishiga e'tibor bering. Shunda masala biroz oydinlashadi. Xuddi shunday holni sizga turli fanlardan dars berayotgan o'qituvchilar misolida ham kuzatishingiz mumkin.*

*Keyin esa, o'zingiz va o'rtoqlaringizning darslarga, kitoblarga, ularni o'zlashtirib, o'qib va uqib olishga, hayotga munosabatingizga vijdonan baho bera olsangiz, bu boradagi murakkab jarayonlarni muayyan darajada to'g'ri anglab olishingiz mumkin. Holbuki bu — bor-yo'g'i siz, o'qituvchilaringiz va mazkur kitobni yozgan kishilar hayotining kichik bir qismidagi jarayonlar, xolos. Hayot esa nihoyatda murakkab, unda bir vaqtning o'zida, birvarakayiga qanchadan-qancha voqyea va hodisalar kechadi. Masalan, siz hozir ana shu satrlarni o'qiyapsiz, jismingiz va xayolingizda, atrofingizda, siz bilan birga yashayotgan, siz biladigan va bilmaydigan odamlar jismi, ongi va qalbida ne-ne o'zgarishlar, jarayonlar kechmoqda... Demak, tabiat doimiy o'zgarishda va harakatda, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda, rivojlanishda va taraqqiyotda. Siz va bizning umrimiz esa, ana shu cheksizlikning bir lahzasi, jismimiz va jonimiz ham azaliy va abadiy o'zgarishlar jarayonidagi olamning mo'jizasidir. Bu olamda aynan siz va bizning dunyoga kelganimiz ham ana shunday mo'jizadir. Biz esa mana shu yorug' olamda o'tganlarning kelajakdagi avlodlar bilan bog'lanishida bir halqamiz, xolos va aynan ana shunday bo'lganligi uchun ham tabiat, jamiyat, rivojlanish va taraqqiyot qarshisida doimiy qarzdormiz. Bu qarzdorlik dunyoga bizgacha kelganlar va ketganlar, keladiganlar va kelmaydiganlar, kela olganlar va kela olmaganlar ruhi qarshisidagi chuqur mas'uliyat hissidir.*

*Inson tomonidan nom qo'yilgan dunyolar hyech qachon bir-biridan ajralib, alohida holda mavjud bo'lmagan.* Ular ham bir-biri bilan uzviy aloqadorliklarda bo'ladi va ularning biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Odatda, kamroq aloqadorliklarga ega bo'lgan sistema unga nisbatan ko'proq aloqadorliklarga ega bo'lgan sistemaga qarganda murakkabroq va tashkiliy jihatdan uyushganroq bo'ladi. Bu yerda ham ana shu qoida amal qiladi.

Anorganik dunyoda in'ikosning eng sodda va quyi shakli — mexanik in'ikos faoliyat ko'rsatsa, organik dunyoda unga nisbatan murakkabroq ko'rinishdagi biologik in'ikos namoyon bo'ladi. Bunday in'ikosning o'ziga xos bo'lgan tomoni tanlovchanlik, seskanuvchanlik va maqsadga muvofiq harakat qilishdir, jamiyatda esa, in'ikosning eng oliy shakli sosial in'ikos faoliyat ko'rsatadi. Bu in'ikos o'zida in'ikosning boshqa shakllarini ham qamrab olgan bo'ladi. Ongli va yuqori doirada uyushgan faol in'ikos, aloqadorlik, xatti-harakatlar ijtimoiy dunyoga xosdir.

Borliq shakliy struktura darjalarining balki biz hali bilmaydigan yanada murakkabroq turlari ham bordir, lekin ular hali bizning tushunchalarimiz doirasiga sig'maydi. Xullas, borliqning tashkiliy struktura darajalari bir-biridan aloqadorliklarining soni va sifati jihatidan, energiya va informasiya almashish xususiyati bilan, faolligi va uyushganligi darajasi bilan farq qiladi.

**Hayot nima?** Borliqning eng murakkab shakllaridan biri hayot va uning mohiyati haqida to'xtalaylik. Biz hayot ekanmiz, olamni bilamiz. Hayotning xilma-xil turlari, shakllari borki, ular borliqning moddiy shaklini harakatga keltirishda, boshqarishda asosiy o'rin tutadi. Hayotning eng murakkab shakli inson hayotidir. Bu inson ruhiyati, ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Har bir odamga bir marotabagina hayot kechirish imkoniyati berilgan. Insonning qadr-qimmati shu hayotni qanday o'tkazganligi bilan o'lchanadi.

Odamning tabiati va hayoti u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham bog'liq. Farovon jamiyatda insonlar ham farovon hayot kechirishadi. Qashshoq jamiyatda esa qashshoqlik tomir otadi. Demak, jamiyatimizni qanchalik farovon qilsak, unda yashaydigan insonlarning, kelgusi avlodlarimizning hayoti ham shunchalik baxtli va farovon bo'ladi.

Hayotning vujudga kelishi va mohiyati haqida hanuzgacha olimlar bir nuqtai nazarga kelishmagan. Har bir insonning hayoti takrorlanmas va o'ziga xosdir. Balki stanokning bir detali o'rniga boshqa detalni qo'yish bilan natija o'zgarmas yoki bir ishchining o'rniga boshqa ishchini qo'yish bilan stanok to'xtab qolmas. Ammo bir otaning o'rnini boshqa ota, bir do'stning o'rnini boshqa do'st bola olarmikin? Shunday ekan, har bir odam takrorlanmas va o'z o'rnida qadrli. Insonni, uning hayotini qadrlash muhim ijtimoiy vazifadir.

Insonning yaxshi hayot kechirishi, bir tomondan, u yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tabiiy muhitga bog'liq. Butun tarixiy taraqqiyot davomida inson bilan tabiat

o'rtasidagi munosabat takomillashib borgan. Inson tabiiy muhitsiz, suv, havo, quyosh va tuproqsiz yashay olmaydi. Bu unsurlar uning tirikchiligini ta'minlaydi. Bunday qulay sharoit inson uchun faqat Yer sharida mavjuddir.

Yerning hayot tarqalgan qismi biosfera deb ataladi. **Biosfera** tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Agar Yer shari Quyoshga yaqinroq joylashganida, yer yuzasidagi harorat ko'tarilib ketgan bo'lar edi va oqibatda yerdagi namlik, suv yo'qolar edi. Agar u Quyoshdan uzoqda joylashganida, yer yuzasidagi harorat pasayib, hamma joy mangu muzlik bilan qoplanar edi. Xullas, har ikkala holatda ham yer yuzasida hayotning paydo bo'lishiga imkoniyat yo'qolgan bo'lardi. Yana boshqa holni olaylik: Quyosh sistemasi Galaktika markaziga yanada yaqinroq joylashganda edi, yer yuzasida kuchli gravitasiya ta'sirida narsalarning vazni og'irlashib, insondek murakkab jonzodning, balki umuman hayotning paydo bo'lishiga sharoit bo'lmagan bo'lar edi. Aksincha, Quyosh sistemasi Galaktikamiz markazidan hozirgiga nisbatan chetda joylashganda ham, gravitasiya kuchining zaifligi ayrim ximiyaviy va biologik jarayonlarning ro'y berishiga xalaqit bergan bo'lar edi. Buning oqibatida yer yuzasida hayot paydo bo'lmas edi. Demak, inson o'zi uchun eng qulay bo'lgan joyda yashaydi va bunga shukur qilsa arziydi.

Insonning tabiiy muhitga ta'siri qadimgi davrlarda o'ta kuchsiz bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan inson qo'lida qudratli kuch va quvvat manbalari to'plangach, uning tabiatga ta'siri sezilarli darajada o'zgara boshladi. Inson atrof-muhitni ifloslantirib, biosferadagi tabiiy muvozanatni izdan chiqara boshladi.

Bu masalaning yechilishi insonning aql-idrok kuchi bilan bog'langandir. Inson aql-idrokining olamga ta'sir ko'rsatish chegarasi **noosfera** deb ataladi. Inson o'zligini anglamas ekan, uning sayyoramizga halokatli ta'siri kuchaygandan kuchayib, oxir-oqibatda uning o'zini ham halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlar bor. Haqiqatan ham inson faoliyati aql-idrok bilan oqilona boshqarilmas ekan, u yer yuzining halokatini tezlashtirishi muqarrardir.

Hozirgi zamondagi ekologik muammolardan biri ham inson faoliyati tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va bu halokatni to'xtatib qolishdan iborat. Bu olamni qay darajada yaxshi bilib olishimiz va uning hayotiga nisbatan mas'uliyatni anglashimizga bog'liqdir. Inson jamiyatda va tabiatda tutgan o'z o'rnini to'g'ri anglasa, atrof muhitni ham avaylab-asraydi, yer yuzini gullatib yashnatadi.

***Takrorlash uchun savollar***

1. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
2. Ekzistensial falsafaning mohiyati nimadan iborat?
3. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari qanday?
4. Strukturalizmning mohiyati nima?
5. Germenevtika nima?
6. Ssiyentizm va antissiyentizm nima?

## 5-mavzu: FALSAFIY QONUNLAR

**Reja:**

1. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari
2. Qarama – qarshiliklar birligi va o'zaro ta'siri qonuni
3. Miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni
4. Inkorni inkor qonuni

***Tayanch tushunchalar***

Bog'lanish, aloqadorlik, takrorlanish, qonun, qonuniyat, ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat, miqdor, sifat, inkor, inkorni inkor, vorislik, yangilanish.

Kategoriyalar, alohidalik, umumiylik, sabab va oqibat, mazmun va shakl, sistema va element, butun va bo'lak, mohiyat va xodisa, zarurat va tasodif, imkoniyat va voqyelik.

***ADABIYoTLAR***


1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T., «O'zbekiston», 1997.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T., «O'zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. — T., «O'zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «FIDOKOR» gazetasi, 2000 yil 8 iyun.
5. Osnovы filosofii. — T., O'zbekiston, 1998.
6. Falsafa. — T., Sharq, 1999.
7. Q. Nazarov taxriri ostida. Falsafa asoslari. T., 2005.
8. Filosofiskiy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1999.
9. Mustaqillik: ilmiy izohli ommabop lug'at. T., 1999.


Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o'rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo'lgan. Chunki ular to'g'risida aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to Yer, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular o'rtasida abadiy o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hyech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi.

**Bog'lanishlarning turlari.** Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bog'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog'lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqyea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog'liq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqyea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin, barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo'lishi turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

*Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o'zgarishini, ya'ni ulg'ayishini yoki bo'lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o'tishdagi o'zgarishlarni oddiy ko'z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Yer qa'ridagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar,*

*vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g'aflatda qolib kelmoqdalar. Ya'ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'z ko'radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo'ladi. ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson ko'rish, ilg'ash mumkin. Ana shunday oson ko'rish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin ro'y beradigan voqyea, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylik» tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o'zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo'llaniladi. O'rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e'tibor berilgan.*

*«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu yerda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har qanday o'zgarishga aytiladi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to'g'ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.*

*Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o'tmishdan kelajakka tomon o'tishi ham, lekin makonda voqyea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Ba'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib o'tilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzdagi takrorlanishdir.*

*Hyech qachon bir xil tong otmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o'sha Quyosh chiqadi, o'sha tog'u toshlarni, bog'u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon o'sha-o'shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o'qishga, kimdir yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi... Ammo dunyo o'zgarmadimi bu bir kunning ichida? unda minglab bolalar tug'ilmadimi, son-sanoqsiz jarayonlar ro'y berib, Yer sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimi? Ona zamin o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimi? Bularning barchasi bir kunu-tunda ro'y bergan botiniy va zohiriy o'zgarishlarning namoyon bo'lishidir.*

**Qonun tushunchasi.** Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganganimizda ana shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xo'sh, qonun o'zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmi? Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin o'tmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil syezd, plenum, konferensiya qarorlari asosida eksperimentlar o'tkazib, barcha uchun farovon hayot — kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo'lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlarga olib kelgani barchaga ma'lum.

Hozir mustaqil O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo'lidan

bormoqda. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan.

Endi shunday savol: **Nima uchun inson qonunni bilishi kerak?** Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo'lqop va h. k.) sotib olishadi, o'tin yoki ko'mir g'amlab qo'yishadi va h. k. Nima uchun? Chunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o'zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

Yoki yana bir, jo'nroq bo'lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I. Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni obyektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo'ymaysiz.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga qo'yidagicha ta'rif berish mumkin: **Qonun** olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;
- qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi.
- qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2001 yili qishdan keyin bahor kelib, 2002 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni — fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

**Tabiat qonunlari**ning yana bir eng muhim xususiyati — u obyektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar obyektiv xususiyatga ega.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqyelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo'lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo'lolmaydi.

Borliq narsa, voqyea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo'lmasin, ular o'rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o'rtasida o'xshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo'lmasa, vazni o'xshash bo'lishi mumkin va h.k.

**Ayniyat tushunchasi** narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan

bir xil bo'lgan narsaning o'zi yo'q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg xam bir-biridan farq qiluvchi ba'zi jihatlarga ega. Hyech bo'lmaganda, ular bir-biridan makondagi o'rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o'xshash bo'lgan Hasan va Husanlarda ham juda ko'p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe'l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo'lishi, ya'ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, **tafovut** narsa — hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

**Qarama-qarshilik** deb esa, narsa, voqyea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatiga aytiladi.

Qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatni **ziddiyat** degan tushuncha ifodalaydi. Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy o'zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Sobiq Ittifoqning mafkurasi darajasiga ko'tarilgan marksizmda asosan ziddiyatga ko'proq e'tibor berilar edi. U mutlaqlashtirilar va jamiyatga ko'chirilib, asosan, antogonistik ziddiyatlar to'g'risida gapirilar va ularning yechilishi insoniyatni baxtli hayotga olib boradi, deya xayol qilinar edi. Holbuki, insoniyat paydo bo'libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'lib kelmoqda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo'lgan, kishilarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g'oyalari uyg'unlashgan, barqarorlik ustuvor bo'lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmoqda.

*Anu shunday intilishlar fanda **«Konfliktologiya»** (konflikt — ziddiyat, logos- ta'limot) deb ataladigan falsafiy yo'nalish paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shug'ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo'llari va usullari ustida bosh qotirishadi.*

Har bir ziddiyatning aniqlanishi, hal qilinishi o'zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o'tishga sabab bo'ladi. Olam turli-tuman bo'lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular o'rtasida farq bo'lgani bilan birga, mutlaq chegara ham yo'q. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga o'tishi, birgalashib ketishi va taraqqiyotda turli xil o'rin tutishlari mumkin.

**Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqyeligi** tarzida ham namoyon bo'ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. **Sifat** — narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha ko'rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarini bog'liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligi yoki o'xshamasligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi, muqarrar sur'atda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor** predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega.

Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo'lgan, ya'ni sifati bo'lib miqdori, miqdori bo'lib aksincha, sifati bo'lmagan narsaning o'zi yo'q.

Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi **me'yor** tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir bo'ladi. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta'sir etmaydi. Miqdoriy o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tishi bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xusussiyatlarga ham ega. Chunonchi:

- birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;
- ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi, keyin esa bug'ga aylanadi, sifatini o'zgartiradi. Demak, sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;
- uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko'p hollarda sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'satdan sodir bo'ladi;
- to'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

**Sakrash nima?** Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o'z harakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o'ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo'q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o'rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo'lish mumkin: birinchisi — portlash yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo'l bilan bo'ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o'tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo'qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to'planishi natijasida yangi sifat paydo bo'ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

- birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan obyektiv va qonuniy jarayondir;
- ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tishidir;

- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

- to'rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bundagi eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida **o'z-o'zini inkor etish tamoyili** nihoyatda muhim. Bunda **vorislik** – eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi **inkorni inkor qonuni**ning mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq obyektiv voqyelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

**Inkor** tushunchasi kundalik ongda «yo'q», so'zi bilan qo'shilib ketadi, inkor qilmoq — «yo'q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yo'q» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

**Inkorni dialektik tushunish** yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko'ra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi – avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya'ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar takrorlanadi. Masalan, don o'simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o'simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi o'rami oldingi o'ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi bog'lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg'or bo'lmasin, u yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobig'ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham ko'p hollarda eskidan yangiga o'tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgarishlar hamma narsani butunlay yo'q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu — xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning yangisini qurmasdan, eskini buzmaslik lozimligi to'g'risidagi xulosasida yaqqol o'z asosini topgan.

## 6-MAVZU: FALSAFA KATEGORIYALARI

**Reja:**

6. Kategoriya tushunchasi. Kategoriyaning turlari
7. Ayrimlik va umumiylik, mohiyat va hodisa kategoriyalari
8. Mazmun va shakl, sistema, struktura va element kategoriyalari

Sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va boqiylik kategoriyalari

***Tayanch tushunchalar***

Kategoriyalar, alohidalik, umumiylik, sabab va oqibat, mazmun va shakl, sistema va element, butun va bo'lak, mohiyat va xodisa, zarurat va tasodif, imkoniyat va voqyelik.

***ADABIYoTLAR***


1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T., «O'zbekiston», 1997.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T., «O'zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. — T., «O'zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «FIDOKOR» gazetasi, 2000 yil 8 iyun.
5. Osnovы filosofii. — T., O'zbekiston, 1998.
6. Falsafa. — T., Sharq, 1999.
7. Q. Nazarov taxriri ostida. Falsafa asoslari. T., 2005.
8. Filosofiskiy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1999.
9. Mustaqillik: ilmiy izohli ommabop lug'at. T., 1999.


**Kategoriya o'zi nima?** Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Arastu ta'riflab bergan. U o'zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni obyektiv voqyelikning umumlashgan in'kosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «mavqye», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

*Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o'rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha Yunonistonda ko'proq politika va ritorika (notiqlik san'ati) fanlari sistemalashgan, ya'ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o'sha davrda qo'shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo o'sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Suqrotni ham ana shunday, hali go'yoki shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'liga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. O'sha davrdan*

*boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.*

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqyelik va novoqyelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Hyegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, me'yor), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (obyektiv, subyektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) obyektiv voqyelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy — mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqyealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqyelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, **«juft kategoriyalar»** deb ataladigan; umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

**Alohidalik, xususiylik, umumiylik.** Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik – olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa – hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir.

Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendensiyasini alohidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylikka o'tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iboratdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo'lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lgan modelni taqozo qiladi. Alohidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qo'llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Alohidalik yoki, ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha kilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada alohidalik kategoriyasining mazmuni muayyan turg'unlikka ega bo'lgan birlik sifatida qaralgan (Aflotun, Arastu). Hyegel, alohidalikni voqyealarning zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo'lish momenti sifatida qaraydi.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylikdan farqini mutlaqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (Bu haqda «Osiyosentrizm» va «Yevropasentrizm» to'g'risida eslash kifoya).

Vaholanki, umuminsoniyat sivilizasiyasining tadrijiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo'lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o'z o'rni va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizasiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutlaqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo'lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafkurasini shakllantirgan asosiy sababalardan biri edi.

Alohidalikni, umumiy qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kerak. Chunki har qanday umumiylik, dastlab voqyelikning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga ko'ra, har qanday sistema o'z tarkibidagi nisbatan yangi, alohida hodisalarning individual rivojlanishisiz sodir bo'la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqyelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Ya'ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo'nalishlarga asos bo'lgan. Bu madaniyat yo'nalishlari nisbatan mustaqil bo'lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat sivilizasiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

Falsafaning bu kategoriyasi bilan «butun», «qism» «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya'ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtai nazardan, butunni – umumiylik, qismni yoki elementni – alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui ham bo'lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan «butun», «qism», element»larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo'lib, uning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko'ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

**Sistema, struktura, element** falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sistema – grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko'ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi obyektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. Ya'ni, insonning obyektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema — narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil

qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollarini belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko'rinishlari, DNK yoki RNK larning o'zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan xolda, moddiy olamning obyektiv realligi tarzida mavjud bo'lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega bo'lgan sistemalardir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura» ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi. Ya'ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O'z navbatida, sistemani to'laligicha bilish, uning stukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash keraki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko'ra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasida, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko'ramiz. Shunga ko'ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo'lib, kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo'lib hisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko'ra: muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va asosiy bo'lmagan elementlarga ajratib o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko'ra, o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Biroq, ularning ahamiyatini, yuqorida ko'rsatilganidek, turkumlashtirish mutlaqo nisbiy hamda shartli xarakterga ega bo'lib, muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdagi elementlarning ahamiyati strukturaviy funksiyasida muqobilliklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. Ya'ni, sistemadagi uning xarakterini belgilab turgan muhim element, ma'lum vaqtga kelib muhim bo'lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo'ladi.

Falsafa fanidagi an'anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o'quv qo'lanmalaridan farqli o'laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. Chunki, «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va oqibat», «zaruriyat va tasodif», «imkoniyat va voqyelik» kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko'rsatilgan «alohidalik», «xususiylik» «umumiylik», «butun», «qism», «struktura», «element», kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohida tahlil qilish zarur.

**«Mohiyat va hodisa»** kategoriyasini olib ko'raylik. Mohiyat-o'zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog'lanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib o'rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, subyekt nazarida ahamiyatiga va funksiyasiga ko'ra, asosiy va asosiy bo'lmagan, nisbatan barqaror yoki o'zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o'rnini almashtirib turishlarini e'tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi bo'lgan davlatning maqsadi va vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlakat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, uning mohiyatini tashkil qiladi. Shunga ko'ra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, sivilizasiya kelajagiga bog'lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo'ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o'zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondoshadi. Bu yondoshish subyektiv harakterga ega bo'lib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqog'ini qondirish, fizik uchun-agregat holati, elektr tokini o'tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning $N_2O$ kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun-tegirmon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o'zgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday juz'iy o'zgarish ham, uning muqarrar o'zgargan hodisasida ifodalanadi. Masalan, suvning elektr tokini o'tkazish xususiyati, uning temperaturasiga bog'liqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasini ma'lum darajada ko'tarsak, uning elektr tokini o'tkazish xususiyatini o'lchaydigan asboblar bu o'zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini o'tkazuvchanlik xususiyati yo'qolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog'lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o'z xususiyatlariga ko'ra sistema, struktura va elementlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

**Mazmun va shakl.** Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun - narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa – sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o'rtasidagi bog'lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an'anaviy xarakterga ega. Ya'ni, mazmunning o'zgarishi shaklning o'zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo'lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog'lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo'lish mumkin bo'lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo'lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juz'iy o'zgarish ham bir-biridagi o'zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo'lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. Ya'ni, suv bug' holatida chanqoqni qondirmaydi, o'simliklarni sug'orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog'lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, strukturaviy bog'lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko'ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo'rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e'tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning obyektiv xarakteriga putur yetkaza olmasa ham, ularni baholashdagi subyektiv, muqobil qarashlarda o'z ifodasini topadi.

**Sabab va oqibat.** Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko'ra, ularning mazmuni va shakli o'zgarib turadi. O'z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o'rtasidagi strukturaviy bog'lanish konkret mazmunga ega bo'lib, unga mos mazmunlarda

o’z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o’rtasidagi aloqadorlik, bog’lanish, munosabatning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. Ya’ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo’lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo’ladi. Shunga ko’ra, sabab – biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo’ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo’lib hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo’lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo’lmagan, muhim va muhim bo’lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko’ra, sababni bir vaqtning o’zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo’ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog’lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollarini ham belgilab beradi. Hyegel tili bilan aytganda, sabab- mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) uning *obyektiv xarakteri* narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo’lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;

2) *sababning konkretligi* narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta’minlaydi;

3) *sabab umumiy xarakterga ega* bo’lib, hyech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo’lmaydi;

4) *sabab zaruriy* bo’lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;

5) *sababning uzluksizligi*, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog’lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog’liqligini xarakterlaydi.

**Zaruriyat va tasodif.** Obyektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat – narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa – zaruriyatning namoyon bo’lish shaklidir.

Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. Shuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatdan kelib chiqadi hamda obyektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Masalan, O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tishi tarixiy obe’ktiv zaruriyatdir, uning «o’zbek modeli» asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo’lishidir. Bunda tasodif «subyektivlashtirilgan» jarayon sifatida ko’zga tashlansa ham, obyektiv hodisadir. Chunki, O’zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariga o’tishning xarakterini belgilab beradi.

Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning obyektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o’zgarib turadi. Zaruriyatlarning tasodiflar tarzida namoyon bo’lishi, o’z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo’ladi. Bundan ko’rinib turibdiki, zaruriyat va tasodif o’rtasidagi bog’lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zaruriyat va tasodif, kategoriyasiga boshqa kategoriyalar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan subyekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazaridan yondashiladigan bo’lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga

kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, obyektiv qonuniy xarakteri inkor etilmoqda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hyech qanday imperiyaning abadiy bo'lmasligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'rib turibmiz.

Zaruriyat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi shundaki, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruriyatning muqarrarligi tasodifga ham xosdir. Shuning uchun falsafiy adabiyotlarda tasodiflarning muqarrarligi, tarixiyligi, sababiyligini, qonuniyligini inkor qiluvchi qarashlar g'ayriilmiydir.

**Imkoniyat va voqyelik** – falsafaning muhim kategoriyalaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqyelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqyelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

Imkoniyatning voqyelikka aylanishi qonuniy hodisadir. Uning real, formal, mavhum imkoniyat deb ataladigan shakllari bor. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin demokratik huquqiy jamiyat qurishi uchun real imkoniyatlar vujudga keldi. Bunday imkoniyatlar I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ko'rsatib berildi.

Imkoniyat kategoriyasini, uning shart-sharoiti bilan aralashtirmaslik kerak. Shart-sharoitlar oqibat, tasodif, hodisa sifatidagina imkoniyatga ta'sir qiladigan omillar majmuasidan iborat. Mavjud voqyelik tarixiy genezisiga ko'ra, o'zida boshqa voqyelikning imkoniyatlarini mujasamlashtirgan bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichi real voqyelik sifatida, uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini namoyon qiladi.

***Takrorlash uchun savollar***

1. Qonun nima?
2. Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor?
3. Olamdagi ayniyat va ziddiyat holatlariga misollar keltira olasizmi?
4. Miqdor va sifat nima? Me'yor-chi?
5. Inkor nima? Inkorni inkor-chi?
6. Kategoriyalar tushunchasini qanday izohlaysiz?
7. Juft kategoriyalar mazmunidagi ichki bog'liqlik tamoyillari qanday namoyon bo'ladi?
8. Hozirgi davrda taraqqiyot va o'zaro bog'liqlik tamoyillari qanday namoyon bo'ladi?

## 7-MAVZU: FALSAFADA BILISH MUAMMOSI, BILISHNING BOSQICHLARI VA DARAJALARI

**Reja:**

1. Bilish nazariyasining predmeti va uning o'ziga xos xususiyatlari
2. Hissiy, nazariy va intuitiv bilish bosqichlari
3. Falsafada haqiqat muammosi
4. Bilish va amaliyot

**Tayanch tushunchalar**

Dunyoni anglash, in'ikos, psixika, ong, til, ongning tuzilishi, o'z-o'zini anglash, «Informasion portlash»

Ijtimoiy ong, individual ong, odatiy va nazariy ong, ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy mafkura, milliy mafkura, axborot dunyosining globallashuvi

Bilish, gnoseologiya, bilim, kundalik (empirik) bilim, nazariy bilim, bilish obyekti, bilish subyekti, hissiy bilish, mantiqiy bilish, ilmiy bilish metodlari, nazariya, haqiqat, nisbiy haqiqat, mutlaq haqiqat

### ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. — T.: O'zbekiston, 1996.

2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.

3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni-millat qilishga xizmat etsin. — T.: O'zbekiston, 1998.

4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. — Fidokor, 2000 yil 8 iyun.

5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — T.: O'qituvchi, 1993.

**Ong nima?** inson azal-azaldan o'zigagina xos bo'lgan ongning nima ekanligi to'g'risida o'ylab, bahslashib keladi. Bu bahslarning bir jihati, ong tabiat mahsulimi yoki inson ongi ilohiy yaratilganmi? degan masaladan iborat. Ikkinchi jihati esa, inson dunyoni doimo bir xil anglaganmi? Ya'ni asrlar davomida inson ongi takomillashib kelganmi yoki hamon o'sha-o'shami? degan muammo bilan bog'liq.

«O'zingni bilsang, olamni bilasan», – degan edi Suqrot. Aforizmga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham siru sinoatlarga boy, u o'zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo'l ochishi mumkin, degan g'oya yotibdi. Shu ma'noda, inson o'zini tashqi olamdan ajratib, alohida bir mo'jiza va tadqiqot mavzui sifatida o'rganishga harakat qila boshlagan paytdan buyon uni o'ylantirib kelayotgan muammolardan biri ongning mohiyati, uning kelib chiqishi masalasidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ongning tabiatini anglash masalasi – eng qadimiy falsafiy masalalardan biri, deyish mumkin. Garchand ong va uning turli xususiyatlari insonga xos hodisa sifatida psixologiya, adabiyot, sosiologiya kabi fanlarning tadqiqot mavzui doirasiga kirgan bo'lsa-da, ongning mohiyati, uning turli ko'rinishlari o'rtasidagi munosabat kabi masalalarni o'rganish bilan aynan falsafa shug'ullanadi.

Ongning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biri ekan, uni anglash jarayonida turli xil javoblar bo'lganligi tabiiy. Bu savolga eng qadimiy javob diniy va mifologik qarashlar doirasida berilgan.

**Ongni diniy tushunish** uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam va odamning yaratilganligi masalasi bilan bevosita

bog'liqdir. Kimda-kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy.

**Ong moddiylikning miyada aks etishi** deb tushunishda, uning mohiyati inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etiladi. Bunday qarashlar ham qadimiy ildizlarga ega. XVIII asrga kelib ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog'lashga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'lgan. Falsafa tarixida «**Vulgar materializm»** deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo'la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham, o'lchab ham bo'lmaydi.

**Ongning tuzilishi.** Ong o'zaro aloqada bo'lgan turli unsur (element) lardan tashkil topgan murakkab ma'naviy tuzilishga ega.

Ong in'ikosning o'ziga xos shakli ekan, avvalo, unda aks ettiriladigan obyekt haqidagi muayyan bilimlar hissiy va rasional shaklda o'z ifodasini topadi. Demak, bilim ong tuzilishining asosiy unsuridir. Shuning uchun ham bilimlarning boyib, chuqurlashib borishi ong rivojlanishini xarakterlaydigan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi.

Ong tuzilishining yana bir unsuri xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan kechinmalardir. Ularda in'ikos obyektiga munosabat gavdalanadi. Bilimlarimizning chuqurligi va ko'lamliligi, hissiyotlarimizning namoyon bo'lishi yoki bo'lmasligi intilishimiz — irodamizga bo²liq. Iroda kuchi olamni anglash jarayonida yuzaga keladigan har qanday to'siqlarni yengib o'tishga, ko'zlangan maqsad yo'lida tinmay harakat qilishga yo'l ochadi.

Iroda tabiatning in'omi emas ekan, uni tarbiyalash, kamol toptirish shaxs hayotida, uning jamiyatdagi o'z o'rnini topishida muhim ahamiyatga ega. Zero, irodasizlik eng ulug' niyat va maqsadlarni barbod qilibgina qolmay, insonning to'g'ri yo'ldan toyib ketishiga va turli salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga olib kelishi ham mumkin.

**Ong va til.** Til ongning insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo'sh, til deganda o'zi nima tushuniladi? Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to'g'ri emas. Negaki, muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos, ular yordamida jonzodlar o'rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo'ladi.

Aytaylik, kabutarlarining «muhabbat» raqsi, jonzodlarning xavf-xatar paydo bo'lganda turli tovush — belgilar yordamida bir-birini ogohlantirishi, ayrim hayvonlarning o'zi yashaydigan hududni turli yo'llar bilan «chegaralab» chiqishi ana shunday belgilar tizimining o'ziga xos ko'rinishlaridir. Lekin, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, bu belgi — signallar tizimi uzoq davom etgan evolyusiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Xatti-harakat yoki boshqa belgilar yordamida uzatilayotgan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo'ladi. Bundan farqli o'laroq inson nutqi, tili konkret vaziyat, makon va zamondan xoli bo'lishi, unga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Boshqacha aytganda, u o'zida o'tmishni, hozirgi holatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunyosida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko'rsatuvchi muhim xususiyatidir.

Til qayd qilinganidek, belgilar tizimidir. Fan yuksak taraqqiy qilgan hayvonlarda axborot uzatishga xizmat qiladigan murakkab belgilar tizimi mavjud ekanligi va u hayvonot olami evolyusiyasi bilan bir paytda takomillashib borganligini isbotlamoqda. Demak, til yo'q joydan, birdaniga paydo bo'lib qolmagan. Ong in'ikos shakllarning uzoq davom etgan evalyusiyasining tabiiy hosilasi bo'lganidek, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan inson nutqi ham axborot uzatishga xizmat qiladigan belgilarning murakkablashib borishi jarayonining zaruriy natijasidir.

Demak, til belgilar tizimi sifatida kelib chiqishidan qat'iy nazar faqat insongagina xos va u ong bilan uzviy bog'liqdir. Negaki, tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining o'zi va boshqalar uchun voqyelikka aylanadi. Tilda ifodalanayotgan ma'no — mazmunning anglanishi insonning umumiy bilim darajasi, qiziqishi, qobiliyati, konkret sharoitdagi kayfiyati kabi omillarga ham bog'liq bo'ladi. Til fikrlash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Ayni paytda insoniyat biz kundalik hayotda qo'llaydigan tabiiy til bilan bir qatorda muloqotning rang — barangligini ta'minlaydigan, fikrni ifodalashga xizmat qiladigan

o'ziga xos imo-ishoralar raqs, musiqa «tiliga» ham ega. Shunday bo'lsa-da, ular so'zga ko'chgandagina anglashiladi, undagi mazmun tushunarli bo'ladi.

Shu bilan birga milliy tillar bilan bir qatorda ilm- fan yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o'ynaydigan internasional til-fan tili, uning tushunchalari va formulalari ham borligini unutmaslik kerak. XX asrda qo'llanish doirasi tobora kengayib borayotgan elektron hisoblash mashinalarining «beysik», «fortan» kabi tillari yaratildi. Kompyuterlarning ijtimoiy hayotdagi roli tez o'sib borayotgan hozirgi davrda bu «til»lar axborotlarning uzatilishi hamda qabul qilinishida katta ahamiyat kasb etmoqda va vaqt bu jarayonlarning yanada tezlashayotganligini ko'rsatmoqda

Ong va til munosabati haqida gap ketar ekan, til o'ziga xos tarixiy xotira rolini o'tashini ham unutmaslik kerak. Bu milliy tillar misolida ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Zero, millat tilida uning o'zligi, bosib o'tgan tarixiy yo'li, tafakkur tarzi aks etadi, mustahkamlanadi. «Ona tili, — deb yozadi Prezidentimiz, bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar»[10].

Shunday ekan, mustaqillik sharoitida milliy tilimiz rivojiga alohida e'tibor berilayotganligi milliy o'zligimizni anglashimizning o'tish jarayonida milliy istiqbolimizni belgilashning uzviy qismi sifatida qaralmog'i lozim.

**O'z-o'zini anglash, uning shakllari.** Inson obyektiv voqyelikni aks ettirish bilan bir qatorda o'zi haqida fikr yuritish, ruhida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini nazariy tahlil qilishdek qobiliyatga ham ega.

O'zini o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash o'z-o'zini anglash sifatida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglashda o'zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin. Bu unsurlar o'z-o'zini anglashning sohibiga — subektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi haqida gap ketar ekan, u o'zini alohida organizm, oila, ijtimoiy guruh, millat, madaniyatga mansubligini va yuqoridagi xususiyatlaridan qat'i nazar alohida va betakror «Men» sifatida anglashdek bosqichlarni bosib o'tishini ta'kidlash zarur.

Insonning kamol topish jarayoni, o'z-o'zini anglashning rivojlanishi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Masalan, dastlabki davrda bolada avvalo, boshqalar tomonidan berilgan tasavvur va baholar ustunlik qiladi. Bolaning tafakkuri o'sishi bilan, u olamni mustaqil anglay boshlaydi va o'zining imkoniyatlarini o'zi baholashga o'rganib boradi. Aynan mana shu davrda to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, aynan mana shu tarbiya ta'sirida bolada o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash ham yoki unga ortiqcha baho berib yuborish holati ham shakllanib qolishi mumkin.

Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonida u mansub bo'lgan madaniyatning o'rni nihoyatda katta. Zero, aynan madaniyat xalq, millat to'plagan tajriba, bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan holda shaxs dunyoqarashi shakllanishiga faol ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham shaxs madaniyati, xulqu odobi, ongi, o'z-o'zini anglashining darajasini belgilovchi indikator sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoniga turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar ham kuchli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday xilma-xil ta'sirlar mavjudligi shaxsning o'z-o'zini anglashi, baholashi va faoliyatini tartibga solishi, nazorat qilishini ta'minlaydi. Aks holda ozgina iqtisodiy qiyinchilik, kichkinagina ijtimoiy muammo shaxs hayotini izdan chiqarib yuborishi, turli xil ta'sirlar domiga tortishi mumkin. «Mana shunday bir vaziyatda odam, – deb yozadi I.A. Karimov, – o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amri-mahol»[11]. Buni tushunib olish bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash tobora keskinlashib va intensivlashib borayotgan bir sharoitda ayniqsa muhimdir.

**Ong va axborot.** Keyingi yillarda «Informasion portlash» tushunchasi ham tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri bu kompyuterlarning yaratilganligidir. Ularning yaratilishi bir

[10] Каримов И.А. Донишманд халіимизнинг мустаµкам иродасига ишонаман. - Фидокор, 2000 йил 8 июн.
[11] Каримов И.А Жамиятимиз мафкураси халіни-халі, миллатни-миллат іилишга µизмат этсин. - Т: ¤збекистон, 1998. 6-бет.

tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch -qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning yengillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo'lidagi urinishlarning natijasi bo'ldi. Asrimizning o'rtasida paydo bo'lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab sekundiga minglab operasiyalar bajara oladigan kompyuterlar bo'lgan bo'lsa, ularning bugungi avlodi 10 millionlab murakkab operasiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Xo'sh, bularning inson ongi va tafakkurining mohiyati bilan nima aloqasi bor? Gap shundaki, EHM lar ham inson tafakkuriga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarga, uning tobora ko'proq ega bo'lib borishi, EHM fikrlay oladimi, agar inson o'ziga xos xususiyatlarini ularga tobora ko'proq ko'chirib boraversa, oxir oqibatda, bir vaqt kelib, u o'zi yaratgan ana shu qurolning quliga aylanib qolmaydimi, degan savollarning kun tartibiga qo'yilishiga olib keldi. Aytaylik, kompyuter albatta oldindan programmalashtirilgan operasiyalarni, millionlab marta tez bajarishi mumkin. Ularning «xotira» qudrati nihoyatda yuksak va h. k. Ammo bular EHMlarning fikrlashidan, ularning inson ustidan hukmronlik qilishidan dalolat beradimi? Albatta, yo'q. Kompyuterlar qanchalik murakkab operasiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan programmalashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash jarayoni ongsizlik, onglilik, kechinmalar, ijod kabi hodisalarni qamrab oladi. Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas. Shunday ekan, kompyuterlar insonning muayyan yo'nalishlardagi aqliy faoliyatini yengillashtirishga xizmat qiladi va o'zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo'la olmaydi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hozirgi davrda fan sohasida erishilgan natijalar har o'n yilda, informasiya olish esa har 3-4 yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o'zlashtira oladimi, degan savol ko'ndalang bo'lmoqda. Yangi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bo'lmagan yaqin o'tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni o'zlashtira olar edi. Bugungi kunda faqat fanning turli yo'nalishlari bo'yicha yiliga bir necha million kitob nashr etilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, inson eng yangi adabiyotlarni o'rganib borishga harakat qilganda ham, uning har bir o'qigan betiga o'n ming o'qilmagan sahifa to'g'ri kelar ekan.

Kishilarning paydo bo'lgan yangi kitoblarning aksariyatini jismonan o'qib ulgurmaganligi «informasion portlash» keltirib chiqarayotgan oqibatlarning bir ko'rinishi, xolos. Masalaning yana bir jihati borki, bu inson to'plagan bilim, axborotning ma'naviy eskirishi, keraksiz bo'lib qolayotganligidir. Bunday eskirish sur'ati tobora tezlashib bormoqda. Masalan, oliy — ta'lim sohasida bu jarayon olti — yetti yil, kompyuter texnologiyasi sohasida esa bir yil davomida sodir bo'layotganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Bu agar siz oliy o'quv yurtini bitirganingizga yetti yil bo'lgan bo'lsa, o'z vaqtida olgan bilimlaringizning aksariyati bugungi kun talabiga javob bermasligini bildiradi. Ana shunday sharoitda kishilarning o'z bilimlarini yuqori darajada ushlab turishlari ulardan doimiy diqqat-e'tiborni, o'z ustida ishlashni talab qiladi. Aks holda, ta'lim dargohini eng yuqori natijalar bilan bitirgan mutaxassis ham tez orada chalasavod bo'lib qolishi mumkin.

Umumlashtirib aytganimizda, ongning mohiyatini, uning koinot evolyusiyasining tabiiy natijasi ekanligini tushunish, u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, ongning mohiyatini anglash insonning o'zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma'no-mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo'l ochadi. Bu ong va u bilan bog'liq masalalar amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Har bir kishiga xos individual ong bo'lishi isbot talab qilmaydiga hol. Shu bilan birga xilma-xil kishilar, turli-tuman sohalar, guruh, partiya, millat kabi ijtimoiy birliklardan iborat jamiyat uchun ham umumiy anglash mezonlari va me'yorlari bormi? Jamiyat yagona jism emas-ku, unda yaxlit anglash usuli va umumiy ong bo'lishi to'g'risida gapirish qanday bo'larkin? degan savollar ham uchraydi. Bu savollarning tarixi uzoq.

Odamzod bir-biri bilan aloqalarini tartibga solib turadigan ma'naviy, axloqiy mezonlar, umumiy qarash va intilishlar, manfaat va maqsadlar ham borligini anglaganidayoq, ijtimoiy ong mavjudligiga ishongan.

Jamiyat murakkab va serqirra hodisa. Uning xilma-xil sohalarida sodir bo'layotgan

o'zgarishlar kishilar ongida o'z aksini topmasligi mumkin emas. Ana shu jarayonni ifodalash

uchun, odatda, ijtimoiy va individual ong tushunchalarini ishlatamiz. Xo'sh bu tushunchalarning farqi nimada, ular qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi?

**Ijtimoiy ong** tabiiy va ijtimoiy voqyelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo'lgan umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir.

Ijtimoiy ong tufayli jamiyatning o'z-o'zini anglashi sodir bo'ladi, kechayotgan jarayonlarga munosabati shakllanadi. Ijtimoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy ong ham o'zgarib rivojlanib boraveradi. Ammo bundan, aslo, ijtimoiy ongning taraqqiyoti faqat ijtimoiy voqyelikdagi o'zgarishlargagina bog'liq ekan-da, degan xulosa kelib chiqmaydi. Zero, ijtimoiy ong o'z taraqqiyotida nisbiy mustaqillik xarakteriga va ijtimoiy voqyelikka faol aks ta'sir eta olish xususiyatiga ham egadir.

Ijtimoiy ongning bunday xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

Avvalo, ijtimoiy ongga vorislik xos ekanligini ta'kidlash lozim. Bu ijtimoiy ong shakllarining o'z rivojlanish mantiqiga, qonuniyatlariga ega ekanligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy ong rivojida uning turli shakllarining o'zaro ta'siri ham muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy ong, undagi o'zgarishlar voqyelikka hamma vaqt aks ta'sir etib kelgan. Bilimlar ko'lami, tarixiy tajriba har bir davrda ayricha bo'lganidek, bu ta'sirning kuchi ham turlicha bo'lgan. Ijtimoiy ongning mohiyati uni individual ong bilan solishtirganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

**Individual ong** muayyan, guruh, elat, millatga mansub bo'lgan ayrim kishining ongi bo'lib, jamiyatdagi voqyelik va real borliqning alohida olingan shaxsning ongida aks etishdir.

Ijtimoiy va individual ongning mohiyatini chuqurroq anglash uchun ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni tushunib olish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy va individual ong o'rtasidagi o'xshashlik bir tomondan, har ikkalasining ham ijtimoiy voqyelikni aks ettirishida ko'rinadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy ong voqyelikni individ ongi orqali aks ettiradi. Chunki, ijtimoiy voqyelikda yuz beradigan o'zgarishlar avvalo, alohida kishilar ongida o'z aksini topadi va undan so'nggina ijtimoiy ongda gavdalanadi.

Ijtimoiy ong bilan individual ong o'rtasida farqli tomonlar ham mavjudki, ular quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, individual ongning sohibi, subyekti alohida olingan individ bo'lsa, ijtimoiy ongning subyekti jamiyatdir.

Ikkinchidan, ularning farqi shakllanish shart-sharoitlarida ko'rinadi. Zero, ijtimoiy ong ijtimoiy voqyelikning in'kosi bo'lsa, individual ong taraqqiyotiga ijtimoiy ong bilan bir qatorda shu shaxsgagina xos bo'lgan temperament, xarakter kabi xususiyatlar, uning moddiy ahvoli, oilaviy, diniy, milliy-madaniy mansubligi kabi omillar, hamda u bevosita tortilgan ijtimoiy munosabatlarning xarakteri ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ongga ko'lamlilik, keng qamrovlilik, individual ongga esa o'ziga xoslik, betakrorlik xosdir.

Uchinchidan, ijtimoiy ong ijtimoiy voqyelikni aks ettirganligi uchun muayyan qonuniyatlarga bo'yso'nadi, ular asosida rivojlanadi. Individual ong esa, ayrim individning tug'ilishi bilan shakllanib, taraqqiy qilib borib, uning vafoti bilan barham topadi. Ammo bu individ ongining butunlay barham topishini hamma vaqt ham anglatavermaydi. Chunki individ ongi u yaratgan asarlar, kashfiyotlar shaklini olib, keyingi avlodlar tomonidan meros sifatida qabul qilib olinishi mumkin. Masalan, Gippokrat va ibn Sino ta'limotlari, Aflotun va Beruniyning g'oyalari, Navoiy va Gandining gumanizmi kishilar uchun hamon katta ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

To'rtinchidan, individual ong ayrim sohalarda ijtimoiy ongdan o'zib ketishi yoki orqada qolishi mumkin. Fan tarixida keskin burilishlar yasagan olimlarning, jamiyat taraqqiyotining istiqbollarini oldindan aytib bergan mutafakkirlarning qarashlari individual ong ba'zan ijtimoiy ongdan nechog'lik ilgarilab ketishi mumkinligiga yorqin misol bo'la oladi.

**Ijtimoiy ongning strukturasi** ijtimoiy munosabatlar va kishilar faoliyatining turlari bilan belgilanadi. Odamlar faoliyati qanchalik xilma-xil, ularning ijtimoiy munosabatlari qanchalik boy

bo'lsa, ijtimoiy ong ham shunchalik boy va murakkab bo'ladi. Voqyelikni aks ettirish darajasiga ko'ra, ijtimoiy ong odatiy va nazariy ongga bo'linadi.

**Odatiy ong** hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuidan iborat bo'lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqyealarni aks ettiradi va rivojlanadi. Uning sohiblari – subyektlari alohida olingan shaxslarning hayotiy tajribasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilimlari, hayotda egallangan mavqyelari hyech qachon bir xil bo'lmaydi.

Odatiy ongda nazariy bilimlarga dalil va asos bo'lib xizmat qiladigan elementlar bo'ladi. Olimlar, san'atkorlar turli nazariyalar, badiiy obrazlar yaratishda hayotiy-kundalik ongga asoslanadilar, undan ma'naviy oziq oladilar.

Odatiy ongda xalq donishmandligi, an'ana va urf-odatlar, kundalik turmush qoida va talablari, tabiat haqidagi bilimlar, shuningdek turli uydirmalar, noto'g'ri qarashlar ham o'z ifodasini topadi. Ko'p asrlik hayotiy tajribani ixcham shaklda o'zida mujassamlashtirgan xalq maqollari bunga misol bo'la oladi. Odatiy ong sof holda uchramaydi. Chunki, inson farzandi murg'aklik davridanoq o'z atrofidagilar, so'ngra kitoblar, ta'lim tizimi yordamida inson zakovati erishgan ilmiy bilimlarni ham o'zlashtirishga kirishadi. Boshqacha aytganda, sodir bo'layotgan voqyealarga nafaqat o'z tajribasi, balki ilmiy bilimlar nuqtai nazaridan ham baho bera boshlaydi, nazariy ong ta'sirida bo'ladi.

Xo'sh, nazariy ong deganda nimani tushunish kerak?

**Nazariy ong** deganda nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Odatiy ongdan farqli o'laroq nazariy ong o'zgaruvchan xarakterga ega. Bu o'zgaruvchanlik ilmiy bilimlarning shiddatli rivojlanishi, voqyelik haqidagi bilimlarning doimiy chuqurlashib va kengayib borishi bilan belgilanadi. Shuningdek, odatiy ongga voqyealarning tashqi tomonini ifodalash xos bo'lsa, nazariy ong voqyealarning mohiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham u odatiy ongga faol ta'sir qila oladi va kundalik tajriba asosida hosil qilingan bilimlarni saralashga yordam beradi.

**Ijtimoiy psixologiya** sosial muhit, kundalik turmush sharoitlari ta'siri ostida vujudga keladi va rivojlanadi. Uni subektiga ko'ra muayyan ijtimoiy guruh, elat, millat psixologiyasi kabi turlarga bo'lish mumkin.

Millatlarning etnososial birlik sifatida shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ustuvor ahamiyatga ega. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ayrim hududda yashagan aholining doimiy aloqada bo'lishi, o'zaro ta'siri, munosabati natijasida tilda, madaniyatda umumiylikning shakllanishga ta'sir qilganligini ko'ramiz. Bunday sharoitda psixologiyada ham o'xshash tomonlar yuzaga kela borganligi tabiiy, albatta.

Alohida olingan bir millatga xos bo'lgan psixologik jihatlarni ushbu millat bosib o'tgan tarixiy yo'ldan, xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlardan qidirish zarur. Ijtimoiy voqyelikning o'zgarishi bilan milliy psixologiyaga xos bo'lgan xususiyatlar ham o'zgarib boradi. Ammo bu o'zgarishlar nisbatan sekin kechganligi tufayli, u hamma vaqt ham tezda ko'zga tashlanavermaydi.

Milliy psixologiyaga xos jihatlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda inobatga olish muhim ahamiyatga egadir. Bu amalga oshirilayotgan siyosatning xalq ko'nglidan chuqur joy olishini hamda ushbu o'zgarishlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Ijtimoiy mafkura (ideologiya) ijtimoiy psixologiyadan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy psixologiya sosial guruhlar hayotini muayyan his-tuyg'ular, kayfiyatlarda bevosita aks ettirsa, ijtimoiy ideologiya sosial guruhlar ehtiyojlari, manfaatlarining ichki mohiyatini, sababini har xil g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar shaklida aks ettiradi. Shuning uchun ham u ijtimoiy hayotga aks ta'sir o'tkaza olish xususiyatiga ega bo'ladi. Ayni paytda, ideologiyaning g'oyalar tizimi sifatida chiqishida, uning o'zi uchun katta xavf ham yashiringanligini ta'kidlash zarur. U real voqyelikdan, shu jumladan, kishilar ruhiyatida sodir bo'layotgan jarayonlardan uzoqlashib hayotiligini yo'qotgan g'oyalar-dogmalar sistemasiga ham aylanib qolishi mumkin. Bunday hollarda mafkura taraqqiyot tormoziga aylanib, oxir-oqibatda halokatga yuz tutadi.

**Ijtimoiy ong shakllarini farqlash mezonlari.** Ijtimoiy ong va uning darajalari haqidagi mulohazalar yakunida ijtimoiy ongning axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, fan, falsafa kabi shakllari ajratilishini ta'kidlash lozim.

Nima uchun ijtimoiy ongning aynan yuqoridagi shakllari ajratiladi? Boshqacha aytganda, ular qanday mezonlar asosida farqlanadi? ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy ong shakllarini farqlashning to'rt mezoni ajratilgan.

Avvalo, ijtimoiy ong shakllarining xilma-xilligi obyektiv olamning turli-tumanligidan, voqyelikning muayyan tomonlarinigina aks ettirishidan kelib chiqishini ko'rsatish zarur. Sodda qilib aytganda, ijtimoiy ong shakllari, birinchi navbatda, o'zlarining aks ettirish obyektiga ko'ra farqlanadi.

Ayni paytda, ijtimoiy ong shakllari bir-biridan voqyelikni aks ettirish usuliga ko'ra ham ajralib turadi. Masalan, huquqiy ong normalar, qonunlar, qoidalar vositasida, estetik ong esa- badiiy obrazlar yordamida voqyelikni aks ettirishini bir qarashdayoq sezish mumkin.

Ijtimoiy ong shakllari o'rtasidagi farqni ular rivojlanishining o'ziga xosligida ham kuzatish mumkin. Fan taraqqiyoti obyektiv olam haqidagi yangidan-yangi bilimlarning yuzaga kelishi, chuqurlashib, kengayib borishi bilan dinning rivojlanishi esa, uning ijtimoiy hayotning turli sohalariga, kishilar faoliyati va turmush tarziga ta'sirining o'sib borishi bilan xarakterlanishi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Va nihoyat, ijtimoiy ong shakllari bajaradigan funksiyalarining o'ziga xosligi bilan ham ajralib turishini ta'kidlash zarur. Bunda, har bir ijtimoiy ong shakli bajaradigan funksiyalar tizimida bittasi asosiy, markaziy, sistema yaratuvchi funksiya sifatida chiqishi kuzatiladiki, boshqa funksiyalar ana shu funksiya atrofida birlashadi. Fanda – bilish, axloqda – tartibga solish, dinda – dunyoqarash, san'atda – tarbiyaviy funksiyalar ana shunday sistema yaratuvchi funksiyalar sifatida chiqishini ko'rish mumkin.

Ijtimoiy ongning barcha shakllariga bilish, tarbiyalash, qadrlash kabi funksiyalarning xosligi, ayni paytda, bunday o'xshashlikning din va falsafa, axloqiy va huquqiy ong o'rtasida yana ham kuchliligi bunga misol bo'la oladi.

Xulosa kilib aytganda, yuqorida qayd etilgan mezonlar faqat birgalikda olingandagina, ijtimoiy ong shakllarini farqlashga xizmat qilishi, metodologik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy ongning axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, fan, falsafa kabi shakllarining hammasi ham bo'lmagan. Jamiyatda muayyan ehtiyojlar va ma'naviy ishlab chiqarishning yangi sohalari paydo bo'lishi bilan ijtimoiy ongning yangi shakllari ajralib chiqa boshlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida aytilgan ijtimoiy ong shakllarini tugal deb hisoblash xato bo'lur edi. Jumladan, so'nggi paytda ko'pgina ilmiy adabiyotlarda ekologik ongni ijtimoiy ongning mustaqil shakli sifatida ajratishga urinish rasm bo'layotganligini ta'kidlash zarur.

Axborot dunyosining globallashuvi va uning ijtimoiy ongga ta'siri katta bo'lmoqda. XX asr axborot uzatishga xizmat qiladigan texnik vositalarning keskin va shiddatli taraqqiy etishiga yo'l ochdi. Ayni paytda, ular madaniyat rivojiga ta'sir qilish imkoniyatlarini ham o'stirib yubordi. Shundan kelib chiqqan holda, madaniyat yutuqlarini tezlik bilan ommalashtirish, tarqata olish imkoniyati yaratilmoqda. Planetaning turli burchaklarida dunyoga kelayotgan madaniyat namunalarini millionlarning ma'naviy ozig'iga aylantirayotgan ommaviy axborot vositalarining — gazeta, jurnallar, radio, televideniye, videotexnika, kino kabi hodisalarning roli bu jarayonda katta bo'lmoqda, axborot sohasida globallashuv sodir bo'lganligini ko'rsatmoqda. Ammo bu jarayonining intensivlashuvi va globallashuvi yuqoridagi kabi ijobiy jihatlar bilan bir qatorda ayrim salbiy natijalarini ham namoyon etmoqda. Bu tor guruhiy, g'arazli iqtisodiy, siyosiy, geostrategik manfaatlaridan kelib chiqqan holda, kishilar dunyoqarashi, ijtimoiy ongga ta'sir qilishning yangidan-yangi yo'llari va vositalaridan foydalanishga urinishda ko'rinmoqda.

Aytish mumkinki, bugungi kunda kishilar ongida hukmronlikka erishish, ularning tafakkur tarzi va qadriyatlarini o'ziga bo'ysundirish turli ko'rinishlardagi maqsadlarga erishishning asosiy yo'li bo'lib qolmoqda. Ana shunday vaziyatda kishilar ongida sobitlik, Vatanga muhabbat tuyg'usi, o'z yurtining ertangi kuniga ishonch ustuvor bo'lmog'iga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Bilish va bilim.** Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga

oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi — gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkkab va ziddiyatli jarayondir. **Gnoseologiya** asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Xususan, XVII asr o'rtalarida yevropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olg'a surdilar.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, rasional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg'u berdilar. Buyuk nemis faylasufi I. Kant bilish natijalarining haqiqiyligi xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlari haqida bahs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo'yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

**Bilish nima?** Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sosial guruh vujudga keldi. Bular — ilm-fan kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug'ullanadilar.

Bilishning ikki shakli: **kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish** bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g'arb sosiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha — etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Nazariy bilishning obyekti, subyekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

**Bilish obyekti**. Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi. Bilish obyektlari moddiy, ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish obyektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi. Bilish obyektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

**Bilish subyekti.** Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

**Bilishning maqsadi** ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan — fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subyekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

**Bilish predmeti** subyektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish obyektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

**Bilish darajalari**ni shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, **hissiy bilish** deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalanishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, **aqliy bilish** (rasional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hyech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

**Tushuncha.** Aqliy bilish yoki tafakkur vositasida bilish hissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgilar vositasida olingan bilimlarni umumlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish orqali yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.

Tushunchada insonning hissiy bilish jarayonida orttirgan barcha bilimlari mujassamlashadi. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy bilish hissiy bilishga nisbatan ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Aqliy bilishda narsa va hodisalarning tub mohiyatini bilish uchun ulardan fikran uzoqlashish talab etiladi. Masalan, insonning mohiyati uning sezgi a'zolarimiz qayd etadigan kelishgan qaddi-qomati, chiroyli qoshu ko'zi, ijodkor qo'li, oyoqlari bilan belgilanmaydi. Insonning mohiyati avvalo, uning aql va tafakkurga, yaratish qudratiga, mehr-shafqat hissiga, mehnat qilish, so'zlash qobiliyatiga ega ekanligida namoyon bo'ladi.

Inson tushunchasi o'zida insoniyatning ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarining mahsuli sifatida shakllandi.

Har bir fan o'ziga xos tushunchalar apparatini yaratadi va ular vositasida mohiyatni bilishga intiladi. I. Kantning fikricha, narsalarning mohiyati so'z va tushunchalarda mujassamlashadi. Ya'ni biz so'z va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida biron bir bilimga ega bo'lamiz. Har bir inson dunyoga kelar ekan, tayyor narsalar, munosabatlar bilan bir qatorda tayyor bilimlar olamiga ham kirib boradi.

**Hukm.** Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo etadi. Tafakkurga xos bo'lgan ana shu tasdiqlash yoki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Hukmlar yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib boriladi. Shunday qilib, hukm narsa va hodisalarning tub mohiyatini ifodalovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini yo tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Masalan, «inson aqlli mavjudotdir», degan hukmda insonga xos eng asosiy belgi - aqlning mavjudligi tasdiqlanayapti. Biroq inson shunday murakkab mavjudotdirki, uning mohiyati faqat aqlli mavjudot ekanligi bilan cheklanmaydi. Chunki qirg'inbarot urushlar, ekologik inqirozlar aqlli mavjudot bo'lgan inson tomonidan amalga oshirildi. «Inson axloqli mavjudotdir». Inson to'g'risidagi hozirgi zamon fanining muhim xulosasi ana shu.

**Xulosa** — aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, yangi bilimlar hosil qilish usulidir. Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo'lishi, ya'ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiy xulosalar chiqarishga yoki umumiylikdan alohidalikka borish orqali bo'lishi ham mumkin.

Binobarin, tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to'plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi **intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilish**dir. O'zining butun borlig'ini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, yechimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o'rin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganadigan maxsus soha — **metodologiya** deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so'rovi, hujjatlarni o'rganish sosiologiya faniga xos bo'lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to'g'ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o'rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o'rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ilg'or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgarigi ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona sig'inish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptisizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptisizm jiddiy xalaqit beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezoni bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyusion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnoseologiyada haqiqat tushunchasi muhim o'rin tutadi. **Haqiqat** inson bilimlarining voqyelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o'z mazmuniga ko'ra hamisha obyektivdir. Ya'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning xohish-irodasiga bog'liq emasdir. Masalan, O'zbekistonning milliy mustaqilligi obyektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat'i nazar, bu haqiqat o'z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin buzish yoki soxtalashtirish oxir-oqibatda fosh bo'ladi va o'z qadrini yo'qotadi. Shuningdek, haqiqat hyech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretdir. Hyegel so'zlari bilan aytganda, nimaiki voqye bo'lsa, u haqiqatdir, haqiqat — voqyelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e'tiborga olishni talab etadi.

Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos bo'lgan obyektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezoni deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr o'rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo'lgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qo'ya boshladi. Aqlli mavjudot bo'lgan inson har qachon tabiatni o'rganishda hamisha o'z manfaatlarini

ko'zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas-tuganmasdir, degan bir yoqlama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatni vujudga keltirdi. XX asr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlarcha, qadriyatli munosabatda bo'lish zaruriyati chuqurroq anglana boshladi.

Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tuzum, davrning talab va ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi: insoniyat o'z tarixini yaratuvchi va o'z-o'zini biluvchidir.

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hyech qanday qarshilik ko'rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o'zgaruvchi sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo'lgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab ma'naviy hayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g'oyalarni ham o'rganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan yetuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarni o'rganish, ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

### Takrorlash uchun savollar

1. Psixika va ong koinot evolyusiyasining tabiiy natijasi deganda nimani tushunasiz?
2. Ong nima? Nega u ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega deyiladi?
3. Ong va tilning birligi deganda nimani tushunasiz?
4. O'z — o'zini anglash nima?
5. «Informasion portlash» nimani anglatadi?
6. Gnoseologiya nimani o'rganadi?
7. Bilish nima?
8. Hissiy va rasional bilishning o'ziga xosligi nimada?
9. Bilish obyekti, subyekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
10 Ilmiy bilishning asosiy usul (metod) larini ko'rsating.
11. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyat nimada?

## 8-mavzu: BILISHNING METODLARI, AXBOROTLASHUV, TUSHUNISH VA TUSHUNTIRISHNING ILMIY – FALSAFIY TAHLILI

**Reja:**

1. Metod va metodologiya tushunchasi. Fanlar va falsafa metodlari taspifi
2. Axborotlashuvning falsafiy asoslari
3. Falsafa tarixida tushunish va tushuntirish muammosi
4. Tushunish va tushuntirishning dialiktik birligi

**"Metod" va "metodologiya" tushunchalari**. *Metod (yunon. metods — usul) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metodologiya tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega — faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.); tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi.*

Hozirgi davrda metodologiya faqat ilmiy bilish sohasi bilan cheklanishi mumkin emasligi ayon bo'ldi va y albatta, bilish chegarasidan chiqishi va o'z sohasida amaliyotda ham qo'llanishi zarur. Bunda bilish va amaliyotning uzviy aloqadorligiga e'tibor qaratmoq kerak.

*Metodologiya faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganadi.* Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqyelikni metodologik o'zlashtirishning o'ziga xos vositalarini ajratish fan rivojlanishining «postnoklassik», deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

*Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi.* Shuningdek, metodologiya metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqidagi ta'limotdir.

*Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi* hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, subyektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan yetishishga yordam beradi.

*Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat.* Biroq:

-birinchidan, metod va metodologik muammolarning rolini inkor qilish yoki to'g'ri baholamaslik ("metodologik negavizm");

-ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo'rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning kaliti, ilmiy yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eyforiya), deb tushunish noto'g'ridir.

Har qanday metod muayyan nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O'z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmog'i lozim. Shunga ko'ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasa-da, ma'lum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi.

Metod bilish predmeti va harakatni sun'iy ravishda bog'lamaydi, balki ularning xususiyatlari o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma'lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo'ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (obyekt) predmetining mazmuni bilan bog'liq.

Metod subyekt bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha qilib aytgan-da, "inson umum metodologiyaning markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod y yoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metod subyekt va obyektning murakkab dialektikasi acosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu ma'noda, har qanday metod, eng avvalo, obyektiv, mazmunli va konkret bo'lsada, ayni paytda, subyektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki obyektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

*Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir.* U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi.

*Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikasiya qilinadi. Eng avvalo, ma'naviy, g'oyaviy (shuningdek, ilmiy) moddiy va amaliy faoliyat metodlarini ajratmoq lozim.*

Fan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. Yangilik yaratish san'ati yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog'lovchi vosita sifatida namoyon

bo'ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarning metodologik rolida o'z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqyeliqdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o'zida metodologik tamoyil bo'lib, y oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hyech kim hyech qachon haqiqatni yo'qdan bor qila olgan emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Ba'zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi.

Metod o'z-o'zidan tadqiqotning muvaffaqqiyatli bo'lishini ta'minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo'llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko'ra, ular keng yoki tor ko'lamda qo'llaniladi. Har qanday fan o'z predmetini o'rganishda y yoki bu obyektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o'rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Ular: *fan metodlari xususiy ilmiy metodlar umumilmiy tadqiqot metodlari Fanlararo tadqiqot metodlari, falsafa metodlari, Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari kabilardir***.** Quyida ularning mazmunini tahlil qilamiz.

**Fan metodlari** – *ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi.* Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir. Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon uni yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Зepo nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim.

*Fan metodlarining guruhlarga bo'linishi bir nechta asoslarga ega.* Bilish jarayonida uning roli va o'rni nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud. Metodlarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiati va qo'yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi.

**Xususiy ilmiy metodlar** – *materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui.* Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Umumilmiy tadqiqot metodlari** *falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oraliq metodologiya» bo'lib xizmat qiladi.* Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi.

Birinchidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq) matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o'ziga xos jihatlaridir.

*Agar falsafiy kategoriyalar umumiylikning mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi – muayyan umumiy darajani o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, umumilmiy tushunchalarga ko'proq umumiy abstrakt (bir xil) daraja xoski, bu ularni abstrakt-formal vositalar yordamida ifoda etish imkonini beradi.* Falsafaning asosiy masalasini (to'la hajmda) yechishda «ishtirok etish» sharti muayyan

«tafakkur shaklini yaratish»ning «falsafiyligi», «dialektikligi» darajasini aniqlashning muhim mezonidir.

Umumilmiy tushuncha va konsepsiyalar asosida bilishning tegishli metodlari, tamoyillari ta'riflanadi, ular esa, o'z navbatida, falsafaning maxsus ilmiy bilim va uning metodlari bilan oqilona o'zaro aloqasini ta'minlaydi. *Umumilmiy metodlar qatoriga tizimli va strukturaviy-funksional, kibernetik, ehtimoliy yondashuvlar, modellashtirish, formalizasiya hamda boshqalar kiradi.*

Umumilmiy tushunchalarning muhim roli shundan iboratki, ular o'zining «oraliq xususiyati» bilan falsafiy va alohida ilmiy bilimning (shuningdek tegishli metodlarning) o'zaro o'tishini ta'minlaydi. Gap shundaki, birinchi bilim ikkinchi bilimga sof yuzaki tarzda, bevosita o'tmaydi. Shuning uchun ham maxsus ilmiy mazmunni darhol falsafiy tushunchalar tilida ifodalashga urinishlar, qoida tariqasida, nokonstruktiv va samarasiz bo'ladi.

**Fanlararo tadqiqot metodlari**–*asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui.* Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

**Falsafa metodlari**. *Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq.* Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo'lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo'lni ko'rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va h.k.lar taalluqli. Agar maxsus metodlar obyektning qonuniyatlarini o'rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo'lsa, falsafiy metodlar shu obyektlarda namoyon bo'ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aynan shu o'rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir metod obyektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Falsafaning eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo'lsa, ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik, (hozirgi zamon analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro'y bermoqda (masalan, Gadamer germenevtikani rasional dialektika bilan birlashtirishga harakat qiladi).

*Dialektika (yunon. dialektika — bahs, suhbat) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta'limotdir.* U grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati, degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liklikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushunishga asoslanadi. Unga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga, yashash vaqti va harakat yunalishiga ega bo'lgan barcha narsalar va voqyealar bir-birlari bilan bog'liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon buladi.

**Axborotlashuvning falsafiy asoslari.** So'nggi yillarda «axborot», «invariantlik», «nomuayyanlik» kabi umumilmiy tushunchalar falsafiy tahlil predmetiga aylandi. Bilimning u yoki bu tarmoqlarida yuzaga kelgan va ilmiy bilishning mantiqiy-metodologik vositalari darajasiga ko'tarilgan bu tushunchalar nafaqat obyektlar va jarayonlarni ko'rishning umumiy usullari, balki rivojlanayotgan bilimni tahlil qilish shakllari hamdir.

Eng umumiy ma'noda axborot narsa va hodisalar haqidagi har qanday ma'lumotni anglatadi, biroq hozirgacha axborotning umum qabul qilingan ta'rifi yo'q.

Axborotning eng sodda klassik ta'rifi bu – ma'lumot berishdir. N.Viner fikricha, "Axborot – tashqi olamga ko'nikish jarayonida undan olingan mazmunni ifodalashdir"[12]. Bu yerda axborot tashqi olamni aks ettirish (gnoseologik jihat) va adaptasiya (unga qo'nikish) deb ifodalanadi. L.Popov "Axborot kommunikasiya va aloqa jaaryonidagi noaniqlikning bartaraf qilinishi"[13] deb

---

[12] Винер Н. Кибернетика и общество. –М.: Наука, 1991. -С.620

[13] Попов Л. Информациология и информационная политика. -М.: Луч, 1999. -С .27

hisoblaydi. Bu ta'rifda asosan axborotning falsafiy -psixologik (kommunikasiya, aloqa) tomoniga e'tibor qaratiladi.

R.Eshbi "Axborot – strukturalarning me'yori, yangilik, originallik"[14], S.Mol esa, "Axborot – tanlash ehtimolligi"[15] deb ta'rif beradi. L.G.Svitich "Axborot tushunchasi ko'p ma'noga ega, lekin umumiy falsafiy, metolingvistik ma'noda potensial, keng yoritilgan real mohiyatlarning majmui"[16] deb tushunadi.

*Axborot – obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zini saqlash, qayta ishlash va ta'sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo'ladi.* Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi – axborotning muhim xususiyatlari.

«Axborotni o'rganish axborot-boshqaruv jarayonini tahlil qilish bilan uzviy bog'liq, chunki axborot unda funksional xossa sifatida mavjuddir»[17].

«Axborot», «ma'lumot», «bilim» tushunchalari ko'pincha bir-biriga o'xshatiladi. Bu qisman shu bilan izohlanadiki, bir darajada axborot sifatida amal qiluvchi dalillar boshqa darajada ma'lumotlar sifatida amal qilishi mumkin. Masalan, radio yoki televideniye muxbiri intervyu jarayonida muayyan axborot oladi. Bu axborot jamoatchilik fikrini o'rganish markazi uchun ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Mazkur markaz tomonidan e'lon qilingan axborotdan, o'z navbatida, yuqori idora tahlil uchun ma'lumot sifatida foydalanishi mumkin.

*Ma'lumotlar muayyan xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilishga xizmat qiladi. Ular saqlanishi, uzatilishi va berilishi mumkin, ammo axborot sifatida amal qilishi mumkin emas.* «Ma'lumotlar» tushunchasi o'zaro bog'liq bo'lmagan dalillar majmuini aks ettiradi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, aloqalarini aniqlash, eng muhim dalillarni ajratish va ularni sintez qilish yo'li bilan axborotga aylantirish mumkin. Shu bois axborot ma'lumotlarga qaraganda ko'proq qimmatga ega bo'ladi. *Axborot bu oqilona foydalanish uchun muayyan shaklga solingan ma'lumotlardir.* O'z navbatida, axborot bloklarini tegishli tarzda ishlov berish yo'li bilan yaxlit bilim korpusiga aylantirish mumkin.

Ammo har qanday axborot ham bilim bo'la olmaydi. Xo'sh, axborot va bilimning o'zaro nisbati qanday? Ko'pincha bu tushunchalar bir-biriga o'xshatiladi, Falsafa qomusiy lug'atida bilim «Kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida xosil qilgan ma'lumotlari»[18], deb tavsiflanadi. Bizningcha, bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Ammo bilim va axborotning o'zaro nisbati muammosining bir xil yechimi mavjud emas.

Umuman olganda, axborot tushunchasi bilim tushunchasidan kengroq. Masalan, so'qmoqda yotgan singan daraxt shoxi axborot beradi – yo'lovchining harakat yo'nalishini ko'rsatadi, ammo yo'l haqida – uning og'irligi, uzunligi, relyefi, so'qmoqdan o'tish uchun qulay kun vaqti yoki yil mavsumi va hokazolar to'g'risida bilim bermaydi. Bilim – bilish faoliyatining natijasi, mazkur faoliyat yordamida olingan borliq haqidagi tushunchalar tizimi. Binobarin, har qanday bilim ham axborot beravermaydi. Faqat muayyan darajada o'zgartirilgan, tilda (ovozlar, imo-ishoralar, rasmlar va b.) qayd etilgan va ifodalangan axborotga bilim deb qarash mumkin. Bilim, ijtimoiy va tabiiy borliqning belgi shaklidagi ideal in'ikosi sifatida, axborotdan farqli o'laroq, shaxsiy insoniy hodisa hisoblanadi, u subyektiv shaklda mavjud bo'ladi. Axborot nafaqat subyektiv shaklda (bilim shaklida), balki obyektiv shaklda ham mavjuddir. U o'zining bevosita yaratuvchisidan ajratilgan va boshqa moddiy tashuvchilarda mustahkamlangan. Axborot doim aloqa tarmoqlari orqali bilim berish xususiyatiga ega, bilim esa doim o'z yaratuvchisining shaxsi bilan bog'liq.

Axborot ijtimoiy – iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning muhim resursidir; undan foydalanish masshtablari, an'anaviy resurslardan foydalanish (energiya, xom ashyo va h.k.) masshtablariga teng. Axborotga sarf qilingan mablag' makroiqtisodiy ahamiyatga ega. Axborotning

[14] Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. -М.: Дело, 1993. –С.469

[15] Моль С.Информационное воздействие в современном мире. –М.: Крымский мост, 2004. –С. 484.

[16] Свитич Л.П. Социальная информациология. -М.: Алгоритм, 2000. –С.250

[17] Тураев Б. Информационное свойство пространства и времени // Естествознание и философия. III международный семинар. – Санкт-Петербург: 1992. – С.64.

[18] Фалсафа қомусий луғат. -Т.: Шарқ, 2004. –Б.40.

jamiyat hayotidagi ahamiyati kundan kunga ortmoqda. Axborot bilan ishlash usullari o'zgarmoqda, yangi axborot texnologiyalarini qo'llash sohalari kengaymoqda**.**

Axborot o'z subyekti va obyekti (manbai) o'rtasidagi o'zaro aloqa jarayonining mahsuli (natijasi) sifatida vujudga keladi. Aks ettirishning uzatilgan, invariant qismi sifatidagi axborot konsepsiyasi tanlash jarayonini amalga oshirishga qodir o'zini o'zi boshqaruvchi tizimlar faoliyatini tavsiflashi mumkin. Axborot murakkab tarkibli tizimlarda aks ettirilgan rang-baranglikning boshqaruvga xizmat ko'rsatuvchi muhim qismi, kommunikasiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U bir qancha xossalarni o'zida mujassamlashtiradi – nafaqat aks ettirish, boshqarish, balki aloqa vositasi sifatida ham amal qiladi. Bu yerda axborotning kommunikativ jihati birinchi o'ringa chiqadi.

Axborot –obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo'lib, o'zini saqlash, qayta ishlash va ta'sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo'ladi. Axborot bu tizimlarning faoliyat jarayonida o'z mazmuniga ega. Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi – axborotning muhim xususiyatlaridir. «Axborotni o'rganish axborot-boshqaruv jarayonini tahlil qilish bilan uzviy bog'liq, chunki axborot unda funksional xossa sifatida mavjuddir»[19].

Ilmiy bilimlar hajmining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan demokratik jamiyat sharoitida bilimning yangi shakllarini izlash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo asosan bilimni semiotika vositalari yordamida soddalashtirish yo'li bilan shaklan o'zgartirish bilan bog'liq.

Axborotning evristik mazmunini o'rganishda informasion vaziyatning quyidagi unsurlari muhim o'rin tutadi: 1) axborot subyekti (axborot oluvchi, uni o'zgartiruvchi va undan foydalanuvchi), axborot obyekti (axborot manbai): subyekt bilan o'zaro aloqaga kirishadi; 2) ehtiyojlar: aks ettirilgan rang-baranglikning muhim qismini tanlash masalasini yechadi. Subyektning qizg'in izchil faoliyati axborotning shakllanish jarayonida muhim omillardan biri sifatida amal qiladi. Tashqi ta'sirlardan axborot obyektining subyektga ta'siri, ta'sirni kodlashtirish va modellashtirish, teskari aloqa, subyektning bilim darajasi ta'sirida o'zgarish va hokazolarni qayd etish mumkin.

Xullas, axborot va bilim o'zaro nisbatining bir xil ta'rifi mavjud emas. Faqat shu narsa aniqki, ular o'rtasida chuqur dialektik aloqa mavjud. Bu aloqa shu qadar chuqurki, ba'zan axborot va bilim tushunchalari kundalik amaliyotimizda, ayniqsa, hozirgi kunda informasion portlash deb nom olgan inson bilimining jadal o'sishi to'g'risida so'z yuritilgan hollarda bir-biriga o'xshatiladi.

*Informatika (fransuzcha information – axborot va automatique – avtomatika) – axborot olish, unga ishlov berish, uni saqlash va taqdim etish jarayonlarini tadqiq qilish, jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot texnikasi va texnologiyasini yaratish, amaliyotga joriy etish va ulardan foydalanish masalalarini hal qilish bilan shug'ullanuvchi fan-texnika faoliyatidir.*

Informatika texnik vositalari axborot texnologiyasining negizini tashkil etadi. Informatika vositalari rivojlanishining tarixiy bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin: informatika tabiiy vositalari (insoniy – imo-ishora, raqs, nutq; tabiiy – olov, belgi); informatika mexanik vositalari (o'rta asrlar telegrafi, matbaachilik, hisoblash moslamalari, arifmometr); informatika elektr vositalari (telegraf, telefon, kino); informatika elektron vositalari (televizor, kompyuter, printer).

**Tushunish va tushuntirishning dialektik birligi.** Tushunish va uning bilish (va tushuntirish) bilan o'zaro nisbati muammosi ko'pdan beri muhokama qilinadi. U bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va ko'p jihatdan bahslidir. Masalan, Diltey tushunishni matn muallifining ma'naviy dunyosiga kirish sifatida tavsiflagan bo'lsa, Xaydegger uchun tushunish insonning borliqqa o'ziga xos munosabati, insonning dunyoda mavjud bo'lish usulidir. Gadamer fikriga ko'ra, o'tmish madaniyatini tushunish talqin qiluvchining o'zini tushunishi bilan uzviydir. Shu sababli tushunish predmetini muallif matnga joylagan ma'no emas, balki mazkur matn orqali anglab yetilishi lozim bo'lgan moddiy mazmun («ishning mohiyati») tashkil etadi. Bunda, Gadamer

---

[19] Тураев Б. Информационное свойство пространства и времени // Естествознание и философия. III международный семинар. – Санкт-Петербург: 1992. – С.64-.

fikriga ko'ra, har qanday tushunish til muammosidir: unga «til mediumi»da erishiladi (yoki erishilmaydi) va isbotlashni taqozo etmaydi.

Hozirgi adabiyotlarda tushunish turlari, tiplari va darajalarining har xil tasniflari mavjud. Masalan, G.I.Ruzavin tushunishning uch asosiy turini farqlaydi:

A) Dialogda til vositasida aloqa qilish jarayonida yuzaga keladigan tushunish. Tushunish yo tushunmaslik natijasi bu yerda suhbatdoshlar o'z so'zlariga qanday ma'no yuklashiga bog'liq.

B) Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish bilan bog'liq tushunish. Bu yerda o'zga tilda ifodalangan ma'noni ona tili so'zlari va gaplari yordamida ifoda etish va saqlash nazarda tutiladi.

V) Matnlarni, badiiy adabiyot va san'at asarlarini, shuningdek odamlarning turli vaziyatlardagi qilmishlari va harakatlarini talqin qilish bilan bog'liq tushunish. Bu yerda ma'noni intuitiv tushunishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Bu tushunishning birinchi darajasi. Tushunishning ikkinchi darajasi tadqiqotning boshqa, xususan: mantiqiy-metodologik, aksiologik, kulturologik vosita va metodlarini jalb qilishni taqozo etadi[20].

Tushunish to'g'risida so'z yuritganda, yana ikki muhim jihatga e'tiborni qaratish kerak:

1. Germenevtik doira tamoyili tushunishning muhim jihati hisoblanadi. U tushunishning siklik xususiyatini aks ettiradi. Mazkur tamoyil tushunish va tushuntirishni bog'laydi: nimanidir tushunish uchun uni tushuntirish kerak va aksincha. Mazkur o'zaro aloqa butun bilan qismning doirasi sifatida ifoda etiladi: butunni tushunish uchun uning alohida qismlarini tushunish kerak, alohida qismlarni tushunish uchun esa butunning ma'nosi haqida tasavvurga ega bo'lish lozim. Masalan, so'z – gapning qismi, gap – matnning qismi, matn – madaniyat unsuri va sh.k.

2. Germenevtik doira – «olmaxon g'ildiragi» emas, zero, unda tafakkur qismlardan avvalgi butunga emas, balki o'z qismlarining bilimi bilan boyigan butunga, ya'ni boshqa butunga qaytadi. Germenevtik doira dialektik xususiyatga ega: unda to'liq va chuqur tushunishdan yanada to'liqroq va chuqurroq tushunishga tomon harakat sodir bo'ladi, mazkur harakat jarayonida tushunishning yanada keng ufqlari namoyon bo'ladi.

Tushunishni hozirgi davrga bog'lash kerakmi?

Mazkur masala yuzasidan ikki asosiy qarash mavjud:

A) Kerak emas. Mazkur qarashga ko'ra, matnni muvofiq tarzda tushunish unga muallif yuklagan ma'noni ochib berishni nazarda tutadi. Ya'ni muallif yuklagan ma'noni hyech qanday qo'shimcha va o'zgartirishlarsiz, mumkin qadar sof shaklda aniqlash lozim. Lekin amalda bunday bo'lmaydi, zero, har bir davr matnga (masalan, san'at asarlariga) o'z mezonlari bilan yondashadi.

B) Tushunish jarayoni muqarrar ravishda tushunishga harakat qilinayotgan narsaga qo'shimcha ma'no yuklash bilan bog'liq. Binobarin, matnni muallif qanday tushungan bo'lsa, shunday tushunishning o'zi yetarli emas. Demak, tushunish ijodiy jarayon va u muallif yuklagan ma'noni aynan aks ettirishnigina emas, balki unga tanqidiy baho berish, ijobiy jihatlarini saqlab qolish, ma'noni hozirgi voqyelikning mazmuni bilan boyitishni nazarda tutadi.

Hozirgi zamon fransuz germenevtikasining vakili Pol Rikerning fikricha, tushunish hyech qachon bilishdan ajralmaydi, balki «ma'noni o'zlashtirish faoliyatining bosqichi» hisoblanadi. Tushunish – fikr yuritish orqali simvolda yashirin ma'noni aniqlash demak. Bunda Riker quyidagi holatlardan kelib chiqadi:

a) germenevtika – izchil talqin qilish jarayoni;

b) talqinlarning xilma-xilligi germenevtikaning mohiyatini tashkil etadi;

v) tushunish – bir ong tomonidan uzatiladigan, ikkinchi ong esa uni tashqi ifodalar orqali qabul qilib oladigan belgilar ma'nosini tushunib yetish jarayoni;

g) ayni bir matn bir nechta ma'noga ega va bu ma'nolar bir-biriga qo'shilib, qatlam hosil qiladi.

Shunday qilib, tushunish - muayyan hodisaning ma'nosini, uning dunyodagi o'rnini, yaxlit bir butun tizimdagi funksiyalarini tushunib yetish demak. U borliqning ma'nolarini teran anglab yetishga ko'maklashadi. *Tushunish jarayoni sodir bo'lishi uchun quyidagilar zarur: har qanday tabiatli matnda ifodalangan predmet; unda ma'noning mavjudligi; mazkur ma'no to'g'risidagi*

---

[20] Қаранг: Рузавин Г.И. Методология научного исследования. – М.: Прогресс, 1999. – С.214-215.

*dastlabki tasavvur; matnni talqin qilish, ya'ni matnning mazmunini tushunish; talqin qiluvchida o'z-o'zini tushunishning mavjudligi, muloqot, aloqa; «til stixiyasi»; dialog yuritish qobiliyati; o'z fikrini bildirishga intilish, boshqacha fikrlaydigan odamga so'z berish, uning aytganlarini hazm qila olish; ayni bir matn (unga muallif yuklagan ma'nodan tashqari) bir nechta ma'noga ega bo'lishini nazarda tutish; matnning predmet mazmunini hozirgi davrning madaniy tafakkuri tajribasi bilan bog'lash.*

Tushunish jarayoni insonning o'zini qurshagan olamni bilish jarayoni bilan uzviy bog'liq, ammo bunda inson faqat bilish faoliyati bilangina cheklanmaydi. Tushunish muammolari bilish nazariyasi masalalarini chetga siqib chiqara olmaydi, ular keng ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan bilish va predmetli-amaliy faoliyatning dialektik birligi asosida tahlildan o'tkazilishi lozim.

Tushunish tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish bilan bir qatorda, ilmiy bilim faoliyatining asosiy muolajalariga kiradi. Tushunishni tadqiq qilishga nisbatan ko'p sonli yondashuvlar mazkur jarayon uni boshqa intellektual jarayonlar va gnoseologik operasiyalardan ajratadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham tushunishni bilishga o'xshatish («tushunish – tushunchalarni mantiqda ifoda etish demak») yoki uni tushuntirish muolajasi bilan (garchi ular o'zaro bog'liq bo'lsa-da) aralashtirish mumkin emas. Ammo tushunish jarayoni ko'pincha anglab yetish, ya'ni inson uchun ma'lum ma'noga ega bo'lgan narsalarni aniqlash bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham «tushunish ma'nolardagi real harakat, mazkur ma'nolarga amalda egalik qilish sifatida har qanday bilish faoliyatining ajralmas qismidir»[21], degan fikrga qo'shilish lozim.

**Ma'no**. *Tushunish inson faoliyatining ma'nolarini tushunish va ma'no hosil qilish tarzida kelishi mumkin. Tushunish boshqa odamning «ma'nolar olami»ga kirib borish, uning fikrlari va o'y-kechinmalarini tushunib yetish va ularni talqin qilish bilan bog'liq.* Tushunish – ma'noni qidirish demak, zero, faqat ma'noli narsanigina tushunish mumkin. Mazkur jarayon o'zaro aloqa, muloqot va dialog sharoitlarida sodir bo'ladi. Tushunishni o'z-o'zini tushunishdan ajratish mumkin emas. U til stixiyasida sodir bo'ladi.

*Ma'no tushunish muammosini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ma'no – tildagi iboralar (so'zlar, gaplar va sh.k.) mazmunining sinonimigina emas, balki murakkab, ko'p qirrali hodisa*. M. Xaydeggerning fikricha, ma'no birinchidan, har qanday qilmish, xulq-atvor, amal «nimaga» va «nima uchun» sodir etilganini nazarda tutishi kerak. Ikkinchidan, ma'no yo'nalishga ega, ya'ni u nimaningdir pirovard maqsadi (hayot mazmuni, tarix mazmuni va h.k.)[22].

Ma'no hosil qilish jarayonlari obyektiv tarzda an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlar va ramzlar sohasida sodir bo'ladi va tilda ifoda etiladi. Gadamerning ta'biri bilan aytganda, u bizda, bizning hozirgi dunyomizda zohir. Madaniy merosning uzluksizligini ta'minlovchi an'ana qamrovli ma'no universumiga reallik baxsh etadi.

Tushunishning ishtirokisiz muomalani davom ettirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, anglanilgan xatti-harakatni amalga oshirish va ta'sir o'tkazishning imkoni yo'q. Tushunish keng ko'lamdagi fanlar (psixologiya, filologiya, filosofiya, sosiologiya, tarix) tomonidan tadqiq etiladi. Tushunish muammosi bilan maxsus shug'ullanadigan germenevtika fani mavjud.

Tushunishning o'ziga xos alohida xususiyati shundan iboratki, inson o'zi tahlil qilayotgan narsa va hodisalarning ichki murakkab aloqalari, bog'lanishlarini aniq sezadi. Oldin mexanik ravishda o'zlashtirilgan, hatto ma'nosi anglanilmagan ma'lumotlar, sababiy bog'liqliklar tushunish tufayli mantiqan muayyan tartibga, bir xil mantiqiy tizimga keltirilishi mumkin. Masalan, matematik nazariyani dalillash, formulalarni, tabiatshunoslik bilimlarini tushunish xuddi shu tariqa kechadi.

Inson hodisalarning mohiyatini va o'zaro bog'liqliklarini mantiqiy vositalarsiz aniq his qila oladi. Bunda hodisa individning maqsadi bilan uyg'unlashib ketadi, uning maqsadga muvofiq aks etishini ta'minlaydi. Jumladan, boshqa kishining xulqini, uning fikri va harakat motivini tushuna oladi. Ijtimoiy madaniyat, tarixiy voqyealar, obidalar, yozma yodgorliklar mohiyatini individ xuddi

[21] Загадка человеческого понимания. – М.: 1991. С. 17.
[22] Хайдегер М Бытие и время и. -М.: Ad Marginem, 1997. –С.41.

shu asnoda tushunib yetadi. Hayvonlar tabiati, hodisalar to'g'risidagi taassurotlar bilan hozirgisining o'zaro o'xshashligini tez tushunish imkonini beradi.

Matnni «ma'naviy madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi» deb tushunishdan kelib chiqib, matnlarda obyektivlashgan subyektiv ma'nolarni predmetlashtirish, «ular orqali odamlarning ovozlarini eshitish» va ular yordamida o'tgan zamonlar, boshqa madaniyatlarning «ruhi»ga kirib borish ijtimoiy-gumanitar bilimning muhim metodologik muammosidir.

Xullas, birinchidan, har qanday matn – uni har xil tushunish va talqin qilishlar manbai. Muallifning matnni tushunishi – mana shunday tushunishlarning biri. Asar bir paytning o'zida bir nechta ma'noga ega bo'ladi. Uning ramziyligi ham ana shundadir. Zotan, ramz obraz emas, balki ma'nolar to'plamidir. Shuning uchun ham matnni tushunish unga asar (matn, san'at asari va sh.k.) muallifi, shuningdek talqin qiluvchi joylagan ma'nolar bilangina cheklanishi mumkin emas. M.M.Baxtin ta'biri bilan aytganda, tushunish yaxshiroq bo'lishi mumkin va lozim, u matnni to'ldiradi, faol ijodiy xususiyat kasb etadi. Ammo matnni tushunish uni talqin qilishning muayyan tarixiy sharoitlariga bog'liqligi uni sof psixologik va subyektiv jarayonga aylantirmaydi.

Ikkinchidan, serma'nolilik birdan va darhol namoyon bo'lmaydi, chunki ma'nolar yashirin, potensial mavjud bo'lishi va faqat kelgusi davrlarda rivojlanish uchun qulay sharoitlarda o'zini namoyon etishi mumkin.

Uchinchidan, tarixiy rivojlanish jarayonida matnning ma'nosi o'zgaradi. Har bir davr – ayniqsa, buyuk asarlarda – yangi nimadir kashf etiladi. Yangicha tushunish eski ma'noni bekor qiladi, unga qayta baho beradi.

To'rtinchidan, matnni tushunish – tayyor natija emas, balki dialektik jarayon, turli madaniy dunyolar dialogi, «o'zining – o'zganing» (Baxtin) ma'nolari to'qnashuvi natijasi, matnlar, shaxslar va madaniyatlar dialogi.

Beshinchidan, o'zga madaniyatga oid matnni tushunish – hozirgi madaniyatimizda tug'ilayotgan savollarga javoblar topish demak.

Madaniyat – tayyor narsalar yoki qadriyatlar to'plami emas, balki ularni o'zlashtirish, ulardan foydalanish, insonning hayoti va ijodiy faoliyati jarayonlarida ishtirok etish bilan bog'liq faol jarayon. O'z navbatida, ijtimoiy-madaniy voqyelikni bilish mazkur tayyor mahsulotlar dunyosini bevosita aks ettirishdan ham ko'ra ko'proq ularning orqasida turgan narsalarni, ya'ni inson ma'nolari va mazmunlari dunyosini aks ettirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy bilish matnli xususiyatga ega bo'lgani tufayli ijtimoiy fanlarda semiotika muammosi alohida o'rin egallaydi.

**Semiotika** (*yunon. belgi, alomat) – belgilar va belgili tizimlarning xossalarini o'rganuvchi fan. Belgi xabarlar (axborot, bilim)ni ifodalash, saqlash va qayta ishlash vositasi sifatida amal qiluvchi moddiy predmet (hodisa, voqyea)dir.* Til belgilari (muayyan belgilar tizimiga kiruvchi belgilar) va tilga oid bo'lmagan belgilar, ularning orasida esa – nusxalar, alomatlar va simvollar farqlanadi. Tabiiy va sun'iy tillarning belgilari ham mavjud. Belgili tizimlarga tabiiy tillar (so'zlashuv tillari), ilmiy nazariyalarning gaplar tizimi, sun'iy tillar, avtomatlar uchun dasturlar va algoritmlar, tabiat va jamiyatdagi signallar tizimlari misol bo'lishi mumkin.

Belgili tizimlar sifatida tasviriy san'at, teatr, kino va musiqa «tillari», shuningdek kibernetika nuqtai nazaridan tahlil qilinuvchi har qanday murakkab boshqaruv tizimlari: mashinalar, dastgohlar, asboblar va ularning sxemalari, jonli organizmlar va ularning ayrim kichik sistemalari (masalan, markaziy nerv sistemasi), ishlab chiqarish va ijtimoiy birlashmalar va umuman jamiyat qaralishi mumkin.

Belgi inson ongida ifoda yoki simvol tarzida aks etadi. Madaniyat dunyosi «fiksiyalar dunyosi» emas, balki simvolik shakllar dunyosidir.

**Simvol** *(yunon. – ramz, shartli belgi) – bu: 1) fanda (mantiq, matematika va b.) belgi; 2) san'atda – ilohiy obrazning uni anglash, ifodalash yoki muayyan badiiy obraz nuqtai nazaridan tavsifi*. Allegoriyadan farqli o'laroq, simvolning ma'nosi uning obrazi strukturasi bilan uzviy bo'lib, o'z mazmunining cheksiz ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi.

*Simvol – moddiy narsalar va jarayonlarning belgi yoki obraz tarzida ifodalangan ideal mazmuni.* Simvolning mohiyatini formal mantiq doirasida aniq ta'riflash mumkin emas. U idrok

etuvchi subyektning faoliyatiga mo'ljallangan serma'no tizimdir. Simvolik faoliyat inson ongiga xos. Nemis faylasufi – neokantchi Kassirer fikriga ko'ra, «inson simvolik hayvondir»; til, mif, din, fan «simvolik shakllar» bo'lib, ularning vositasida inson o'zini qurshagan muhitni tartibga soladi. Simvolning ma'nosi faqat odamlar muloqoti doirasida amalda mavjud bo'ladi. U qancha serma'no bo'lsa, shuncha boy mazmun kasb etadi. Simvol strukturasining o'zi ayrim hodisa orqali dunyoning yaxlit obrazini tavsiflashga qaratilgandir.

Shunday qilib, gumanitar bilish shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, subyektiv dunyoni uning matnlar, belgilar va simvollar, xullas, til tarzida amal qiluvchi tashqi obyektiv omillarini tahlil qilish orqaligina aniq bilish mumkin. Til ong va madaniyatning bevosita borlig'i bo'lib, ijtimoiy fanlar faqat undan kelib chiqishi mumkin. «Matn», «belgi», «ma'no», «simvol», «til» va «nutq» kabi tushunchalarsiz ijtimoiy-gumanitar bilim to'g'risida hatto so'z yuritish ham mumkin emas.

Biroq bunda ijtimoiy-madaniy hodisalarni to'la formallashtirish, shuningdek buni formal belgili tizimlarning qat'iy doirasiga sig'dirish mumkin emasligini e'tiborga olish lozim. Bu holda simvol formal belgidan boyroq va teranroqdir, chunki ikki (va ko'p) ma'nolilik, nomuayyanlik, noaniqlik va hatto sirlilikka yo'l qo'yadi.

**Dialog** ijtimoiy bilishda (suhbat, so'zlashuv) muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, dialog qadim zamonlardayoq muammolarni dialektika yordamida bayon etish uchun foydalaniluvchi adabiy shakl sifatida mashhur bo'lgan (Suqrot va Platon uni oliy shakl darajasiga ko'targan). Dialog haqida so'z yuritganda Nikolay Kuzanskiy asarlarini, Galileyning «Dunyoning ikki bosh tizimi – Ptolemey va Kopernik tizimlari haqida dialog» asarini, dialog mazmunni yaratish usuli hisoblanuvchi Uyg'onish davrining gumanistik madaniyatini va Gadamerning «savol-javob metodi»ni esga olmaslik mumkin emas.

Yunonchadan tarjimada dialog ikki yoki bir necha shaxs o'rtasidagi suhbat, ular o'rtasidagi yozma tarzda qayd etilishi mumkin bo'lgan og'zaki muloqot shakli degan ma'noni anglatadi. *Dialog murakkab, rang-barang mazmunga boy va tushunish bilan uzviy bog'liq o'zaro aloqa shaklidir. Dialogda insonning ikki tabiiy intilishi: aytish va o'zini eshitishlariga erishish, shuningdek tushunish va tushunilishga intilish ro'yobga chiqadi.* O'z-o'zidan ravshanki, buni amalga oshirish usuli falsafani amalga oshirish usuliga o'xshashdir. Shu sababli bu usulni izlash falsafaga, aniqrog'i uning asoslari, ya'ni antik falsafaga murojaat etishni nazarda tutadi.

Antik davrda nafaqat boqiy falsafiy masalalar qo'yilgan, balki bu masalalarni yechish usuli ham yaratildi. Bu usul dialogdir. Dialog muammosining o'zi ham «boqiy masalalar»dan biri sifatida namoyon bo'ladi. Butun falsafiy va ilmiy tafakkur tarixi mobaynida bu masalaga murojaat etish o'zining turg'unligi bilan ajralib turadi.

Tushunish jarayoni doim dialog ko'rinishini kasb etadi, chunki tushunish muloqot (ko'pincha bilvosita muloqot) bilan uzviy bog'liq bo'lib, «subyektlar uchrashuvi»ni nazarda tutadi. Tushunish – bu doim shaxslar, matnlar, fikrlar, madaniyatlar va hokazolar dialogidir. So'nggi yillarda ijodiy fikrlash va tushunish asosi sifatidagi dialog muammolariga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bu bejiz emas. Zero, Baxtin ta'biri bilan aytganda, dialogik munosabat, inson nutqi va hayotining barcha munosabatlari va ko'rinishlarini, umuman, ma'no va mazmun kasb etuvchi hamma narsalarni qamrab oluvchi universal hodisadir.

Subyektlarning bir-birini bilishi va o'zaro til topishi aynan dialogda amalga oshadi. Bu jarayonda ikki subyektiv dunyoning har biri o'z teran ma'nolarini namoyon etadi. Ijtimoiy fanlarda dialog mantiqi ko'p jihatdan eksperiment o'rnini bosadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Davrimizning ko'pgina muammolarini yechishda dialog muhim rol o'ynaydi. Bu ijtimoiy tafakkur sohasida ham o'z aksini topadi. Bu yerda uning ahamiyati shundaki, ikki odam uchrashib, o'zaro fikr almashar ekan, ikki dunyo, ikki dunyoqarash bir-birining qarshisida namoyon bo'ladi va ularning birortasi ham shak-shubhasiz haqiqiy hisoblanmaydi. Har kim bu dunyo haqida o'z so'zini aytish huquqiga egadir.

So'nggi davrda har xil sabablarga ko'ra so'zlash, bahslashish, og'zaki tarzda munozara qilish «san'ati» yana birinchi o'ringa chiqmoqda. Natijada ritorikaga qiziqish tiklanmoqda, yangi og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. *An'anaviy ritorika nutq orqali muloqot qilish modeli sifatida qayerda, qachon, nimani va qanday so'zlash lozimligini belgilovchi*

*ancha izchil tizim (notiqlik san'ati nazariyasi)dir.* Ritorika sohasidagi hozirgi tadqiqotlar bunday tor talqin doirasiga sig'maydi va samarali muloqot shartlari, shakllari, qoidalari va tamoyillari nazariyasini tashkil etadi.

Bugungi kunda dialog mantig'ini tuzish yo'li fundamental xususiyat kasb etadi. Dialog mantig'ini tuzish deganda oqilona dialogning har xil modellari nazarda tutiladi. Bu modellar oqilona bo'lmagan dialoglarni (va ijtimoiy og'zaki muloqotning boshqa usullari va shakllarini), ularning ishtirokchilari xulq-atvorini ham o'rganish va muloqot jarayonlarining normativ kodekslarini shakllantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy-gumanitar bilishda dialogning muhim rolini qayd etar ekanmiz, boshqacha yondashuvlar bilan asosli munozarada haqiqiy dialog o'z nuqtai nazarining ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda katta mas'uliyat va o'ta faollikni nazarda tutishini aniq tasavvur qilishimiz lozim.

**Tushuntirish.** Tushunish bilan bir qatorda, – tushuntirish ham mavjud. *Tushuntirishning bosh maqsadi – o'rganilayotgan predmetning mohiyatini, rivojlanish sabablari, shartlari va manbalarini, harakat mexanizmlarini aniqlashdan iborat.* Tushuntirish odatda tavsiflash bilan chambarchas bog'liq va ilmiy bashoratning negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham tushuntirish deganda umumiy tarzda muayyan hodisani umumlashtirishni tushunish mumkin. Tushuntirish obyektning mohiyatini ochib berish bilan birga, tushuntirishni asoslashda foydalanilgan bilimlarga aniqlik kiritish va ularni rivojlantirishga ham ko'maklashadi. Xullas, tushuntirish vazifalarini hal qilish ilmiy bilim va uning konseptual apparati rivojlanishining muhim stimulidir.

Ilmiy tushuntirishning deduktiv-nomologik modeli ilmiy bilishning hozirgi metodologiyasida keng qo'llaniladi. Bu model (sxema) tushuntirilayotgan hodisani ma'lum qonunga bog'laydi – uning asosiy xususiyati ana shunda. Mazkur modelda tushuntirish hodisani qonunlardan keltirib chiqarishni nazarda tutadi. Bunda muntazam va zarur munosabatlarning nafaqat sababiy, balki funksional, strukturaviy va boshqa turlariga ham qonunlar deb qaraladi. *Tushuntirishning deduktiv-nomologik modeli fandagi real tushuntirish jarayonini emas, balki pirovard natijanigina tavsiflaydi.*

Gumanitar, ijtimoiy fanlar sohasida oqilona tushuntirish usuli qo'llaniladi**.** *Oqilona tushuntirishning mohiyati shundan iboratki, ma'lum tarixiy shaxsning qilmishini tushuntirishda tadqiqotchi mazkur subyektning ayni qilmishiga nima turtki berganligini aniqlash va ushbu motivlar nuqtai nazaridan qilmish oqilona bo'lganligini ko'rsatib berishga harakat qiladi.*

*Teleologik yoki intensional tushuntirish harakatning oqilonaligini emas, balki harakat qilayotgan shaxs ko'zlagan maqsadni, tarixiy hodisalar ishtirokchilarining niyatini ko'rsatib beradi.* Mashhur faylasuf va mantiqchi G.X.fon Vrigt fikriga ko'ra, teleologik tushuntirish «inson haqidagi fan metodologiyasida uzoq davr yetishmagan va qonun orqali tushuntirish modelining haqiqiy muqobili bo'lib xizmat qiladigan tushuntirish modelidir»[23].

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, birinchidan, deduktiv-nomologik model (sxema)ga ba'zan tushuntirishning birdan-bir ilmiy shakli deb qaraladi. Vaholanki, bu noto'g'ri (ayniqsa, gumanitar fanlarga tatbiqan). Ikkinchidan, ayrim shaxslarning xulq-atvorini tushuntirishda mazkur modelni qo'llash mumkin emas – bu yerda rasional va intensional sxemalar amal qiladi.

Ijtimoiy bilishda bu ikkala sxema deduktiv-nomologik tushuntirishga nisbatan ustun turadi. Deduktiv-nomologik tushuntirish gumanitar fanlarda ham qo'llaniladi, ammo bu yerda u tabiatshunoslikdagi singari muhim o'rinni egallamaydi.

**Tushuntirish va tushunishning o'zaro nisbati**. Tushunish va tushuntirish bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ammo tushunish tushuntirishni, ya'ni o'rganilayotgan hodisani qonunga va sababga bog'lashni nazarda tutmasligini unutmaslik kerak. Bundan tashqari, tushunishni tushuntirishga qarama-qarshi qo'yish, shuningdek inson bilish faoliyatining har qanday sohasida faoliyat ko'rsatuvchi va bir-birini to'ldiruvchi bu ikki tadqiqotlarni bir-biridan ajratish mumkin emas.

---

[23] Вригт Г.Х. фон. Логико-философские исследования. – М.: Наука, 1986. – С. 64.

Ularni farqlab, M.M.Baxtin shunday deb yozgan edi: «Tushuntirishda faqat bir ong, bir subyekt, tushunishda esa – ikki ong, ikki subyekt qatnashadi. Obyektga nisbatan dialogik munosabat bo'lishi mumkin emas, shuning uchun ham tushuntirish dialogik jihatlarga ega emas (formal-ritorik jihatdan tashqari). Tushunish har doim ma'lum darajada dialogik xususiyatga ega»[24].

Tushuntirish va tushunish (talqin qilish)ning o'zaro nisbati to'g'risida so'z yuritar ekan, Vrigt mazkur tushunchalarni farqlagan ma'qul deb ko'rsatadi. Bu farqni u quyidagilarda ko'radi: «Bu nima?» degan savolga javob berish talqin qilishning natijasidir. Aytaylik, namoyish nima uchun sodir bo'ldi yoki inqilobga nima «turtki» berdi?, degan savollarga javob berar ekanmiz, biz sodir bo'layotgan hodisalarni nisbatan tor ma'noda tushuntirishga harakat qilamiz.

Bundan tashqari, bu ikki omil o'zaro bog'liq va ma'lum tarzda bir-biriga tayanadi... Bir darajadagi tushuntirish ko'pincha dalillarni yanada yuqori darajada talqin qilishga zamin hozirlaydi»[25].

Ammo ijtimoiy bilishda, avvalambor, uning predmeti xususiyati bilan belgilanuvchi tushunish metodikalari, tabiatshunoslikda esa – tushuntirish metodikalari ustun qo'yiladi.

**Xulosalar.** Tushuntirish – insonning hamkorlik faoliyatida bilish jarayonlari obyektiga kirgan narsa va hodisalarning mohiyatini fikr uzatish, o'zaro ta'sir o'tkazish, ta'sirlanish, muloqot, taqlid yordami bilan oydinlashtirish, xotiradagi bilimlar va ijtimoiy tajribalar bilan ularni uyg'unlashtirgan holda tushunish sari yetaklovchi aqliy faoliyat. Tushuntirish hamkorlik faoliyatida (fikrni izohlovchi – fikrni qabul qiluvchi ishtirokida) individual, trialogik, polilogik shakllarida amalga oshiriladi. O'zining muddati, ko'lami, uzatish vositalari, verbal va noverbal nutq turlari ustuvorligi bilan bir-biridan farq qiladi.

## 9-mavzu: Jamiyatning falsafiy tahlili. Hozirgi zamon falsafasida ijtimoiy jarayonlar tahlili

**Reja:**

1. Jamiatning falsafiy taxlili
2. Fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat jamiyati
3. Tarix falsafasining predmeti
4. Inson to'g'risidagi ta'limotlar. Inson hayotining ma'nosi
5. Qadriyatlar falsafasi

### Tayanch tushunchalar

Inson, shaxs, individ, antropologiya, inson — biologik mavjudot, inson — ijtimoiy mavjudot, inson faolligi, inson qadri, shaxs erkinligi, burch, inson ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadi, ideallari, inson huquqi, barkamol inson.

Jamiyat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy uyushma, davlat, sivilizasiya, taraqqiyot, milliy davlatchilik, taraqqiyotning o'zbek modeli, jamiyat tarkibi, fuqarolik jamiyati, oila.

**ADABIYoTLAR**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston», 1997.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., «O'zbekiston», 1997.

[24] Бахтин М.М. Автор и герой. К философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Питер, 2000. – С.306.

[25] Вригт Г.Х. фон. Логико-философские исследования. – М.: Наука, 1986. – С.164.

3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. – T., «O’zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., «O’zbekiston», 1999.
5. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., O’zbekiston, 2000.
6. Osnovы filosofii.– T., «O’zbekiston», 1998.
7. Falsafa kursining ayrim masalalari. – «Farg’ona», 1994.
8. Falsafa kursining ayrim masalalari (T. Sharipov tahriri ostida). — «Farg’ona», 1994.
9. Falsafa. — T., «Sharq», 1999.
10. M. Ahmedov. Falsafa. Shquv qo’llanma. T., 2007.

**Inson — falsafaning bosh mavzusi.** Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o’rni falsafiy muammolar tizimida muhim o’rin tutadi. Turli falsafiy ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo’lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o’zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro’yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning «O’zligingni bil» degan hikmatli so’zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug’ mutasavvuf Abdulxoliq G’ijduvoniy insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada baxs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo’lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og’irini yengil qilmasa, unday fanning keragi bormikan? Shu ma’noda, inson, avvallo, o’zi uchun zarur bo’lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.

Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizasiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo’lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog’liqdir.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o’rganadi. Inson shunday murakkab va ko’p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma’nodosh bo’lsa ham, bir-biridan farqlanadi.

Inson — o’zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanish, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan sosial xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, boshqarish, o’z-o’zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va ta’qiqlash) shular jumlasidandir.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g’am-tashvish, qayg’u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o’z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta’minlaydi. Insonga xos bo’lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo’yish yoki psixologik xususiyatlarni bo’rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Falsafa tarixida inson to’g’risidagi ta’limotlarda biologizm, sosiologizm, psixologizm kabi yo’nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sosiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa, ma’naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga bir yoqlama yondashishga asoslangan edi.

Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir — biridan farqlash muhimdir. **Shaxs** o’zida sosial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo’lib tug’ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo’lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlar, fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo’l bilan o’tmaydi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum,

madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo'ladi.

Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura kabi omillar ta'sirida yashaydi, ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilat va sifatlar paydo bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir. Shaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo'lida hatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadiga aylanadi.

Shaxs mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Jamiyat o'z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o'zgargan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda harizmatik, shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shaxslar timsoli aks ettirilmoqda.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi.

**Inson tarixning yaratuvchisi** sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashi barcha ijobiy va foydali yutuqlarni saqlashi va targ'ib etishi kabi xususiyati va qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Antropologiya insondagi insoniylikning namoyon bo'lishi va rivojlanishini ruh bilan bog'laydi. Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo'lgan biror-bir xususiyatga alohida urg'u bergan va shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Masalan, I. Kant insondagi axloqiy jihatlarga ko'proq e'tibor bergan va uni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudot sifatida ta'riflagan. Vladimir Solovyev insonning boshqa mavjudotlardan farqini uyalish, achinish va oliy kuchlarga sig'inish kabi xususiyatlarda, deb bilgan. Uning fikricha, inson o'zining tuban mayllari va gunohlaridan uyalish qobiliyatiga ega. Faqat odamlarga emas, balki butun tirik jonga achinish va muqaddas kuchlarga sig'inish insongagina xos.

Inson tabiati — g'oyat murakkab. Unda hayvoniy va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u — hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma'naviyat uni boshqa mavjudotlardan yuqori darajaga ko'taradi.

Insonni o'rganadigan fan — antropologiya deb yuritiladi.

**Antropologiya** inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o'rnini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to'laroq ochish uchun «men», «ong», «shaxs», «ruh» tushunchalari qo'llanadi. «Men» — insonning o'zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashidir. «Men» ong tufayligina o'zini boshqa borliqdan farqlaydi. Boshqa narsalar insonga begona voqyelik bo'lib tuyuladi. Shaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi.

Inson o'z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig'ining birlamchi sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma'nosi faqat moddiy ne'matlardan bahramand bo'lish, tanparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo'yishdan iborat emas. Inson ruhi ham o'ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. Shu bois unda ma'rifatparvarlik, odamiylik,

odillik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, olihimmatlik, vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlar shakllanadi. Yuksak ma'naviyat insonni ruhan poklaydi, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonni ma'naviy-ruhiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgandir.

Insonning ma'naviy ehtiyojlarini uning tabiiy-moddiy manfaatlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash ham biryoqlamalikka olib kelishi, yetilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkura insonga biryoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy — badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo'lishini inkor etmaydi. Aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bo'lishga rag'batlantiradi. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat o'rnatib, saxiy va olihimmat bo'lishga undaydi.

Antropologiya insonning ma'naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali olam mohiyatini bilish mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Islom Karimov ta'rifiga ko'ra, ma'naviyat (ruh) insonni axloqan poklaydigan, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydigan, ezgulikka undaydigan botiniy kuchdir. Yuksak ma'naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir. Insonning olijanob fazilatlari yetuk shaxslar timsolida o'z aksini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan mafkurani amalga oshirishida yaqqol ko'rinadi.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoit, ayniqsa, g'oya va mafkura muhim o'rin tutadi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida vujudga kelgan muammo va vazifalar yangi barkamol insonni voyaga yetkazishni taqozo etdi. Unga xos fazilat va sifatlar Prezident Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to'laroq qondirish, uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bular quyidagilardir:

- mehnatni tashkil etish usul va shakllarining o'zgarganligi;
- mehnatga yangicha munosabatni rag'batlantirishga yordam beruvchi omillar;
- o'z qobiliyati, qiziqishlariga mos bo'lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilganligi;
- shaxs tadbirkorligi va ishbilarmonligining qo'llab-quvvatlanishi;
- turli mulk shakllarining vujudga kelganligi;
- shaxs erki va huquqlarining kengayganligi;
- davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilganligi;
- demokratik qadriyatlar rivoji;
- ma'naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkoniyatining yaratilganligi kabilardir.

Ular shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatlari, uning ezgu maqsadlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilgandir. Shaxs islohot natijalaridan bahramand bo'luvchigina emas, balki ularni sobitqadamlik bilan amalga oshiruvchi kuch sifatida ham yangilanish jarayonida o'zgaradi, yuksaladi, qadr-qimmat topadi va e'zozlanadi.

Insonning jamiyatidagi o'rni, qadr-qimmati borasida milliy istiqlol o'z oldiga quydagilarni maqsad va vazifa qilib qo'yadi:

- insonning qadr-qimmatini joyiga qo'yish;
- inson uchun baxtli hayot sharoitlarini yaratish;
- insonning o'zligini anglashi, ijtimoiy burch va vazifalarini ado etishi, sog'lom avlodlar uzluksizligini ta'minlashi, kelgusi avlodlarga yaxshi xotiralar qoldirishi va iymon-e'tiqodi butun bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratish.

Bunday imkoniyatlarni amalga oshirishga xalaqit beradigan nuqsonlar ham inson tabiati bilan bog'liqdir. Hozirga qadar inson to'g'risidagi falsafiy ta'limot va qarashlarda, asosan, uning ijobiy

xususiyatlariga, yaratuvchanligiga ko'proq e'tibor berib kelindi. Keyingi vaqtlarda inson borlig'ining salbiy jihatlari ham tahlil qilina boshlandi.

Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o'rganish va undagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga ehtiyoj vujudga keldi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me'yorlarni poymol etib, ko'proq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. Shunday niyatlar yo'lida hatto jinoiy guruhlarga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladilar. Shuningdek, ular milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka raxna soladi, ma'naviy-axloqiy muhitni buzadi, kishilarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini susaytiradi, barkamol insonni voyaga yetkazishga qarshilik ko'rsatadi. Ular turli ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi firibgarlar, hokimiyatga intiluvchi ekstremistlar, korrupsiya va jinoyatchilik olami vakillari, giyohvand, poraxo'r, terrorchi va shuhratparastlar kabi jamiyat uchun noxush odamlardir.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

**Shaxs erkinligi** va tarixiy zarurat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiyot yo'lida paydo bo'lgan qiyinchilik va muammolar mohiyatini anglash shaxsni o'z bilimi va mahoratini oshirishga, yuksak g'oyalarga sodiq bo'lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida inson qobiliyatlari to'laroq namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida kishilarning boy va qashshoq guruhlarga ajralishi tabiiy qonuniy jarayondir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati — aholining muayyan qismining ijtimoiy himoyalanishida, ko'p bolali oilalar, nafaqaxo'rlar, talabalar va nogironlarning davlat tomonidan himoyalanishida, ijtimoiy adolatning qaror topishida yaqqol namoyon bo'lyapti. Kishilarning boqimandalik kayfiyati, tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishlari, o'zgargan yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari, o'z bilimi va mahoratini oshirishlari uchun g'amxo'rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik yo'nalishga ega ekanligidan dalolat beradi. Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tamoyili Prezident I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o'zbek modelining muhim jihatlaridan biridir.

Inson mohiyatini falsafiy bilish ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Inson falsafasi har bir yangi tarixiy davrda inson mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Insonga xos xususiyat va fazilatlarni bilish orqali talaba o'zida shunday sifatlarni shakllantirishga intiladi.

Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish va umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarni egallash orqali O'zbekistonda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari uyg'unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishimizning bosh mezoni va uning oldida turgan muhim vazifadir.

**Jamiyat nima?** Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizasiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi.

**Jamiyat** — tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik

tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Prezident Islom Karimovning qator asarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi.

Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Moddiy hayot tadqiqiga ko'proq e'tibor berilar. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyot asosi ekani ta'kidlangan. Inson ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaydi, balki, aksincha — ilmsiz bo'lgani uchun qashshoq bo'ladi. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta e'tibor berilyapti.

**Jamiyatning vujudga kelishi.** Kishilarni oila bo'lib, jamoa bo'lib uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardanoq ulug' mutafakkirlar e'tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish — uni ilohiy kuch, xudo bilan bog'lab izohlashdir.

Dunyoviy qarashlarga ko'ra, odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo'lib birlashishga ko'nikkan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo'lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o'zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma'naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so'z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qoldirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

**Insonning moddiy ehtiyojlari** oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oya, mafkura go'zallik bilan, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uyg'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qoldirish imkoniga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi.

**Jamiyatning moddiy hayoti**ga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikasiya vositalari;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;
- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

**Jamiyatning ma'naviy hayoti**ga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatning kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug'ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o'ziga xos o'rin egalaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shadi.

**Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi nazariyalar.** Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Hyegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama va xato ekanini ko'rsatdi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizasiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

**Barqarorlik** – jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ruyobga chiqarilib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud siyosiy tuzum kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini hayotga tadbiq etadi. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan, aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o'tgan.

**Beqarorlik** ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy davlatchilik asoslarini

mustahkamlash, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlash, rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

**Taraqqiyotning o'zbek modeli** – jamiyatning tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

Ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo'ldan — inqilobiy va tadrijiy yo'ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evalyusion) taraqqiyoti barqaror — tabiiy rivojlanish yo'li ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini shunday izohlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashlarsiz, evalyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchilik bilan — bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir»[26].

O'zbek modelning asosiy tamoyillari quydagilardir:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy himoyalash;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishi va boshqalarda o'z ifodasini topmoqda.

O'zbek modelining hayotiyligi jahon jamoatchiligi tamonidan e'tirof qilindi. O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi, inson intelektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Jamiyat va oila.** Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotining mavqyei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasligi o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ulu² mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqyei bilan belgilanishini alohida ta'kidlaganlar. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan ayolning ma'naviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liqdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqyei va rolini kuchaytirishga qaratilgandir.

---

[26] Каримов И.А. ¤збекистоннинг гз истиiлол ва тараiиёт йгли. - Т.: ¤збекистон, 1992. 41 - бет.

Oila muammolarini ilmiy asosda o’rganilganligi va ularni oqilona hal etishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berayotganidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida o’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimiz xususiyatlariga mos bo’lgan yangi alifboga o’tish uning mavqyeini oshirish va yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa, o’z navbatida, ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

**Davlatning jamiyat hayotidagi o’rni** va ahamiyati. Davlat – jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma’naviy taraqqiyotining muhim yutug’idir.

Jamiyat ma’naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi.O’zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an’analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o’zbek modeli konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o’rin tutadi. Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o’tishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko’rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg’armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo’mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish — O’zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. **Fuqarolik jamiyati** kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko’pqirrali aloqasi bo’lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o’zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o’ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O’zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ydi.

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o’z-o’zini boshqarish organlari qo’liga o’ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o’z-o’zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o’z-o’zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro’yobga chiqarish maktabidir.

Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O’z navbatida, ma’naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shadi. Shunday yetuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to’g’risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o’zlashtirish va hayotga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

**Takrorlash uchun savollar**

1. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzusi deb qaraladi?
2. Shaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Antropologiya fanining ma’nosi va vazifalari nimalardan iborat?

4. Inson tanasi va ruhining o’zaro bog’liqligi va ular o’rtasidagi farqlar nimalarda namoyon bo’ladi?

5. Istiqlolning insonparvarlik mohiyati nimalarda ko’rinadi?

6. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?

7. Jamiyatga xos belgilarni sanang.

8. Jamiyatning kelib chiqishi to’g’risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?

9. Fuqarolik jamiyati nima?

9. Jamiyatning rivojlanishida ma’naviyat qanday o’rin tutadi?

10. Jamiyatning tadrijiy rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?

## 10-MAVZU: FAOLIYAT, IJTIMOIY PROGNOZLASH HAMDA GLOBALLASHUVNING FALSAFIY MASALALARI

**Reja:**

1. Faoliyat tushunchasi. Faoliyatning turlari
2. Ijtimoiy bashorat tushunchasi: uning turlari va metodlari
3. Globallashuv tushunchasi. Global muammolar globallashuvning oqibati sifatida
4. Global muammolarni hal qilish yo’llari

**Tayanch iboralar**

Umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy muammolar tushunchalari; demografiya; ekologiya; ekologik tanazzul; ekosistema; demografik portlash; demografik siyosat; futurologiya.

**ADABIYoTLAR**


1. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – T., «O’zbekiston», 1997.

2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T., «O’zbekiston», 1999.

3. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman «Fidokor», 2000 yil 8 iyun.

4. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O’zbekiston», 2000.

5. Каримов И.А. Биз доим тарихдан сабоқ чиқариб, тинчликни қадрлаб, ғурур-ифтихор билан яшайдиган халқмиз. Т. Ўзбекистон. 2014.

6. Каримов И.А. Она юртимиз бахту истиқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т. Ўзбекистон. 2015.

7. Karimova G. Politiko-ekonomicheskiye reformы v Uzbekistane: realii i perspektivы. T., 1995.

8. Pechchei A. Chelovecheskiye kachestva. M. 1985.

9. Mamashokirov S. Ekologik ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. T., 1993.

10. Б.Очилова., Ғ. Ўсаров. Фуқаролик жамияти асослари. Т. 2014.

11. С.Кистаубаев., М.Лапасова. Инсон ва табиат муносабатлари диалектикаси. – Т.: Наврўз, 2015.


**1.Praksiologiya** (yunon. praktikos – faol) – falsafaning inson faoliyatini o’rganishga bag’ishlangan bo’limlaridan biri. Faoliyat tushunchasi inson borlig’ining tabiati va mohiyatini, uning shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini, inson ma’naviy dunyosi va moddiy amaliyot jabhasini teranroq tushunish imkonini beradi. Inson faoliyati o’ziga xos xususiyatga ega bo’lib, hayvonlar faolligidan butunlay farq qiladi. U individ va umuman jamiyat borlig’ining alohida usuli hisoblanadi.

Ijtimoiy yo’nalganligiga qarab faoliyatning turli fanlarda o’ziga xos xususiyatlari bo’ladi. Ijtimoiy falsafa shaxsning ijtimoiylashuvi, ya’ni jamiyat to’plagan tajriba, qadriyatlar va

me'yorlarni o'zlashtirish usuli sifatidagi faoliyat mazmunini yoritadi. Sosiologiyada faoliyat (ijtimoiy harakat) ijtimoiy organizmning subyektiv motivasiya va boshqalarga qarab mo'ljal olish bilan tavsiflanadigan hamda shaxs va jamiyatning aloqasini ta'minlaydigan hujayrasi sifatida qaraladi. Ontologiyada faoliyat inson borlig'i usuli bo'lib, unda odamzotning mohiyatini belgilovchi kuchlar ayniqsa to'la aks etadi. Bilish nazariyasida asosiy e'tibor bilishning negizi va bilimlarimiz haqiqiyligining muhim mezoni bo'lgan amaliyot sifatida tushuniladigan faoliyatga qaratiladi. Axloq va huquq falsafasida xohish-iroda erkinligi muammolari va inson faoliyatini tartibga solish usullari o'rganiladi. Inson faoliyatining madaniyat bilan aloqasi mazkur faoliyatning o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi muhim falsafiy muammolardan biridir. To'g'ri, inson yaratgan barcha narsalar ham madaniyatga mansub bo'lavermaydi, lekin ijodiy faoliyatsiz madaniyat mavjud bo'lishi mumkin emas. Yondashuvlarning bunday rang-barangligi tasodifiy bir hol emas, chunki inson faoliyati uning yashash omili hisoblanadi va odamzotning tabiatga, jamiyatga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari doirasini to'la qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, siyosat va boshqaruv, muloqot va bilish, badiiy ijod va falsafiy mulohaza yuritish, tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash – bularning barchasi faoliyatni insonning dunyoga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining universal shakli, shaxs va jamiyatning rang-barang ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida tavsiflaydi.

**Faoliyat tushunchasining mazmuni**. Falsafada faoliyat insonga xos bo'lgan va tashqi dunyoni oqilona o'zgartirishga qaratilgan faollikning alohida shakli sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy falsafada faoliyat ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi[1]. Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o'zaro o'tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o'zgartirishi va o'zi ham o'zgarishini anglatadi. Forobiy fikricha "inson faoliyatsiz turaolmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko'rsata olmaydi. Chunki o'z tabiatiga ko'ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko'radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi. Odamni hayvondan ajratadigan narsa- alohida iroda bo'lib, u ixtiyor deb nomlanadi"[2]. Ixtiyor – komillikka intilish va unga erishish sari harakat demakdir. Inson maqsadni ham, unga erishish vositalari, yo'lni ham bilib oladi. Natijada u o'z maqsadiga yetish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko'p narsani orzu qilib yashaydi, biroq ularning hammasiga ham ega bo'lmaydi. Shu bois haqiqiy baxtga u dunyoda erishiladi, oxiratda mutloq baxtga erishishga qaratilgan har qanday harakat – fazilatdir deb hisoblaydi.

XX asrning atoqli mutafakkiri E.Kassirer insonning eng muhim xususiyati, uning o'ziga xos belgisi metafizik yoki jismoniy tabiati emas, balki uning faoliyatidir, deb qayd etgan edi. Insoniyat sohasini aynan mehnat, faoliyat turlari tizimi belgilaydi. Kassirer til, mif, din, san'at, fan, tarixni inson faoliyati tizimining turli sektorlari sifatida qayd etadi. Insonni tushunish bu faoliyat turlaridan har birining teran qatlamlari haqida tasavvur hosil qilish va ayni vaqtda uni yaxlit bir butun organizm sifatida tushunish demakdir.

**Faoliyatning tuzilishi.** Faoliyatning umumiy tuzilishi ehtiyojlar bilan belgilanadi Insonning ehtiyojlari uning faollik manbai hisoblanadi. Hayot ehtiyojlari (insonning jonli mavjudot sifatidagi ehtiyojlari), ijtimoiy ehtiyojlar (ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari, shuningdek shaxsning jamiyatga moslashuv ehtiyojlari) va ma'naviy (ma'rifiy, diniy, axloqiy, estetik va sh.k.) ehtiyojlar farqlanadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi inson faoliyati turlarining rang-barangligini belgilaydi. Faoliyat turlarini tasniflash zamirida yotuvchi eng muhim omil u qaratilgan va faoliyat motivini tashkil etadigan predmetlar farqidir. Faoliyat motivsiz bo'lmaydi, «motivlashtirilmagan» faoliyat subyektiv pinhona motivga ega bo'ladi.

**Harakatlar va amallar**. Faoliyat harakatlardan tashkil topadi. Harakat alohida maqsadga, ya'ni erishilishi lozim bo'lgan natija haqidagi tasavvurga bo'ysunadigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Maqsad inson ongida ehtiyoj va motiv bilan faoliyat obyektiv holatlarining

---

[1] Фалсафа қомусий луғат.Назаров Қ. таҳрири остида. –Т.: Шарқ, 2004. –Б. 186

[2] Форобий Фозил одамлар шаҳри. -Т.: А Қодирий номидаги нашриёт, 1993 –Б.55.

nisbatlashuvi jarayonida yuzaga keladi. O'z navbatida, holatlar maqsadga erishish yo'llarini belgilaydi. Bular faoliyat shartlari bilan belgilanadigan amallar hisoblanadi. Shunday qilib, umuman faoliyat motiv bilan, harakat – maqsadlar bilan, amallar – shartlar bilan belgilanadi.

**Faoliyatning atributlari.** Inson faoliyati o'ta rang-barangdir. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, faoliyat turlarini tasniflash uchun asos bo'lib uning inson tomonidan o'zgartiriladigan obyekt: tabiat, jamiyat, insonning o'ziga qaratilganligi xizmat qiladi. Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo subyektlilik va moddiylik qayd etiladi.

**Subyektlilik va moddiylik.** Faoliyatning subyektliligi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va mo'ljallari, motivlari va maqsadlari, emosiyalari va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va hokazolar bilan belgilanadi. Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va uning qo'li bilan o'zgartiriladigan tabiat va jamiyat kuchlariga qaratilganini anglatadi. Ammo insonning o'zi, uning o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi va shaxs o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan tegishli harakatlar ham o'zgartirish faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin.

**Moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish**. Moddiylik faoliyat jarayoni va natijasining materialga bog'liqligini belgilaydi. Faoliyat natijasi inson oqilona o'zgartirgan materialda o'z aksini topadi, moddiylashadi (predmetga aylanadi). Faoliyat natijasi inson kuchlari va qobiliyatlarining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi. Nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi I.G.Fixte fikricha, "Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgudagi aksiga o'xshaydi"[27]

Moddiylashuv nima ekanligi haqida amalda tasavvur hosil qilish uchun chevar, g'isht teruvchi, ma'ruzachi va shu kabilarning ishini kuzatadigan bo'lsak, inson qanday ishlashi, uning faoliyati natijasida nima vujudga kelganiga qarab insonning o'zi haqida xulosa chiqarish, uning aql-zakovat darajasi, irodasi, kasbiy mahorati, estetik didi, mehnatga munosabati, axloqiy mo'ljallari va hokazolarni aniqlash mumkinligini ko'ramiz. Shu ma'noda faoliyat doim individ va umuman insoniyatning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi demakdir. Individning ijtimoiyligi aynan faoliyatda namoyon bo'ladi. Faoliyat orqali u ijtimoiy jarayon ishtirokchisiga aylanadi.

**Onglilik va maqsadga muvofiqlik**. Inson faoliyati oqilona, ongli va maqsadga muvofiq bo'ladi. «Oqilonalik – inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos bo'lgan jihat»[28], deb qayd etadi E.Kassirer. Oqilonalik insonning o'z faoliyati maqsadlarini aqlga muvofiq tarzda belgilash va ularni erkin va ongli boshqarish qobiliyatini anglatadi. I.G.Fixte inson tabiat kabi zaruriyat taqozosiga ko'ra emas, balki ongli niyat bilan ish ko'rishini ta'kidlaydi. Ayni shu sababli tabiat va jamiyatni o'zgartirish insoniyatning ma'naviy burchidir[29].

Onglilik va maqsadga muvofiqlik – inson faoliyatini hayvonlar faolligidan farqlash imkonini beruvchi muhim xossalardir. Ammo ular «sof ko'rinish»da mavjud bo'lmaydi. Shu sababli onglilik va maqsadga muvofiqlikka zid bo'lgan xossalarni inson faoliyatining talqini doirasidan chiqarish o'rinli bo'lmaydi. Xususan, insonning barcha faoliyati ham ongli bo'ladimi, degan savol ustida mulohaza yuritib ko'raylik. Amalda faoliyat ayrim ko'nikmalar shakllanishini nazarda tutadi (kasbiy mahorat esa aksariyat ko'nikmalarni avtomatizm darajasiga ko'taradi); faoliyatda anglanmaydigan mayllar, mo'ljallar, tajriba, o'tmishda (aksariyat hollarda – bolalikda) olingan taassurotlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Faoliyat «onglilik – ongsizlik» qarama-qarshiligining birligidir, deb aytish uchun asoslar mavjud. Ziddiyatli vaziyatlar – mutlaqo ongsiz va ongga butunlay bo'ysungan faoliyatni hayotda juda kam uchraydigan muayyan abstraksiya sifatidagina tasavvur qilish mumkin. Shuningdek, ongga to'la bo'ysunadigan harakat ko'pincha samarasiz bo'ladi.

---

[27] Қаранг: Фихте И.Г. Назначение человека. – СПб.:2006. – С.81.

[28] Кассирер Э. Опыт о человеке: введение в философию человеческой культуры // Проблема человека в западной философии. – М., 1988. – С.28.

[29] Қаранг: Фихте И.Г. Избр. соч. Т. 1. – М., 1916. – С.402.

**Faoliyatning unumliligi**. Inson faoliyati unumli, aksariyat hollarda amaliydir, lekin unumsiz ham, noamaliy ham bo'lishi mumkin. Masalan, rasm-rusumlarni bajarish unumsiz hisoblanadi (ammo ba'zan muayyan vazifalarni hal qilishga qaratilgan rasm-rusumlar amaliy xususiyat kasb etishi ham mumkin).

**Moddiy va ma'naviy faoliyat**. Moddiy faoliyatni soddalashtirib predmetlar bilan ish ko'rish sifatida, ma'naviy faoliyatni esa – predmetlarning obrazlari bilan ish ko'rish sifatida tasavvur qilish mumkin. Abstrakt mulohaza yuritish orqali moddiy va ma'naviy faoliyatni «sof ko'rinish»da, muayyan qarama-qarshilik sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo ma'naviyatdan xoli bo'lgan moddiy faoliyat behudadir. Ma'naviy faoliyat «sof ko'rinishda» mavjudmi? Obyektiv idealizm tizimida muayyan mutlaq va o'z-o'zidan rivojlanuvchi g'oya uning moddiy manbasidan tashqarida mavjud bo'lishi tan olinadi. Ammo insonning real hayotidagi ma'naviy faoliyati moddiy faoliyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi, amalda moddiy va ma'naviy faoliyat unsurlari turli darajada aks etgan faoliyat rang-barang shakllarining kontinuumi (lot. continuum – uzluksiz to'plam)gina mavjuddir.

**Moddiy va ma'naviy faoliyatning birligi** faoliyat jarayoni ham, uning natijasi ham moddiy-ashyoviy substrat va ma'naviy mazmunning muayyan sintezidan iborat ekanligini anglatadiki, bu uning natijalarini obyektiv tarzda, inson xohish-irodasidan qat'iy nazar, ramzlar, ya'ni insonning ma'naviy dunyosi haqidagi axborot manbalari tizimiga aylantiradi. O'z xususiyatiga ko'ra faoliyat muayyan ideal yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, chunki u moddiy ko'rinishda predmetni yaratadi, ramziy ko'rinishda esa ma'naviy mazmunni – shaxsning bilimlari, qobiliyatlari, axloqiy mo'ljallarini, uning mahorati va o'z kasbiga munosabatini, shuningdek o'z-o'ziga va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini vujudga keltiradi. Shu sababli tabiiy obyekt insonning o'zgartiruvchi faoliyati natijasida o'zlashtirgan xossalar ramziy tarzda amal qiladi. Shu ma'noda, inson nafaqat moddiy, balki ramziy olamda ham yashaydi.

**Muloqot faoliyat sifatida**. Mehnat qurollaridan foydalanish usullari, ularning vazifasi haqida axborot berish vositasi sanalgan o'ziga xos «til»ga qarab mo'ljal olish inson faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Insonni bu mehnat qurollari bilan ishlashga tayyorlash, chunonchi: tegishli ko'nikmalarni shakllantirish va eng muhimi – faoliyat tajribasi va usullarini o'rgatish ham zarur. Bu ish yo namoyish etish, o'rnak ko'rsatish yoki faoliyatda ishtirokchilik orqali bevosita, yo til yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muloqot insoniy munosabatlar, umuman jamiyat hayotining muhim tomoni hisoblanadi. Bu odamlar o'z hayotida yo'l-yo'lakay shug'ullanadigan alohida faoliyat turi, inson hayotining ovloq burchagi emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni yuz beradigan markazidir.

**Interiorizasiya tushunchasi**. Ong va faoliyatning aloqasi g'oyasining eng mukammal tavsifiga nemis klassik idealizmi namoyandalarining asarlarida duch kelish mumkin. Nafaqat, Fixte, balki Shelling va Gegel ham ma'naviy hodisalar sababini amaliyotda, odamlar faoliyatida izlagan. Xususan, Shelling amaliyotga, inson faoliyatiga odamzotning o'zini o'zi tabiatda gavdalantirishi, ya'ni obyektivlashtirishi sifatida yondashgan. U inson faoliyati natijasida ikki dunyo: tabiat dunyosi va inson dunyosi, ya'ni o'zgartirilgan insoniylashtirilgan tabiat dunyosi mavjud ekanligini qayd etadi. Dunyoga nisbatan harakatda Shelling umuman ong negizini ko'radi. Insonning insonga ta'sirini u ongning ikkinchi manbai deb hisoblaydi: aqlli mavjudotlarning tinimsiz o'zaro ta'siri ongning zaruriy omili hisoblanadi. XX asrda psixologlar aynan faoliyat shaxsning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish, uning qobiliyatlari, irodasi va ongini shakllantirish mexanizmi hisoblanishini tajriba o'tkazish yo'li bilan va ko'p sonli etnografik va tarixiy materialga asoslangan holda ko'rsatib berdilar. Individual va umuminsoniy rivojlanish jarayonida faoliyatning mustaqil sohasi sanalgan faollik ko'rinishlari murakkabroq madaniy tuzilmalarga qo'shilib, asta-sekin ong shakllariga aylangan. Sirtda birlamchi xususiyatga ega bo'lgan faoliyat sof ichki (interiorizasiyalashgan) xususiyat kasb etishi mumkin.

**Mehnat va o'yin faoliyat turi sifatida.** Odatda mehnat insonning mehnat qurollari yordamida tashqi dunyoga ta'sir ko'rsatish va oldindan mo'ljallangan natijaga erishishdan iborat maqsadga muvofiq faoliyati sifatida tavsiflanadi. Mehnat tushunchasiga nisbatan bunday yondashilgan taqdirda, olim, aktyor, pedagog, haykaltarosh, faylasuf faoliyati mehnat

hisoblanmaydi. Bugungi kunda unumsiz deb nomlash mumkin bo'lgan mehnat turlari mavjud emasligi aniq-ravshandir. Zero mehnat yaxlit jarayon bo'lib, insondan moddiy va ma'naviy kuch-g'ayrat sarflashni taqozo etadi. Inson va jamiyatning rivojlanishi jarayonida yuz bergan mehnat taqsimoti mazkur yaxlit jarayon parchalanishiga, jismoniy va aqliy mehnatning ajralishiga olib keldi. Ammo mazkur ajralish jismoniy mehnat insonning faqat jismoniy kuch sarflashi, uning muskullari harakati bilan bog'liq ekanligini anglatmaydi. Jismoniy mehnat inson ma'naviy, ruhiy va asabiy kuch sarflashini ham nazarda tutadi. Ammo jismoniy va asabiy kuch-g'ayrat ulushi jismoniy mehnatda ko'proq bo'ladi. Aqliy mehnat esa, hyech shubhasiz, insonning ma'naviy kuchlari, uning intellektual imkoniyatlaridan ko'proq foydalanishni nazarda tutadi. Ammo jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham o'xshash jihatlarga ega. Birinchidan, jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham muayyan qurollardan foydalanishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, mehnat oldindan mo'ljallangan natijaga erishishni nazarda tutadi. Uchinchidan, mehnat tabiat va jamiyat kuchlaridan foydalanmasdan yashay olmaydigan insonning muayyan ehtiyojlari bilan belgilanadi (chunki inson bioijtimoiy mavjudotdir). To'rtinchidan, jismoniy va aqliy mehnatning eng sodda omillari – mehnat predmetlari, mehnat qurollari va inson mehnatining o'zi umumiydir. Ammo mehnatning asosiy o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tashqi dunyoning insonga qarshi turuvchi kuchlarini moddiy va ma'naviy jihatdan o'zlashtirishni nazarda tutadi.

**Ijod.** Aksariyat odamlar ongida ijod tushunchasi faoliyatning hyech qanday rejalari va andozalariga bog'lab bo'lmaydigan sof shaxsiy jarayon bilan bog'lanadi. Ko'pincha u alohida odamlar, daholar anglash mumkin bo'lmagan tarzda ega bo'ladigan qandaydir ilohiy in'om sifatida qaraladi. Ijodda hamma narsa sirli va nomuayyan bo'lib, u kundalik hayotga xuddi to'fon yanglig' kirib keladi, eskicha qarashlar, qotib qolgan andozalarni ag'dar-to'ntar qiladi. Ijodning mohiyati nimada, degan azaliy falsafiy savolga psixologlar va pedagoglar, sosiologlar va tarixchilar, faylasuflar va san'atshunoslar javob berishga harakat qilganlar, ammo ular ijod ustidagi sirli pardaning bir chekkasinigina ochishga muvaffaq bo'lganlar. Shunga qaramay ijodni ijodiy mehnat mahsullari natijalariga muvofiq ancha aniq tushuntirish mumkin; unga faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida prosessual tavsif berish mumkin; ijodning tabiati haqidagi savolga javobni ijodkorlarning ruhiy dunyosi, qobiliyatlari, dunyoqarashi va axloqiy mo'ljallaridan ham izlash lozim.

**Ijodkor shaxs faoliyati**. Ijodning ichki asoslari qatoriga odatda shaxsning qobiliyati va faoliyat motivlari kiritiladi. Bu asoslar yagonadir: ijodiy qobiliyatlar muvaffaqiyat negizi hisoblanadi, lekin ular motivasiya orqali ro'yobga chiqadi. Ijod qilish qobiliyati ko'p sonli fazilatlar bilan tavsiflanadi. Ijodkor shaxs o'z aql-zakovatining teranligi, mustaqil fikrlashi, tafakkurining o'ziga xosligi, bashorat qilish qobiliyati, zehnining o'tkirligi, tasavvuri va intuisiyasining kuchliligi, mehnatda tirishqoq va intiluvchanligi, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabat va murosasizlik, yuksak axloqiy fazilatlar bilan ajralib turadi. Ijodiy qobiliyatlar insonga vaziyat travial, «muammosiz» bo'lib tuyulgan joyda muammoni ko'rish imkonini beradi, bundan yangi motivasiya paydo bo'ladi va u, dastlabki tarzda qo'yilgan vazifadan qat'iy nazar, ichki da'vatkor motivga, faoliyatda ehtiyojga aylanadi. Ijodkor o'zining ayni shu – kutilmagan va salmoqli natijaga erishish qobiliyati bilan ajralib turadi.

**Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati.** Faoliyatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati uni tartibga solish, individ, jamoa va umuman jamiyat faoliyatini boshqarish muammosini kun tartibiga qo'yadi. Inson faoliyatini boshqaruvchi mexanizmlarni shartli ravishda ikki turkumga: ichki va tashqiga ajratish mumkin. Faoliyatni tartibga solishning ichki mexanizmlarini biz uning asosiy atributlarini o'rganish jarayonida ko'rib chiqdik. Bu maqsadni belgilash, motivasiya, shaxsning fe'l-atvorini tavsiflovchi xususiyatlar – uning mijozi, xarakteri, irodasi, xullas, maqsadlar va ularga erishish vositalarini tanlashni, shuningdek faoliyat uslubini belgilaydigan shaxsning barcha xususiyatlaridir.

**Xulosalar.** Axloq shaxs erkinligini, uning o'zini, o'z ehtiroslarini boshqarish qobiliyatini, insonning o'z qilmishlari uchun avvalo o'zi oldida javobgarligini nazarda tutadi. Axloq inson aqlini ezgu ishlarga yo'naltiradiki, bu shaxsiy manfaatdorlik tuyg'usidan xoli yaxshi niyatlarda namoyon bo'ladi. Individ erkinligi va axloqiy qadriyatlarning mos kelishi axloqqa xos xususiyatdir.

Jamiyatning axloqiy qoidalari shaxsga bu qoidalarga rioya etish majburiyatini yuklaydi, shu sababli burch axloqiy qilmishlarga turtki beradigan muhim ichki omil hisoblanadi. Bundan xulq-atvor me'yorlari va andozalariga oddiy rioya etish nari borsa ijtimoiy jarayon bir maromda kechishini ta'minlash imkonini beradi. Uning rivojlanishi uchun esa ijod imkoniyat yaratadi. Bunda ijodning vazifasi tarix talablariga javob berish, faoliyatning mutlaqo yangi dasturlarini topishdan iboratdir.

**2.Ijtimoiy bashorat tushunchasi: uning turlari va metodlari.**O'zining, o'z farzandlarining, o'zi yashayotgan mamlakatning kelajagi haqida bilishni istamagan odam bo'lmasa kerak. Shu sababli qadim zamonlardan boshlab turli xalqlarda ertangi kunga nazar tashlash, kelajakni bashorat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar katta izzat-ikromga sazovor bo'lgan. Forslar ularni afsungarlar, bobilliklar va assiriyaliklar – xaldeylar, qadimgi Misr aholisi – kohinlar deb atagan. Bashoratgo'ylar qadimgi Yunoniston aholisining hayotida alohida o'rin egallagan. Kelajakni bashorat qilishga falsafa tarixida ham, ijtimoiy tafakkurda ham turli ko'rinishlarda alohida e'tibor qaratilgan. Tarixning o'tish davrlarida, keskin ijtimoiy konfliktlar yuz bergan davrlarda bashoratning ahamiyati ayniqsa oshgan. Bu insoniyat hayotining barcha jabhalarida olamshumul o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrga ham xos. Yuzaga kelgan sharoitda ijtimoiy bashorat masalalari o'ta muhim nazariy va metodologik ahamiyat kasb etmoqda, ularni ishlab chiqish esa falsafiy tafakkurning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Darhaqiqat, kelajak bilan shug'ullanmagan falsafaning kelajagi yo'q.

Ushbu mavzuning maqsadi bashoratga umumiy tavsif berish, uning asosiy turlarini ko'rib chiqishdan; ijtimoiy prognoz nimaligini, uning metodlari va tiplarini aniqlashdan; davrimizning olamshumul muammolar bilan belgilangan asosiy futurologik konsepsiyalarini tahlil qilishdan iborat.

**Ijtimoiy bashorat: turlari, tiplari, metodlari.** Bashorat – kelajak haqidagi, ya'ni hali amalda mavjud bo'lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi obyektiv va subyektiv omillar ko'rinishida hozirgi zamonda potensial mavjud bo'lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim. Bashorat o'z gnoseologik tabiatiga ko'ra gipotezani ilgari surishga yaqin turadi. Ammo gipoteza – o'tmishni ham, hozirgi zamonni ham, kelajakni ham bilishga tatbiq etiladigan mantiqiy shakl, bashorat esa kelajakka yoki hali ma'lum bo'lmagan hozirgi davrga qarab mo'ljal oladi.

Kelajakni oldindan aytish usuli, teranlik va aniqlik darajasiga ko'ra bashoratning uch turini farqlash mumkin: 1) kundalik bashorat; 2) intuitiv bashorat; 3) ilmiy bashorat. kundalik bashorat insonning kundalik hayot tajribasiga, tabiat va jamiyatda u yoki bu voqyealarning tez-tez takrorlanishini bevosita kuzatishga asoslanadi. kundalik bashoratlarga xalqda keng mashhur bo'lgan ob-havo alomatlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, quyosh botayotganda odatdagidan uzoqroq ushlanib qolgan bo'lsa, yomg'irni kutish kerak; yozda ertalab tuman tushgan bo'lsa, demak kunduzi havo ochiq bo'ladi; Sharqdan shamol essa, tez orada yomg'irlar tugaydi.

Bashoratning ikkinchi turi – intuitiv bashorat. Ma'lumki, intuisiya – bu ilmiy tajriba va mantiqiy mushohadasiz haqiqatning tagiga bevosita yetish. Bashoratning bu turi hali yaxshi o'rganilmagan va ko'pincha unga yetarlicha baho berilmaydi. Holbuki, aqlni lol qoldiradigan faktlar ma'lum. Masalan, to'rt yuz yil oldin yashagan fransuz tabibi Mishel Nostradamus misli ko'rilmagan bashoratgo'ylik qobiliyatiga ega bo'lgan. O'zining mashhur «Senturiyalari» va boshqa asarlarida u XX asrning texnik kashfiyotlari – suv osti kemalari, samolyotlar, vodorod bombasinigina emas, balki fransuz va rus inqiloblarini, shuningdek de Goll, Franko, Lenin, Stalin, Gitler, Mussolini kabi shaxslarning paydo bo'lishini ham bashorat qilgan.

Ijtimoiy prognoz qilishning asosiy xususiyatlari qaysilar xos?

Ijtimoiy prognoz qilish asosan quyidagi ilmiy-nazariy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Prognoz qilish jarayoni obyektiv va subyektiv asoslarga ega. Prognoz qilishning obyektiv asosi o'tmish, hozirgi zamon va kelajakning qonuniy aloqasi bilan belgilanadi. Kelajak hozirgi zamonda bo'lg'usi oqibatni vujudga keltiruvchi sabab ko'rinishida; muayyan sharoitlarda muqarrar tarzda voqyelikka aylanuvchi imkoniyat ko'rinishida; hozirgi davrning kelajakda yangi sifat paydo bo'lishiga olib kelishi muqarrar bo'lgan hodisalaridagi muayyan miqdoriy va tarkibiy o'zgarishlar ko'rinishida zohirdir. Kelajak hozirgi zamonda hodisalarning ular mavjudligining muayyan

sharoitlaridagi muhim aloqalarini ochib beruvchi qonunlar ko'rinishida zohirdir. Bularning barchasi bilish jarayonida ma'lumdan noma'lumga, o'tmish va hozirgi zamondan kelajakka o'tish imkonini beradi. Agar biron-bir hodisaning (jarayonning) rivojlanish qonuni ma'lum bo'lsa, bu hodisani (jarayonni) o'rganish orqali biz uning hozirgi holatini qayd etibgina qolmasdan, balki yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning yo'nalishi va xususiyati haqida xulosalar chiqarishimiz ham mumkin. Shunday qilib, kelajakni prognoz qilish uchun real voqyelikni bilishdan, aniqroq aytganda, tizimning hozirgi holatida zohir bo'lgan imkoniyatlar, tendensiyalar, qonuniyatlarni anglab yetishdan boshqa yo'l yo'q.

Bashorat qilishning subyektiv asosi inson tafakkurining o'tmishdan hozirgi zamon orqali kelajakka eltuvchi qonuniy tendensiyalarini aniqlash va qayd etish asosida kelajakni oldindan aytish imkoniyatida zohirdir. Kelajakni oldindan aytish bo'lg'usi voqyealar haqida xulosalar chiqarish qobiliyati ko'rinishini kasb etgan.

Prognoz qilishning obyektiv va subyektiv asoslarini aniqlash uni ba'zan bashorat bilan bog'lanadigan soxta bashoratgo'yliklardan farqlash imkonini beradi. Odatda, soxta bashoratgo'yliklar obyektiv jarayonlarni o'rganishga emas, balki subyektivistik o'zboshimchalikka, ya'ni ko'ngliga kelgan fikrni ilgari surishga asoslanadi.

2. Ijtimoiy prognoz qilish mavjud nazariyalar bilan uzviy bog'liq, ulardan kelib chiqadi. Ma'lumki, har qanday nazariya uch funksiyani: sintez qilish, tushuntirish va prognoz qilishni bajaradi. Ya'ni nazariya u yoki bu sohada mavjud holatni tushuntiradi va uning rivojlanish tendensiyasini bashorat qiladi. Binobarin, ilmiy prognoz qilish nazariyadan boshlanadi.

Ilmiy bashoratning keyingi mantiqiy tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

- bashorat muammosini aniqlash;
- gipotezani ilgari surish;
- prognoz qilish (bashoratning umumiy muammosi doirasida ayrim vazifalarni yechish uchun prognozlarni ilgari surish);
- ilgari surilgan prognozlar asosida prognostik faoliyat rejasini tuzish;
- prognozlarning haqqoniyligi, ishonchliligini asoslash va ularni imkoniyat darajasida amaliyot sinovidan o'tkazish yo'li bilan tasdiqlash.

Bilish jarayonida olingan yangi xulosalar odamlarning bu xulosalarga muvofiq amalga oshirilgan muayyan harakatlari mo'ljallangan natijalarni bergan holdagina ishonchli deb e'tirof etiladi. Bashorat qilingan, yangi bilimlarga muvofiq ta'riflangan natijaning olingan yangi bilimlarni hisobga olib erishilgan amaliy natija bilan mos kelishi odamlar tomonidan aks ettirilgan obyektlar rivojlanishining muayyan qonunlari va xossalari haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun asos bo'ladi.

3. Ijtimoiy prognoz qilish kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi. Kelajak haqidagi bilimlar hozirgi davrdan uzoqlashishiga qarab o'zining muayyanlik va aniqlik xossalarini yo'qotib, umumiyroq va nomuayyanroq tus olib borgani bois, bevosita, ko'zga ko'rinadigan va uzoq kelajak haqida so'z yuritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bevosita kelajakning vaqtdagi chegarasi 30 yildan oshmaydi. Ilmiy kashfiyot yaratilganidan u amalda gavdalantirilgunga qadar taxminan 20 yil vaqt o'tadi. Shunga asoslanib iqtisodiyotning joriy yuz yillikning 40-yillaridagi texnologik darajasi haqida ishonch bilan hukm chiqarish mumkin. Joriy yuz yillikning kattagina qismini qamrab oluvchi ko'zga ko'rinadigan kelajakka kelsak, bizning u haqdagi bilimlarimiz, ta'bir joiz bo'lsa, haqiqatnamo xususiyat kasb etadi va ularga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Jahon aholisi sonining jadal sur'atlarda o'sishi XXI asrning ikkinchi yarmida to'xtashini, 2100 yilga borib u taxminan 10-12,5 mlrd. kishiga yetishini kutish mumkin. Keyingi yuz yillik chegarasi ortida yotgan uzoq kelajak xususida real imkoniyatlarga ega bo'lmagan turli gipotetik farazlarga muvofiq hukm chiqarish mumkin. Ammo bu farazlar tarixiy muddatlar va ularning hayotda gavdalanish shakllari nuqtai nazaridan muayyan taxminiy baholar bo'lishi ham mumkin emas.

4. Prognoz qilish – bu maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni. Bu metodlar prognoz tuzish maqsadida empirik axborotni tanlash va tahlil qilish usullari va amallari yig'indisidan iborat. Prognoz qilishning ilmiy vositalari to'plami kelajakni bilishning

200 dan ortiq metodlari, maxsus metodikalari va mantiqiy vositalarini o'z ichiga oladi. Ammo ularni besh asosiy guruhga birlashtirish mumkin (qolganlari ularning variantlari hisoblanadi):

**Prognozlashtirishning metodlari:**
1. Ekstrapolyasiya metodlari.
2. Tarixiy analogiya.
3. Modellashtirish.
4. Ekspertiza usulida baholash.
5. Kelajak ssenariylari.

3.Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida shunday muammolar domiga tortildi-ki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umubashariy muammo — yadro halokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, II jahon urushidan keyin ahvol o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydlanishga ro'ju qilinishi va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujutga kelishi masalani chigallashtirib yubordi. Oqibatda insoniyatning kelajagi to'g'risida turli tipdagi bashoratlar kelib chiqdi. Ana shunday sharoitda har bir aql zakovatli odam «Bunday yo'lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilmayapmizmi?» — degan savolni o'z oldiga ko'ndalang qo'yishi va unga javob topishi zarur bo'lib qoldi. Bu savollarni butun jahon xalqlarining ishtirokisiz xal etib bo'lmaydi.

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'lig'i, ijtimoiy muhitga bo'lgan aks ta'siri tobora halokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina, har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jipslashish, zudlik bilan ta'sirli choralar qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. «Butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir»[30].

Hozirgi paytda insoniyatga xafv solib turgan umumbashariy muammolar deganda butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi.

Bunday muammolar quyidagilardir:

- termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartarf etish;
- jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotning o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- iqtisodiy qoloqlikni tugatish; yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
- tabiiy boyliklardan oqilona va kompleks yondashgan holda foydalanish;
- insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish; (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, kosmosni o'zlashtirish;
- dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; ozon qatlamining yo'qolish xavfining oldini olish va h.k.);
- insoniyat va uning kelajagi to'g'risidagi o'zaro hamkorlikda jiddiy tadqiqotlar olib borish; kishi organizmining tobora tez sur'atlari bilan o'zgarayotgan sun'iy va tabiiy muhitga moslashish jarayonini ilmiy tahlil qilish.

Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning ko'ndalang turib qolishining o'ziyoq kishilik sivilizasiyasi o'ta murakkab, o'ta qaltis bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlari mavjudki, ularni hal qilishning o'zidayoq butun

---

[30] Каримов И.А. ¤збекистон XXI аср б´са²асида: хавфсизликка таμдид, бар³арорлик шартлари, тара³³иёт кафолотлари. – Т.: «¤збекистон» 1997, 4-бет.

planetamizdagi ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday muammolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

**Birinchidan,** hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar (ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar o'rtasidagi, mintaqaviy ziddiyatlar, davlatlar, milliy va diniy nizolar va h.k.) bo'lib, bular shartli ravishda «intersosial» muammolar deb hisoblanadi. Ular urush va tinchlik, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va shu kabilarni ham qamrab oladi.

**Ikkinchidan,** «Inson va jamiyat» o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muammolar bo'lib, bularga ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT); maorif va madaniyat; aholi ko'payishining tez sur'atlar bilan ildam ketishi («Demografik portlash», kishilar salomatligini saqlash, kishi organizmining nihoyatda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitga moslashishi) shuningdek, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

**Uchinchidan,** «inson — tabiat» munosabatlariga esa xom-ashyo resurslarini tejash, aholini oziq — ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish kabi muammolar kiradi. Bu guruh muammolar ijtimoiy omillar tasirida vujudga keladi, ularni hal qilishda esa ijtimoiy omillarning o'rnini va ahamiyatini to'g'ri anglagan holdagina masalaning tub mohiyatini tushunish mumkin.

Xuddi shuningdek, sof ijtimoiy global muammolarning yechimida tabiiy omillarning bu jarayonga bevosita ulanib ketishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Ham ijtimoiy, ham tabiiy omillar asosida yuzaga chiqadigan umumbashariy (global) muammolar bir butunlikni tashkil etib, ularga har tomonlama (kompleks) yondashish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, falsafa fani zimmasiga katta mas'uliyatlar yuklaydi.

Insoniyatning kelajagi to'g'risida tarixda turli-tuman bashoratlar mavjud, ular bir necha xillarga bo'linadi. Masalan, xalqimizning ilk tarixiy qadriyatlaridan bo'lgan muqaddas «Avesto» yozma yodgorligi ham umumiy bir tarzda insoniyatning kelgusi istiqbolini bashorat qilib, kishilarni mushtarak maqsadlar tomon yo'naltirishga harakat qilgan. Bunday bashoratlar diniy mazmunga asoslangan bo'lib, o'z davri uchun katta ahamiyat kasb etgan edi. «Avesto»da Zardo'sht o'limidan so'ng 3000 yil o'tgandan keyin, erkin farovonlik zamoni keladi, Axura Mazda qudrati Axriman yovuzligi ustidan to'la g'alab qozonadi, deya ishonch bildirilgan edi.

Ikkinchi xil bashoratlar o'rta asrlarda keng tarqalgan, hozirda ham G'arb mamlakatlarida keng shuhrat qozonayotgan bir qator G'arb futurologiyasi mazmuniga ega. G'arb futurologiyasining mashhur namoyandalaridan fon Karman, Ye. Shervin, G. Kan va boshqalar insoniyatning kelgusi istiqbolini, asosan, yadro halokati yoki boshqa bir umumbashariy global muammolar bilan bog'lab pessimistik manzaralarni chizib ko'rsatishga urinadilar.

Kishilik jamiyatining kelgusi istiqboli to'g'risida jiddiy ilmiy bashoratlar orasida 1968 yilda A. Pechchei tomonidan asos solingan «Rim klubi» a'zolari bo'lgan J. Forrester, D. Medouz, Ya. Tinbergan, A. King va boshqalar tomonidan tayyorlangan hisobotlarning ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umubashariy muammolar ko'lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilinayotgan zug'umning mudhish oqibatlari qanday bo'lishi to'g'risida jiddiy mulohazalar yuritiladi. «Rim klubi» a'zolari tomonidan qilingan bashoratlar ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda asosan tajriba sinovidan o'tgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyangan holda insoniyatning kelajagi to'g'risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Demak, insoniyat taraqqiyotining kelgusi imstiqbolini belgilashdagi eng muhim belgilar sirasiga umumbashariy muammolar tabiatini chuqur anglash, bu muammolarning yechimi umuminsoniy mushtarak manfaatlari yo'lida hamjihatlikda qilingan sa'y-harakatlar ekanini alohida ta'kidlash lozim. Ana shunday misollar anchagina. Masalan, 1955 yil 31 yanvarda Frederiko Julio Kyuri (u shu paytda jahon ilmiy xodimlari federasiyasi tashkilotining prezidenti edi) Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rasselga xat orqali murojaat qilib, yadro qurolining juda xavfli tus olayotganligini, bu falokatning oldini olish uchun fan arboblari birgalikda harakat qilishi lozimligini bildiradi. B. Rassel F. Kyuri taklifini qo'llab-quvvatlab, bu murojaatga imzo chekuvchi vakillar bir xil siyosiy oqim tarafdorlari bo'lib qolmasligi, bunda jahondagi barcha kuchlar, har bir xalq,

jamiyat vakillari ishtiroki zarurligini ta'kidlaydi. Masalaga bunday yondashish falsafiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan edi. Bu esa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda «yangicha tafakkur uslubi» deb atalgan va jahonning eng atoqli olimlari A. Eynshteyn, F. Julio-Kyuri, M. Born, L. Poling va boshqalar tomonidan imzo qo'yilgan manifestga asos qilib olingan edi. Natijada 1955 yil 9 iyul kuni B. Rassel tomonidan o'tkazilgan press-konferensiyada «Rassel-Eynshteyn manifesti» nomi bilan shuhrat qozongan, butun yer yuzi aholisiga, siyosiy va davlat arboblariga qaratilgan mashhur chaqiriq e'lon qilingan. U hozirgi paytda tinchlik va qurolsizlanish uchun kurashuvchi Paguosh harakatini boshlab bergan edi. Manifestda «Biz yangicha fikr qilishga odatlanishimiz kerak. Biz o'z-o'zimizdan u yoki bu guruh mamlakatlarining harbiy g'alabasini ta'minlash uchun nimalar qilish zarur deb emas, balki yadro halokati va uning dahshatli oqibatlari qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida insoniyatni ogohlantirish uchun nimalar qilding deb so'rashimiz kerak», — degan so'zlar bor edi.

«Rassel-Eynshteyn manifesti» chop etilganiga ham mana 45 yil o'tdi. Bu vaqt mobaynida yadro qurollarini ishlab chiqish va sinab ko'rish ko'lami bir necha barobar ko'paydi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'tgan yarim asr mobaynida qurollanishga 16-18 trl. dollar mablag' sarflandi. Hozirgi kunda harbiy sohalar uchun har yiliga 1 trl. dollar miqdorida mablag' ajratilmoqda. Bir kunda qurol-yaroqqa ajratiladigan mablag' 3,4-3,5 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilamiz. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bezgakka qarshi kurash tadbirlari uchun bir yilda 28-30 mln. dollar ajratishini, Xalqaro nufuzli tashkilot YuNESKOning bir yillik byudjeti 950-980 mln. dollar miqdorida ekanligini hisobga olsak, masala oydinlashadi.

Harbiy-sanoat o'z domiga tabiatning shunday noyob boyliklarini tortayaptiki, bu sarf-harajatlar o'sish sur'atining tezligiga qarab beixtiyor o'z kelajagimiz to'g'risida xomush xayollar og'ushida qolmasdan iloj yo'q. Bu soha faqat tabiiy resurslar bilan cheklanib qolmasdan, balki, o'ta kamyob aql egalari, talantli kishilarning aqliy faoliyatini ham o'z izmiga solib, oqibatda, ilmiy-texnika taraqqiyotining insoniyat manfaatiga qaratilgan yo'nalishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

**Energiya va yoqilg'i resurslaridan tejamli foydalanish muammosi.** Davrimizning yana bir muhim belgilaridan biri jahon iqtisodiyotining sur'atini belgilaydigan energiyani iste'mol qilish ko'lami muttasil kengayib borayotganligidir. Agar hozirgi sur'atda jahon iqtisodiyoti davom etadigan bo'lsa, u vaqtda sanoat va xalq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilg'i talab qilinadi. Bu ko'rsatkich 2025 yilda 35-40 mlrd., XXI oxiriga borib, 80-85 mlrd. tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda.

Vujdga kelayotgan bu holatdan chiqib ketishning yo'li esa bitta, u ham bo'lsa, yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va x. k.) dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, AES, shamol elektrostansiyalar, quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va x.k.) dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tez sur'atlar bilan ko'paytirib borish ko'zda tutilmoqda. Butun jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyib 34% ana shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Elektr energiyasining shu qadar tez sur'atlar bilan ishlab chiqarilayotganligi yon atrofidagi tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etmasdan iloji yo'q. Masalan, gigant GESlarning qurilishi o'z navbatida ana shu regionning, iqlim sharoitiga, yon atrofdagi shahar va qishloqlarda xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (masalan, ekin maydonlarining qisqarishi, mavjud maydonlarning sho'rlanishi va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin). Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalari hozirgi davrning yechilishi murakkab muammolariga aylandi. Ayniqsa, 1986 yil 26 aprel kuni Chernobil AES IV blokining ishdan chiqishi natijasida juda katta miqdordagi radiasiyaning xavoga tarqalishi mazkur regionning yashashga mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi.

Insoniyat oldida jahon iqtisodini o'stirish uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishdan o'zga chora yo'q. Biroq, bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida mavjud tabiiy muhitga ta'sir darajasini kamaytirgan holda energiyani ko'proq ishlab chiqarish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuning uchun ham bu muammoni ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri sifatida jahonshumul ahamiyatga molik muammolar sirasiga kiritilishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

**Xom-ashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi.** Jahon statistik axborot markazlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80% keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekan. Ana shunday holatni xom-ashyoning boshqa turlari to'g'risida ham gapirish mumkin. Tahlillarga qaraganda, 90-yillarda ishlab chiqarilgan xom-ashyo miqdori 60-70-yillardagiga qaraganda 1,5-2 barobar ko'paygan.

Yer yuzida vujudga kelgan bunday holat, bir tomondan, insoniyatni xom-ashyo resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari, hosildor yerlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, shuningdek boshqa xom-ashyo zaxiralarining kamayib ketishi kabi boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Vujudga kelgan ekologik vaziyat, tabiiy muhitning inson organizmiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Boshqa tomondan esa, fan-texnika taraqqiyotining ko'lami asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini xom-ashyo resurslari, foydali qazilmalari bilan yetarli miqdorda ta'minlash muammosini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Mazkur muammoni ijobiy hal qilish uchun, iqtisodchilarning tahlillariga ko'ra, jahon mamlakatlarining har biri o'zi ishlab chiqargan yalpi milliy maxsulotning 3-5% miqdorida mablag' ajratishi zarur. Demak, xar yili o'rta hisob bilan 650-850 mlrd. dollar hajmida mablag' ajratilishi talab etiladi.

Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligidan kiyinchiliklar yuzaga chiqmoqda. Ayni shu mamlakatlardan 42-45% $km^3$ hajmida sanoatdan chiqqan iflos oqava suvlar suv havzalari, ko'l, dengiz, okean suvlarini o'zining zaharli tarkibi bilan bulg'amoqda. XXI asr boshlariga kelib, toza ichimlik suvlariga bo'lgan extiyoj dunyo miqiyosida asrimizning 90-yillariga nisbatan yana 2,3-2,5 barobar oshdi.

**Dunyo okeaning ifloslanishi, jonli tabiatning yo'qotilishi yanada xavfli tus olmoqda.** Har yili okenlarga 12-15 mln. tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to'kilmoqda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qurish uchun ming-minglab gektar yer maydonlari ajratib berilmoqda, o'rmonlar kesilib yashil yerlar kamaymoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfli tus olmoqda. Dunyoda har yili 0,8% tropik o'rmonlar yo'qolib bormoqda, 200 ming $km^2$ territoriyadagi tropik o'rmonlar kesilib qayta tiklanmay qolmoqda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln. gektar, yoki minutiga 16 gektar o'rmon yo'qotilmoqda. Tabiiy muvozanatning dunyo miqiyosida tez o'zgarishining oqibati hozirning o'zidayoq insonning yashashi va faoliyati uchun o'ta zarur bo'lgan mo'tadil muhitning buzilishiga olib kelmoqda.

Davrimizning yana salbiy belgilaridan biri shundaki, inson faoliyati ko'lamining miqyosi tobora biosferani to'la egallab, endilikda kosmosga ham ta'sir eta boshladi.

**Oziq-ovqat muammosi va biosfera.** Nihoyatda tez o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keyingi paytlarda jahonning bir qancha mintaqalarida ancha keskinlashdi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, dunyo xalqlarining 2/3 qismi doim oziq-ovqat taqchilligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqalarda ekiladigan yer maydonlari aholi jon boshiga nisbatan kamayib, 0,2 ga. ni tashkil etmoqda. Holbuki, 1950 yilda bu ko'rsatkich 0,5ga. ni tashkil etgan edi.

Oziq-ovqat zaxiralarining o'sishini, bir tomondan, ishlanadigan yer maydonlarini kengaytirish hisobiga, ikkinchi tomondan ekilayotgan maydonlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlash mumkin. Keyingi paytlarda hosildorlikni ko'paytirish ustida juda ko'p ishlar qilinib, 80 — yillarning oxirlariga kelib dunyo miqyosida yetishtirilgan mahsulot o'sishining 90% hosildorlikni ko'tarish hisobiga to'g'ri keldi. Ammo, bizga ma'lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan

ziyod qilingan qattiq zug'um qilish natijasida erishiladi. Juda ko'p yerlar bunday taziyqqa dosh bera olmasdan ishdan chiqa boshladi. Bu yerlarni tabiiy holatiga qaytarish uchun imkoniyat qolmadi.

Bunday tahlikali holatning sabablarini aholining tabiiy o'sishi nihoyatda tez suratlar bilan ko'paygani, ularning ish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi bilan tabiiy muhitning ekologik muvozanatini saqlash uchun yetarli mablag'ni topa olmayotganligidan izlash kerak.

**Rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni yo'qotish** ham davrimizning eng chigal jahonshumul muammolari qatoridan o'rin oldi. Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologiya, ilg'or ishlab chiqarish malakasi va insoniyatning ilmiy-texnika yutuqlari sistemalashtirilgan bilimlar zaxirasi to'planib, shu bilan birga aholining tabiiy o'sish darajasining pastligi boshqa mamlakatlarga nisbatan o'z mamlakati aholisining iqtisodiy yashash tarzining beqiyos darajada yaxshilanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning o'ziga xos tomonlari shundaki, mazkur mamlakatlarda industrlashtirish jarayoni asrimizning 70-yillari boshidayoq tugallanib, eng avval AQSh va keyinchalik Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish taraqqiyotining yanada yuqoriroq bosqichiga o'ta boshladi. Bunda ilmiy-texnika yutuqlari ko'proq talabga mos va yuqori texnologiyani rivojlantirishga ko'p e'tibor berdi, tabiiyki, oqibatda juda katta foyda olina boshlandi. Bunday ishlab chiqarish jarayonida malakasiz yoki kam malaka va bilimga ega bo'lgan ishchi kuchlariga ehtiyoj keskin kamayib ketadi.

Bunda iqtisodiy taraqqiyot darajasi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan emas, balki ilmiy-bilim, texnologiya, murakkab mashina va uskunalar bilan o'lchanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu darajaga yetishish uchun bir qator jarayonlardan o'tgan.

Birinchidan, bu mamlakatlar tabiiy boyliklari hisobiga orttirilgan milliy daromad miqdorining mamlakat aholisi jon boshiga tushadigan salmog'i keskin darajada ko'paydi.

Ikkinchidan, mamlakat aholisining tug'ilishini chegaralash, ularga sarflanadigan mablag'ni yuqori texnologiyani egallashda zarur bo'lgan mutaxassislar yetkazish uchun sarflash ko'zda tutildi.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot, oliy o'quv yurtlari va maorifga taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy manba sifatida qarab, birinchi darajali ahamiyat berildi. Chunki yuqori texnologiyani egallash yuqori malakali ilm egalarini talab qiladi. Ijtimoiy taraqqiyot darajasini belgilovchi eng asosiy omil ilmiy tafakkur esa jamiyat a'zolarining ma'rifatlilik darajasini belgilab beradi. Bu sohada, butun jahon miqyosida fan va ta'limga 3-4% yalpi milliy mahsulotning miqdorida mabla² ajratilayotgan bir paytda, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 8,3% miqdorda ekanligi kelajakka katta umid bilan qarashga imkon tug'diradi.

XX asrning so'nggi o'n yilligida ba'zi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy ko'rsatkich orasidagi tafovut tobora kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Agar XX asrning 60-yillarida Hindistonda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulot jon boshiga 50-70 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Afg'onistonda 60-70 dollar, Turkiyada 243 dollar, Yaponiyada 1400 dollar, AQShda 3600-3800 dollar bo'lgan. 1994 yilgi ma'lumotlarga muvofiq, yalpi milliy mahsulot jon boshiga: Hindistonda 370 dollar, Afg'onistonda 80 dollar, Turkiyada 3900 dollar, Bangladeshda 125 dollar, Germaniyada 22 ming dollar, italiyada 14,8 ming dollar, AQShda 26 ming dollar, Janubiy Koreyada 8,7 ming dollar, Yaponiyada 37000 dollar bo'lgan.

Demak, kambag'al davlatlarning kambag'allashishi yanada kuchayib bormoqda. Buning bosh sababchisi, shu mamlakatlardagi demografik jarayon ekanligi ta'kidlanmoqda. Aholining faqat miqdoriy o'sishining o'zi ko'r-ko'rona yaxshi yashash tarziga olib kelavermaydi. Buning uchun mamlakat aholisining e'tiqodi, milliy psixologiyasi, qadriyat va an'analarini hisobga olgan holda faol demografik siyosat olib borish zarur.

**Demografik muammolar va uning falsafiy tahlili.** XX asr o'zining bir qator belgilari bilan oldingi barcha davrlardan keskin farq qiladi. Xususan, XX asrni yana «demografik portlash» davridir, degan qarashlar ham keng tarqalgan. Bunda qolgan barcha jahonshumul muammolarni keltirib chiqaruvchi bosh sabablardan biri ham aynan yer yuzida aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi bilan bevosita bog'liq ekanligi nazarda tutiladi. «Demografik portlash» tushunchasi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qisqa bir davrida, muayyan mintaqa yoki mamlakatda va

shuningdek, butun yer yuzida tabiiy tug'ilish hisobiga aholi miqdorining nihoyatda tez ko'payishini anglatadi.

Insoniyatning oldida ana shunday xavf borligi to'g'risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766-1834 yy.) ogohlantirgan edi. U o'zining «Aholishunoslikning qonuniyati to'g'risida tajribalar» nomli kitobida aholining geometrik progressiya bo'yicha ko'payishini, uning xayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning ko'payishi arifmetik progressiya bo'yicha ro'y berishini aytgan edi. Maltus bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetar masshtabda, tabiiy muhit berishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar miqdori bilan juda tez sur'atlarda ko'payayotgan dunyo aholisi ehtiyoji o'rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.

Darxaqiqat, bundan 6-8 ming yillar oldin yer yuzida 5 mln. atrofida odamlar istiqomat qilishgan, deb taxmin qilinadi. Bu ko'rsatkich eramizning boshlarida 230 mln., 1-ming yillikning oxiri 2-ming yillik boshlarida, ya'ni Beruniy zamonida 305 mln; 1500 yilda 440 mln; 1800 yilda 952 mln; 1900 yilda 1656 millionni tashkil etgan. XVI asr boshidan XIX asr boshigacha, ya'ni uch asr mobaynida bu ko'rsatkich 174 foizga oshganligini; 1900 yildan to 1999 yilgacha esa bu nisbat sal kam 4 barobar oshganligini kuzatamiz.

XX asrning ikkinchi yarmida yer yuzi mintaqalarida aholining tabiiy ko'payish sur'atlari turlicha bo'lib, bu o'z navbatida, Yer yuzida mintaqalar, mamlakatlar, xalqlar salmog'ining keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Masalan, 1800 yilda (Napoleon zamonida) Fransiya aholisi 27 mln. kishini, Yer yuzi aholisining 3 foizini tashkil etgan bo'lsa, Filippin orollarida yashayotgan aholi 1,6 mln. kishi miqdorida bo'lib, planeta aholisining umumiy salmog'iga nisbatan 0,16 foizni tashkil etardi. 1999 yil 13 oktyabr kuni Yer yuzi aholisi olti milliardlik dovoni bosib o'tdi. Fransiya aholisi 56,2 mln. ni, Yer yuzi aholisi salmog'ining 0,94 foizni, Filippin aholisi ham 65 mln. kishini tashkil etib, jahon aholisidagi salmog'i (1,05%) bo'yicha Fransiyadan o'zib ketdi. Bu borada milliarddan ko'p aholi yashaydigan Xitoy va shu ko'rsatkich tomon borayotgan Hindiston alohida o'rin tutadi. Xullas, bu masala bir mamlkat doirasidan chiqib jahon muammosiga aylandi. U bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun ham butun jahonda mushtarak faoliyat olib borish zarur.

**O'zbekiston va global muammolar.** Mamlakatimizning kelajagi to'g'risidagi ilmiy-falsafiy bashorat Prezidentimiz I. Karimov tomonidan «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» va boshqa bir qator asarlarida asosli ravishda bayon qilib berilgan. Bu asarlarda O'zbekistonning mintaqamizdagi o'ziga xos o'rni, ulkan tabiiy resurslari, demografik omil va inson salohiyatini inobatga olib, boy ma'naviy merosimiz, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlarimizga asoslanib, yaqin kelajakda mamlakatimiz, shubhasiz rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'ringa ega bo'lishi kerakligi bashorat qilingan. Islom Karimov to'²ri ta'kidlagani kabi: «Jahon sivilizasiyasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatmiz, ko'p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aqliy imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak madaniyati va axloqiy qadriyatlarimiz, zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, saxovatliligi, bag'rikengligi va jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga bo'lgan istagi buning garovidir».

Albatta, mamlakatimizda sobiq Ittifoqdan meros qolgan eng global muammo — Orol fojiasi ekanligini bilamiz. Bu borada respublikamiz mintaqadagi davlatlar orasida ko'pdan-ko'p tashabbuslarni o'rtaga tashlab kelmoqda. Shu bilan birga mamlakatimiz aholisi ham muttasil o'sib bormoqda.

Respublikamizda «demografik portlash» asosan, XX asrning ikkinchi yarmida ro'y berib, bu jarayon (boshqa biror jiddiy omillar ta'sir etmasa) XXI asrning dastlabki o'n yilliklari oxirigacha davom etishi bashorat qilinmoqda. Respublikamizda hozirgi vaziyatda vujudga kelgan o'ziga xos «demografik vaziyat g'oyat muhim xususiyatlardan biridir, — deb qayd qilgan edi Prezident I.A. Karimov, — Jumhuriyatimizda aholi va mehnat resurslari har yili yuksak sur'atlar bilan ortib bormoqda». Jumladan, 1980 yilda aholining bir yillik tabiiy o'sishi 421161 kishini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 1989 yilda 480621 kishini; 1997 yilda 580673 kishini tashkil etdi.

O’zbekiston o’z aholisi o’sish bilan bog’liq masalalarni, aytish mumkinki, muvaffaqiyatli hal qilishga kirishdi. Prezidentimizning bozor munosabatlariga o’tishda aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish siyosati, respublikamizda bo’lishi mumkin bo’lgan ijtimoiy tengsizlikning oldini olishga xizmat qildi.

Keyingi paytlarda respublika hukumati onalarning sog’lig’ini muhofaza qilish, tug’ilgan xar bir chaqaloq oldida ota va onaning, qolaversa, jamiyatning javobgarlik hissini oshirish borasida, shuningdek farzandning ota-ona va Vatan hamda xalqi oldidagi burchlarini chuqur anglashlari uchun juda katta ma’naviy rag’batlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqqanligi o’ta muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda «Sog’lom avlod» jamg’armasining tuzilishi, «Sog’lom avlod uchun» ordenining ta’sis etilishi fikrimizning dalili bo’ladi.

Bugungi kunda o’zbek xalqining qadriyatlari asosida yosh avlod dunyoqarashi shakllantirilganda, shubhasiz ajdodlarimizning o’z Vatani, tabiiy muhitga bo’lgan mehr-muhabbatli bo’lish kabi muqqadas tuyg’usining avloddan-avlodga meros bo’lib o’tayotganligini va bu meros oldida chuqur mas’uliyat hissi bo’lishi zarur ekanligini hisobga olish lozim.

**Takrorlash uchun savollar**

1. Umumbashariy muammolarning vujudga kelish sabablari nimada?
2. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning sosial oqibatlari nimalarda namoyon bo’lmoqda?
3. Umumbashariy muammolarda demografik omilning o’rni qanday?
4. «Demografik portlash» tushunchasi haqida nima deya olasiz?

## 2.2.2. LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINING ISHLANMALARI, TARQATMA MATERIALLAR, ULARNI O‘TKAZISH VA QO‘LLASH BO‘YICHA METODIK TAVSIYANOMALAR

### «FALSAFA » FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA REJA- TOPSHIRIQLAR VA O‘QUV-USLUBIY MATERIALLAR

| | |
|---|---|
| **1 MAVZU** | falsafa fanining mavzui, muammolari va vazifalari. |

1.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni – 70-90 ta* | O’quv vaqti – 2 soat |
| *Mashg’ulot shakli* | Kirish mavzu bo’yicha vizuallashgan-ma’ruza |
| *Ma’ruza rejasi* | 1. Falsafaning mavzui va ilmiy bilimlar tizimida tutgan o’rni.<br>2. Falsafa va dunyoqarash.<br>3. Falsafaning muammolari, sohalari va vazifalari.<br>4. Mustaqillik va yangi falsafani shakllantirish masalari. |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi:* O’quv kursi haqida umumiy tasavvurni shakllantirish. Falsafa fani, uning atamasi, falsafa va dunyoqarash va fanning predmeti haqida tushuncha hosil qilish. | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *O’quv faoliyatini natijalari:* |
| Kursning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish; | • «Falsafa» atamasiga G’arb na Sharqda bsrilgan talkinlariping moxiyatini aytib beradi; |
| kursning to’zilmasi, o’quv faoliyatini baholash mezonlari hamda tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati haqida ma’lumot beradi; | kursning to’zilmasi, o’quv faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari va baholash shakllarini, kursni o’rganishda zarur adabiyotlarni aytib bera oladilar; |
| Falsafa xaqida tushuncha beradi. | • Falsafaiing tarkibiy qismi, vazifalari, maqsadlarini sanab beradi va izoh beradi; |
| Falsafaning mustaqillikdan keyin o’rganilish sabablarini yoritib beradi. | • O’zbek falsafasining o’ziga xos xususiyatlarini aytib beradi; |
| Falsafa va dunyoqarashning bog’liq | • Mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarash va uning ta’riflarini, naydo bo’lish bosqichlarini |

| | |
|---|---|
| va farqli tamonlarini izohlaydi; | sanab beradi va izohlaydi; |
| Falsafiy dunyoqarashni tushuntirib beradi va uning fikrlash jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatadi | • Falsafiy dunyoqaraishing- tamyillari, tuzulishi va vazifalarini tushuntirib beradi |
| *O'qitish usullari va texnikasi* | Vizuallashgan-ma'ruza, «klaster», «pinbord» texnikasi. |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, tarqatma material, slaydlar, marker, A3-qog'ozi, kompyuter texnologiyasi. |
| *O'qitish shakli* | Jamoviy ishlash, barcha birgalikda (Frontal) ishlash, kichik guruhlarda ishlash. |
| *O'qitish sharoiti* | Texnik ta'minlangan auditoriya. |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**Ma'ruzaning texnologik kartasi**

| **Ish jarayoni vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Tinglovchi** |
| 1- bosqich.<br><br>Kursga va mavzuga kirish<br><br>(20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydilar |
| | 1.2. Kurs bo'yicha o'tiladigan barcha mavzular bilan tanishtiradi, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot va sharh beradi. | Tinglaydilar |
| | 1.3. Kurs yakunida qo'yiladigan reyting ballash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova). | Yozib oladilar |
| | 1.4. Kursni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi. (2-ilova) | Yozib oladilar |
| | 1.5. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi bilan tanishtiradi va uning maqsadi, o'quv faoliyati natijalarini bayon etadi. | Mavzu nomini yozib oladilar |

| | | |
|---|---|---|
| | 1.6. Birinchi mavzu yuzasidan «Klaster» texnikasi asosida dars o'tkazishni taklif etadi (3-ilova). Doskaga tinglovchilar tomonidan aytilgan fikrlarni yozib boradi va umumlashtiradi. | |
| | 1.7. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi. | Tinglaydilar |
| 2-bosqich<br><br>Asosiy bo'lim<br><br>(50 minut) | 2.1. Ma'ruza rejasining 1-4 savollari bo'yicha tushuntiradi, har bir savolni nihoyasida umumlashtirib boradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi (4-ilova) va mavzuni yoritish jarayonida jonlantiruvchi savollar beriladi va ular bo'yicha talabalarning javoblari tinglanadi :<br>1-savol bo'yicha.Falsafa nima?<br>2-savol bo'yicha. Falsafaning bahs mavzuidan uning muammolarini ajratib bering?<br>3-savol bo'yicha. Falsafa fani qanday vazifalarni bajaradi?<br>4-savol bo'yicha. Falsafa va dunyoqarashning farqli va o'xshash tamonlarini sanab bering?<br>Mavzu savollari umumlashtiriladi, xulosalar bilan yakunlanadi. Mavzuni asosiy qismlariga e'tibor qaratadi va kerakli joylarni yozib borishni ta'kidlaydi. | Tinglaydilar, slaydga e'tibor qaratadi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi. |
| | 2.2. Tayanch iboralarga qaytiladi. Tinglovchilar ishtirokida ular yana bir bor «Pinbord» usulida takrorlanadi (5-ilova). Mavzuga oid bo'lmagan iboralar olib tashlanib, kerakli tushuncha va iboralar qo'shiladi. | Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Barcha axborotni tizimlashtiradilar. Konspekt qiladilar. |
| 3-bosqich<br>Yakuniy qism<br>(10 minut) | 3.1. Blis – so'rov o'tkazadi (6-ilova). Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi. | Tinglaydilar. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi. | O'zini qiziqtirgan savollarni beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi: "Falsafaning fanlar tizimida tutgan o'rni" yoki "mustaqillik falsafasi va uning xususiyatlari" mavzusida jadval to'zib kelish. | Yozib oladi. O'UQga qarang. |
| | 3.4. Amaliy mashg'ulotda o'tiladigan mavzuning rejasi bilan tanishtiradi. Tayyorlanib kelishini so'raydi. (7-ilova) | Yozib oladilar. |

## I. O'QUV - USLUBIY MATERIALLAR

### I. O'quv materiallari

### FANNING TARKIBIY-MANTIQIY TO'ZILIShI

**MA'RUZA** **SEMINAR**

**Кириш**

| MA'RUZA | SEMINAR |
|---|---|
| 1-mavzu. Falsafa fanining mavzui, mauammolari va vazifalari | 1-mavzu. Falsafa fanining mavzui, mauammolari va vazifalari |

**Фалсафа тарихи**

| MA'RUZA | SEMINAR |
|---|---|
| 2-mavzu. Qadimgi davr falsafasi | 2-mavzu. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi |
| 3-mavzu. Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi | 3-mavzu. Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi |
| 4-mavzu.O'rta asrlar va yangi davr G'arb falsafasi | 4-mavzu. O'rta asrlar va yangi davr G'arb falsafasi |
| 5-mavzu. Hozirgi davr G'arb falsafasi | 5-mavzu. Hozirgi zamon falsafasi |

**Онтология ва гносеология**

6-mavzu. Borliq falsafasi | 6-mavzu. Borliq falsafasi

7 - mavzu. Falsafiy qonun, kategoriya va metodlar | 7 - mavzu. Falsafiy qonun, kategoriya va metodlar

8.- mavzu. Dunyoni anglash va bilish | 8 - mavzu. Ong: kelib chiqishi va mohiyati

9 – mavzu. Bilish falsafasi

**Ижтимоий фалсафа**

9- mavzu. Inson va jamiyat falsafasi | 10 – mavzu. Inson falsafasi .

11- mavzu. Jamiyat falsafasi

Slayd 1.

## Falsafiy fanlar tizimi




**Slayd 2.**

## Falsafiy bilish shakllari




**Slayd 3.**

Файласуф —Олимпия уйинлари мисолида тушунтириб беради»анжуманга келадиган бир гурух кишилар беллашиш, куч синашиш, яъни узи ва узлигини намоён этиш умун; иккинчи гурух, савдо-сотик килиш, боилигини купайтириш учун, учинчиси эса. уйиндан маънавий озик-олиш, ҳақикатни билиш ва аниклашни максад килиб олади». Ана шу учинчи гурухга мансуб кишилар -файлэсуфлар эди

**-Пифогор**
Фалсафа» атамасига «фило» -севаман, «софия» - донолик деб таъриф берган

**Платон Фалсафани** «фанларнинг отаси» эканлигини эътироф этган

**Фалсафа**

"Фанлар фалсафадан келиб чиққан, яъни хар бир фикр, ғоя-доно ликдан таркалганидек, донишмандлик бу-фалсафадир".
**Аристотель**

**Файласуф** - Бу узининг калбини, иродасини тула нафс балосидан тозалай олган одамдир. Файласуф акл билан билишга интилади.

- Биринчи вужуд таигри, у нуксонсиздир. Бошқа вужудлар тангридан яралганлиги учун улар нуксонлидирлар. Хикматни севувчилар ва унга амал килувчилар файласуфлар.
**Фаробий**

Донишмандлар уч хислатга эга. Улар аввало, бошқаларга берган маслахатларига ўзлари амал қиладилар. Иккинчидан, хеч качон ҳақиқатга карши бормайдилар. Учун- чидан , атрофдаги- ларнинг нуксонларига сабр-тоқат билан чидайдилар.
**Лев Толстоой**

«Филокалия» ва «философия» кондош тушунча лардир «Философия» бу дониш мандликни севиш, «Филокалия» - бу гузалликни севишдир. У холда донишмандлик нима деб юнонлардан суралса, дониш мандлик бу ҳақикий гузалликдир - деб жавоб беради. **Аврелий Августин**.

Фалсафа табиий холдаги инсоний ақлдир. Чунки фалсафа бу тўғри хукм оркали эришилган билимдир
**Томас Гоббс**

**Slayd 4.**

## Falsafiy bilishning shakllanishi

Амалиёт | Назария | Метод | Дунёқараш

мафкура | фан | санъат

Инсонпарварлик

**5-slayd**

# Фалсафанинг баҳс –мавзуи ва соҳалари

1. Онтология - (грек. On (ontos) – борлиқ,  logos - таълимот) – умуман борлиқ ҳақидаги, ўз ҳолича борлиқ ҳақидаги фалсафий таълимот

2. Гносеология - (грек. Gnosis- билиш ва logos – тушунча, таълимот) – билишнинг моҳияти, қонуниятлари ва шакллари ҳақидаги таълимот

s

3. Методология – (грек.  methos- йўл, усул, logos - таълимот) – инсоннинг амалий ва назарий фаолиятини тўғри уюштириш ва тузиш тўғрисидаги

4. Аксиология – (грек.  axia  - қадрият ва logos таълимот) қадриятлар ҳақидаги таълимот

5. Этика – (грек ethos- одат, характер) ахлоқ назарияси, бирон-бир ахлоқ системасини ҳамда яхшилик ва ёмонликни, адолат, бурчни илм-й тушуниш

6. Эстетика – (грек  aisthetikos – ҳиссий идрокка дахлдор) – оламнинг ҳамма тамонларини гўзаллик қонунига мувофиқ инсон тамонидан ўзлаштириш

7. Мантиқ -  (грек logos- сўз, тушунча, муҳокама) тафаккур қонунлари,  шаклларин ва усулларини тадқиқ қилувчи фан

8. Антропология – (грек  antropos- одам, logos - таълимот) одамнинг пайдо бўлиши ва эволюцияси, одам ирқлари ҳақидаги фан

9. Ижтимоий фалсафа – жамият ва унинг структураси, ҳаёти ва тараққиёт қонуниятларини яхлит тизим сифатида  ўрганувчи фан

10. Фалсафа тарихи – фалсафанинг ривожланишини ўрганади. Бир хил фалсафий таълимотларнинг иккинчи таълимотлар билан алмашиниш қонуниятини ўрганади

11. Технифа фалсафаси- техника ривожланишининг назарий ва фалсафий масалалари, унинг инсон ҳаётидаги ва илмий билимлар ривожидаги аҳамиятини

12. Фан фалсафаси – фанинг пайдо бўлиши, ривожланиш қонуниятлари  ва инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни масалаларини ўрганади

**Slayd 6.**

## Falsafaning funksiilari




**Slayd 7.**

**Дунёқараш** - Инсон ўзини ва дунёни зарурий равишда англаши, унга баҳо бериши, хулоса чиқариши бўлиб, дунёни инсон онгидаги ўзига хос инъикосидир. Инсоннинг ўзига ва уни қуршаб турган борлиққа бўлган муносабатларини ифодалайдиган кўникмалари, малакалари, билимлари ҳамда дунёни амалий ва назарий ўзлаштириш ҳамдир.

**Slayd 8.**

## Dunyoqarashning tarixiy tiplari



## FALSAFA IJTIMOIY –GUMANITAR FANLAR TIZIMIDA

Slayd 9.



**Slayd 10.**




Falsafaning kelajak sari rivojlanish omillari

- Жахон  ҳамжамиятида муносиб ўринни эгаллаш.
- Осойшталик ижтимоий барқарорлик, тинчлик.
- Соғлом авлод учун кураш.
- Маданий, сиёсий, иктисодий  ҳамкорлик.
- Кучли ижтимоий мухофаза.
- Умуминсоний ва халқаро нормаларининг устиворлигини эътироф этиш.
- Соғлом экологик вазиятни шакллантириш.
- Миллий тотувлик.

**Mustaqillik va falsafa**

1. Миллий мустақиллик концепцияси
 - Умуминсоний қадриятлар
 - Миллий қадриятлар
 - Миллий онг
2. Миллий истиқлол мафкураси
 - Миллий давлатчилик тарихи
 - Ўтмиш мутафаккирларининг мероси
 - Миллий ва умуминсоний қадриятлар муштараклиги
3. Миллий мустақиллик тамойиллари
 - Иқтисодий ривожланишнинг беш тамойили
 - Ислом дини қадриятлари
 - Жамиятнинг ижтимоий - маънавий такомиллаштириш йўли

## II. O'QUV TOPShIRIQLAR

II. I. Mavzu bo'yicha jonlantiruvchi savollar:

1. "Falsafa" tushunchasining moxiyatini siz qanday tushuna**siz?**
2. Falsafaning bahs mavzusi nima?
3. Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi?
4. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
5. Dunyoqarash nima?
6. Falsafiy dunyoqarashning g'oyaviy ildizlari nimalarda i amos n bo'ladi?
7. Dinning dunyoqarash tizimidagi o'rni va ahamiyati qanday?
8. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari nimalardan iborat?
9. Mifologik dunyoqarash nima, uning mazmuni va ahamiyati?

II. 2. Mavzu bo'yicha faollashtiruvchi savollar:

Birinchi reja savoli bo'yicha:
1. "Falsafa" deganda nimani tushunasiz?
Ikkkinchi reja savoli bo'yicha:
1. Nima uchun falsafa fanini o'rganayapsiz?
Uchunchi reja savoli bo'yicha:
1. Falsafa jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
To'rtinchi reja savoli bo'yicha:
1. Mustaqillik falsafasining qanday manbaalari mavjud?

## III. MA'LUMOT-AXBOROT MATERIALLAR

### II. 1. Pinbord texnikasi qoidasi

***Пинборд техникаси***
(инглизчадан: pin – маҳкамлаш, board – доска)
муаммони ҳал қилишга оид фикрларни тизимлаштириш ва гуруҳлашни амалга оширишга, коллектив тарзда ягона ёки аксинча қарама-қарши позицияни шакллантиришга имкон беради.

↓

Ўқитувчи таклиф этилган муаммо бўйича ўз нуқтаи назарларини баён қилишни сўрайди. Тўғридан-тўғри ёки оммавий ақлий ҳужумнинг бошланишини ташкил қилади (рағбатлантиради).

↓

Фикрларни таклиф қиладилар, муҳокама қиладилар, баҳолайдилар ва энг оптимал (самарали) фикрни танлайдилар. Уларни таянч хулосавий фикр (2 та сўздан кўп бўлмаган) сифатида алоҳида қоғозларга ёзадилар ва доскага маҳкамлайдилар.

↓

Гуруҳ намоёндалари доскага чиқадилар ва маслаҳатлашган ҳолда:

(1) яққол хато бўлган ёки такрорланаётган фикрларни олиб ташлайдилар;
(2) баҳсли бўлган фикрларни ойдинлаштирадилар;
(3) фикрларни тизимлаштириш мумкин бўлган белгиларини аниқлайдилар;
(4) шу белгилар асосида доскадаги барча фикрларни (қоғоз варақларидаги) гуруҳларга ажратадилар;
(5) уларнинг ўзаро муносабатларини чизиқлар ёки бошқа белгилар ёрдамида кўрсатадилар: коллективнинг ягона ёки қарама-қарши позициялари ишлаб чиқилади.

## IV. O'Z-O'ZINI NAZORAT UChUN MATERIALLAR

IV. 1. Nazorat savollariga javob berish.

1. «Falsafa» tushunchasining moxiyatini siz qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzusi nima?
3 Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi?
4. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
5. Dunyoqarash nima?
6. Falsafiy dunyoqarashning g'oyaviy ildizlari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Dinning dunyoqarash tizimidagi o'rni va ahamiyati qanday?
8. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari nimalardan iborat?
9. Mifologik dunyoqarash nima, uning mazmuni va ahamiyati?

Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni: 25-30 kishi* | O'quv vaqti - 2 soat |
| *Mashg'ulot shakli* | Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot |
| *Mashg'ulot rejasi* | 1. Falsafaning mavzui va bu to'g'ridagi fikrlarning o'zgarib borishi.<br>2. Falsafa va boshqa fanlar, ular o'rtasidagi munosabat.<br>3. Falsafaning muammolari, sohalari va vazifalari.<br>4. mustaqillik falsafasi, uning asosiy muammolari. |
| O'*quv mashg'ulotining maqsadi:* Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *o'quv faoliyati natijalari:* |
| - mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;<br>- mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;<br>- kichik guruhlarda ishlashni tashkil etadi;<br>- o'z nuqtai-nazariga ega | - amaliy mashg'ulot rejalari bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;<br>- falsafaning paydo bo'lishi, tarkibiy qismi, vazifalari, maqsadlari kslib chikish shart-sharoitlariga tavsif beradi;<br>- mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarash va uning ta'riflarini aytadi va paydo bo'lish shart-sharoitlarini tahlil etadi;<br>- o'zbek falsafasi to'g'risidagi qarashlarning |

| | |
|---|---|
| bo'lishni shakllantiradi;<br>- mavzu yuzasidan mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi. | bugungi kundagi ahamiyatini tushuntirib beradi; |
| *O'qitish usullari va texnikasi* | "Qanday " texnikasi, topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat-munozara, taqdimot. |
| *O'qitish vositalari* | Tarqatma material, qog'oz, qalam, doska. |
| *O'qitish shakllari* | Jamoa va guruhlarda ishlash |
| *O'qitish sharoiti* | Guruhlarda ishlashga mos auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

| Ish jarayoni vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1- bosqich.<br>Kursga va mavzuga kirish<br>(10 minut) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni "Kichik guruhlarda ish-lash" orqali amalga oshiri-lishini e'lon qiladi. (1-ilova) | Tinglaydilar |
| | 1.2. "Anjuman darsi" texnikasidan foydalanilgan holda dars olib boish: (2-ilova). Bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib xulosalaydi. | O'z fikrlarini erkin bildirib, grafikli-organayzirni to'ldiradilar va javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni 4 ta kichik guruhlarga bo'ladi. | Interfaol usuldan foydalangan holda kichik guruhlarga bo'linadi. |
| | 1.4.Talabalarning mashg'u-lotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (3-ilova) | Yozib oladilar. |
| 2-bosqich<br>Guruhlarda | 2.1. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. (4-ilova) | Topshiriqlar ustida ishlaydilar. |

| | | |
|---|---|---|
| ishlash<br>(20 minut) | | |
| | 2.2.Olinishi lozim bo'lgan natijalarni aniqlashtiradi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallarga e'tibor qaratish lozimligini tushuntiradi (darsliklar, ma'-ruza matnlari).<br>Guruhlarda ish boshlangan-ligini e'lon qiladi. | Topshiriqlar bilan tanishadi. Vazifani bajaradi. |
| 3- bosqich<br><br>Taqdimot<br>(40 minut) | 3.1. Har bir guruh topshiriq-larni vatman qog'ozlarga tushi-rib, taqdimotini o'tkazishda yor-dam beradi.<br>Vazifalarning bajarilishi-ga izoh beradi, bilimlarni um-umlashtiradi, xulosalarga alo-hida e'tibor beradi. Topshi-riqlarni bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. | Jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, bahs-munozara yuritadilar, qo'shimcha qiladilar,baholaydilar, xulosa chiqaradilar. |
| 4-bosqich<br>Yakunlovchi<br>(10 minut) | 4.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash me-zoni orqali rag'batlantiradi. | Tinglaydilar, yozib oladilar. |
| | 4.2 Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: "XX asrda falsafaning rivojida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar" mavzusida esse yozib kelish. | Vazifani<br>yozib oladilar. |

## O'QUV - USLUBIY MATERIALLAR

## I. VIZUAL AMALIY MAShG'ULOTNING O'QUV MATERILLARI

Falsafa — yunoncha philyeo - sevaman, Sophia —donolik degap ma'noni anglatadi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardap biri. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrniig moxiyati, borliq va yo'qlik kabi kuplab muammolar haqida bahs yuritadigan fan.

Dunyoqarash - Insoi o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, xulosa chikarishi bo'lib, dunyoni inson ongidagi o'ziga xos in'ikosidir. Insonning o'ziga va uni kurshab turgap borliqka bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan kunikmalari, malakalari, bilimlari hamda dunyoni amaliy va pazariy o'zlashtirish hamdir.

Mif - yunoncha mifhos so'zidan olingan bo'lib, afsona, rivoyat, xikoyat kabi ma'nolarini anglatadi. Ibtidoiy davr kishilari ongi va tushunchasida inson, tabiat, jamiyat va koinotning paydo bo'lishi bilan bog'liq vokealar, shuningdsk, tabiat va jamiyat xodisalarining aks etishidir.

Mifologik dunyoqarash - Ijtimoiy taraqqiyotning boshlang'ich bosqichlariga xos bo'lib, dunyoni tushunishning oddiy usuli, xayoliy in'ikosidir.

Din - arabcha- ishonch, ishonmok demakdir. Borliqpi yaratunchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bulmagap va aypn vaqtda barkamollikning oliy kurinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

Diniy dunyoqarash - Olamdagi vokea va xodisalar sabablaripi iloxiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushunishdir.

### I.1. Tavsiya etigan adabiyotlar:


1. Falsafa: ma'ruza matnlari. (Nazaron Q- va boshq) -T.: O'AJBNT markazi, 2000. 8-25 betlar.
2. Guinar Skirbekk, Nils Gilye. Falsafa tarixi (tarjima). G., «Sharq», 2002. 9-g6-betlar.
3. Saifnazarov I. O'zbekiston istiqloli va yangi falsafiy ta'limot. T., «Yangi asr avlodi», 2003. 3-21-betlar.
4. Toxir KarimMilliy tafakkur tarakkistidap. T., «Chulpon», 2003. 3-17-betlar.
5. Falsafa qomusiy lug'at. T., «Sharq», 2004. 114, 418-423-betlar.
6. Falsafa asoslari. Darslik. T., «O'zbekiston», 2005, 6-27-bstlar.

## II. O'QUV TOPShIRIQLAR

II.1. Anjuman mavzulariga tayyorlanish:

1 . Falsafa fanining predmeti va asosiy mavzulari.
2. Falsafaning tarkibiy qismi va vazifalari.
3. Dunyo'qarash va uning shakllari.
4. Dunyoqarashning tarixiy turlari (mifologik, diniy, falsafiy).

II. 2. «Loyiha» texnologiyasining asosi bo'lmish ketma-ketlik nazariyasiga asoslanib jadval-sxemalarni mazmuniga qarab to'ldirish.

**1- slayd.**




**JADVALNI TO'LDIRING**

**2-slayd**



**3-slayd.**

## JADVALNI TO'LDIRING




## Jadvalni to'ldiring

**4- slayd.**



**5- slayd.**

JADVALNI TO'LDIRING

**Dunyoqarashning tarixiy tiplari**




**6- slayd.**

Falsafa va hozirgi zamon



**4 TOPSHIRIQ**

**JADVALNI TO'LDIRING.**

**7- slayd.**




**8 - slayd**



## 1V. O'Z- O'ZINI NAZORAT QILISh UChUN MATERIALLAR

### 4.1.Mavzuni mustahkamlashga qaratilgan "Blis -so'rov" savollari

1. Фалсафа фанинипг предмети мазмун ва мохияти.
2. Фалсафа» атамасининг мохияти ва мазмуни, унинг тарихий ва замонавий талкинлари.
3. Абу Наср Фаробий «фалсафа» атамасига таъриф бсрган?
4. Қачон диний дунёқараш шаклланди?
5. Фалсафий дунёқараш шакллананишига нима сабаб бўлди?
6. Фалсафа фан сифатида шаклланиши.
7. Фалсафада миллийлик ва умуминсонийлик.

### 4.2. "Falsafa fanining taraqqiyot bosqichlari " mavzusida jadvalni to'ldirib kelish.

| DAVRLAR | NAMOYoNDALAR | YaShAGAN VAQTI | ASOSIY G'OYaLARI |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

| 2 mavzu | **QADIMGI DAVR FALSAFASI** |
|---|---|

## 2.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni:* 60-70 | *Vaqti:* 2 soat |
| *Mashg'ulot shakli* | Mavzu bo'yicha informasion ma'ruza |
| *Ma'ruza rejasi* | 1. Falsafiy fikrlarning paydo bщlish jarayoni.<br>2.. Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasi.<br>3. Qadimgi grek mutafakkirlarining falsafiy g'oyalari |
| *Mashg'ulotning maqsadi:* Qadimgi Sharq va grek mutafakkirlarining falsafiy g'oyalari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish, uning Jahon sivilizasiyasining o'choqlari ekanligi haqida tushuncha hosil qilish. | |
| *Pedagogik vazifalar* | *O'quv faoliyati natijalari:* |
| • falsafiy fikrlar paydo bo'lish jarayonining iqtisodiy-ijtimoiy va gnoseologik zaminlarini tushuntirib beradi;<br>• qadimgi Misr va Messopatamiya- dagi diniy-falsafiy fikrlar bilan tanishtiradi;<br>• qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasi haqida ma'lumot beradi;<br>• Antik Yunon va Rim falsafasiiga tavsif beradi; | • Falsafiy fikrlar paydo bo'lishini asoslab tushuntirib bera oladi:<br>• qadimgi Misr va Messopatamiyadagi falsafiy g'oyalarning o'ziga xos jihatlarini aytib bera oladi;<br>• qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasiga izoh beradi;<br>• Antik Yunon va Rim falsafasi haqida tushuncha hosil qiladilar; |
| *O'qitish usullari va texnika* | Ma'ruza, tushuntirish, instruksiya berish, namoyish, blis-so'rov, |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska |
| *O'qitish shakllari* | Frontal, kollektiv ish |
| *O'qitish shart-sharoiti* | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini |

| | |
|---|---|
| | nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**Ma'ruzaning texnologik kartasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o'qituvchi* | *talaba* |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. "Aqliy hujum" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savollar beriladi.<br>1. Falsafiy fikrlar paydo bo'lishiga nima sabab bo'lgan?<br>2. Nima sababdan Sharqni Jahon sivilizasiyasining o'choqlaridan biri deymiz?<br>Berilgan javoblarni qisqacha umumlashtirib xulosa qiladi. | Tinlaydilar. O'UM ga qaraydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi. | Tushunchalarni sanab beradi. |
| | 2.2. Mavzuning 1-3 rejalari asosida mini-leksiya o'qib beradi. Ularni xulosalab yakunlaydi. | Tinglaydi. |
| | 2.3. Talabalarni to'rt guruhga bo'lib mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi.<br>Savol: «Qadimgi Misr va Hindiston falsafasining o'xshash xususiyatlarini ko'rsatib bering»?<br>Savolni T-sxemaga moslashtiring.<br>(1-ilova).<br>Har bir guruh sardori taqdimotdan so'ng javoblarni xulosalaydi va faol talabalarni rag'batlantiradi. | Sxema-slaydlarning mazmunini muhokama qilib boradi va savol beradi.<br>T-sxemani to'ldiradi. |
| | 2.4. 4-reja asosida qisqa ma'ruza qila-di. Talabalarga topshiriqni beradi: (2-ilova).<br>Quyidagi multimedia orqali namoyish qilinadigan lavhalar qaysi hudud falsafiy namunalariga kiradi?<br>Ekranga Antik Yunon va Rim madaniyati haqidagi lavhalar namoyish qilinadi. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| Yakuniy bosqich. (10 minut) | xulosalar qiladi. | |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi. | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladilar. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi. | |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozib oladi. |
| | 3.5. Keyingi mazvu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi. | O'UM ga qaraydilar. |

1-Ilova

**«Qadimgi Misr va Hindiston falsafasining o'xshash xususiyatlarini ko'rsatib bering»?**

T-sxemasi asosida:

| **To'g'ri** | **Noto'g'ri** |
|---|---|
| **1.** | **1.** |
| **2.** | **2.** |
| **3.** | **3.** |
| **4.** | **4.** |
| **5.** | **5.** |

Savollar:

1. Geografik hududning qulayligi. 2. Bir –birlari bilan qo'shichilik loqalarining yaxshiligi.3.Aholining zich joylashganligi.
4. Yer osti boyliklariing ko'pligi. 5. Ish qurollariing yaxshi rivojlanganligi. 6. Mifologik dunyoqarashning barvaqt rivojlanganligi. 7. Daryolarning oqib o'tganligi.
8. Olam haqidagi ilk ilmiy fikrlarning paydo bo'lishi.
9. Diniy dunyoqarashning ustunligi
10. Boshqa hududlarda yashagan insonlarga nisbatan aqlligi.

**1- masala: Falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi.**

**1- slayd.**

| Asosiy jihatlari |
|---|
| 1. Astronomiya, kosmologiya va matematika kurtaklarining vujudga kelishi.<br>2. Tabiat hodisalarini mifologik nuqtai nazardan turib kuzatish. |

| 3. Falsafa ijtimoiy ongning a’lohida shakli sifatida ajralib turmaganligi. |
|---|

**2- slayd.**

| **Qadimgi Misr falsafasi** |
|---|
| **“Arfest qo’shig’ii” Er.avv. XXII asrlar**<br>a) “Narigi dunyoda” abadiy yashash e’tiqodiga shubha bilan qarash.<br><br>b) Mavjud dunyoda yaxshi yashashga intilish, harakat.<br><br>v) Bu dunyodan ketganlarning hyech biri qaytib kelmaganligi, narigi dunyodan hyech qanday xabar yo’qligi va bu dunyodan boshqa dunyo yo’qligiga ishonch |

**3- slayd.**

| **Qadimgi Bobil falsafasi** |
|---|
| **“Xo’jayinning qul bilan suhbati”**<br>a) diniy vqidalarning tanqid qilinishi;<br><br>b) Xudo yo’lida qilinadigan qurbonliklkar qoralanadi. Narigi dunyo haqidagi fikrlar rad etiladi.<br><br>v) Kishilarga diniy ko’rsatmalarni bajarishning asossizligi ko’rsatiladi. |

**4- slayd.**

**2 masala. Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasi**

| **Mo'tadil (ortodoksal)** | **Nomo'tadil (noortodoksal)** |
|---|---|
| Sankxya<br>Vaysheshika<br>Nyaya<br>Mimansa<br>Vedanta | Jaynizm<br>Buddizm<br>Charvaka - lokayata |
| Vedalarni tan oladi | Vedalarni tan olmaydi |

**5- slayd.**

| **Qadimgi Hind yodgorligi** |
|---|
| **Vedalar**<br>Sansikritchadan tarjimasi "bilim".<br>Diniy – falsafiy tasavvurlar va marosimlar o'tkazish tartiblar majmuasi.<br>**4-to'plamdan iborat**<br>1. **Rigveda** – madhiyalar to'plami, ya'ni xudolarni sharaflovchi sherlar<br>2. **Samaveda** – qo'shiqlar vedasi, marosimlarda ta'lim-tarbiya namunasi sifatida aytiladigan qo'shiqlar, taronalar.<br>3. **Yajurveda** – Qurbonlik qilish marosimlarida aytiladigan qo'shiqlar, taronalar.<br>4. **Atxarvaveda** – duolar, afsunlar to'plami. Bunda kishilarning sog'liqlarini saqlash, ularni ruxiy va jismoniy kasalliklardan forig' qilishduolari to'plangan. |

**6- slayd.**

| **Qadimgi Xitoy falsafiy maktablari** |
|---|
| • In va yan maktabi<br>• Konfutsiylik maktabi<br>• Moizm maktabi<br>• Legistlar maktabi<br>• Daosizm maktabi |

## 3- masala. Qadimgi grek mutafakkirlarining falsafiy g'oyalari

**7- slayd.**

| Antik falsafaning asosiy rivojlanish bosqichlari | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **I** | **II** | **III** | **IV** | **V** |
| Tabiiy yoki «tabiat falsafasi» - Ioniya maktabi, pifagorchilar, eleyliklar (er. avv. VI – V asrlar .) | gumanistik, falsafaning bahs mavzusi inson va uning tafakkuri Sofistlar va asason Suqrot (er. Avv V asr.) | Sintez Platon va Aristotel (Er. Avv IV asr.), falsafiy ta'limotlarni birlashtir-uvchilar | Ellinistik maktab Aleksandr Makedonskiy davridan to ilk xristianlikkacha (er. Avv IV asrdan, er I asr.) - kiniklar, epikurchilar, stoiklar, skeptiklar, eklektiklar | Antik falsafaning xristianlashuvi (I - VI asr.) - neostoisizm neoskeptisizm, medioplatonizm, neopifagorizm, neoplatonizm |

**8- slayd.**

**Antik falsafaning asosiy jihatlari**

- Kosmosentrizm
- Stixiyali dialektik tafakkur
- Ontologiya

**9- slayd.**

Ioniya falsafasi



**10- slayd.**


Қадимги грек фалсафаси
Иония фалсафаси
Италия фалсафаси
Милет мактаби
Эфес мактаби
Пифагор мактаби
Элей мактаби
Анаксагор
Эмпедокл
Атомистик мактаб
Афина фалсафаси
Софистик мактаб
Сукрот мактаби
Аристотель
Платон
Эллинистик фалсафа
Эпикурчилик мактаби
Перипатетиклар мактаби
Академик мактаб
Стоиклар мактаби
Скептик мактаб
Эклектик мактаб

11- slayd.

**Italiya falsafasi**




## III. O'Z-O'ZINI NAZORATI UChUN MATERIALLAR

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari va toshiiriklar:

1. Qadimgi Misr falsafasiga xos xususiyatlarni sanab bering.
2. "Veda"lar nima va qachon paydo bo'lgan?
3. Buddaviylik ta'limotining moxiyati nimadan iborat?
4. Konfusiylik nima?
5. Lao Szi falsafasida Dao qonuni nimani anglatadi?
6. Milet falsafiy maktabi to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Geraklitning "Okar suvga ikki marta tushib bulmaydi" dsgan xikmatli iborasining falsafiy moxiyatini tushuntirib bering.
8. Suqrot qanday faylasuf bo'lgan?
9. Aflotunning g'oyalar dunyosi haqidagi ta'limotining moxiyati nimadan iborat?
10. Arastu haqida nimalarni bilasiz?

## 2.2. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni:* 26 | *Vaqti:* 2 soat |
| *Mashg'ulot shakli* | Individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan amaliy mashg'ulot |
| *Mashg'ulot rejasi* | 1. falsafa fanining paydo bo'lishi to'g'risidagi qarashlar.<br>2. Qadimgi Misr va Bobildagi falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi.<br>3. Qadimgi Hindiston va Xitoydagi falsafiy fikrlarning o'ziga xos xususiyatlari.<br>4. Qadimgi grek falsafasi rivojining asosiy bosqichlari |
| *Mashg'ulotning maqsadi:* Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash. | |
| *Pedagogik vazifalar* | *O'quv faoliyati natijalari.* |
| • nazariy bilimlarni mustahkamlatdi;<br>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;<br>• kichik guruhlarda ishlashni tashkil etadi;<br>• o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi; | • qadimgi Misr falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi va o'ziga xos jihatlarini aytib bera oladi;<br>• qadimgi Messopatamiya falsafsining o'ziga xosligini ajrata oladi;<br>• qadimgi Sharq falsafasi rivojlanish sabablarini ko'rsata oladi;<br>• Antik Yunon va Rim falsafasi haqida tushuncha hosil qilib, o'z erkin fikrini namoyon etadi; |
| *O'qitish usullari va texnika* | Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, vaziyatli ishlanma usuli |
| *O'qitish vositalari* | Tarqatma material, kompyuterlar, doska. |
| *O'qitish shakllari* | Individual, kollektiv. |
| *O'qitish shart-sharoiti* | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o'qituvchi* | *talaba* |
| I-bosqich. Mavzuga kirish. | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. | Mavzu nomini yozib oladi. |
| | 1.2. Tinglovchilarning mashg'ulotdagi | Yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| (10 minut) | faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. | |
| II-bosqich. Asosiy (65 minut) III-bosqich. Yakuniy (5 minut) | 2.1. Ekranga mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollarini tushiradi. (1-Ilova). Test. Mavzu qay darajada o'zlashtiril-ganligi tekshiradi. | Javob beradi |
| | 2.2. Test javoblarini muhokama qiladi va baholaydi. | Guruhlarga bo'li-nadilar. Har bir guruhdan jamoa sardori chiqib taqdimot o'tkaza-di. O'quv topshi-rig'i va baholash mezonlari bilan tanishadi. |
| | 2.3. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi va top-shiriqni tarqatadi. Topshiriq: Qadimgi Sharq madaniyatini rivojlanish bosqich-larini Klaster usulida to'ldiring. (2-ilova). Klaster usulidan foydalanishni tushuntiradi. | Savollar beradi. |
| | 2.4. Topshiriqni bajarishda maslahat beradi. | Tinglaydi. |
| | 2.5. Guruh sardorlarining taqdimot marosimini o'tkazishlarini tashkil etadi. | O'UM ga qaraydi. |
| | 2.6. To'ldirilgan jadvallarni bir-biri bilan solishtirib, javoblarni umumlashtiradi va xulosa qiladi**.** | Erkin fikrini bildiradi. |
| | 2.7. Guruhlarni bir-birlarini baholashlarini tashkil qiladi. | Baholaydi. |
| III-bosqich. Yakuniy (5-minut) | 3.1. Mavzu maqsadiga erishishdagi ting-lovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi. | Tinglaydi. |
| | 3.2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi. | Yozib oladi. |
| | 3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. Keyingi ma'ruza mashg'uloti | O'UMga qaraydi. |

| | | |
|---|---|---|
| | tayyorgarlik ko'rishni, ma'ruza matnini o'qib Insert asosida belgilab kelishni aytadi.<br>Keyingi ma'ruza mashg'ulotini o'qishni, dokladchilar uchun savollar to'zib kelishni topshiradi.<br>Referat mavzularini beradi, dokladchilarni taqrizchilarni, opponentlarni belgilab oladi. | |

1-Ilova

## TESTLAR

**1. Falsafa qachon va qayerda fan bulib shakllangan?**

a) er. oldingi 11-ming yillikning 2-yarmida Markaziy Osiyoda;
b) er. oldingi 11-ming yillik boshlarida Misrda;
v) er. oldingi VI-V asrlarda, Yunonistonda;
g) er. oldingi VI-V asrlarda, Hindistonda.

**2. «Dunyoning ibtidosi ham, intihosi ham - suvdir» degan ta'limot qayerda vujudga kelgan?**

a) Misrda;
b) Mesopotamiyada;
v) Qadimgi Rimda;
g) Qadimgi Yunonistonda.

**3. Qadimgi Sharq falsafasining umumiy xususiyati nimadan iborat?**

a) ezgulikka asoslanganligi;
b) mifologik, diniy, falsafiy, axloqiy, ilmiy bilimlarning yaxlit xolda namoyon bo'lishi;
v) ma'naviy omilning xal qiluvchi rolini barcha falsafiy ta'limotlarda e'tirof etilishi;
g) dunyoni faqat mavxum obrazlar orqali aks ettirilganligida.

**4. Falsafada tabiat «g'oyalar dunyosining» hosilasi degan ta'limot dastlab kim tomonidan asoslangan?**

a) Zardusht; v) Platon;
b) Demokrit; g) Aristotel.

**5. Qadimgi Yunonistonda materiya harakati inkor etiladigan falsafiy ta'limotning asoschisi kim?**

a) Pifagor; v) Aristarx;
b) Zenon; g) Ptolemey.

**6. Qadimgi Yunon falsafasining eng ymymiy va alohida xususiyati nimada?**

a) falsafaning alohida ijtimoiy ong bo'lib shakllanganligida;
b) turli falsafiy oqimlarning shakllanganligida;

v) «falsafa - fanlarning fani» bo'lib shakllanganligida;
g) a va b xollarda.

2-Ilova.

**«Klaster» texnikasi**

**Klaster** – fikrlarni tarmoqlanishi- bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarning mavzuni chuqur o'rganishga yordam beradi. Talabalarda mavzuga talluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarni fikrlash faoliyatini jonlantirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirishga undaydi. Klaster texnollgiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayanch so'z beriladi;
2. Barcha talabalar shu so'z bo'yicha xayoliga kelgan hamma so'zlarni yozadilar.
3. Yozilgan so'zlardan bog'lanadiganlarini belgilaydi.
4. Tayanch so'zning mazmunini yoritadi.
5. Dars davomida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar talabalarga ma'lum qilinadi va ular dars davomida tushuntirib beriladi.

Klaster


Ҳинд фалсафаси
Дин
Хитой фалсафаси ва фани
Ком-пос
Ипак
Тиббиёт
Қадимги шарқ фалсафаси
Дин
Миср фани ва фалсафаси
Бобил фани ва фалсафаси
Дин
Ёзув
Меъмор-чилик

## O'QUV TOPShIRIQ. JADVALNI TO'LDIRING
## Falsafa faninnig yuzaga kelishi va taraqqiy etishi

**Қадимги шарқ фалсафаси**

**Қадимги Миср ва Бобилдаги фалсафа**

**Фалсафа**

Фан

Ўзига хослиги:

**Ҳиндистон фалсафаси**

**Фалсафа**

**Фан**

Ўзига хослиги

**Хитой фалсафаси**

**Фалсафа**

**Фан**

Ўзига хослиги

**Қадимги грек фалсафаси ривожининг асосий босқичлари**

Натурфалсафа

Софистлар

Классик давр.

**Эллинизм**

Илк христианлик

| 3 mavzu | MARKAZIY OSIYoDA FALSAFIY FIKRLARNING PAYDO BO'LIShI VA RIVOJLANIShI |
|---|---|

## Ma'ruza olib borish texnologiyasi

<table>
<tr><td colspan="3">Ma'ruza rejasi :<br>1. Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi. Zardo'shtiylik, moniylik, mazdakiylik ta'limotlari. Islom falsafasi. Ilk islomdagi bahslar.<br>2. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyodagi falsafaning taraqiyoti.<br>3. Amur Temur va temuriylar davrida Markaziy Osiyoda ijtimoiy – falsafiy fikrlar.(XIV-XV asrlar)<br>4. XVI asr ikkinchi yarmi va –XIX asrning birinchi yarmigagacha Markaziy Osiyoda ma'rifatparvarlik va ijtimoiy - falsafiy fikrlar rivoji.<br>5. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ma'rifatparvarlik va ijtimoiy siyosiy tafakkur taraqqiyoti.</td></tr>
<tr><td>Ma'ruzaning maqsadi :</td><td colspan="2">Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlarning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari bilan talabalarni yaqindan tanishtirish. Markaziy Osiyo mutaffakkirlarining ijtimoiy hayot masalalariga doir falsafiy qarashlarini tahlil qilish ko'nikmalarini hosil etishdan iborat..</td></tr>
<tr><td colspan="3">Talabaning o'quv faoliyati natijalari:<br>• Markaziy Osiyoda vujudga kelgan falsafiy fikrlar va ularda ko'tarilgan asosiy masalalar izohlay oladilar;<br>• Markaziy Osiyo mutaffakkirlarining ijtimoiy qarashlariga islom dini va ta'limotining ta'sirini ko'rsatib bera oladi;<br>• Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning falsafiy asarlarinining ahamiyatni izohlay oladi;<br>• Amur Temur va temuriylar davridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarni izohlay oladi;<br>• Markaziy Osiyoda XVI asr oxiri va XX asr boshlarida jamiyatidagi ijtimoiy o'zgarishlarni tushuntirib bera oadi;<br>• Markaziy Osiyolik ma'rifatparvarlarning ijtimoiy - falsafiy qarashlarining amaliy ahamiyatini tahlil qila oladi;<br>• Rossiyada ijtimoiy - falsafiy fikrdagi o'zgarishlarning Markaziy Osiyodagi ijtimoiy faoliyatga ta'sirini asoslab bera oladi;<br>• Jadidlarning xarakati va uning o'ziga xos jihatlarini atroflicha tushuntira oladi;</td></tr>
<tr><td colspan="3">Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar :<br>1.Ma'ruza matni bilan tanishib chiqing va savollarga javob bering.<br>Eslatmaga II - qarang.<br>2. O'quv materiallar bilan tanishib chiqing.<br>Eslatmaga II - qarang.<br>3. O'quv topshiriqlar bilan bilan tanishib chiqing.<br>Eslatmaga III- qarang.</td></tr>
| 5 | **O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi** | Tashqi siyosat, chegaralar dahlsizligi, jahon hamjamiyati, yadro qurolidan holi zona, Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat vazirligi, elchi, konsul, vakil, "6+2" memorandumi, BMT, MDH, ShHT, YeI, YeXHT, YuNESKO, xalqaro hamkorlik, sanksiya, qurollanish poygasi, TRASEKA, ikki tomonlama hamkorlik, ko'p tomonlama hamkorlik, agressiya, narkobiznes, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm. |

## 3.
## REFERAT

Referat baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

a) mavzu dolzarbligining ochib berilganligi;
b) mavzuda ko'rsatilgan masalalarning to'la ochib berilganligi;
v) ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda eng samarador usullardan foydalanilganligi;
g) chiqarilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligi.

*NAMUNA*: Modul nomi – Siyosiy tizim (Siyosatshunoslik fanidan)
**Semestr**: 7.2015/2016
**Referat**: Individual yozma ish
**Baholanishdagi ulushi**: 20%
**Berilgan muddati**: 2 oktyabr, 2015
**Topshirish muddati**: 20 noyabr, 2015
**Ye-mail**: social@inbox/uz
**Kafdra soati**: Payshanba, soat 12.00-16.00
**Maqsad va vazifalar:**

**1.** Mavzuga oid adabiyotlar asosida mahalliy va xorijiy manbaa va maxsus adabiyotlar tahlili
**2.** Mavzuga doir qonunchilik hamda nazariy tahlil
**3.** Mavzuga doir yechim va muammolar tahlili va istiqbol yechimlar
**4.** Materialni aniq va to'g'ri xatosiz bayon etilishi, ishni sifatli rasmiylashtirilgani

**Vazifa(lar)**

Kirishda asosiy e'tibor mavzu doirasida ko'tarilgan muammoni ochib berishga qaratiladi. Mavzuning dolzarbligini anglay bilish, ko'tarilayotgan muammoni ko'ra bilish va uni tahlil qilishda qo'llaniladigan uslub kirish qismida aks etishi kerak.

1. Asosiy qismida mavzuga tegishli adabiyotlarning ilmiy va amaliy jihatlari hamda dolzarbligini yoritish
2. Tanlangan mavzuni O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil etilishi zarur
3. Mavzuga oid siyosiy jarayonlarni xorijiy davlatlar misolida qiyosiy tahlil etilishi lozim.
4. Amalga oshirilgan tahlillar asosida ilmiy xulosa chiqariligi zarur.

**Bahlash mezoni**

| Savol | Mazmuni | So'z hajmi | Bet | Ball |
|---|---|---|---|---|
| Asosiy qismida mavzuga tegishli adabiyotlarning ilmiy va amaliy jihatlari hamda dolzarbligini yoritish | Mavzuni ilmiy muammo tarzida ko'rsatish, uslubiy asosini ko'rsatish. Adabiyotlar ichida ilmiy jurnallar, xorijiy davlatda chop etilgan maqola va tezislarning tahliliga e'tibor berish talab qilinadi | 400 ta | 2,3 | 1 |
| Tanlangan mavzuni O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil etilishi zarur | Mavzuni O'zbekistondagi mavjud siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda qiyosiy tahlil qilish | 800 ta | 4,5 | 1 |
| Mavzuga oid jarayonlarni xorijiy davlatlar misolida qiyosiy tahlil etilishi lozim | Mavzuga oid siyosiy jarayon va munosabatlarni xorijiy davlatlar misolida o'rganish ilg'or jihatlar xususida taklif va mulohazalar kiritish | 900 ta | 2,3 | 2 |
| Amalga oshirilgan tahlillar asosida ilmiy xulosa chiqarilishi zarur | Talaba tomonilan keltirilgan taklif va mulohazalar infogfika, jadval, turli ko'rinishdagi jadvallar asosida ko'rsatilishi talab qilinadi | 600 ta | 2 | 1 |
| | Jami | 2700 ta so'z (10-14 varaq) | | |

- 3 ball mustaqil ishi tuzilishi va tarkibi uchun beriladi
- 2 ball keltirigan ma'lumotlarning to'g'riligi va asoslanganligi uchun beriladi
- Umumiy ball 5 ni tashkil etadi

**Ko'rsatmalar**

- Ushbu mustaqil ishi individul topshiriq hisoblanadi. Mazkur topshiriqni bajarish uchun sizga kerakli ma'lumotlar va imliy manbalar ushbu kurs joylashgan **www.jspi-social.zn.uz** sahifasida joylashtirilgan
- Siz yaxshi tuzilishga ega bo'lgan 14 bet xajmdan ortiq bo'lmagan mustaqil ishi pechatlangan va elektron holatda topshirishingiz zarur bo'ladi. U diagrammalar, jadvallar va manbaalar ro'yxatini o'z ichiga olmaydi. Mustaqil ish Times New Roman shrifida, 14 kattalikda 1 oraliq masofaga ega bo'lgan A4 xajmda sahifalangan bo'lishi kerak. Talabaning FIO va tahsil oladigan fakultet va guruhi aniq ko'rsatilishi zarur.
- Internet sahifalardan ko'chirilgan ishlar antiplagiat dasturida tekshirilib ko'riladi. Ko'chirilgan bo'lsa ball qo'yilmaydi

Mazkur mustaqil ish uchun so'ngi muddat _____ yil _____ kuni _____ soat gacha. Guruhdagi barcha talabalar shu muddatda mustaqil ishlarini kafedraga topshirishi shart.

## 4.
## INTERNET TARMOG'IDAGI SAYTLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | **www.anons.uz** | **14** | **www.xs.uz** |
| **2** | **www.gazeta.uz** | **15** | **www.mt.uz** |
| **3** | **www.12.uz** | **16** | **www.xdp.uz** |
| **4** | **www.uza.uz** | **17** | **www.stat.uz** |
| **5** | **www.daryo.uz** | **18** | **www.monitoring.uz** |
| **6** | **www.idrok.uz** | **19** | **www.natlib.uz** |
| **7** | **www.ictnews.uz** | **20** | **www.txt.uz** |
| **8** | **www.marifat.uz** | **21** | **www.dissercat.com** |
| **9** | **www.lex.uz** | **22** | **www.jspi-social.zn.uz** |
| **10** | **www.ziyonet.uz** | **23** | **www.mybook.uz** |
| **11** | **www.edu.uz** | **24** | **www.21asr.uz** |
| **12** | **www.xtv.uz** | **25** | **www.pv.uz** |
| **13** | **www.senat.uz** | **26** | **www.jspi.uz** |

## O'ZDJQNA FANIDAN SLAYD TAYYORLASH UCHUN MAVZULAR

| | |
|---|---|
| **1.** | O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lida. |
| **2** | O'zbekiston davlat ramzlarining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi. |
| **3** | O'zbekiston Respublikasining yangi konstitusiyasi. |
| **4** | O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va uning siyosiy ahamiyati. |
| **5** | O'zbekistonda davlat hokimiyatining tashkil etilishi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari. |
| **6** | O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi funksiyalari va faoliyati. |
| **7** | O'zbekistonning bozor iqtisodiyotining o'tish zaruriyati, maqsadlari, shart-sharoitlari. |
| **8** | Diniy fundamentalizm ma'naviy kamolotning kushandasidir. |
| **9** | O'zbekistonning mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi va uning tamoyillari. |

| | |
|---|---|
| **10** | O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va xalqaro nufuzining ortishi. |
| **11** | O'zbekistonda milliy parlamentarizm-taraqqiyot yo'lida |
| **12** | O'zbekistonda qishloq va shahar xayotining o'yg'unlashuvi (zamonaviy uy-joylar qurilishi) |
| **13** | O'zbekistonda uch bosqichli sport musobaqalarini tashkil etilishi-barkamol avlod tarbiyalashning muhim sharti |
| **14** | "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya"sining taraqqiyot yo'lini belgilashdagi o'rni |
| **15** | O'zbekistonda NNT larni tashkil qilishning huquqiy asoslari |

## 5.
## ALBOMLAR TAYYORLASH

| № | Mavzusi |
|---|---|
| **1** | O'zbekistonda oila institutining shakllanishida qadriyatiy munosabatlarning o'rni |
| **2** | Mustaqillik va diniy qadriyatlar |
| **3** | Mustaqillik va millatlararo totuvlik |
| **4** | O'zbekistonda bank tizimining shakllanishi tarixi |
| **5** | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik-iqtisodiyotimizning ajralmas qismidir |
| **6** | Tadbirkorlik rivoji –taraqqiyot garovi |
| **7** | "Sharq taronalari"-dunyo xalqlarini ezgulikka chorlovchi musiqa festivali |
| **8** | "O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash-bizning farzandlik burchimiz"(9-may Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab). |
| **9** | Diniy fundamentalizm ma'naviy kamolotning kushandasidir |
| **10** | Demokratiya va axloq |

## 6.
## TEST TUZUSH

**NAMUNA** : Modul nomi – Siyosiy tizim (Siyosatshunoslik fanidan)
**Semestr**: 7.2015/2016
**Referat**: Individual yozma ish
**Baholanishdagi ulushi**: 4% (20 ta test)
**Berilgan muddati**: 2 oktyabr, 2015
**Topshirish muddati**: 20 noyabr, 2015
**Ye-mail**: social@inbox/uz
**Kafdra soati**: Payshanba, soat 12.00-16.00

**Maqsad va vazifalar:** Axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanish va fan mavzularini kompleks hamda uzliksiz tayyorgarligini ta'minlash.

- Tuzilgan savollar mavzu mohiyatini to'liq ochib bergan, muhim qoidalar, g'oyalar, qonuniyatlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa, 3-4 ball;
- Savollar to'g'ri tuzilgan, lekin ayrim kamchiliklar bo'lsa, 2-2.9 ball;
- Tuzilgan savollar umumiy va g'alizliklar bo'lsa,1-1.9 ball;

**Test tuzushdan namuna**

| **TR** | **Test savoli** | **Muqobil javob (a)** | **Muqobil javob (b)** | **Muqobil javob (v)** | **Muqobil javob (g)** |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **"Siyosatshunoslik" yunoncha** | Aristotel | | Platon | Strabon |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **so'zdan olingan bo'lib siyosat haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi. Bu atamani birinchi bo'lim kim ilmiy muomalaga olib kiritgan?** | | Geraklit | | |
| 2 | **"Siyosatshunoslik" fanining obyekti qaysi javobda to'liq keltirilgan?** | Siyosiy partiyalar va tashkilotlar | Asosiy siyosiy tashkilo tlar | Siyosat va jamiyatning siyosiy hayoti | Siyosiy hokimiyat va uning amalga oshirilishi |

**7**

## MAQOLA VA TEZIS TAYYoRLASh

Maqolada ijtimoiy hayot xodisalari chuqur taxlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi. Maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, talabaning (o'quvchining) g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Maqolalar nazariy, ilmiy, targ'ibot, muammoli shakllarda bo'ladi.

***Maqolani baholashda:***

- Mavzuda o'rganilayotgan obyekt chuqur tahlil qilinib, asos, gepoteza ilgari surilgan, muammo yechimlari ko'rsatilgan bo'lsa, 4-5 ball;
- Mavzu tahlil qilingan, muammoni yechishga oid taklif berilgan bo'lsa, 3-3.9 ball;
- Mavzuda ilmiy faraz ilgari surilgan bo'lsa -2-2.9 ball;
- Mavzu targ'ibot shaklda ifodalangan bo'lsa, 1-1.9 ball.

## FALSAFA FANI BO'YICHA TEST VARIANTLARI

**1. Falsafa» so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?**
A. Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – donolik
B. Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – bilish
V. Lotincha, philo – sevaman va sophi – donishmandlik
G. Lotincha, phileo – sevaman va sophia – donolik

**2. «Falsafa» atamasini birinchi bo'lib qaysi faylasuf o'z asarida qo'llagan?**
A. Aristotel
V. Pifagor
S. Suqrot
Ye. Platon

**3. Arxeolog olimlarning fikriga ko'ra tik oyoqda yuruvchi "homo sapiens" odam taxminan necha million yil oldin vujudga kelgan?**
A. 5 mln avval
V. 3,5 mln avval
S. 1,5 mln avval
Ye. 2 mln yil avval

4. **Quyidagi javoblardan qaysi birida dunyoqarashning nisbatan muhim funksiyasi ko'rsatilgan?**
A. Bilish funksiyasi
V. Qadriyatlarga munosabati
S. A, V, Ye javoblar to'g'ri
Ye. Xulq atvorni belgilash

5. **Dunyoqarashning tuzilishi qanday?**
A. Dunyoni sezish, idrok etish, tushunish
V. Dunyoni tasavvur qilish
S. Axloqni yuksaltirish
Ye. A,V,S javoblar to'g'ri

6. **Dunyoni sezish bu?**
A. Bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish
V. Faqat obyektlarni anglash
S. Inson o'zini tushunish
Ye. Aql yordamida tushunish

7. **Faqat insonga xos xususiyatni aniqlang?**
A. Dunyoni tushunish
V. Harakat qilish
S. Dunyoni sezish (qisman)
Ye. Barcha javoblar noto'g'ri

8. **Tarixan dunyoqarashning shakllari bu?**
A. Mif, din, falsafa, fan
V. Mif, fan, ov
S. Din, san'at, mehnat
Ye. Fan, falsafa, ov

9. **Mif atamasi qanday ma'nolarni anglatadi?**
A. Rivoyat, afsona
V. San'at, voqyea
S. O'yin, san'at
Ye. Afsona, urush

10. **Miflar nimalar orqali ifodalanadi?**
A. Rivoyat, ertaklar
V. Ertaklar, qo'shiqlar
S. Mehnat, ov
Ye. Qo'shiq, kuy

11. **Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G'arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko'rinishda vujudga kelgan?**
A) Mifologiya
B) Ontologik
V) Gnoseologik
G) Dialektik

12. **Mifologiyada dastlab qanday masalalar qo'yilgan?**

A) Dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi? Hayot va o'lim nima?
B) Nega tug'ildik va nimaga o'lamiz
V) Biz kimmiz nega tug'ildik
G) Unday nazariya bo'lmagan

**13. Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang?**
A) Ioniya, Sisiliya, Afina
B) Makedoniya, Samarqand, Buxoro
V) Buxoro, Toshkent
G) Xiva, Toshkent

**14. Sharq va G'arb falsafasi nimaga qarab rivojlangan ?**
A) Umuminsoniy qadriyatlarga
B) Davlatlarga qarab
V) Mehnat taqsimotiga qarab
G) Qurollarning takomillashuviga qarab

**15. Markaziy Osiyoda ma'naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
A) Avesto
B) Talmut
V) Injil
G) Qur'oni Karim

**16. "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi kim tomonidan ilgari surilgan?**
A) Zardusht
B) G'azzoliy
V) Nasafiy
G) Navoiy

**17. Yangi davrda E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini qanday yo'l bilan aniqladi?**
A. Eksperimental
B. Kuzatish
V. Aniqlamagan
G. Tajriba asosida.

**18. Qon aylanishini kim kashf etdi?**
A. V.Garvey
B. E.Torrichelli
V. U.Gilbert
G. R.Boyl

**19. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi Angliyada kim tomonidan ishlab chiqildi?**
A. T.Gobbs
B. G.Grosiy
V. G.Leybnis
G. R.Dekart

**20. Yangi davrda fanlarning rivojlanish jarayonida falsafada qanday ajralishlar sodir bo'ldi?**
A. Sxolastika va din

B. Tabiat va din
V. Sxolastika va tabiat
G. Falsafada ajralishlar bo'lmadi.

**21. F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, R.Dekart, B.Spinoza va Leybnis qaysi asrga yashab ijod etgan?**
A. XVII asr
B. XV asr
V. XIX asr
G. XX asr

**22. Pozitivizmda bilimlar nechaga bo'linadi?**
A. Soxta va haqiqiy bilim
B. Kundalik va ijtimoiy bilim
V. Eski va yangi bilim
G. Bilimlar ajratilmaydi.

**23. Yangi davr falsafasida faylasuflarni qiziqtirgan asosiy masala nima edi?**
A. Substansiya va uning xossalari
B. Inson masalasi
V. Borliq masalasi
G. Makon va zamon

**24. «Harakat – materiyaning tug'ma xossasi» kimning fikri?**
A. F.Bekon
B. T.Gobbs
V. R.Dekart
G. Spinoza

**25. T.Gobbsning dunyo haqidagi falsafiy qarashlari qanday?**
A. Deistik
B. Ateistik
V. Idealistik
G. Har xil

**26. «Ontologiya» atamasi qaysi so'zdan olingan?**
A. Yunoncha «ontos» - borliq, «logos» - so'z, ta'limot.
B. Lotincha «ontos» - borliq, «logos» - so'z, ta'limot.
V. Arabchadan olingan
G. To'g'ri javob yo'q.

**27. Borliq haqidagi tasavvurlar bizgacha qanday yetib kelgan?**
A. Afsonalar va miflar orqali
B. Ilmiy dalillar orqali
V. Qadriyatlar, urf - odatlar orqali
G. To'g'ri javob yo'q.

**28. Upanishadalarda dunyo haqidagi qanday tasavvurlar o'z aksini topgan?**
A. Materialistik va ateistik
B. Deistik
V. Ateistik

G. To’g’ri javob yo’q.

**29. «Hamma narsa yer va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham yer va suvdan paydo bo’lganmiz»» kimning fikri?**
A. Ksenofan
B. Anaksimandr
V. Fales
G. Pifagor

**30. «Hamma narsa sondir» kimning fikri?**
A. Pifagor
B. Fales
V. Anaksimandr
G. Ksenofan

**31. Faylasuflar orasida birinchi bo’lib, borliqni kategoriya sifatida kim tavsifladi?**
A. Parmenid
B. Anaksimandr
V. Fales
G. Pifagor

**32. Borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondoshuvni ilk bor kim ilgari surdi?**
A. Geraklit
B. B. Fales
V. Anaksimandr
G. Ksenofan

**33. Sharq mutafakkirlaridan kim borliq muammosini hal qilishda «Vujudi vojib» va «Vujudi mumkin» ning o’zaro nisbatiga murojaat qiladi?**
A. Forobiy
B. Al - Xorazmiy
V. At – Termiziy
G. To’g’ri javob yo’q.

**34. O’z – o’zini to’liq belgilovchi borliqni xizmat qiladigan tushuncha?**
A) Substansiya
B) Materiya
V) Reallik
G) Dalil

**35. Subsansiya bir vaqtning o’zida ham tabiat, ham xudo va sifatida ta’riflagan va bu ikki tushunchani tenglashtirgan**
**faylasufni toping?**
A) Spinoza
B) Gegel
V) Fixte
G) Dekart

**36. Birinchi asos sifatida ikkita substansiya olingan falsafiy yondashuv nima deb ataladi?**

A) Dualizm
A) Totemizm
V) Fetishizm
G) Deizm

**37. Falsafa tarixida dualizmning yorqin vakili sifatida o’rin olgan faylasuf kim?**
A) R. Dekart
B) Gegel
V) Shelling
G) Spinoza

**38. Lametrining dualizmni inkor qilib yozgan asarni ko’rsating?**
A) Ruhning tabiiy tarixi
B) Inson va mashina
V) Inson - o’simlik
G) Epikur tizimi

**39. Dunyoning negizida ikkita emas balki undan ko’proq mohiyat borligini tan oluvchi ta’limot?**
A) Plyuralizm
B) Dualizm
V) Deizm
G) Monizm

**40. Plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladigan ta’limot?**
A) Dunyoning to’rt asosi haqidagi ta’limot
B) Monadalar haqidagi ta’limot
V) Teleologik ta’limot
G) To’g’ri javob yo’q.

**41. Monizm ta’limotiga  to’g’ri ta’rif berilgan qatorni ko’rsating?**
A) Dunyoning narsalar va hodisalar rang – barangligi bir substansiyadan iborat
B) Dunyoning negizida ikkita emas undan ko’proq mohiyat bor.
V) Birinchi asos sifatida ikkita substansiya olingan falsafiy yondashuv
G) A va B javoblar to’g’ri

**42. Monizm nechta yondashuvga ega?**
A) 2 ta
B) 3 ta
V) 4 ta
G) 6 ta

**43. Lotinchada to’shama, negiz ma’nosini beradigan tushunchani toping?**
A) Substansiya
B) Materialisik monizm
V) Plyuralizm
G) Idealisik monizm

**44. Materiya tushunchasini asosiy falsafiy kategoriya sifatida ilk bor ishlatgan faylasuf?**
A) Platon
B) Suqrot

V) Aristotel
G) Gegel

**45. Materiyaning tarkibiy darajalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?**
A) Tirik, notirik va ijtimoiy
B) Jonli va ijtimoiy materiya
V) Tirik va notirik
G) Iyerarxiya va jonsiz materiya

**46. Miqdor va sifat o'zgarishlarini ifodalash uchun qanday kategoriyalar qo'llaniladi?**
A. «harakat» va «rivojlanish»
B. «miqdor» va «sifat»
V. «makon» va «zamon»
G. To'g'ri javob yo'q.

**47. Falsafada turli jismlarning makonda mexanik siljishi, tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o'zgarishi nima deyiladi?**
A. Harakat
B. Rivojlanish
V. Zamon
G. To'g'ri javob yo'q.

**48. Harakatning asosiy xususiyatlari qanday?**
A. Abadiy va mutloq
B. Nisbiy va o'tkinchi
V. Jarayon
G. To'g'ri javob yo'q.

**49. Harakatsizlikning asosiy xususiyatlari qanday?**
A. Nisbiy va o'tkinchi
B. Jarayon
V. Abadiy va mutloq
G. To'g'ri javob yo'q.

**50. Muhokamalardagi ziddiyat tufayli hal etib bo'lmaydigan yoki hal etilishi mushkul bo'lgan holat, mantiqiy qiyinchilik, muammo nima deb ataladi?**
A. Aporiya
B. Masala
V. Ziddiyatli muammo
G. Yechimi yo'q muammo.

**51. Materiya harakatining nechta asosiy shakli mavjud?**
A. Besh
B.Olti
V. Ikki
G. Cheksiz

**52. Substansional konsepsiya asoschilari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?**
A) Demokrit va Platon
B) Demokrit va Suqrot
V) Suqrot va Platon
G) Epikur va Suqrot

**53. "Tashqarida makon va zamon mavjud bo'lmaydi" degan fikr muallifi kim?**
A) Leybnis
B) D.Yum
V) Kant
G) Avgustin

**54. Nyuton konsepsiyasiga ko'ra ... ?**
A) Makon absolyut cheksiz ko'lamga ega
B) Makon cheksiz
V) Makon mutloq
G To'g'ri javob yo'q.

**55. Tabiatning jonli qismi qaysi sferalarda mavjud deb e'tirof etilgan?**
A) Atmosfera, gidrosferani va litosferaning yuqori qismi
B) Atmosfera, stratosfera va litosferaning yuqori qismi
V) Gidrosfera, biosfera va litosfera
G) Atmosfera, gidrosfera, biosfera

**56. Ibtidoiy odamning mehnat shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
A) Termachilik, ovchilik, baliqchilik
B) Chorvachilik, ovchilik
V) Dehqonchilik, termachilik, baliqchilik
G) Ziroatchilik, chorvachilik, ovchilik

**57. "Inson barcha narsalar mezonidir: u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi". Ushbu fikrning muallifini toping?**
A) Protogor
B) Suqrot
V) Platon
G) Aristotel

**58. Jon haqidagi ta'limotni birinchi bo'lib kim yaratgan?**
A) Platon
B) Aristotel
V) Forobiy
G) Kant

**59. Miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin bo'lmagan, massasi xam, energiyasi ham yo'q, moddiy obyektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga xam ega bo'lmagan falsafiy kategoriya bu ...**

A) Hodisa
B) Harakat
V) Sabab
G) Ong

**60. Geraklit qanday birinchi asoslarni oqil va oliyjanob va tub asos deb hisoblagan?**
A) Suv va havo
B) Olov va suv
V) Olov va havo
G) Havo va apeyron

**61. Qaysi faylasuflar moddiy va ideal hodisalarni farqlagan?**
A) Suqrot va Platon
B) Suqrot va Protogor
V) Platon va Protogor
G) Geraklit va Suqrot

**62. Inson uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa bu- …?**
A) Shaxs
B) Harakat
V) Ong
G) Ongsizlik

**63. Ongsizlik bu-…**
A) Inson yeydigan oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bilan bog'langan.
B) Inson uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa
V) Jonning bir qismi
G) Ongning mazkur lahzada ong bilan boshqarishga qodir bo'lmagan parchasi.

**64. Dialektika shakllangan dastlabki davrlarda qanday ifodalangan?**
A) olamning asosiga materiyani qo'ygan.
B) dunyoni jonli olov yoki ikki marta kirish mumkin bo'lmagan daryo oqimi sifatida tasavvur qilingan.
V) bahslashish, munozara qilish san'ati sifatida tushunilgan, bunda fikrlar, qarashlar qarama-qarshiligi vositasida haqiqatning tagiga yetish maqsadida muammoni o'zaro manfaatdor muhokama qaratilgan munozara nazarda tutilgan.
G) barcha javoblar to'g'ri.

**65. Gegel dialektikani kanday ta'riflagan?**
A) Dunyoni quyidan oliyga karab boruvchi umumiy rivojlanish jarayonisi fatida ta'riflagan.
B) Odamlar ongiga diniy dunyoqarashni singdirishni tasvirlagan.
V) Materalizmni dialektik mantiq bilan bog'lashga harakat qilgan.
G) tabiiy va ijtimoiy xodisalarning uzaro alokasi va rivojlanishi deb ta'riflagan.

**66. Obyektiv dialektika bu - …**
A) Dunyoni quyidan oliyga qarab boruvchi umumiy rivojlanish jarayoni sifatida tasvirlash.

B) Tabiiy va ijtimoiy xodisalarning o'zaro aloqasi va rivojlanishi.
V) Dunyoni metafizik tushunish.
G) Barcha javoblar to'g'ri.

**67. Subyektiv dialektika bu - …**
A) Tabiiy va ijtimoiy hodisalarning o'zaro aloqasi va rivojlanishi.
B) Subyektning fikrlash dialektikasi va uning obyektiv dunyoni bilishi
V) Dunyoni quyidan oliyga qarab boruvchi umumiy rivojlanish jarayoni sifatida tasvirlash.
G) Dunyoni metafizik tushunish.

**68. Borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim mazmunini o'zida aks ettiruvchi falsafiy tushuncha nima ?**
A. Kategoriya
B. G'oya
V. Gipoteza
G. Mulohaza

**69. Faqat mazkur obyektga xos bo'lgan xossalarni ifodalovchi kategoriya qaysi?**
A. Yakkalik
B. Umumiylik
V. Alohidalik
G. Xususiylik

**70. Yakkaga nisbatan umumiy, umumiyga nisbatan yakka hodisa qaysi kategoriyani toping?**
A. Xususiylik
B. Umumiylik
V. Yakkalik
G. Ayrimlik

**71. Narsaning jarayonda bevosita namoyon bo'luvchi xossalar yig'indisini ifodalovchi kategoriya nima deyiladi?**
A. Hodisa
B. Mohiyat
V. Umumiylik
G. Yakkalik

**72. Bilish xaqidagi ta'limot bu - ...?**
A. Gnoselogiya
B. Ontologiya
V. Ideologiya
G. Epistemologiya

**73. Ilmiy bilish qaysi tushuncha bilan nomlanadi ?**
A. Epistemologiya
B. Ontologiya
V. Ideologiya
G. Gnoselogiya

**74. O'zini qurshagan dunyodagi narsalar va xodisalarni sezgilar orqali idrok etishga nima deb ataladi?**
A. Persepsiya

B. Appersepsiya
V. Fatalizm
G. Formalizm

**75. Ilmiy bilish darajalarini ko'rsating.**
A) Empirik va nazariy
B) Xissiy va amaliy
V) Transendental va aqliy
G) Empirik va amaliy

**76. Empirik bilish shakllarini sanab o'ting?**
A) Kuzatish, eksperiment, ilmiy dalillash
B) Modellashtirish tarixiy analogiya, bashorat
V) ilmiy muammo, muammoli vaziyat, tarixilik
G) Gipoteza, paradigma, nazariya

**77. Metodologiya ikki mazmunga ega: bo'lar qaysilar?**
A) Faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi, tizim haqidagi ta'limot
B) Bashorat usuli va san'at haqidagi
V) Sevish usuli va san'at haqidagi
G) Yolg'onshunoslik va kuzatish haqidagi

**78. Metodning asosiy vazifasi?**
A) Faoliyatni bilish va boshqa shakllarni boshqaruvi
B) Tushunchalarni borliqda anglab yetish
V) Shart-sharoitni nazorat qilish va kuzatish
G) Tushuncha, mulohaza, fikrni o'rganishdan iborat

**79. Bilish faoliyati bilim olish jarayoni sifatida o'z ichiga nimalarni oladi?**
A) Ehtiyojlar, maqsadlar, ularga erishish vositalari, bilishning shart-sharoitlari, subyektning informasion xulq-atvori usullari, obyekti va faoliyati natijasi
B) Xulq-atvor usullari, bilishning shart-sharoitlari, maqsadlari, emperik tadqiqot metodlari
V) Gipotezalar, nazariyalar, informasion vaziyatlar, tamoyillar
D) Obyekt va faoliyat natijalari, motivlar, ehtiyojlar

**80. Axborot nimalarning evaziga vujudga keladi?**
A) O'z subyekti va obyekti o'rtasidagi o'zaro aloqa jarayoni evaziga
B) Sezgilar evaziga
V) Aql va idrok evaziga
D) Tasavvur, xayol va intuisiya evaziga

**81. Obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bu…**
A) Axborot
B) Bilim
V) G'oya
D) Fikr

**82. Axborotning muhim xususiyatlarini ko'rsating?**
A) Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatlari
B) Subyektivlik va qayta ishlash

V) Obyektivlik va subyektivlik, axborotni yig'ish
D) Qayta ishlash, yig'ish, uzatish

**83. Bilish nima ?**
A) Barcha javoblar to'g'ri
B) Subyekt ongning mavjudi
V) Bilish faoliyatining natijasi
D) Amalda mavjud predmetlarga bog'langan bilish obrazlari majmui

**84. "O'tmish madaniyatini tushunish talqin qiluvchining o'zini tushunishi bilan uzviydir" ushbu fikr muallifini toping?**
A) X.G.Gadamer
B) S.Tulmin
V) Ruzavin
G) M.Xaydegger

**85. Nima o'zida tushunishning siklik xususiyatlarini aks ettiradi?**
A) Germenevtik doira
B) Olmaxon g'ildiragi
V) Chiziqli tafakkur
G) Nochiziqli tafakkur

**86. Germenevtik doiraning "Olmaxon g'ildiragi" farqini ko'rsating?**
A) Bir butundan undanda to'liqroq butunga qaytishida
B) Metafizik xususiyatga egaligida
V) Safistik xususiyatga ega ekanligida
G) Eklektik xususiyatga ega ekanligida

**87. Tushunish bu …….?**
A) Fikr yuritish orqali simvolda yashirin ma'noni aniqlash demak
B) Borliqni anglash
V) Olimning iqtisodiy yondashuvi
G) To'g'ri javob yo'q

**88. Ilmiy faoliyatning asosiy proseduralarini sanab o'ting?**
A) Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish
B) Farmallashtirish, umumlashtirish,
V) Induksiya, analiz, sintez
G) Ideallashtirish va eksperiment

**89. Tushunish jarayoni nima bilan bog'liq bo'ladi?**
A) Anglab yetish ya'ni inson uchun ma'lum ma'noga ega bo'lgan narsalarni aniqlash bilan
B) Izohlash bilan
V) Tavsiflash bilan
G) Talqin bilan

**90. Tarix falsafasining funksiyalarini belgilang?**
A) Dunyoqarash, nazariy metodologik, prognostik
B) Dunyoqarash, pedogogik, didaktik
V) Eksperimental, prognostik
G) Insonparvarlik, ontologik, gnoseologik

**91. Tarix falsafasining gnoseologik yo'nalishi qachon mustaqil shakllana boshladi?**
A) XIX asrda
B) XX asrda
V) XV asrda
G) XVIII asrda

**92. Insonning ichki dunyosini birinchi o'ringa qo'yish qaysi falsafiy konsepsiyaga xos deb xisoblaniladi?**
A) antroposentrizm
B) Teosentrizm
V) Kosmosentrizm
G) Ssiyentrizm

**93. "Individ" tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang?**
A) muayyan insonning umumiy obrazi
B) Muayyan o'ziga xos xususiyatlar
V) Ijtimoiy mavjudot
G) Muayyan insonning umumiy obrazi va xususiyatlari

**94. Insonning kundalik hayot tajribasiga, tabiat va jamiyatda u yoki bu vokeani tez-tez takrorlanishini bevosita kuzatishga asoslanadigan bashorat turini belgilang?**
A) Ilmiy bashorat
B) Intuitiv bashorat
V) Kundalik bashorat
G) Yillik bashorat

**95. Globalistika zamirida qanday jarayonlar yotadi?**
A. Qarama -qarshi jarayonlar va integrasiya.
B. Ilmiy bilishning tabaqalashuvi
V. Turdosh fanlarning tutashishi.
G. A va V

**96. Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yildan shakllana boshlagan?**
A 1960-yillardan
B. 1980-yillardan
V. 1970-yillardan
G. 1990-yillardan

**97. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari nechanchi asrlardan boshlab kuzatilgan?**
A. XV asr oxirlaridan
B. XVIII asr boshidan
V. XVIII asr o'rtalaridan
G. XIX asrdan

**98. Globallashuv jarayonlarining amalda real shakl-shamoili qachondan boshlab ko'zga ko'ringan?**
A .XIX asr boshida
B. XV asr oxirida
V. XVIII asrda
G. XVIII asrda

## FALSAFA FANI BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI VA REYTING TIZIMI

### JORIY NAZORAT TURIDA BAHOLASh MEZONLARI

Seminar mashg’ulotlarini baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

a) seminar mavzusi doirasida ko’rsatilgan savollar bo’yicha konspektning mavjudligi;

b) mashg’ulotga tayyorgarlik jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanganligi;

v) tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo’shimcha adabiyotlardan (darslik, davriy matbuot, internet manbalari) foydalanganmi;

g) seminar rejasida qo’yilgan savollarga javoblarning aniq ilmiy asoslanganligi;

d) har bir savol bo’yicha xulosalarning to’g’riligi.

*Izox*: Muayyan seminar mashg’ulotlarni baholash jarayonida seminarga ajratilgan mustaqil ish soatlari hisobga olinadi.

### ORALIQ NAZORAT TURIDA BAHOLASh MEZONLARI

1.Fanning ON uchun belgilangan bo’limi yoki qismi bo’yicha nazariy bilimlarni to’la o’zlashtirganlik darajasi;

2.Olingan nazariy bilimlarni qo’llay bilish ko’nikmalarining shakllanganlik darajasi;

3.Qo’yilgan savollarga berilgan javoblarning ilmiy asoslanganligi;

4.O’tilgan mavzular bo’yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etganligi.

5.Tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari, boshqa davriy matbuot, va h.k. manbalardan foydalanilganlik.

**Eslatma:**

1. Tahlil etilishi mo‘ljallangan adabiyotlarga individual yondoshilib, u qo‘yilgan maqsadning keng qamrovligi va aniqligi bilan belgilanadi.
2. Oraliq nazorat ishlari o‘qituvchi va talabalarning xohishi asosida yozma, og‘zaki yoki test nazorati usulida o‘tkazilishi mumkin.

### YAKUNIY NAZORAT ISHLARINI BAHOLASH MEZONLARI

86-100 ball bilan baholanadi:

- Talaba Falsafa tarixi fani bo‘yicha mustaqil mushohada yuritsa;
- fanning qonuniyatlari, kategoriyalari va metodologiyasining mohiyati va mazmunini tushunsa;
- Falsafa tarixi faniga doir aniq tasavvurga ega bo‘lsa, ularni jamiyat va inson faoliyatiga oid misollar orqali ifodalab bersa, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olsa;
- o‘tilgan mavzular bo‘yicha xulosa va qarorlar kabul qilsa;
- ijodiy fikrlasa, tanqidiy munosabatlar bildirsa, o‘z fikrini erkin bayon etsa;
- ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarsa va to‘plagan ma’lumotlarida birinchi manbalarga murojaat etgan bo‘lsa

**1. Talabaning bilimi-**

2. 71-85 ball bilan baholanadi:

- talaba Falsafa tarixi fani bo‘yicha mustaqil fikrlay olsa, bildirilgan fikrlarini anglay olsa;
- fanning muhim mezoniy tushunchalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lsa, uni bilsa va tushuntirib bera olsa;
- ma’ruza, seminar va mustaqil ish uchun berilgan topshiriqlarni bajarsa.

56-70 ball bilan baholanadi:

- fanning asosiy mezoniy tushunchalari va tamoyillarini tushunsa va aytib bersa;
- ma’ruza, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarni yozgan va bajargan bo‘lsa;
- mashg‘ulotlarda o‘z mulohazasi bilan ishtirok etib tursa.

0- 55 ball bilan baholanadi:

- fan va qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lmasa, ularning mohiyatini tushunmasa;

- JN va ON larni topshira olmagan bo‘lsa;
- ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil topshiriqlarni yozmagan va bajarmagan bo‘lsa;
- darslarni sababsiz qoldirgan bo‘lsa;
- darsda faol bo‘lmasdan va intizomsizlik qilsa.

3.

**4.Mustaqil ishni baxolash mezonlari**

5.(Joriy va oraliq nazorat ishlariga ajratilgan ballardan 5 balldan olinadi.)jami 10 ball.

6.**3,5-5 ball**- falsafiy yo‘nalishlarni, tushuncha, kategoriya, konsepsiyalarni bilishi;

7.**5,5-7 ball**-qo‘yilgan masalalarni tahlil qilish,muayyan falsafiy masalalar bo‘yicha mustaqil xulosa chiqarish malakasiga ega bo‘lish;

8.**8-10 ball-** asosiy g‘oyalarni tanqidiy tahlil qilish va ular asosida o‘zining mustaqil fikrlarini rivojlantira olish;

FALSAFA FANI BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI

| Joriy nazorat 35 | Oraliq nazorat 35 | Yakuniy nazorat 30 |
|---|---|---|
| 30 -35 “5”<br>25 -29 “4”<br>19 - 24 “3” | 30 -35 “5”<br>25 -29 “4”<br>19 - 24 “3” | 26 – 30 “5”<br>21 – 25 “4”<br>16 – 21 “3” |

## FALSAFIY ATAMALAR IZOHLI LUG’ATI

**Agnostisizm** – inson obyektiv borliqni to’liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

**Antissiyentizm** – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

**Antropogen** – inson faoliyati bilan bog’liq.

**Antroposentrizm** – dunyoni bilishda insonni ustun qo’yuvchi falsafiy yondashuv.

**Aprior** – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko’rilgunga qadar, tajribadan qat’iy nazar paydo bo’lgan obraz, g’oya, tushuncha.

**Ateizm** – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

**Atribut** – xossa.

**Bashorat –** kelajak haqidagi, ya’ni hali amalda mavjud bo’lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi obyektiv va subyektiv omillar ko’rinishida hozirgi zamonda potensial mavjud bo’lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim.

**Belgi** – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

**Garmoniya** – bir butun narsa qismlarining o’zaro muvofiqligi.

**Germenevtika** – falsafada – tarix, madaniyatni, o’zga individuallikni tushunish san’ati.

**Gipotetik** – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

**Globallashuv** – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

**Globalistika** – globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

**Gnoseologiya** – bilish nazariyasi.

**Deduksiya** – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo’lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo’l bilan keltirib chiqariladi.

**Dezintegrasiya** – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

**Deizm** – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqyealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

**Determinizm** – barcha voqyealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog’langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

**Dialektika** – harakat, rivojlanish, o’zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.

**Diskret** – uzlukli.

**Differensiasi**ya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo’linishi, parchalanishi, ajralishi.

**Ideal** – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

**Iyerarxiya** – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqyeiga ko’ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo’ysunishi.

**Ijtimoiy prognoz qilish** kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi

**Izotrop** – barcha yo'nalishlarda bir xil.

**Indeterminizm** – determinizmga qarama-qarshi ta'limot.

**Integrasiya** – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

**Introvertiv** – o'ziga, o'z ichki dunyosiga qarab mo'ljal oluvchi.

**Imitasiya** – taqlid qilish, soxtalashtirish.

**Axborot inqilobi** – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo'lib, bunda axborot o'ta muhim resursga aylanadi.

**Irrasionalizm** – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

**Kauzallik –** sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

**Kommunikasiya** (keng ma'noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo'lib, uning yordamida «Men» o'zini boshqa odamda topadi.

**Konstitusiyalash** – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

**Konsyumerizm** – iste'mol qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

**Koevolyusiya** – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

**Kreasionizm** – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta'limot.

**Materializm** – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.

**Metafizika** – Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning o'ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

**Metodologiya** – metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

**Milliy muammolar** tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

**Mintaqaviy muammolar** ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi

**Mistika** – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

**Moddiylashtirish** – ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

**Modus** – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

**Monizm** – plyuralizmga zid o'laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

**Nano yunoncha "nanos" s**o'zidan olingan bo'lib, mitti degan ma'noni bildiradi.

**Nanotexnologiya-**mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir.

**Negativ** – salbiy, biror narsaga zid.
**Noumen** – mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.
**Noosfera** – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.
**Obraz** – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.
**Okkultizm** – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlargina bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.
**Oppozisiya** - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.
**Panteizm** – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.
**Paradigma** – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.
**Passionar** – ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.
**Permanent** – doimiy, uzluksiz.
**Persepsiya** – idrok etish.
**Prognoz qilish** – bu maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni
**Rasionalizm** – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.
**Reduksionizm** – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.
**Relyativizm** – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.
**Refleksiya** – o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.
**Sakral** – muqaddas.
**Sensualizm** – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'nalish.
**Simvol** – biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.
**Sinkretizm** - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.
**Skeptisizm** – inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e'lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.
**Stereotip** – ko'pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.
**Substansiya** – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.
**Ssiyentizm** – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.
**Tabu** – biron-bir narsa, harakat, so'zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.
**Teologiya** – diniy ta'limotlar tizimi.
**Teosentrizm** – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnogen** – texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

**Texnokratik** – texnikani birinchi o'ringa qo'yuvchi.

**Texnooptimizm** – turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko'rsatuvchi falsafiy yondashuv.

**Texnopessimizm** – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e'lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

**Texnotron jamiyat** – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

**Transsendental** – o'ta umumiy.

**Universum** – yagona Olam, yaxlit dunyo.

**Xususiy muammolar** davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir

**Fauna** – barcha turdagi hayvonlar majmui.

**Faoliyat atributlari (xossalari)** faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo subyektlilik va moddiylik qayd etiladi.

**Fenomen** – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

**Fenomenologiya** – bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

**Flora** – o'simliklar dunyosi.

**Fluktuasiya** – o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

**Futurologiya** – kelajak haqidagi fan.

**Fundamental globallashuv** dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi.

**Evolyusion epistemologiya** – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

**Evristik** – ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

**Egalitarizm** – umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

**Ekzistensializm** – diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo'nalish.

**Ekologiya** – jonli mavjudotlarning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fan.

**Ekologik muammo** – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

**Ekologik tanglik** – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

**Eksplikasiya** – u yoki bu predmet (yoki madaniyat obyekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

**Ekspertiza usulida baholash-** bu ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi yetakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish va so'ngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat

E**kopessimizm -** asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan hol.

**Ekstravertiv** – sirtga qaratilgan.

**Ekstrapolyasiya metodlari** - qonuniyatlari o'tmishda va hozirgi davrda yaxshi ma'lum bo'lgan tendensiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanadi.

**Empirizm** – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

**Empirik** – tajribada ko'rilgan.

**Etimologiya** – u yoki bu so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

**Epistemologiya** – bilish haqidagi falsafiy ta'limot.

**Etnogenez –** xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

**O'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish** – o'zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

**Qidiruv prognozi –** ijtimoiy obyektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun tuziladigan prognoz.